

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
DAVLAT SOLIQ QO‘MITASI HUZURIDAGI
FISKAL INSTITUT**

**TOSHMATOV SHUXRAT AMONOVICH
G‘IYOSOV AZIZBEK A‘ZAMOVICH
GIYASOV SARVAR A‘ZAMOVICH**

SOLIQ NAZARIYASI VA TARIXI

O‘quv qo‘llanma

*O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi
Fiskal instituti Kengashining 2021 yil 30 iyuldagi 04/4-sonli yig‘ilish
qarori bilan o‘quv qo‘llanma sifatida tavsiya etilgan*

TOSHKENT - 2021

Taqrizchilar:

K.P. Xotamov - Toshkent moliya instituti «Buxgalteriya hisobi» kafedrası professori, i.f.d.

T.X. Abdibaeva - Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Fiskal institut «Buxgalteriya hisobi va audit» kafedrası dotsenti, i.f.n.

Soliq nazariyasi va tarixi. O‘quv qo‘llanma. Sh.Toshmatov, A.G‘iyosov, S.Giyosov; -T.; “Iqtisod va moliya” 2021.-289-b.

O‘quv qo‘llanma Davlat ta‘lim standartlari talablari va «Soliq nazariyasi va tarixi» fani o‘quv dasturi asosida tayyorlangan bo‘lib, 60410200 -«Soliqlar va soliqqa tortish» (faoliyat turlari bo‘yicha) bakalavriat ta‘lim yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalar uchun mo‘ljallangan.

Ushbu o‘quv qo‘llanmada soliqlarning rivojlanish tarixi, bosqichlari va o‘ziga xos xususiyatlari, iqtisodiy-ijtimoiy mohiyati, belgilari, obyektiv zarurligi, soliq elementlari va funksiyalari, soliqqa tortish tamoyillari, soliqqa oid qonun hujjatlari, soliq siyosati, soliq tizimi va soliqqa tortishning boshqa masalalari yoritilgan.

Mazkur o‘quv qo‘llanma 60410200 - «Soliqlar va soliqqa tortish» (faoliyat turlari bo‘yicha) ta‘lim yo‘nalishi talabalari uchun «Soliq nazariyasi va tarixi» fanidan o‘quv qo‘llanma sifatida tavsiya etiladi. Shuningdek ushbu o‘quv qo‘llanmadan hududiy davlat soliq xizmati organlari xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirishda ham foydalanish mumkin.

*O‘quv qo‘llanma O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi
Fiskal instituti Kengashining 2021 yil 30 iyuldagi 04/4-sonli yig‘ilish
qarori bilan nashrga tavsiya etilgan*

Mazkur o‘quv qo‘llanma O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligining 2021 yil 23 noyabrdagi 500-sonli buyrug‘i bilan “Soliqlar va soliqqa tortish” bakalavriat ta‘lim yo‘nalishi talabalari uchun asosiy o‘quv qo‘llanmalar sifatida foydalanishga hamda № 500-336-sonli guvohnomalari asosida nashrga tavsiya etilgan.

MUNDARIJA

KIRISH	5
1-BOB. «SOLIQ NAZARIYASI VA TARIXI» FANINING PREDMETI, MAZMUNI VA UNI O‘RGANISH USULLARI	7
1.1.Fanning mohiyati va uni o‘rganish usullari	7
1.2.«Soliq nazariyasi va tarixi» ijtimoiy-iqtisodiy fan sifatida boshqa fanlar bilan o‘zaro bog‘liqligi	10
<i>Nazorat savollari</i>	14
2-BOB. SOLIQLARNING VUJUDGA KELISHI VA RIVOJLANISH TARIXI	15
2.1.Soliqlar va soliqqa tortish munosabatlarining vujudga kelishi	15
2.2.Soliqlarning tarixi va rivojlanish bosqichlari	18
2.3.Markaziy Osiyoda soliqlarning paydo bo‘lishi va rivojlanishi	20
2.4.Amir Temur va temuriylar davlatchiligida soliqlar va soliqqa tortish tartiblari	26
2.5.Xonliklar davridagi soliqlar	31
2.6.Chor Rossiyasi va sobiq ittifoq davrida soliqlarga bo‘lgan yondashuv	37
<i>Nazorat savollari</i>	41
3-BOB. SOLIQLAR VA SOLIQQA TORTISHGA OID ILMIY QARASHLAR HAMDA NAZARIYALAR	42
3.1.Soliqlarga oid g‘oyalar ilk qarashlar	42
3.2.Soliqqa tortishning umumiy nazariyalari	45
3.3.Soliqqa tortishning xususiy nazariyalari	59
<i>Nazorat savollari</i>	67
4-BOB. SOLIQLARNING IQTISODIY MOHIYATI VA TAMOYILLARI	68
4.1.Soliqlarning iqtisodiy mohiyati va obyektiv zarurligi	68
4.2.Soliqlarning funksiyalari va tasniflanishi	75
4.3.Soliqqa tortish tamoyillari	82
<i>Nazorat savollari</i>	93
5-BOB. SOLIQ QONUNCHILIGI ASOSLARI	94
5.1. Soliq to‘g‘risidagi qonunlar va qonun osti hujjatlari	94
5.2. O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi	100
5.3. Davlat byudjeti to‘g‘risidagi qonunlar	105
5.4.Xalqaro shartnomalar	108
<i>Nazorat savollari</i>	111
6-BOB. SOLIQ ELEMENTLARI VA ULARNING TAVSIFI	112
6.1.Soliqlarning elementlari va ularning mohiyati	112
6.2.Soliq solish obyekti, bazasi, stavkasi, davri va soliqni hisoblab chiqarish tartibi	113
6.3.Soliq hisobotini taqdim etish tartibi va soliqni to‘lash tartibi	120
6.4.Soliqni belgilashda soliq imtiyozlari va ularning qo‘llanilishi	125
<i>Nazorat savollari</i>	132
7-BOB. SOLIQ MUNOSABATLARINING SUB‘EKTLARI, ULARNING HUQUQLARI VA MAJBURIYATLARI	133
7.1.Soliq to‘lovchilarning huquq va majburiyatlari	133
7.2.Soliq to‘lovchilar konsolidatsiyalashgan guruhi ishtirokchilarining huquq va majburiyatlari	137
7.3.Soliq to‘lovchilarning vakillari va soliq agentlari	144
7.4.Soliq organlarining huquqlari va majburiyatlari	147
<i>Nazorat savollari</i>	151

8-BOB. SOLIQQA OID HUQUQBUZARLIKLAR VA JAVOBGARLIKNING UMUMIY QOIDALARI	152
8.1.Soliqqa oid huquqbuzarlik tushunchasi, ularning turlari va javobgarlikka tortishning umumiy shartlari	152
8.2.Javobgarlikka tortishni istisno etuvchi, javobgarlikni yengillashtiruvchi va og'irlashtiruvchi holatlar	154
8.3.Soliqqa oid huquqbuzarlik sodir etilganda ayb shakllari va aybini istisno qiluvchi holatlar	157
8.4.Soliqqa oid huquqbuzarliklarni sodir etganlik uchun javobgarlik choralari	158
<i>Nazorat savollari</i>	163
9-BOB. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOLIQ TIZIMI VA UNING SHAKLLANISHINING NAZARIY ASOSLARI	164
9.1.Soliq tizimi mohiyati va uni guruhlash tartibi	164
9.2.Soliqlar tizimi tasnifi	188
9.3.Respublika va mahalliy byudjetga tushadigan soliqlar	192
9.4.Maxsus soliq rejimlari	196
<i>Nazorat savollari</i>	199
10-BOB. SOLIQLAR VA MAKROIQTISODIY HOLATNING UZVIY BOG‘LIQLIGI	200
10.1.Makro va mikrodarajada soliq yukini aniqlash tartibi va xususiyatlari	200
10.2.A.Laffer egri chizig‘i va uning elastikligi	207
10.3.Soliqlarning yalpi talab va yalpi taklifga ta’siri	211
10.4.Soliqlar va investitsiyalarning o‘zaro bog‘liqligi	217
<i>Nazorat savollari</i>	222
11-BOB.DAVLAT SOLIQ SIYOSATI	223
11.1.Soliq siyosati tushunchasining mohiyati, maqsadi va vazifalari	223
11.2.Soliq siyosatini amalga oshirishda fiskal, hokimiyat va boshqa organlarining roli	228
11.3.Soliq siyosati konsepsiyasi, strategiyasi va ustuvor yo‘nalishlari	229
11.4.Soliq siyosatining ustuvor yo‘nalishlari	231
<i>Nazorat savollari</i>	232
12-BOB. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA SOLIQ ISHINI TASHKIL ETISH VA BOSHQARISH ASOSLARI	233
12.1.Soliq organlari faoliyatining tashkiliy-huquqiy asoslari	233
12.2.Davlat soliq xizmati organlarida xizmatni o‘tash tartibi	243
12.3.Soliq xizmati idoralarining boshqa muassasalar bilan munosabatlari	259
12.4. “Soliqchi-tadbirkorga ko‘makchi” tizimi	266
<i>Nazorat savollari</i>	269
GLOSSARIY	270
MAVZULARNI O‘ZLASHTIRISH UCHUN TEST SAVOLLARI	274
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI	287

*Soliqlarni yo‘q qilishni talab qilish –
jamiyat o‘zini yo‘q qilish demakdir.
Agar fuqarolar davlat uchun hech narsa qilmasa,
davlat ham fuqarolar uchun hech narsa qila olmaydi.
N.I.Turgenev.*

K i r i s h

Odamlarning yakka holda o‘z ehtiyojlarini qondirish va xavfsizligini ta‘minlash imkoniyatidan mahrum bo‘lganlaridan boshlab soliqlarning dastlabki ko‘rinishlari paydo bo‘lib boshlagan. Odamzod paydo bo‘lgandan boshlab yakka holda yashamaganligidan xulosa chiqarish mumkinki, soliqlarning vujudga kelish tarixi insoniyatning paydo bo‘lishi tarixi bilan chambarchas bog‘liqdir. To‘g‘ri, ilk davrlarda soliqlar aniq usullar yoki prinsiplar asosida undirilmagan bo‘lsa-da, lekin ovdan tushgan o‘ljalarni xayriya, qurbonlik sifatida bir-birlariga ulashishlar holida, juda sodda shaklda namoyon bo‘lgan.

“Odamzodning tabiiy yoki yovvoyi holatida soliqqa ehtiyoj bo‘lgan emas. Dastlab bitta, keyin bir necha to‘dalardan jamoa (jamiyat)ning tarkib topishi, odamlar o‘rtasida jamiyat foydasiga yakka tartibda (xususiy) qurbonlik, xayriya qilishni tasdiqlab qo‘ydi. Bu qurbonliklar boshida oddiy yumushlar yoki mevalarning bir qismini berish tarzida bo‘lgan bo‘lsa, keyinchalik jamiyatning takomillashib borgani sayin, ular ham mukammallashib (murakkablashib – muallifdan) bordi va hozirgi holatga yetib keldi”¹.

Darhaqiqat, davlatchilik rivojlanib borgan sari soliqlarga qo‘yilgan talablar ham, soliq elementlari tizimi ham takomillashib bordi. Davlatchilik paydo bo‘lgan ilk davrlarda soliqlardan faqatgina davlat daromadlarini shakllantirishning muhim va doimiy manbai sifatida foydalanilgan bo‘lsa, hozirga kelib soliqlar iqtisodiyotni boshqarishning asosiy unsuri bo‘lib xizmat qilmoqda. Shu bilan birga rivojlangan davlatlarda soliqlardan tashqari budget daromadlarini shakllantirishning boshqa muqobil manbalaridan ham keng foydalanilmoqda. Masalan, Yaponiyada davlat budjeti daromadlarini 60 foizga yaqin qismigina soliqlar yordamida shakllantirilsa, qolgan qismi soliqsiz to‘lovlar hisobidan shakllantiriladi.

¹ N.Turgenev. O‘piti‘ teorii nalogov’. Sankt-Peterburg. Tipografiya N.Grecha. 1818 g. S.34. Kopiya pdf v Harvard college library. www.books.google.com

Rivojlangan davlatlar tajribasining ko'rsatishicha, iqtisodiy taraqqiyotga erishishning va barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashning eng samarali usullaridan biri sifatida xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatini erkinlashtirish, raqobat muhitini yaratish va tadbirkorlikni rivojlantirish e'tirof etilgan. Buning uchun davlat o'zining qo'lida bo'lgan eng muhim instrumentlardan biri hisoblangan soliqlardan oqilona foydalanadi.

Hozirda mamlakatimizda kechayotgan iqtisodiyotni raqamlashtirish va innovatsion rivojlantirish sharoitida soliq tizimi oldida respublikamizda mazkur yo'naligshlarni rivojlantirish bilan bir qatorda, davlat budjeti daromadlarining barqarorligini ta'minlash hamda ustuvor yo'nalishdagi iqtisodiy faoliyatni rag'batlantirish vazifasi turibdi.

Mazkur o'quv qo'llanma soliqlarning iqtisodiy mohiyati hamda iqtisodiyotni tartibga solishdagi nazariy asoslari va mamlakatimiz soliqqa tortish tizimining amaliy jihatlariga bag'ishlangan bo'lib, jami 12 bobdan iborat, dastlabki boblarida soliqlarning paydo bo'lish tarixi, iqtisodiy mohiyati, funksiyalari va elementlari hamda soliqqa tortish nazariyalari, shuningdek respublikamizda soliqqa tortish tizimining rivojlanish bosqichlari yoritilgan. O'quv qo'llanmaning keyingi boblarida soliqqa oid huquqbuzarliklar va javobgarlikning umumiy qoidalari, soliqlar va makroiqtisodiy holatning uzviy bog'liqligi, Davlat soliq siyosati hamda O'zbekiston Respublikasida soliq ishini tashkil etish va boshqarish asoslari bayon qilingan.

Yuqoridagilar bilan birgalikda "Soliq nazariyasi va tarixi" o'quv qo'llanmasida test topshiriqlari va glossariy ham keltirib o'tilgan bo'lib, ular o'z navbatida talabalarning zaruriy va zamonaviy bilim olishlariga xizmat qiladi.

Mazkur o'quv qo'llanma 60410200 -«Soliqlar va soliqqa tortish» (faoliyat turlari bo'yicha) ta'lim yo'nalishi talabalari uchun «Soliq nazariyasi va tarixi» fanidan o'quv qo'llanma sifatida tavsiya etiladi. Shuningdek ushbu o'quv qo'llanmadan hududiy davlat soliq xizmati organlari xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirishda ham foydalanish mumkin.

1-BOB. «SOLIQ NAZARIYASI VA TARIXI» FANINING PREDMETI, MAZMUNI VA UNI O‘RGANISH USULLARI

1.1. Fanning mohiyati va uni o‘rganish usullari

Soliq bo‘yicha to‘plangan nazariy va tarixiy meros nafaqat soliq fanlarini o‘rganish, balki bu sohadagi qonunchilikni, soliq siyosatini ishlab chiqish va davlat soliq tizimini qurishning metodologik asosi hisoblanadi.

O‘zbekiston soliq tizimini shakllantirishning hozirgi bosqichida soliqlar va soliqqa tortish bo‘yicha mutaxassislarini yuqori sifatli tayyorlash oson ish emas.

Bugungi kunda, u yoki bu soliqlarning to‘lash tartibi va tuzilmasi xususiyatlari, rivojlangan mamlakatlarda soliq tizimlari shakllanishining tarixiy tajribasi, O‘zbekistonning zamonaviy soliq tizimi shakllanishi, mamlakatda soliqqa tortish sohasida amalga oshirilayotgan soliq siyosati va islohotlar bo‘yicha amaliy jihatdan chuqur bilim olish yetarli emas. Eng avvalo soliqqa tortish nazariyasining zamonaviy qarashlari sohasidagi fundamental bilimlar majmuini egallash, bu fan sohasidagi mavjud muammolar haqida tanqidiy tushuncha hosil qilish zarur.

Jahonda soliq islohotlarining zamonaviy amaliyoti soliq nazariyasi va tarixini o‘rganishning tarixiy jihatini bilish zarurligi va dolzarbligini tasdiqlaydigan ko‘plab misollar keltiradi. O‘zbekiston Respublikasida soliq islohoti amaliyoti ham tarixni bilish zarurligi haqidagi tezisning to‘g‘riligini to‘la tasdiqlaydi. Soliq tarixini o‘rganish moliyaviy amaliyot nazariyaga qanday muammolar tug‘dirganini, nazariya esa tahlil va umumlashtirilgan amaliyotni, davlatning amaliy moliyaviy faoliyati uchun qanday taklif va tavsiyalar shakllanganligini kuzatish imkonini beradi.

Mazkur fanining mazmuni kasbiy yo‘naltirilgan bo‘lib, bitiruvchilarning keyingi professional faoliyatlarida vazifalarni amalga oshirishga ko‘maklashadi.

«Soliq nazariyasi va tarixi» fanini o‘rganish nafaqat yuqori malakali mutaxassisni shakllantirishda, balki mamlakatda iqtisodiy tizimni isloh qilish paytida yuzaga keladigan iqtisodiy muammolarni tushunishda ham katta ahamiyatga ega.

«Soliq nazariyasi va tarixi» fanini oʻrganish davomida olingan bilimlar talabalarning iqtisodiy saviyalarini kengaytirish uchun xizmat qiladi. Mazkur fan amaliy iqtisodiy fanlarni oʻrganishning zamonaviy nazariy asoslarini kengaytirish uchun moʻljallangan.

«Soliq nazariyasi va tarixi» fanining boshqa fanlar singari oʻziga xos predmeti, maqsadi va vazifalari mavjud. «Soliq nazariyasi va tarixi» fanining predmeti soliq munosabatlari, shu jumladan soliq voqeliklarida pul munosabatlarini oʻrganishdan iborat boʻladi. Pul munosabatlari bu - soliq toʻlovchilar bilan soliqni oʻz mulkiga aylantiruvchi davlat oʻrtasidagi munosabatlardir.

Fanning mohiyati shu oʻrtadagi munosabatlarni kelib chiqish tarixi va rivojlanishi, ijtimoiy-iqtisodiy jihatlari va soliqqa tortish nazariyalarini chuqur oʻrganish orqali soliq munosabatlarini toʻgʻri tashkil qilishni taʼminlashdir. Toʻgʻri tashkil etish - deganda soliq munosabatida qatnashuvchi tomonlarning iqtisodiy manfaatini eʼtiborga olish, muvozanatni saqlash kabi munosabatlarni tashkil qilish tushuniladi. Bu muvozanatni saqlashda tomonlar adolatlik va insoflik tamoyillariga amal qilishi zarur.

Fanni oʻqitishdan maqsad - soliqlarning kelib chiqishi va rivojlanish tarixi, iqtisodiy-ijtimoiy mohiyati, belgilari, obyektiv zarurligi, soliq elementlari, soliqlarning funksiyalari hamda soliqqa tortish tamoyillari va nazariyalari, shuningdek soliq siyosati va soliq tizimi haqida bilim, koʻnikma va malaka shakllantirishdan iborat.

Fanning asosiy vazifalari quyidagilarni oʻz ichiga oladi:

- talabalarni soliqlarning paydo boʻlishi va rivojlanish tarixi, soliqlar va soliqqa tortishga doir ilmiy qarashlar hamda nazariyalar bilan tanishtirish;
- soliqlarning iqtisodiy mohiyati, xususiyatlari, obyektiv zarurligini oʻrganish;
- soliqqa tortish tamoyillari, soliq elementlari va funksiyalarining mazmunini oʻzlashtirish;

- soliq tizimining shakllanish va rivojlanishi bo‘yicha nazariy bilimlarini shakllantirish;
- soliqqa tortishning umumiy va xususiy nazariyalari o‘rganish;
- soliqlarning mamlakatdagi makroiqtisodiy holatga hamda iqtisodiy o‘rinishga ta‘sirini tahlil qilish;
- soliq siyosatini amalga oshirishning nazariy asoslari, soliq konsepsiyasi va strategiyasini o‘rganish.

«Soliq nazariyasi va tarixi» fani soliqlarning kelib chiqishi va rivojlanishiga oid tarixiy-nazariy qoidalarni o‘z ichiga olgan holda, soliqlarning funksiyalari va iqtisodiy mazmuni, soliqqa tortish tamoyillari va elementlari, davlat soliq siyosatining nazariy asoslari hamda asosiy ustuvor yo‘nalishlarini o‘rganadi.

Ilm-fan metodologiyasi deyilganda, uni bilish va o‘rganish faoliyatining shakllari va usullari majmuasi tushuniladi. Shu fan bo‘yicha masalani o‘rtaga tashlash, tadqiqot mavzusi va ilmiy nazariyani shakllantirish, shuningdek, aniqlangan natijaning haqiqiyliги, ya‘ni o‘rganilayotgan obyektga muvofiqligi jihatidan tekshirish metodologiyani qo‘llashning eng muhim tomoni hisoblanadi. Demak, metodologiya – bu tadqiqot yoki bilish, anglash yo‘li, voqelikni amaliy va nazariy o‘zlashtirish usullari majmuasidir.

«Soliq nazariyasi va tarixi» fanining nazariy, metodologik asosini soliqlarning vujudga kelishi va rivojlanish muammolari bo‘yicha hozirgi nazariya, mahalliy hamda xorijiy mamlakatlarda iqtisodchi olim va mutaxassislarining ilmiy asarlari, soliqqa oid qonun hujjatlari tashkil etadi.

Fanining eng muhim muammolarini o‘rganishda quyidagi bir qator aniq usullardan foydalaniladi. Bular jumlasiga mushohada, abstrakt tafakkur, induksiya va deduksiya, analiz va sintez, monografik usul, statistik usullar (sifat va miqdor, indeks, guruhlash, balanslik va u bilan bog‘liq bo‘lgan normativ usul, ehtimollar), iqtisodiy matematik modellashtirish, optimallashtirish, muvozanatni aniqlash, «aqliy hujum», tajribaviy usullar kiradi.

Fanining barcha masalalarini yuqorida keltirilgan va boshqa bir qator usullar yordamida o‘rganish, tahlil qilish bu fanni o‘rganuvchilarning va uning

muammolari yechimini hal etuvchilarning bilish va ilmiy salohiyatini kuchaytiradi, aqliy zakovatini boyitadi.

Tabiat, jamiyat va tafakkurning rivojlanish qonunlarini o'rganishning birdan-bir to'g'ri ilmiy usuli dialektik usuldir. Shuning uchun, ham ushbu ilmiy bilish usuli barcha fanlarning, shu jumladan «Soliq nazariyasi va tarixi» fanining ham nazariy va metodologik asosini tashkil etadi. Dialektik usul shuni ko'rsatadiki, rivojlanish quyidan yuqoriga qarab sodir bo'ladi. Bilish esa oddiydan murakkabga tomon rivoj topib boradi. Shuning uchun, ushbu usul tadqiqotning induksiya va deduksiya usullarini o'z ichiga oladi.

Xususiy, yakka fakt olinib, uning asosida umumiy qoida hosil qilinadigan bo'lsa – bu induksiya. Avval, boshdanoq barcha xususiy hollarni o'z ichiga olgan umumiy qoida hosil qilinsa bu - deduksiya.

Shu bilan, birga barcha iqtisodiy fanlar kabi «Soliq nazariyasi va tarixi» fanining ham o'ziga xos ilmiy bilish usullari mavjud. Ulardan biri ilmiy abstraksiya usulidir. Ilmiy abstraksiya usulining mohiyati shundan iboratki, bunda tahlil paytida obyektning faqat bir tomoniga, o'rganilayotgan jarayonning asl mohiyatiga e'tibor qaratiladi va halal berishi mumkin bo'lgan ikkinchi darajali unsurlarning ta'siri e'tiborga olinmaydi.

«Soliq nazariyasi va tarixi» fani shuningdek, o'z predmetini o'rganishda nazariy tahlil va sintez usulidan ham foydalanadi. Tahlil - bu o'rganilayotgan butun obyektни qismlarga ajratish va ularni izchillik bilan tahlil qilish, bo'lsa, sintez esa, o'rganilgan qismlardan olingan xulosa va natijalarni bir butun yaxlit jarayon deb qarab, umumiy xulosa chiqarishdir.

1.2. «Soliq nazariyasi va tarixi» ijtimoiy-iqtisodiy fan sifatida boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligi

Soliqlarning amal qilishi bu obyektivlikdir, chunki jamiyatni tashkil etuvchi individlarning hammasi ham real sektorda (ishlab chiqarish sohasida) faoliyat ko'rsatmaydi. Jamiyatda boshqalar tomonidan rad etilgan yoki shug'ullanish iqtisodiy samarasiz bo'lgan sohalar ham mavjudki, bular soliqlarni obyektiv amal

qilishini talab etadi. Aniqroq qilib aytganda jamiyatni norentabel (mudofaa, meditsina, fan, maorif, madaniyat va boshqalar) va rentabel sohaga ajralishi hamda norentabel sohani moliyalashtirishning tabiiy zarurati soliqlarni obyektiv amal qilishini zarur qilib qo'yadi, norentabel sohaning ijtimoiy xizmatlari asosan davlat tomonidan amalga oshiriladiki, ularni moliyalashtirish usuli sifatida yuzaga chiquvchi soliqlar ham shu tufayli bevosita davlatga tegishli bo'ladi.

Soliqlarning obyektiv zarurligini bozor iqtisodiyoti sharoitida ikki holat: birinchidan, davlatning qator vazifalarini mablag' bilan ta'minlash zarurligi, ikkinchidan, bozor iqtisodiyoti qonun-qoidalari bilan ifodalash mumkin.

Davlatning bajaradigan funksiyalari va vazifalari ko'p bo'lib, bozor iqtisodiyoti rivojlana borishi bilan ba'zi ijtimoiy himoyalangan bozor munosabatlariga mos kelmaydigan vazifalar yo'qola borsa, yangi vazifalar paydo bo'la boshlaydi. Bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida davlatning yangi vazifalari paydo bo'ladi. Bularga respublikamizda kam ta'minlanganlarga ijtimoiy yordam ko'rsatish, bozor iqtisodiyoti infratuzilmasini (sanoatda, qishloq xo'jaligida, moliya tizimida) tashkil qilish kiradi. Shu yerda davlat kuchli ijtimoiy – siyosiy tadbirlarni amalga oshirish uchun pensionerlar, nafaqaxo'rlar, talabalar, ko'p bolali onalar va boshqalarni ko'proq mablag' bilan ta'minlash zarurligini anglab cheklangan tovarlar bahosidagi farqni budjet hisobidan qoplaydi va ularga boshqa xarajatlarni davlat hisobidan amalga oshiradi, mahallalarda kam ta'minlanganlarga moddiy yordamlar tashkil etadi.

Shu bilan birga, O'zbekiston davlati jamiyat a'zolari osoyishtaligini saqlash maqsadida o'zining mudofaa qobiliyatini saqlab va mustahkamlab turishga, texnika va o'q-dorilarga ham mablag'lar sarflaydi, qolaversa, davlat fuqarolar xavfsizligini saqlash, mamlakatda tartib intizom o'rnatish, uni boshqarish funksiyalarini bajarish uchun ham ko'plab mablag' yo'naltirishga majbur. Bunday xarajatlarni amalga oshirishning majburiyiligi ular uchun manba bo'lgan soliqlarni ham obyektiv zarur qilib qo'yadi.

Qayd etish lozimki, hozirga qadar davlatning funksiyalarini bajarish uchun lozim bo'lgan moliyaviy mablag'larni shakllantirishning soliqlardan boshqa usuli

jahon amaliyotida qoʻllanilgan emas. Demak, hukmron kuch sifatida davlat mavjud ekan, moliyalashtirish usuli sifatida soliqlar ham amal qiladi. Maʼlumki, jamiyat iqtisodiy hayoti juda murakkab iqtisodiy hodisalardan iborat. Ana shu murakkablik bevosita soliq'larga ham tegishli, bu holat soliq'larning iqtisodiy mohiyatini teran anglashni taqozo etadi.

Soliqlar majburiy toʻlovlarni ifoda etuvchi pul munosabatlarini bildiradi. Bu munosabatlar soliq toʻlovchilar (yuridik va jismoniy shaxslar) bilan ularni oʻz mulkiga aylantiruvchi davlat oʻrtasida boʻladi. Korxonalar va tashkilotlar aholiga xizmat koʻrsatganda, ishlar bajargan yoki bozorlarda oldi-sotdi qilish jarayonida pul munosabatlarini hosil qiladi. Lekin ular soliq boʻla olmaydi, soliq munosabati boʻlishi uchun davlat mamlakatda yaratilgan mahsulot qiymatini taqsimlash yoʻli bilan davlat budjetiga majburiy tartibda toʻlanishi yoki undirilishi lozim. Davlat uchun budjetning asosiy manbai hisoblangan soliqlar katta ahamiyatga ega.

Soliqlar, yigʻimlar, bojlar va boshqa toʻlovlar hisobiga davlat moliyaviy resurslari tashkil topadi. Davlat faoliyatining barcha yoʻnalishlarini mablagʻ bilan taʼminlashning asosiy manbalaridan biri va davlat ustuvorligini amalga oshirishning iqtisodiy vositasi soliqlardir. Soliq tizimini tartibga solish va mukammallashtirish samarali davlat iqtisodiy siyosatini olib borishga, xususan, moliyaviy tizimni rivojlantirishga yordam beradi. Iqtisodiyotni davlat tomonidan soliqlar orqali tartibga solish, davlat budjetini shakllantirish, soliq solish vositasida jamiyatdagi u yoki bu jarayonlarning rivojlanishiga taʼsir etuvchi usuli hisoblanadi. Shunday qilib, davlatning mavjudligi soliqlar bilan uzviy bogʻliq, chunki soliqdan tushadigan tushumlar davlat iqtisodiy mustaqilligining bosh manbaidir.

Davlat soliqlarni davlat budjetini shakllantirish uchun amalga kiritadi, soliqlar birorta aniq xarajatlarni qoplash maqsadiga ega emas, bu ayrim turdagi daromadlardan tushadigan tushumlardan amalga oshiriladigan xarajatlar ularga bogʻliq boʻlib qolishining oldini olish zarurati bilan asoslangan. Biroq bir qancha hollarda umumiy soliqlar bilan birga maqsadli soliqlar ham belgilanadi, ularning amalga kiritilishi iqtisodiy faoliyatda ijobiy rol oʻynashi mumkin.

Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida soliq tizimi va soliq qonunchiligidagi o'zgarishlar va yangiliklarni to'laroq etkazib berish talablaridan kelib chiqqan holda amaldagi soliq tizimini tahlil qilib, uni yanada soddalashtirish, soliqqa tortishning kamarali tartiblarini amaliyotga tatbiq etish, davlat soliq xizmati organlarining soliq to'lovchi jicmoniy va yuridik shaxclar oldidagi muhim vazifalari jumlaciga kiradi.

Bu fanni o'qitishning zarurligi iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan qayta tashkil etishda soliq munosabatlarining ahamiyati o'sib borayotganligidan kelib chiqadi.

«Soliq nazariyasi va tarixi» fanining soliq voqeliklarini (harakatlarini) chuqur o'rganish asosida zaruriy xulosalar chiqarib, ularni amaliyotga tatbiq etish yo'llarini o'rgatadi.

Nazariya voqeliklarni amaliyotdan oladi va eng to'g'ri, maqbul va ilg'or tajribalar olinib amaliyotga tatbiq etish uchun o'rgatiladi.

Demak, nazariya amaliyot uchun kerak va amaliyot uchun kompas, barometr, yo'l boshlovchi vazifasini bajaradi. Nazariyasiz amaliyot yo'ldan adashgan yo'lovchidir. Nazariyani chuqur bilgan amaliyotchi har qanday o'zgarishlarda ham ishlab keta oladi va yo'ldan adashmaydi.

Fanni o'qitishning zarurligi amaliyotda yo'ldan adashmaslik, keraksiz soliqlar bo'yicha o'zgartishlarga yo'l qo'yimaslik, amaliyotda istiqbolli qadamlar tashlash va katta muvaffaqiyatlarga erishish uchun ham zarurdir.

«Soliq nazariyasi va tarixi» fani soliqlar va soliqqa tortish bo'yicha mutaxassislikning asosi hisoblanib, yuridik va jismoniy shaxslarni soliqqa tortish, soliq ma'murchiligi, soliq nazoratini tashkil etish asoslari, soliqqa tortishda prognozlash va rejalashtirish hamda soliq qarzini undirish fanlari bilan chambarchas bog'liqdir. Chunki soliq nazariyasi qonuniyatlari umumiy iqtisodiy nazariya qonuniyatlaridan chetga chiqib keta olmaydi, ularga asoslanadi va rivojlantiriladi.

Soliq munosabatlari moliya munosabatlarining tarkibiy qismi bo'lganligi bois moliya nazariyasi fani bilan ham chambarchas bog'liq. «Soliq nazariyasi va tarixi»

fanining o'ziga xos xususiyatlari soliq to'lovchilar bilan davlat o'rtasidagi majburiy xarakterga ega bo'lgan pul munosabatlarini o'rgatadi.

«Soliq nazariyasi va tarixi» fani soliqlar tarixda inson sivilizatsiyasi bilan birga rivojlanib, uning ajralmas qismiga aylangan. Soliqlarning iqtisodiy munosabatlarda asosiy o'ringa chiqishiga, avvalambor, davlatning shakllanishi, jamoalarning sinflarga bo'linishi, qadimgi ijtimoiy tuzumning vujudga kelishi hamda ularning ma'lum moliyaviy manbaga ehtiyoj sezishlari sabab bo'lganligi, shuningdek soliqlarning qachon paydo bo'lganligi haqida aniq ma'lumot tarixiy kitoblarda uchramasada, soliqlar tarixini yorituvchi manbalarning guvohlik berishicha, davlat paydo bo'lishi bilan soliqlar jamiyatdagi iqtisodiy munosabatlarning zaruriy bo'g'iniga aylangan va davlat tuzilishi shakllari rivojlanishi bilan bir vaqtda soliq tizimi ham doimo o'zgarib turganligi atroflicha qayd etilgan.

Soliqlar va soliq munosabatlariga doir bilimlarni o'rganishda bir qator iqtisodiy fanlarni ham o'rganish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Barcha iqtisodiy fanlar bir-birini to'ldirib boradi va o'rganish uslublarini osonlashtiradi. «Soliq nazariyasi va tarixi» fani «Iqtisodiyot nazariyasi», «Moliya», «Pul kredit va banklar» va boshqa iqtisodiy fanlar bilan birgalikda o'rganiladi.

Shu bilan birga, «Soliq nazariyasi va tarixi» fanini o'rganish soliqlar va soliqqa tortish, soliq ma'murchiligi, soliq huquqi va boshqa iqtisodiy-huquqiy fanlar bilan chambarchas bog'liqdir.

Nazorat savollari

1. «Soliq nazariyasi va tarixi» fanining maqsad va vazifalarini tushuntirib bering?
2. Fanni o'rganishda foydalaniladigan usullar haqida tushuncha bering?
3. Fanning predmeti va mazmunini qisqacha tushuntirib bering?
4. «Soliq nazariyasi va tarixi» fanini o'qitishning obyektiv zarurligi nimada?
5. «Soliq nazariyasi va tarixi» fani ijtimoiy-iqtisodiy fan ekanligini izohlab bering?
6. Fan qanday fanlar bilan o'zaro uzviy bog'liq holda o'rganiladi?

2-BOB. SOLIQLARNING VUJUDGA KELISHI VA RIVOJLANISH TARIXI

2.1. Soliqlar va soliqqa tortish munosabatlarining vujudga kelishi

Soliqlarning paydo bo'lishi, ularning ilk ko'rinishlari haqida aniq ma'lumotlarga ega bo'lish har bir ilm ahlini qiziqtirishi tabiiydir. Soliqlarning qachon paydo bo'lganligi haqida aniq ma'lumot tarixiy kitoblarda uchramasada, soliqlar tarixini yorituvchi manbalarning guvohlik berishicha, davlat paydo bo'lishi bilan soliqlar jamiyatdagi iqtisodiy munosabatlarning zurruriy bo'g'iniga aylangan. Davlat tuzilishi shakllari rivojlanishi bilan bir vaqtda soliq tizimi ham doimo o'zgarib turgan.

Odamlarning yakka holda o'z ehtiyojlarini qondirish va xavfsizligini ta'minlash imkoniyatidan mahrum bo'lganlaridan boshlab soliqlarning dastlabki ko'rinishlari paydo bo'lib boshlagan. Odamzod paydo bo'lgandan boshlab yakka holda yashamaganligidan xulosa chiqarish mumkinki, soliqlarning vujudga kelish tarixi insoniyatning paydo bo'lishi tarixi bilan chambarchas bog'liqdir. To'g'ri, ilk davrlarda soliqlar aniq usullar yoki prinsiplar asosida undirilmagan bo'lsa-da, lekin ovdan tushgan o'ljalarni xayriya, qurbonlik sifatida bir-birlariga ulashishlar holida, juda sodda shaklda namoyon bo'lgan. "Odamzodning tabiiy yoki yovvoyi holatida soliqqa ehtiyoj bo'lgan emas.

Dastlab bitta, keyin bir necha to'adalardan jamoa (jamiyat)ning tarkib topishi, odamlar o'rtasida jamiyat foydasiga yakka tartibda (xususiy) qurbonlik, xayriya qilishni tasdiqlab qo'ydi. Bu qurbonliklar boshida oddiy yumushlar yoki mevalarning bir qismini berish tarzida bo'lgan bo'lsa, keyinchalik jamiyatning takomillashib borgani sayin, ular ham mukammallashib (murakkablashib – muallifdan) bordi va hozirgi holatga yetib keldi"².

Dastlabki davrlarda aksariyat soliqlar vaqtinchalik xususiyatga ega bo'lib, ma'lum vaqt o'tgandan keyin bekor qilinadi yoki yangilar joriy etiladi. Soliqlarning davlat daromadi manbai sifatida xususiy mulk daxlsizligini

² Н.Тургенев. Опыт теории налоговъ. Санкт-Петербургъ. Типография Н.Греча. 1818 г. С.34. Копия pdf в Harvard college library. www.books.google.com.

ta'minlashga qaratilgan eng muhim qadamlar ilk bor Yevropada amalga oshirildi. Ushbu davrlarda soliqlarga fiskal jihatdan haddan tashqari erkinliklarning berilishi xususiy mulkchilikning daxlsizligiga zid keladi va davlat daromadlarining asosiy manbai sifatida favqulodda holatlardagina yangi soliqlar joriy etilishiga xalq vakillari ruxsati bilan yo'l qo'yilishi belgilandi.

Soliq to'g'risidagi ilmlar G'arbda hali taraqqiy etib ulgurmagan zamonlarda "Buyuk ajdodimiz Ahmad Al-Farg'oniy Misrda Nil daryosi suvi hajmining o'zgarishiga qarab, suvni barcha dehqonlar o'rtasida bir xil taqsimlash, suv bilan ta'minlash darajasining hosilga ta'siri va shular asosida soliq miqdorini adolatli o'rnatish g'oyasini ilgari surgan va hayotga joriy etgan. Bu insoniyat tarixida soliqqa tortish prinsiplarini ishlab chiqishga bo'lgan ilk jiddiy urinishlardan biri"³ bo'lganligini faxr ila tilga olishimiz kerak.

Soliqlarning paydo bo'lishi va rivojlanishi davlat moliyasining shakllanishi va rivojlanishi jarayonida soliq to'lovchilar mol-mulkining bir qismini majburiy ko'rinishda davlat xazinasiga o'zlashtirilishi sifatida undirish uzoq davrga borib taqaladi. Soliqlarning qachon paydo bo'lganligi haqida hech qanday aniq ma'lumot tarixiy kitoblarda uchramasada, lekin soliqlarning ilk ko'rinishi sifatida qurbonlik qilingan noz-ne'matlar e'tirof etiladi.

Buning xususiyati shundan iboratki, u majburiy bo'lmay ixtiyoriy tarzda amalga oshirilgandir. Qilingan qurbonliklar esa, kambag'allarga, nochorlarga, muhtojlarga ulashib berilgan. Keyinchalik joriy etilgan soliqlar esa, bevosita qabila hamda urug'lar o'rtasida davom yetib turgan urush-janjallarga bog'liqdir. Bunday soliqlar natura shaklida bo'lib, bir qabilani bosib olish yoki o'zini muhofaza qilish uchun safarbar etilgan.

Soliq munosabatlarning paydo bo'lishi soliq yoki haq to'lashni ta'minlovchi holatlar (soliq to'lovchi tomonidan daromad olish, jismoniy shaxs tomonidan mol-mulkni sotib olish va boshqalar) yuzaga kelishi bilan sodir bo'ladi.

³ Олимжонов О.О. Солиқ назариясини яратишда аждодларимиз хизматини тиклайлик // Иқтисодий тараққиётга эришишда солиқ сиёсатини янада такомиллаштириш йўллари: Республика илмий-амалий конференция материаллари. –Тошкент,ТМИ, 2006.– Б.14.

Soliqlar tarixda inson sivilizatsiyasi bilan birga rivojlanib, uning ajralmas qismi hisoblanadi. Soliqlarning iqtisodiy munosabatlarda asosiy o‘ringa chiqishiga avvalambor davlatning shakllanishi, jamoalarning sinflarga bo‘linishi, qadimgi ijtimoiy tuzumning vujudga kelishi hamda ularning ma’lum moliyaviy manbaga ehtiyoj sezishlari sabab bo‘lgan.

Ko‘plab kitoblarda iqtisodiy kurashlar doim siyosiy va tarixiy voqealarga ta’sir ko‘rsatganligini o‘qishimiz mumkin. Bunda ayniqsa boylar tomonidan kambag‘allarga zulm o‘tkazishlari, jamiyatdagi sinflar kurashi, bunga misol uchun yer egalari burjuaziya sinfi bilan kurashi va ushbu ikkila sinflar tomonidan kambag‘al dehqon va ishchilarni qanday ekspluatatsiya qilinganlari haqida ko‘plab yozishgan.

Bularning barchasi u yoki bu ma’noda to‘g‘ri. Xalqlar tarixida aholi ijtimoiy guruhlarining yaratilayotgan boyliklar taqsimoti uchun o‘zaro kurashi doimo siyosiy voqealarning asosi bo‘lgan. Biroq, biz shuni hisobga olishimiz kerakki, ishlar mohiyati faqatgina daromadlar va ish haqi savollariga olib kelmagan, balki anchagina kuchli va tez-tez bo‘ladigan kurashlar (tinch va notinch) soliqlar atrofida olib borilgan va ular tufayli tez-tez janjal-to‘polonlar avj olgan.

Bu haqda rus iqtisodchi olim N.I.Turgenev «Aynan soliq va moliyaviy tartibsizliklar hammasidan ko‘proq qo‘zg‘olonlar, inqiloblar va boshqa jamiyat iztiroblariga sabab bo‘lgan» deya bizga eslatadi. Angliyada XIII-asrdagi Hurriyatlar buyuk xartiyasi va parlamentarizmni tug‘ilishi voqealari, XIV-asrdagi Uot Tayler qo‘zg‘oloni, XVII-asrdagi ingliz inqilobi bevosita soliqlar bilan bog‘liq bo‘lgan voqealarni Turgenev misoliga keltirish mumkin.

«Soliqlar, aniqroq aytganda ahmaqona soliq tizimlari, tarixdan ko‘rinib turibdiki, niderlandlarni – Ispaniyadan, shveysariya–liklarni – Avstriyadan, frislandlarni – Daniyadan va nihoyat kazaklarni – Polshadan mustaqil bo‘lishlarida sabablardan biri bo‘lgan. Shuningdek bahslashlik kerakki, xalqdan mahoratsiz (tajribasiz) pul yig‘ish Lyuter reformatsiyasiga olib kelgan. Moliyaning parokandaligi, albatta fransuz inqilobiga sabab bo‘lmadi, lekin uning bo‘lishini osonlashtirdi va uning o‘tishiga sezirlarli ta’siri o‘tkazdi» deb yozgan.

2.2. Soliqlarning tarixi va rivojlanish bosqichlari

Soliqlar paydo bo'lishi va rivojlanishi jarayonida ularning shakllari ham o'zgarib kelmoqda. Agarda bugungi kunga kelib soliqlar asosan pul shaklida undirilayotgan bo'lsa, ular qadimda bir qancha ko'rinishlarda, jumladan, mehnat shaklida, natura shaklida undirilgan. Shu bilan birgalikda jamiyat iqtisodiy taraqqiyoti yuksalishiga mos ravishda soliqlarning pulli shaklda undirilishi ham tobora rivojlanib bordi.

Darhaqiqat, davlatchilik rivojlanib borgan sari soliqlarga qo'yilgan talablar ham, soliq elementlari tizimi ham takomillashib bordi. Davlatchilik paydo bo'lgan ilk davrlarda soliqlardan faqatgina davlat daromadlarini shakllantirishning muhim va doimiy manbai sifatida foydalanilgan bo'lsa, hozirga kelib soliqlar iqtisodiyotni boshqarishning asosiy unsuri bo'lib xizmat qilmoqda.

V.Pushkaryova soliqlar rivojlanish tarixini 3 bosqichga ajratib ko'rsatadi⁴. Ularning har biri u yoki bu xususiyatlari hamda afzalliklari bilan ajralib turadi.

Birinchi bosqichda soliqlarning rivojlanishi qadimgi va o'rta asrlar qishloq xo'jaligi tizimiga xos bo'lib, tartibsiz hamda asossizligi bilan ajralib turadi. Xuddi, shu davrda soliq mexanizmi undirilishi joriy etildi. Soliqlarning joriy etilishi davlatning paydo bo'lishi bilan bog'liq bo'lib, ularning amal qilishiga davlat apparatining shakllanishi, armiya, sud va ularning moliyaviy manbalar bilan ta'minlash zaruriyati, tovar ishlab chiqarishni yo'lga qo'yilishi kabi omillar sabab bo'lgan. Ilk soliqlar tizimsiz to'lovlar ko'rinishida bo'lib, ular natura shakliga ega bo'lgan. Aholi soliqlarni ekinlar hosilidan, savdo-sotiqdan hamda ovlagan hayvonlaridan to'laganlar. Urush vaqtida esa, qo'shimcha oziq-ovqat, kiyim-kechak, qurol- aslahalar etkazish, nochor bo'lsa askar sifatida qo'shimcha jalb etilgan.

Ikkinchi bosqichning o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, unda soliqlar davlat budjetini shakllantirishning asosiy manbasi sifatida ko'rilgan. Soliq obyektlarini aniqlash va soliqqa tortish qonun qoidalarini tartibga soluvchi ilk soliq

⁴ Pushkareva V. Istoriya finansovoy misli i politiki nalogov. Uchebnoe posobie. - M.: Infra-M, 1996. - str. 17.

tizimi yuzaga kelgan. To'g'ri va egri soliqlar ilk bor ajratilib, bu soliqlarning muhim va ahamiyatli jihatlari ochib berilgan. Soliqlar ichida asosiy o'rinni aksizlar egallagan. Bular qonuniy ravishda shahar darvozalarida mamlakatga kiritiluvchi yoki undan chiqariluvchi tovarlardan undirilib, barcha daromadlar va tushumlar soliqqa tortilgan.

Uchinchi bosqichning o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, unda soliqlarning kamayishi hamda soliqlarni o'rnatish va undirishga oid qonun-hujjatlarning kuchayishi yaqqol ko'zga tashlanadi. Jamiyatda moliya ilmining rivojlanishi bilan soliqqa tortish muammolari va uslubiyatlariga bag'ishlangan yangi-yangi ilmiy-nazariy qarashlar vujudga keldi. Ammo hech qanday iqtisodiy maktab soliqlarning fiskal funksiyasidan muhimroq qarashni ilgari sura olmadi. XIX asrning ikkinchi yarmida ko'p mamlakatlar yangi ilmiy nazariyalarni hayotga tatbiq etishga uringanlar, lekin faqatgina birinchi jahon urushidan so'ng yangi ilmiy qarashlarning samarasi o'laroq soliq tamoyillari hozirgi mukammal ko'rinishga ega bo'lgan. Ayni shu vaqtda zamonaviy soliq tizimining poydevori qurila boshlandi, to'g'ri soliqlarning ahamiyati ilmiy jihatdan asoslab berildi hamda budjet daromadlari ulushining katta qismini to'ldiruvchi jismoniy shaxslarning daromadiga solinadigan soliqlarni progressiv stavkalari joriy etildi.

Demak, soliq munosabatlari rivojlanishini uch bosqichga ajratib o'rganish mumkin:

Birinchi bosqich tartibsiz va tizimsiz soliq munosabatlarini o'z ichiga oladi. Ushbu bosqichning asosiy xususiyatlari sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

- a) birinchi bosqich qadimgi va o'rta asrlarga xosligi;
- b) soliq munosabatlari tartibsiz hamda asossiz bo'lgan;
- v) soliqlar tizimsiz to'lovlar ko'rinishida amal qilgan;
- g) soliqlar asosan natura shaklida undirilgan;
- d) soliqlarni undirish (yig'ish) otkupçıklarga topshirilgan.

Ikkinchi bosqich soliqlar xazinani to'ldirishning asosiy manbasi sifatida qaralgan. Mazkur bosqichning asosiy xususiyatlari sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

- a) soliqlarga davlat xazinasini shakllantirishning asosiy manbasi sifatida qarala boshlangan;
- b) soliq solish obyektlari aniq belgilana boshlangan;
- v) soliqlarni undiruvchi maxsus davlat tuzilmalari yaratilgan;
- g) soliq munosabatlarini tartibga soluvchi ilk qonun qoidalar tizimi yuzaga kelgan.

Uchinchi bosqich aniq tamoyillarga asoslangan, tizimlashgan soliq munosabatlari hisoblanadi. Uchinchi bosqichning asosiy xususiyatlari sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

- a) kishilik jamiyatida moliya (soliq) ilmi rivojlangan;
- b) soliqqa tortish muammolari va uslubiylariga bag'ishlangan yangi ilmiy-nazariy qarashlar vujudga kelgan;
- v) tartibga solingan davlat soliq tuzilmalari shakllangan;
- g) soliq munosabatlarini tartibga soluvchi aniq tamoyillar ishlab chiqilgan.

2.3. Markaziy Osiyoda soliqlarning paydo bo'lishi va rivojlanishi

Tarixiy manbalarning guvohlik berishicha, Markaziy Osiyo hududida davlatchilik munosabatlari eramizdan avvalgi 1000 yillik boshlariga borib taqalib, uning hududidagi eng qadimgi davlatlar sifatida Katta Xorazm, Baqtriya va So'g'diyona davlatlari qayd etilgan. Ushbu davlatlarni boshqarish tizimi, ularda amal qilgan soliqlar borasida aniq ma'lumotlar saqlanmagan bo'lsada, aytish lozimki, shak-shubhasiz u yoki bu ko'rinishdagi soliqlar amal qilgan.

Mamlakatimiz tarixida miloddan oldingi va miloddan keyingi davrlarda hukmronlik qilgan davlatlarda, davlat boshliqlarining oliy maqsadlari o'z xazinasini tinmay to'ldirib borish, keyingi avlodlariga 2-3 barobar ortiq boylik qoldirish bo'lgan. Yig'ilgan xazinalarning eng ko'p qismi unumsiz tadbirlarga tartibsiz sarflanib, hatto isrof bo'lganligi ayon. Miloddan oldingi birinchi ming yillikning boshlaridayoq Markaziy Osiyo hududlarida ko'chmanchilik sharoitida, o'zlari uchun qulay joy izlab yurgan ko'plab urug' va qabilalar, yer maydonlari,

suv, o'tloqlarni egallash maqsadida kurashib kelganlar, ayrim hollarda esa, o'zlaridan kuchliroq, yirik qabilalarga yer solig'i, ya'ni o'lpon to'lab turganlar.

Tarixiy manbalar podshoh xazinasining dastlabki asosiy manbai sovg'a-salom bo'lganligidan dalolat beradi. Lekin Doro hukmronligi davriga kelganda soliqlar joriy qilinadi. Doro soliq tizimini faqat o'z mamlakatida emas, balki zo'rlik bilan qaram qilib olgan mamlakatlarga ham joriy qildi. Soliq miqdori satin pul birligi talant hisobida aniqlangan. Ahamoniylar hukmronligi davrida Markaziy Osiyoda yashovchi qabilalardan soliqlar salkam ikki asr mobaynida yillik xiroj va harbiy otryadlar yetkazib berish shaklida undirilgan. Bu davrda soliq turlari ham har xil bo'lgan.

Masalan, sak va kasbiylar kabi qabilalar 250 talant (1 talant 25 kg. 248 gr. Sof oltinga teng bo'lgan), ya'ni 6312 kg. miqdorida, parfiyaliklar, xorazmiylar, so'g'dlar va oriylar 300 talant, ya'ni 7575,4 kg. miqdorida xiroj to'lashgan. Qat'iy belgilangan xirojlardan tashqari har xil sabablarni ro'kach qilib qo'shimcha soliqlar ham joriy etilgan va ular suv yo'lini to'sib qo'yish yoki boshqa xil zo'ravonlik kabi tahdidlar orqali undirib olingan.

Aleksandr Makedonskiy Markaziy Osiyoni bosib olib, uni o'z saltanati tarkibiga kiritgach, bu yerda istiqomat qiluvchilar soliqlarni yunonlar tamoyili bo'yicha to'lay boshlaganlar. Yunonistonda soliqqa tortish Markaziy Osiyodagidan farq qilib, soliqlar daromad solig'i va ehsonlardan iborat bo'lgan. Daromad solig'i daromadning o'ndan yoki yigirmadan biri miqdorida undirilgan va jamoat manfaatlarini himoya qilish maqsadlari yo'lida ishlatilgan. Aleksandr Makedonskiy Markaziy Osiyoda asosan Ahamoniylar barpo etgan davlat apparati tuzilmasini saqlab, mahalliy zadagonlar tarkibidan satraplar hokimiyatini tuzgan. Maxsus soliq xizmati joriy qilmagan, soliq undirish vazifasi muayyan kishi zimmasiga yuklatilgan. Ular esa soliq to'lovchilardan xazina bilan tuzilgan shartnomada belgilangandan ko'ra ko'proq soliqlar yig'ib, o'z manfaatlari uchun ham qo'shimcha mablag'lar to'plab olishgan.

IV-VI asrlardagi turkiy qavmlar tarixiga oid qadimgi manbalarda qabilalar, urug'lar o'rtasida sodir bo'lgan to'qnashuvlarda mag'lubiyatga

uchragan tomon aholisi yangi hukmdorlariga mavjud yer yoki chorvalari uchun soliqlar to'lab turganligi, dehqonchilik yoki chorvachilik bilan shug'ullanish imkoni bo'lmagan joylarda esa soliq o'rniga belgilangan miqdorda konlardan ma'danlar qazib berganliklari kabilar haqida ma'lumotlarni uchratish mumkin.

Arablar istilosigacha Markaziy Osiyoda shakllangan soliqlar tizimining xususiyati shundan iboratki, bu davrda quldorlik va feodal davlat boshqaruvining o'ziga xos belgilari birlashib ketgan, hatto ayrim hollarda zadagonlar lashkar boshilarga maosh to'lamasdan, uning o'rniga ikkitoy tizimi joriy qilingan. Soliqlarni undirishda mahalliy oqsoqollar bilan birga soliq undirishni ijara usuli ham qo'llanilgan. Soliqlar ko'pchilik hollarda tumanlar bo'yicha belgilanib, to'lovchilarning xususiyatlari e'tiborga olinmagan.

651 yildan boshlab mamlakatimiz hududida arablar hukmronligi o'rnatildi. Soliqqa tortish tizimi bir muncha murakablashdi va soliqlarning turli xillari paydo bo'ldi. Masalan, xayr-ehson ehtiyojlari uchun soliq - zakot (mol-mulkdan 2,5 foiz miqdorida) ijtimoiy keskinlikni yumshatish uchun mo'ljallangan, kambag'allar, yetimlar va yo'lovchilarga xayr-ehson berishda foydalanilgan.

Bundan tashqari, quyidagi soliqlar mavjud edi: vazifa - o'lpon, juzya - jon solig'i, xiroj - yer solig'i. Xiroj quyidagi shakllarda undirilgan: misaha - ishlov beriladigan maydon birligidan qat'iy stavkalarda; muqota - qat'iy belgilangan summada; muqosama - hosilning muayyan ulushida (1/3 qismi).

Xiroj Navro'z bayrami arafasida yig'ib olingan. Juzyani musulmon bo'lmagan fuqarolar (ozod erkaklar) to'laganlar. Xotin-qizlar, keksalar, kambag'allar va qullar bu soliqni to'lashdan ozod qilingan. Juzyani hisoblashda o'ziga to'qlik darajasi hisobga olingan va soliq pul yoki natura shaklida undirilgan. Yuqoridagi soliqlardan tashqari chorvadorlardan, hunarmandlardan va savdogarlardan soliqlar olingan.

Arablar hukmronlik qilgan davr soliq siyosatida ancha muvaffaqiyatlarga erishilgan bo'lsada, ammo ba'zi kamchiliklar ham mavjud bo'lgan. Xususan, Noib Ashras olib borgan soliq siyosatida, qisqa vaqt ichida ikki qarama-qarshi yo'l tutilgan. Oldiniga musulmonlar juzya va xirojdan ozod etilgan. Ammo ko'p vaqt

o'tmay xazinaga tushumlarning keskin qisqarib ketishi bu farmonni bekor qilishga majbur etgan. Oqibatda So'g'd va Buxoroda norozichilik kuchayib, u qo'zg'olonga aylangan. Ashrasning muvaffaqiyasiz soliq siyosati tufayli arablarga qarshi qudratli harakat avj olib, Movarounnaxrning tez orada arablar ixtiyoridan chiqishi bilan yakunlandi.

Ikki asrdan ko'proq hukmronlik qilgan arablar saltanati tugab, Somoniylar (869-1005 yillar) hukmronligi o'rnatilgach, ular davlatida o'nta devon tashkil etildi. Devonlardan uchtasi devoni mustavfiy - kirim chiqim ishlarini boshqargan, devoni muhtasib - bozorda toshu-tarozi, narx-navo va musulmonlar tomonidan shariat qoidalari bajarilishi ustidan nazorat qilgan, devoni mushrif - davlat ishlari, xususan kirim chiqim ishlarini yuritgan hamda soliqlarni ham nazorat qilgan.

Movarounnaxrda IX-X asrlarda yerlarni soliqqa tortish, ular kimga tegishli ekanligiga bog'liq edi. Yerlar uch toifaga bo'lingan:

Birinchi toifa yerlar - sultonga tegishli bo'lib (mulki sultoniylar), bunday yer ustidan nazorat keyinchalik «Mulki devoniy» deb nomlangan devon (mahkama) amaldorlari tomonidan amalga oshirilib, ushbu toifadagi yerlar haddan tashqari ko'p edi. Bunday yerlarga asosan dehqonlar yerlari kirgan.

Ikkinchi toifa - yerlar shaxsan hukmron sulolaning ayrim a'zolari, qadimiy dehqon zodagonlar, boy dehqonlarga, sayyidlar, ayrim ruhoniylar, turk gvardiyasining ayrim rahbarlari, savdogarlarga tegishli bo'lgan xususiy mulk yerlar.

Uchinchi toifa yerlar - musulmon diniy muassasalariga, ya'ni masjid, madrasa, xonaqoh maqbaralarga vaqtincha yoki umrbod foydalanish uchun berilgan vaqf yerlar.

Xiroj uchala toifa yerlaridan ham olingan bo'lib, ular «mulki xiroj» deb atalgan, lekin bunda oliy musulmon ruhoniylarga, avvalo sayyidlarga tegishli yerlar soliqqa tortishdan to'liq yoki qisman ozod qilingan.

X asr boshlarida Movarounnaxrni Qaraxoniylar egalladi, ya'ni dariyzabon sulolasi o'rnini turkiyzabon sulolasi egallagach, markazlashtirilgan davlat o'rniga mamlakatni boshqarishning ulus tizimi o'rnatilib, barcha yer xon mulki

hisoblangan, dehqonchilik yer egaligi instituti sifatida tarix sahnasidan tushishiga sabab bo'ldi. Bu davrda "iqta" soliq yig'ishning asosiy manbaiga aylangan. "Iqtadorlar" o'z navbatida dehqonlarning oddiy jamoatchiga aylanishiga zamin yaratdi. Yerlar muayyan muddatga "Iqtadorlar" foydasiga muayyan daromadni to'liq yoki qisman olish huquqi bilan sovg'a qilingan. "Iqta" sohiblari dehqonlardan maxsus qaror bilan belgilangan soliqlarigina olishi mumkin edi. "Iqta"ga nafaqat yerdan, balki soliqqa tortishning boshqa obyektlaridan (tegirmon, hammom, bozordagi do'konlar) olinadigan soliqlar va daromadlar ham berilishi lozim edi.

Saljo'qiylar hukmronligi davrida soliq tizimi ham o'ziga xos jihatlari bilan ajralib turgan. Manbalarda keltirilishicha shohlarda hamisha ikkitadan xazina bo'lib, ularning biri asosiy, ikkinchisi xarajat xazinasi bo'lgan. Qo'lga kiritilgan boyliklar asosan birinchi, ya'ni asosiy xazinaga kiritilib, zarurasiz foydalanilmagan. Olingan taqdirda ham qarz sifatida olinib, tezda qaytarilgan.

Saljuqiylar davri soliq siyosatida ushbu davlatda ko'p yillar mashhur vazirlik lavozimida faoliyat ko'rsatgan Nizomulmulk (to'liq ismi Abu Ali Hasan ibn Ali Tusiy) muhim rol o'ynagan. Uning mashhur «Siyosatnoma» asarining 4 faslida soliq (zakot)chilar masalasi ko'tariladi. Uning qayd etishicha «soliqchilar xirojni shunday yo'l bilan talab qilsinlarki, odamlarga ziyon yetmasin. Soliq o'z vaqtdan oldin olinsa, raiyatga ranju azob yetadi, ular majburlikdan mol-davlatlarini yarim bahoda sotib, uy-joylarini tashlab ketib, ovora va sarsonlikda g'ariblikka muhtalo bo'ladilar»⁵ deb hisoblaydi. U soliqlarning me'yorida bo'lishi va ma'lum vaqtda to'lanishini rivojlanishning muhim omili sifatida qaraydi.

Amaldorlarning bu tamoyillarga amal qilmaganlarini jazolash, raiyatdan zo'rlik bilan mol tortib olingan bo'lsa egalariga qaytarish, ularning orttirgan molu-boyliklari musodara qilinib, xazinaga topshirilishi, boshqalarga ibrat bo'lishi uchun amalidan olib, unga boshqa amal bermaslikni tavsiya etadi va uning o'zi shu qoidalarga amal qilganini yuqoridagi asarida qayd etgan.

⁵ Razzoqov A. Nizomulmulkning iqtisodiy qarashlari. «O'zbekiston iqtisodiy axborotnomasi». 1999 yil 11-son. 253 b.

1221 yilda O'rta Osiyoda mo'g'ullar hokimiyati o'rnatildi. Bu hududlarda soliq siyosatini olib borish maqsadida ular tomonidan qurultoyda taklif etilgan tadbirlar hayotga tatbiq etila boshlandi va Mahmud Yalavoch boshchiligida o'lkadagi xalqlardan turli xildagi soliqlarni undirar edilar. "Kalon" solig'i dehqonlardan yig'iladigan asosiy soliq bo'lib, u hosilning o'ndan bir qismini tashkil etgan. Chorvadorlardan "ko'pchur" solig'i olingan bo'lib, uning miqdori har yuz bosh qoramoldan birga teng edi. Bundan tashqari "Yaso" qonuni bo'yicha aholidan davlat foydasiga "shulsi" deb atalgan soliq undirilgan. Ushbu soliq turining miqdori har bir otardan ikki yashar qo'y va har ming otdan bir biyani (qimiz uchun) tashkil yetgan. Shuningdek, mamlakatdagi savdo yo'llarida joylashgan bekat – "yom" (jom) larning xarajatlari ham aholi zimmasiga yuklatilib, ularning miqdori shu darajada ko'payib ketar ediki, ba'zi hollarda har bir "yom" uchun 20 ot-ulov, so'yish uchun qo'ylar, sog'ish uchun sog'uvchisi bilan biyalar, aravalar va boshqa sarf-xarajatlar ajratilgan.

Mo'g'ullar istilosi davrida dehqonlar va hunarmandlarning ahvoli yil sayin yomonlashib bordi, chunki yer solig'ini to'lashdan tashqari dehqonlar turli xil majburiyatlar va xizmatlarni bajarishardi. Hunarmandlar, ayniqsa, qurol tayyorlab berish kabi majburiyatlarni olgan edi. Feodal va zodagonlarga xonzoda va xon xotinlari yorliq hamda payzalar tarqatgan, bu unvonlar dehqon va hunarmandlardan turli xizmat hamda majburiyatlarni bajarishni talab qilish huquqini bergan. Payza ko'rsatilganda mahalliy aholi, masalan sayohat qiluvchini ovqatlantirishi va unga xona, otiga yem berishi va boshqa qulayliklar yaratishi shart edi.

Yil sayin aholining yashash sharoiti og'irlashib borishi mamlakatning ko'p joylarida qo'zg'olonlar ko'tarilishiga sabab bo'ldi. Bu qo'zg'olonlar zudlik bilan bostirilgan bo'lsada, lekin mo'g'ul hukmdori Munnexon Movaraunnaxrda soliq to'lovchilar amalga oshirayotgan tartibsizliklar va suistemolliklarga tegishli farmon chiqardi. Unga ko'ra boy kishi 10 dinor, kambag'allar esa 1 dinor to'laydigan bo'ldi. Chorva solig'i 100 tuyoqdan bir bosh olinishi belgilandi.

Musulmon, xristian va butparastlar ruhoniylari, shuningdek, keksa va ishlashga noqobil kishilar soliq to‘lamaydigan bo‘ldilar.

2.4. Amir Temur va temuriylar davlatchiligida solliqlar va soliqqa tortish tartiblari

Amir Temur insoniyat tarixida yirik davlat arbobi va o‘rta asrning yengilmas, betakror lashkarboshisi sifatida Markaziy Osiyo hududida yirik saltanat barpo qilib, o‘z saltanati tarkibiga hozirgi 27 ta davlatni birlashtirdi. U hamisha o‘z davlat tizimini takomillashtirib borishni o‘ylar, mo‘g‘ullardan farqli o‘laroq, boshqa o‘lkalarni zabt etishnigina emas, balki aksincha, u yerlarni idora qilish to‘g‘risida ham qayg‘urar edi.

Shu bilan birga, davlatni adolatli idora etishda soliq siyosatining o‘rni beqiyos ekanligini yaxshi tushunar edi. Amir Temurning solliqlar masalasi bilan jiddiy shug‘ullanganligini isbotlaydigan qator dalillar bor. Amir Temur soliq siyosatining asosiy yo‘nalishlari uning farzandlariga siyosiy vasiyati bo‘lmish “Temur tuzuklari” da ifodalangan: “Amr etdimki, raiyatdan mol-xiroj yig‘ishda ularni og‘ir ahvolga solib qo‘yishdan yoki mamlakatni qashshoqlikka tushirib qo‘yishdan saqlanish kerak. Negaki, raiyatni xonavayron qilish (davlat) xazinasining kambag‘allashishiga olib keladi. Xazinaning kamayib qolishi esa sipohning tarqalib ketishiga sabab bo‘ladi. Sipohning tarqoqligi, o‘z navbatida, saltanatning kuchsizlanishiga olib keladi”⁶.

Solliqlarni hisoblash qoidalari ham ishlab chiqilgan: “Yana amr qildimki, xirojni ekindan olingan hosilga va yerning unumdorligiga qarab yig‘sinlar. Chunonchi, doim uzluksiz ravishda koriz, buloq va daryo suvi bilan sug‘oriladigan ekin yerlarini hisobga olsinlar va unday yerlardan olinadigan hosildan ikki hissasini raiyatga, bir hissasini oliy sarkorlik (saltanat xazinasini) uchun olsinlar. Lalmikor yerlarni esa, jariblarga bo‘lsinlar, hisobga olingan bu yerlardan (soliq olishda) uchdan bir va to‘rtidan bir qoidasiga amal qilsinlar. Ushbu jumladan ko‘rishimiz mumkinki, soliq yerning lalmikor va sug‘oriladigan qismlaridan

⁶ «Temur tuzuklari». Toshkent «Cho‘lpon», 1991 y. 98 bet.

alohidaalohida tartibda undirilgan. Bundan tashqari yangi yerlar o'zlashtirishni rag'batlantirish maqsadida soliq imtiyozlari ham belgilangan: "Yana amr etdimki, kimki biron sahroni obod qilsa, yoki koriz qursa, yo biron bog' ko'kartirsa yoxud biron xarob bo'lib yotgan yerni obod qilsa, birinchi yili undan hech narsa olinmasin, ikkinchi yili raiyat o'z roziligi bilan berganini olsinlar, uchunchi yili esa qonun-qoidaga muvofiq xiroj yig'ilsin".

Mahsulot tarzidagi soliqni soliq puli bilan almashtirib turish mumkin bo'lgan: "Agar raiyat ro'yxatga olingan yerlaridan beriladigan soliqni naqd aqcha bilan to'lashga rozi bo'lsa, naqd aqcha miqdorini sarkorning hissasi hisoblangan g'allaning mazkur davridagi narxiga muvofiq belgilasinlar". Amir Temur olib borgan soliq siyosatining muhim xususiyatlari sifatida shuni ham ta'kidlab o'tish lozimki, u tomonidan zabt etilgan o'lkalarga nisbatan alohida soliq siyosati yuritilgan. "Agar yerlik fuqaro azaldan berib kelgan xiroj miqdoriga rozi bo'lsa, ularning roziligi bilan ish ko'rsinlar, aks holda (xirojni) tuzukka muvofiq yig'sinlar"⁷.

Amir Temur farmoyishiga binoan soliq undirish ishlari rahm-shavqatga asoslangan bo'lishi lozim: "Amr qildimki, hosil pishib yetilmasdan burun raiyatdan molu jihot olinmasin. Hosil yetilgach, hosilni uch bo'lib olsinlar. Agar raiyat soliq to'lovchi yubormasdan, soliqni o'zi keltirib bersa. U holda u yerga soliq to'plovchi yubormasinlar. Agarda soliq oluvchini yuborishga majbur bo'lsalar, ular soliqlarni buyruq berish va yaxshi so'z bilan olsinlar, kaltak, arqon ishlatish, ishni urish-so'kishgacha olib bormasinlar. Ularni band etib, zanjir bilan kishanlamasinlar. Yana buyurdimki, xirojni raiyatdan kaltaklash va savalash yo'li bilan emas, balki ogohlantirish, qo'rqitish va tushuntirish yo'li bilan undirsinlar. Qaysi hokim hukmining ta'siri cho'p va kaltaklash ta'siridan kamroq bo'lsa, unday hokim hukumat yurgizishga yaroqsizdur"⁸.

Ma'lumki, Amir Temurgacha soliq to'lovchilarning ish haqi soliq to'lovchilar hisobiga bo'lib, ular qonunda ko'zda tutilmagan soliqlarni undirishga ham harakat

⁷ «Temur tuzuklari». Toshkent «Cho'lpon», 1991 y. 99 bet.

⁸ «Temur tuzuklari». Toshkent «Cho'lpon», 1991 y. 72 bet.

qilar edilar. Amir Temur soliq undiruvchilarga xalqning ustiga yuk bo'lmashligi uchun ularga maosh tayinladi. Amir Temur davrida mamlakat iqtisodiyotida qishloq xo'jaligi muhim ahamiyatga ega hisoblangan. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini asosan yer egalari bo'lgan dehqonlar va yerga ishlov beruvchi ijarachilar amalga oshirganlar. Bu davrda asosan dehqonchilik bilan bog'liq bo'lgan xiroj va ushr soliqlari amal qilgan. Bundan tashqari, mamlakatda bog'dorchilik va chorvachilik rivojlanishi uchun mol sardaraxt, mol o'tloq, mol suvoq, mirobona soliqlari ham amal qilgan. Yer solig'i yetishtirilgan hosilga va yerning sifatiga qarab hosilning 1/10 dan (ushr) to 1/3 qismigacha miqdorida olingan. Savdogarlar va hunarmandlar tang'a yoki zakot to'lashgan, chegaradan o'tgan mollar hisobidan ham boj olingan. Bu soliqlar davlat xazinasining asosiy manbai hisoblangan.

Yuqoridagi soliqlardan tashqari favqulodda soliqlar ham amal qilgan bo'lib, ularga: molujihot - yer solig'ining bir turi bo'lib, pul yoki natura tarzida to'lanishi mumkin bo'lgan; ixrojt - saroylarga qarash uchun maxsus yig'im; boj - savdogarlardan chegarani kesib o'tishda undiriladigan bojxona solig'i; sarmushar - jon solig'i; xonamushar - har bir xonadondan olinadigan yig'im; qo'nalg'a - elchi, amaldorlar, choparlarni bepul qabul qilish va mehmon qilish yig'imi; shilon puli - noiblarni ziyofat qilish yig'imi; peshkash - yuqori mansabdagi amaldorlarga sovg'a berish uchun yig'imlarni kiritish mumkin.

Amir Temurning o'zbek davlatchiligi tizimini takomillashtirishga qaratilgan katta xizmatlaridan biri davlat boshqaruv tizimining mumtoz namunalarini qayta tiklash bilan chegaralanmasdan, zamon talablarini ko'zda tutib, yangi usullarni joriy qilishidir. Uning strategiyasida insonparvarlikka asoslangan mukammal jamiyat qurish g'oyasi markaziy o'rin tutadi. Ungacha xazinani idora qilish nafaqat dargoh tamoyiliga asoslangan bo'lsa, u dargoh va vazirlik tamoyillarini qo'shib olib bordi. Xazina daromadlari solikli va soliqsiz daromadlarga ajratildi. Xazina xarajatlari tarkibidan obodonchilik, ijtimoiy-madaniy, shu jumladan, fan, madaniyat, ijtimoiy ta'minot xarajatlarining hissasi ortib bordi.

Bularning barchasi mamlakatning iqtisodiy va madaniy jihatdan mustahkamlanishi, uning xalqaro mavqeiini oshirishda faol ta'sir etdi.

Amir Temur Markaziy Osiyo iqtisodiyotini rivojlantirishga, fan va madaniyatni qanchalik ko'tarishga uringan bo'lmasin, shafqatsiz to'liqlar u tashkil etgan buyuk saltanatni parchalanishiga, parokanda bo'lishiga olib keldi. Uning vafotidan so'ng avlodlari o'rtasida taxt uchun kurash uzoq davom etib, shahzodalar o'rtasida olib borilgan kurash o'lkaning moliya-soliq tizimiga ta'sir ko'rsatmay qolmadi. Harbiy xarajatlarning ko'payib borgani sari uning manbai hisoblangan soliq tizimi izdan chiqdi.

XV asr davomida Movarounnaxr va Xurosonda avvalgidek yer mulkchiligining asosan to'rt shaklidagi: mulki devoniy - davlat yerlari, mulk - xususiy yerlar, mulki vaqf - madrasa va masjidlar tasarrufidagi yerlar va nihoyat jamoa yerlari bo'lgan. Dehqonchilik yerlarining eng katta qismi davlat mulki hisoblangan. Bu yerlarga, avvalgidek, mamlakat hukmdori sulton yoki amirlar egalik qilgan. Temuriylar davrida davlat yerlarini suyurg'ol tarzida in'om qilish ham keng tarqalgan. Suyurg'ol yerlar hajmi, sharti hamda yer va yorliqqa ega shaxslarning tabaqasi jihatidan turlicha bo'lgan. Odatda, shahar yoki viloyatlardan to alohida qishloqqacha suyurg'ol shaklida in'om etilgan. Butun bir shahar yoki viloyat ko'pincha hukmron sulola namoyondalari yoki yirik harbiy va davlat mansabdorlariga berilgan.

Amir Temur davrida bo'lganidek temuriylar davrida ham suyurg'ollarni ulashish amaliyoti keng tarqaldi. Markaziy hokimiyat vakillari - Shohrux, Ulug'bek, Abu Said, Sulton Husayn yoki uluslarni boshqargan shahzodalar yerlarga meros tarzida egalik qilish uchun ulashganlar

Suyurg'ol egasiga o'z suyurg'oli doirasida amaldorlar tayinlash, soliqlar va turli to'lovlarni to'plash hamda aybdorlarni jazolash huquqi berilgan. Abdurazzoq Samarqandiyning yozishicha, Shohrux davrida Xorazm – Shoh Malik; Farg'ona – Mirzo Ahmad; Tus, Mashhad, Obivard, Nisoni o'z ichiga olgan Xuroson - Boysung'ur; Qobul, G'azna va Qandahor viloyatlari Mirzo Qaydu Bahodirning suyurg'oli edi. Suyurg'ol yorlig'iga ega bo'lgan viloyat hukmdorlari markaziy

hokimiyatga faqat nomigagina qaram bo‘lib, odatda, ular deyarli mustaqil edi. Suyurg‘ol egalari tobeligini kuchaytirish maqsadida markaziy hokimiyat ba‘zan ular tasarrufidagi yer maydonlarini qisqartirar yoki ularning ma‘muriy va adliya jihatidan haq-huquqini cheklab qo‘yar edi. Suyurg‘ol egasi markaziy hukumatga bo‘ysunmagan taqdirda suyurg‘ol huquqidan mahrum bo‘lar va hokim uning viloyatini boshqa shaxsga berar edi.

Temuriylar davrida dehqonchilik maydonlarining ikkinchi kattagina qismi xususiy yerlardan iborat bo‘lib, yirik mulkdorlarning katta yer maydonlari ham, mehnatkash ziroatchilarning mayda paykallari ham xususiy mulk qatoriga kirgan. Mulk yerlarining katta qismi ma‘muriy, harbiy va diniy arboblarning tasarrufida bo‘lgan. Bosh hukmdor tomonidan yirik mulk egalari biron xizmati uchun tarxonlik yorlig‘i berish keng tarqalgan. Tarxonlik yorlig‘ini olgan mulkdorlar, asosan barcha soliq, to‘lov va majburiyatlardan ozod qilingan. Tarxonlik yorlig‘i, odatda amirlar, beklar, saroy amaldorlari, sayyidlar va boshqa yuqori tabaqa vakillariga berilgan. Bunday yorliqni olgan mulkdor ismiga tarxon so‘zi qo‘shib aytilgan.

Ulug‘bek davrida Samarqand yana ravnaq topdi. Bu davrda san‘at va ilmfan rivoji uchun shu qadar katta ishlar qilindiki, bu davrni “Samarqandning oltin davri” deb atay boshlashdi. U soliq siyosatida dehqonlardan olinadigan soliqlarni kamaytirdi va dehqonlar faravonligini o‘stirishga imkon yaratdi. Tushumlar qisqarishining o‘rnini esa tang‘a - hunarmand va savdogarlardan olinadigan yig‘imni ko‘paytirish hisobiga to‘ldirdi.

Temuriylar davridagi soliqlarni o‘rganishda ayrim faktlarni keltirib o‘tish o‘rinli. Masalan, temuriylardan Husayn Boyqaro mamalakatdagi isyonlar tufayli xarajatlar ko‘payganini hisobga olib, Hirot hokimi Muboriziddin Valibekka nishon yuborib, yangi xarajatlar uchun Hirot va uning tevarak atrofidagi tumanlardan 100 ming dinor kepakiy to‘plab jo‘natishni buyurdi. Hirot hokimi tumanlardan faqat yarmini, qolganini esa aholidan sarmushar, ya‘ni jon solig‘i sifatida undirishga qaror qildi. Bunday mehnatkash xalqqa judayam qiyin bo‘lgan bir

sharoitda Alisher Navoiy Hirot aholisi zimmasiga tushgan 50 ming dinorni o'z jamg'armasi hisobidan to'ladi.

2.5. Xonliklar davridagi soliqlar

Temuriy shaxzodalarning o'zaro to'xtovsiz olib borgan taxt talashishlari oxir oqibatda saltanatning Shayboniyxon qo'liga o'tishiga olib keldi va XVI asr boshlaridan Movarounnaxrda yangi shayboniylar sulolasi qaror topdi. Ular deyarli yuz yil hukmronlik qilib, temuriy zodagonlar va ular bilan bog'langan oliy ruhoniylar va yer sohiblari yo'q qilindi, ularning yerlari, mulklari va boshqa boyliklari ko'chmanchi o'zbek zodagonlari qo'liga o'tdi. Lekin shayboniylar davlatining ijtimoiy tuzumi temuriylar davlati xususiyatlarini saqlab qoldi. Avvalgidek muayyan shaxslarga dastlab davlat xazinasiga tushgan soliqlarni ma'lum vaqt o'z foydasiga undirish huquqi berildi. Buxoroda bunday shartli tuhfa forscha «tanho» atamasi bilan atala boshladi.

Shayboniylar davlatida soliq, o'lpon va majburiyatlar tizimi ancha murakkab bo'lgan. Rasman 90 ga yaqin soliq va o'lponlar undirilgan. Asosiy soliq xiroj bo'lib, u sug'oriladigan yerlarning 30-40 foiziga solingan; davlat apparati, sipohiylar va xon saroyini boqish uchun ixrojot olingan; bog'lar, polizlar, bedazorlar ham soliqqa tortilgan. Agar davlat apparati pulga juda muhtoj bo'lsa, favqulodda soliqlar joriy etilgan. Soliq va o'lponlardan tashqari majburiy ishlab berish majburiyati bo'lib, ular ichida eng og'iri yasoq bo'lgan, ya'ni aholi kanallar, xandaklar qazish, yo'llar qurish, o'tin, somon, shox-shabba yig'ishga safarbar qilingan va tekin ishlab bergan. Yuqoridagilardan tashqari shayboniylar davrida tog'or, ulufa, qo'nalg'a, madadilashkar, boj, tansuqot, tuhfa va boshqa soliqlar amal qilgan.

XVII asr va XVIII asrning birinchi yarmida Markaziy Osiyoda markazlashgan davlat uchta mustaqil davlatga: Buxoro amirligi, Xiva va Qo'qon xonliklariga bo'linib ketdi. Ularning har biri o'z chegarasi, davlat tizim va xazinasini, o'zining mustaqil moliyasiga ega edi.

XVI asrdayoq tashkil topgan Xiva xonligi inqirozni boshidan kechirar edi. Soliq yukining og'irligi dehqonlar, shaharliklar va ko'chmanchi – turkman qabilalari zimmasiga tushardi. Turkmanlar yer-mulk solig'i - hosilning o'ndan bir qismini va o'nlab ming bosh qo'yni «xon qozoni» uchun soliq sifatida to'lar edilar. Adoqli - xizr qabilasi xonga navkarlar yoki gvardiya yetkazib berar edi. O'lpon faqat xon uchun emas, balki xon sulolasining ayrim vakillari uchun ham undirilardi. Turkman qabilalari tez-tez qo'zg'olonlar ko'tarib, vaqti - vaqti bilan muayyan mustaqillikka erishardilar.

Xiva xonlari xazinasini XVII asrda alohida xazinachilar qo'lida edi. Quyi ma'muriy apparat arboblari (qishloq oqsoqollari) dan iborat edi. Qishloqlarda yer egalari zimmasiga ularga bo'ysunuvchi aholi hisobidan yo'ldan o'tib boruvchi elchilarni oziq-ovqat bilan ta'minlash majburiyati yuklangan edi. Xiva xonligida shu vaqtda xon xazinasiga daromadning asosiy qismi o'troq va yarim ko'chmanchi aholi ishlov beradigan haydaladigan yerlardan tushar edi. Xazinaga qarashli yoki davlat yerlarida yashaydigan dehqonlar forscha dahyak yoki arabcha ushr so'zi bilan nomlanadigan xiroj, chig'irlar yordamida sug'oriladigan yerlardan hosilning beshdan bir qismi miqdorida to'lagan. Xususiy mulk qilib berilgan yerlardan xiroj ular qanday toifaga bog'liqligiga qarab olinardi. Xon yorlig'i bo'yicha muayyan mulk qilib berilgan xususiy mulk yorliq yerlari va azaldan xususiy mulkni tashkil etgan odatdagi xususiy mulk yerlar solg'it deb nomlanuvchi, pul bilan to'lanadigan yer solig'iga tortilgan. Aday mulk (oddiy xalq tilida atay mulk) yerlaridan yer solig'i emas, balki qura solig'i undirilgan, bu soliqni to'lovchilar o'z mulkiy ahvollariga ko'ra kiritiladigan toifaga muvofiq hisob-kitob qilingan va shu sababli daromad solig'i xususiyatlariga ega bo'lgan. Solg'itni xazinaga va dahyakni o'z vaqf muassasasi foydasiga kiritishga majbur bo'lgan vaqf yerining ijarachilari eng og'ir ahvolga tushib qolgan edilar. Sayyidlar, xo'jalar, shayxlar va mansabdor shaxslarning yerlari maxsus xon yorliqlari bilan xiroj to'lashdan ozod qilingan. Bunday shaxslar turkcha-forscha so'z bilan yorliqdor deb nomlangan. Navkarlarga tegishli yerlar ham xirojdan ozod qilingan.

Tovar bitimlar uchun soliqlar - zakot va tarozi yig'implari belgilangan. Xonlik savdo markazlari (Urganch, Xonqa, Xiva, Gurlan va boshqa shaharlar) savdogarlari bundan tashqari har yili xonga boy puli solig'ini to'lashgan. Uning hajmi xonning maxsus farmoni bilan savdo shaharchalariga yuborilib, har bir savdogarni xon xazinasiga go'yo qaytarish sharti bilan muayyan summani taqdim qilishga majbur qilingan, biroq odatda bu summa hech qachon qaytarilmagan. Ana shu o'ziga xos tarzda qarzlarni bir yilda ikki-uch marotaba olingan. Ko'chmanchi va chorvadorlardan xon xazinasiga chorva umumiy tuyog'ining qirqidan bir miqdorida zakot olingan. Bundan tashqari Amudaryoning o'ng sohilidagi chorva egalardan olinadigan tarcho'b yig'imi ham bo'lib, pada sohildagi to'qaylar orasidan o'tganida shox-shabbalardan kavshanganligi uchun ana shu soliq olingan. To'qaydan o'tgan har bir podadan bitta qo'y olingan.

Xiva xonligida o'lpon yig'ish uchun hokimlar (okrug hukmdorlari), ularning noiblari yoki qozilar javob berishgan. Ular huzurida bojmonlar (boj yig'uvchilar) va zakot yig'uvchilar, agar hududda davlat yerlari ham bo'lsa, mushriflar (natura shaklida to'lanadigan o'lponlarni yig'uvchilar) ham xizmat qilgan. Qishloqlarda ma'muriy mirshablik tarkibidagi barcha ishlar bilan oqsoqollar shug'ullanib, ular aholidan o'lponlar ham yig'ishgan. Xonlikning ma'muriy va moliya-soliq apparati pul bilan ta'minlanmaganligi sababli, o'lponlarni, ayniqsa, dahyakni yig'ishda jiddiy suiste'molliklar qilishga yo'l qo'yilgan.

XVIII—XIX asrlarda xonlikda turli ijtimoiy-iqtisodiy omillar ta'sirida ayrim soliqlarning nomi, mohiyati o'zgarib turdi, yangi soliqlar va yig'implar joriy qilindi. Masalan, Xiva xonligida solg'it, solg'it-kesma, cho'p puli, changalak kabi soliqlar amal qilgan. Xonlikda salkam 25 ta mahalliy soliqlar undirilgan. Ular orasida lavozimlarni sotishdan ko'riladigan daromadlar alohida ajralib turardi. Natura shaklida o'lponlar boshqa xonliklarga qaraganda og'irroq bo'lgan. Masalan, qazuv - katta va kichik soylarni yig'ilib qolgan loyqalardan tozalash, 15-25 kun davom etgan. Ko'chuv - suv toshqiniga qarshi inshootlarni barpo qilish 15 – 25 kun, begor - ko'priklarni ta'mirlash, xon va uning amaldorlari uchun saroylar qurish 12 kun va undan ortiq davom etgan.

Tarixiy manbalar Xiva xonligida quyidagi soliqlarning amal qilganligidan dalolat beradi: begor; qazuv (balo qazuv deb ataluvchi 6 kunlik majburiy mehnat va suv taqsimlovchi tarmoqlarni tozalash); qochuv (ehtiyot dambalarini qurish uchun safarbar qilish); olgʻut (bir yoʻla olinadigan yigʻimlar, solgʻut bunga kirmaydi); solgʻut (yer soligʻi); miltiq soligʻi (qoʻshinga qurol-aslaha sotib olish uchun olinadigan pul soligʻi); arava oluv (aravalardan davlat ehtiyoji uchun safarbar qilish); uloq tutuv (tuya va otlarni, aholini safarbar qilish); qoʻnolgʻa (dehqonlar tomonidan amaldorlarga kechasi tunash uchun joy berish); soʻysin (uy egasining qoʻnoqda qolgan kishini qoʻy yoki buzoq soʻyib mehmon qilishi); chopar puli (soliq yigʻish xabarini yetkazganlik uchun toʻlanadigan haq); tarozi haqi (soliq toʻlash jarayonida tarozibonga beriladigan pul); mirobona (mirob foydasiga beriladigan pul); darvozabon puli (yuk bilan shaharga kirganda shahar darvozaboniga beriladigan pul); otlanuv (xalq lashkari va xon qatnashadigan ovda majburiy qatnashish); ipak moli (aholi ipakchilik daromadining 1/40 qismini olish); mir tumon haqi (mahalliy hokim haqi); shigʻovul puli; pul soligʻi toʻlash paytida xazinachiga toʻlanadigan soliq; qoʻruvbon puli (daraxt qorovuli yoki yaylovni nazorat qilib turuvchi shaxsga toʻlanadigan haq; mushrifona (hosilni tekshiradigan va miqdorini belgilaydigan kishiga beriladigan pul); afanak puli; chiviq puli; ommaviy ishlar oʻtkazish davrida ruhoniylar foydasi uchun yigʻiladigan pul va boshqalar⁹.

Buxoro amirligi moliya tizimi negizida arablar istilosi davrida butun musulmon Sharqi oʻzlashtirgan soliq - xiroj turgan. Xiroj yerdan olinadigan hosilning beshdan bir yoki uchdan bir qismi sifatida olingan, ushr soligʻi esa oʻndan bir qismni tashkil etgan. Hunarmandlar oʻz qobiliyati, didiga mos ravishda bayramlarda xonga oʻz buyumlarini taqdim yetishgan. Favqulodda hollarda ular har bir doʻkondan yigʻim toʻlashgan.

Buxoro amirligida oʻlpon yigʻish bilan devonbegi - moliya vaziri shugʻullangan. Ular daftarlar - oʻlpon roʻyxatlarini tuzgan. Moliya amaldorlari devonbegi rahbarligida kadastrlar, amir saroyining moliya hisoboti va moddiy

⁹ Saburova S. «Xiva xonligida soliq (Qoʻngʻirotlar davri)». «Soliq toʻlovchining jurnali» 2001 yil 12-son.

qismi bilan shug'ullanganlar. Natura majburiyatlari ustidan nazoratni arbob olib borgan. XIX asrning birinchi yarmida xususiy mulk yer soliqlari Buxoro amiri xazinasiga eng ko'p daromad keltirgan. Ular ichida eng ahamiyatlisi hali ham xiroj edi. Xiroj yerlari (zamini xirojii) amirlikdagi dehqon aholiga tegishli uchastkalarining katta qismini tashkil etgan. Xiroj muayyan yer uchastkasidan belgilangan summada pul va ma'lum miqdorda don bilan undirilgan (xiroji vazifa) yoki hosilning beshdan, oltidan, sakkizdan bir qismi miqdorida hosilning mutanosib qismini to'lashda (xiroji muqassama) ifodalangan. To'lanadigan soliq hajmi esa sinov tariqasida yanchish yo'li bilan olingan.

Tokzor, yo'ng'ichqazor, mevali daraxtzorlardan tanobona olingan. 1807 yili amir Haydarning bir yorlig'ida har tanob yerdan bir tillodan tanobona olinishi zarurligi ko'rsatilgan. Agar ekinzor egasi tanobona to'lashdan bosh torsa, hosilning uchdan bir qismi mol (xiroj) tariqasida olingan. Ba'zida xiroj hosilning yarmini tashkil etgan. Shohmurod zamonida har bir ziroatchidan qo'shpuli olingan.

XV-XVII asrlarda zakot beva-bechoralar, musofirlar foydasiga olingan bo'lsa, XVIII asrdan boshlab xazina foydasiga olinadigan bo'ldi. Zakot to'lashdan bosh tortgan qabilalar ustiga omonpuli (moli omoniy) olingan.

Kanallar, inshoot, qal'a, ko'priklar, yo'llar ta'miri hashar yo'li bilan amalga oshirilgan. Boshda hasharchilar oziq-ovqat bilan ta'minlangan. XVIII asrdan boshlab hasharga keluvchilar oziq-ovqati, ish asboblari, otaravasi bilan kelishi lozim bo'lgan. Manbalarda qayd etilishicha XVIII asrgacha qadim zamonlardan olimlar, qozilar, sipohiylar va navkarlar xiroj hamda tanobona to'lashdan ozod etilganlar.

XIX asrning 50-yillari oxirida qishloq dehqon aholisining ko'pchiligi qonun bilan belgilangan yer solig'i – xiroj yoki amlokdan tashqari, poliz yoki bog' bilan band bo'lgan har bir tanob yer (tanob puli) va yo'ng'ichqazar uchun (alaf puli) alohida soliqlar to'langan. Bu ikkala soliq ko'pincha tanoba yoki tanob puli deb atalardi. Zarafshon vodiysida yashovchi bir necha dehqon jamoasi amir Nasrulloqa murojaat etib, ularning uyidan olisda joylashgan polizlarga solinadigan tanobani kamaytirishni iltimos qiladi. Amir iltimosni qondirgach, polizlardan alohida soliq –

qo'shpuli olina boshlandi. Zakot eng muhim soliq bo'lib, uni to'lash har bir musulmon uchun besh farzning biri hisoblanib kelingan. Bu mol-mulk solig'ini undirish uchun amaldorlar tayyorlangan va zakot olish obyektlari aniqlangan. Ko'chmanchi va chorvadorlardan zakot chorvadan pul yoki natura shaklida (besh tuyadan bitta, qirq qo'ydan bitta) undirilgan. Ishchi mollardan olinadigan alohida yig'im ham mavjud bo'lib, uni yaksara deb atashgan. U bir juft ot yoki ho'kizdan bir botmon bug'doy hajmida olingan. Bitta ishchi moliga ega bo'lganlar bu miqdorning yarmini to'lashgan, u nimsara deb atalgan. Suv tegirmonlari va juvozlardan pul yoki naturada yig'im undirilgan, uning hajmi korxonaning qanday tuzilgani va daromad keltirishiga hamda qishloq xo'jalik jihatidan qanday ahamiyatga egaligiga qarab o'zgarib turgan.

Tarixdan ma'lumki, XIX asrning 50-yillaridan boshlab, Rossiya O'rta Osiyoni bosib ola boshladi. Buxoroning ma'lum qismini bosib olgach, Amir juda og'ir shartnomani qabul qiladi. Rossiya bilan urush paytida amir Muzaffar aminona (sodiq fuqarolik) deb nomlangan maxsus soliqni joriy qildi va u doimiy soliqqa aylanib, amirlik tugatilguncha (1920) amal qildi. Zakot va aminonadan tashqari savdo yig'imlariga (dallol), bir viloyatdan boshqasiga olib o'tilayotgan tovarlar va umuman yuklardan olinadigan maxsus bojlar ham kirgan. Zakot bilan birga tovar dastlab olib chiqilgan joydan uzoqlashuviga qarab uning narxi ancha ko'paygan. Tovarlarini daryodan olib o'tganlik uchun suv puli, bozordagi joy uchun puli taxtajoy kabi soliqlar ham mavjud bo'lgan.

Buxoro amirligida moliya, asosan mol-mulk solig'i bilan qushbegi shug'ullangan. U ark yetagida yashagani, mahkamasi shu yerda bo'lgani bois qo'yi qushbegi deb atalgan. Davlatdagi barcha zakot yig'uvchilarning boshlig'i mavjud bo'lib, uni ham zakotchi kalon (oliy zakot yig'uvchi) deb atashgan.

XIX asrning birinchi yarmida Qo'qon xonligining soliq tizimi Buxoro amirligi bilan o'xshash bo'lgan. Bu yerda ham g'allazorlardan xiroj yig'imi uzumzorlar, polizlar, bog'lar va texnika ekinlari bilan band bo'lgan yerlardan tanobona undirilgan. Tovarlar, mol-mulk va chorvadan zakot olingan. Shaxsan xonga qarashli qishloqlardan xoslik – undiruvchi amaldorlarga emas, balki

bevosita xonga beriladigan yoki xonning maxsus farmoni bilan u yoki bu a'yonlarga ta'minot uchun beriladigan soliq undirilgan. Odatdagi soliqlardan tashqari xonlar yangilarini ham joriy qilgan. Bunda ayniqsa Xudoyorxon ajralib turgan. U ekilgan mevasiz daraxtlardan, poytaxtga olib kelingan pichandan, tog' o'rmonlarida kuydiriladigan pista ko'mirdan soliq olgan. Xudoyorxon xazinadagi yetishmovchilikni xilma-xil musodara qilishlar va chayqovchilik vositasida to'ldirgan.

2.6. Chor Rossiyasi va sobiq ittifoq davrida soliqlarga bo'lgan yondashuv

O'rta Osiyoni Chor Rossiyasi tomonidan bosib olinishi bu yerda asrlar davomida qaror topgan tizim - qishloq xo'jaligi solig'ining soliq tizimi o'zgarab bordi. Avval chor hukumati dehqonlardan soliq olishni kamaytirdi, lekin yerlarni soliqqa tortishning xiroj va tanob tizimini saqlab qoldi. Soliqlarni mutlaqo pul bilan to'lash tartibi joriy etildi, davlat foydasiga natura shaklidagi majburiyatlar bekor qilindi. Soliq undirish ishlari saylab qo'yiladigan qishloq idoralariga topshirildi.

1886 yilda Turkiston o'lkasini idora qilish to'g'risida yangi nizom joriy qilindi. Unda yerga oid munosabatlarda qator tadbirlar o'tkazish ko'zda tutilgan edi: barcha yerlarning xazinaga tegishliligi e'lon qilindi va ilgari kim yerlarga ishlov bergan bo'lsa, yer o'shanga foydalanish uchun berildi va barcha yerlar soliqqa tortildi. Chor hukumati 1867 yilda ko'chmanchi aholi uchun o'tov yig'imi joriy qildi, unga binoan har bir o'tovdan soliq undirila boshlandi.

Xiva xonligida 1898 yildan 1902 yilgacha bo'lgan davrda 250-300 pud mis tangalar zarb qilingan. Xiva xoni bunday tangalar tushumidan savdogarlarga majburiy tarzda qarzlarni berar, buning uchun kredit summasining 15 foizini to'lashni talab qilardi. Ana shu mablag'lar evaziga o'ndan ortiq paxta tozalash zavodi qurildi.

Bu hududlarda Turkiston General gubernatorligi moliyasini tashkil etishda quyidagi vazifalar belgilandi:

- xonliklarning zabt qilingan hududlarida o'z valyutalari o'rniga rus valyutalarini joriy qilish;

- davlat moliyasini boshqarishda budjet-smeta rejimini joriy qilish;

- mavjud soliq tizimini Rossiya soliq tizimi andozasiga moslab, tubdan o'zgartirish.

Chor Rossiyasi qo'yilgan vazifalarning deyarli hammasiga erishdi. Bu hududlarda an'anaga aylangan zakot o'rniga hunarmandchilik solig'i, xiroj o'rniga esa - oklad tizimi joriy etildi. Bulardan tashqari aksiz soliqlari, paxtaga va boshqa xomashyolarga solinadigan soliqlar to'g'ridan-to'g'ri Chor Rossiyasi budjetiga borib tushar edi. 1914 yil 12 noyabr qonuniga binoan, temir yo'l va bandargohlarda har pud paxtadan alohida muvaqqat soliq olish belgilandi. 1915 yil yanvaridan boshlab mahalliy aholi harbiy majburiyatlarni bajarish o'rniga, harbiy soliqqa tortildi. Bu soliq jami bevosita soliq turlarining 21 % miqdorida olingan.

Ammo 1914 yilda boshlangan birinchi jahon urushi xazina xarajatlarini keskin oshishiga sabab bo'ldi. Xarajatlarni qoplash maqsadida aholidan yig'iladigan soliqlar miqdori to'xtovsiz ko'payib bordi.

1919 yil mart oyida yangi iqtisodiy siyosat e'lon qilinishi munosabati bilan yangi soliq siyosati tashkil etildi. Mazkur tizim qishloq xo'jaligi, hunarmandchilik, daromad, mulk va renta soliqlari, tamg'a yig'implari, meros va boshqa bojlar kabi majburiy to'lovlarini o'z tarkibiga qamrab olgan.

1922 yil 11 aprelda "Natura solig'i haqida"gi qaror qabul qilindi. Mazkur qarorga ko'ra dehqonlarning noroziligiga sabab bo'lgan oziq-ovqat razvedkasi o'rniga yalpi hosilning 10 foizi miqdorida oziq-ovqat solig'i belgilandi. Lekin oradan ko'p vaqt o'tmay xo'jalikning katta-kichikligidan kelib chiqib, soliqni tabaqalashtirish joriy etildi. Soliq quyidagi proporsiyalarda olinishi belgilab qo'yildi: 2 desyatinagacha yeri bo'lgan xo'jaliklardan hosilning 5 foizi, 2-4 desyatinagacha 10 foizi, 4-6 desyatinagacha 12 foizi, 6-8 desyatinagacha 14 foizi va hokazo.

Yangi iqtisodiy siyosat paxtachilik siyosatiga ham muayyan o'zgarishlar kiritdi. Paxtachilikni mehnat qurollari bilan ta'minlashga e'tibor kuchaytirildi.

Ularga turli xil imtiyozlar berilib, ot-ulov solig'idan, kamquvvatli xo'jaliklar oziq-ovqat solig'idan ozod qilindi. Bularning hammasi dehqonlarning kayfiyatiga, ularni ko'proq paxta yetishtirishga bo'lgan intilishida o'zgarishlar bo'lishiga olib keldi.

1923 yil 13 iyunda ba'zi ziddiyatlarni bartaraf etish maqsadida oziq-ovqat solig'idan yagona qishloq xo'jaligi solig'iga o'tish to'g'risida dekret chiqarildi. Natijada, tovar-pul munosabatlarining sub'ekti bo'lgan dehqonlarning roli sezilarli ravishda kuchaydi. Xususiy kapital asosida tashkil etilgan vositachilik va savdo shirkatlari qat'iy mafkuraviy nazorat ostida bo'ldi. Ko'pincha, xususiylarga juda katta miqdorda soliq solinar, tadbirkorlarning erkin faoliyati esa butunlay cheklab qo'yilgan edi. Keyinchalik davlat xususiy sektorni tugatishni tezlashtirish maqsadida qo'shimcha soliqlar undirildi.

1923-1925 yillarda quyidagi soliqlar amal qilgan:

1. Bevosita soliqlar:

- qishloq xo'jaligi solig'i;
- hunarmandchilik solig'i (savdo va ishlab chiqarish korxonalariga);
- mulk solig'i;
- renta soliqlari;
- gerb yig'imlari va boshqalar.

2. Bilvosita soliqlar:

- aksiz soliqlari (choy, kofe, shakar, tuz, alkogolli ichimliklar, tamaki mahsulotlari, neft mahsulotlari va boshqa turdagi tovarlarga nisbatan joriy etilgan);
- turli xil bojlar.

1922-1923 yillarda to'g'ri soliqlar budjetni solikli daromadlarining 43 foizini, 1923-1924 yillarda 45 foizini, 1925-1926 yillarda 82 foizini tashkil etgan.

1930 yillarda yangi soliq islohotlarini o'tkazish talab qilindi. Soliq islohotlari o'tkazishning asosiy sababi quyidagi kamchiliklarni yo'qotishga qaratilgan edi:

- soliqlar sonini qisqartirish maqsadida oborot solig'ini joriy etish;

- bir soliq obyektini bir necha marotaba soliqqa tortilishi va baholarni rejalashtirishning murakkabligini tugatish. Buning uchun foydadan ajratmalar va kooperatsiyada daromad solig'i joriy etildi.

Aylanmadan (oborot) soliq tarkibiga bir necha soliq va foydadan ajratmalarga 6 xil soliq birlashdi. Olib borilgan soliq islohoti natijasida korxonalariga budjetga olinadigan daromadlar 7 baravar ortdi. Lekin shunga qaramasdan respublikada birorta og'ir industriya giganti barpo etilmadi, chunki ularni qurish milliy mustamlakachilik manfaatlariga mos kelmas edi. Shuning uchun respublikada paxtachilikni rivojlantirish bilan bog'liq sanoat tarmoqlari, oziq-ovqat, yengil sanoat tarmoqlarini kengaytirishgagina ahamiyat berildi. Sanoat korxonalarining aksariyati xom ashyo, yarim tayyor mahsulot ishlashga ixtisoslashtirildi. Chunki tayyor mahsulotdan tushadigan mo'maygina daromad O'zbekiston xom ashyosini qayta ishlashga moslashgan Ittifoqdagi markaziy korxonalar tomonidan amalga oshirildi.

Ikkinchi jahon urushi boshlangandan so'ng O'zbekiston front ehtiyojlarini ta'minlovchi moddiy bazaga aylandi. O'zbekiston hududida urush harakatlari sodir bo'lmagan bo'lsada, boshqa respublikalar qatori bu yerda ham iqtisodiy tizim izdan chiqdi. Iqtisodiyotni qayta tiklash ishlari boshlanib, qator tadbirlar belgilandi. Jumladan, soliq tizimiga katta e'tibor qaratildi. Bu yo'nalishda soliq miqdori xo'jalik tomorqasiga qarab belgilanadigan bo'ldi. Natijada ayrim viloyatlarda uzumzorlarni kesib tashlashga o'xshash hodisalarga barham berildi. Soliq 2-3 baravar kamaydi.

1958 yildan boshlab aholi mablag'i hisobidan «ixtiyoriy» tartibda yoziladigan zayomlar bekor qilindi, daromad solig'i va boshqa soliqlar qisman kamaytirildi.

1965 yildan boshlab foydadan ajratmalar to'lovi o'rniga 3 xil ko'rsatkich asosida hisoblanadigan to'lovlar joriy qilindi. Bu to'lovlar turli korxonalar misolida sinovdan o'tkazildi. Lekin ular kutilgan natijani bermaganligi sababli milliy daromadning o'sish sur'atlari pasayib ketdi.

Shu munosabat bilan 1987 yil 7 iyulidagi moliya mexanizmini qayta qurish qarori qabul qilindi. Qarorning ikkinchi bandida oborot solig'ining to'lovchisi

bevosita mahsulot yetishtiradigan korxonalar bo'lishi kerak deb ko'rsatilgan. Bu moddaning ahamiyati shundan iboratki, bir tomondan respublikaning asosiy hal qiluvchi xom ashyosi hisoblangan paxta, pilla, rangli metallardan foydalanib boshqa respublikadagi korxonalarga mahsulot ishlab chiqarsa, ular joyida soliqqa tortilib, ikkinchi tomondan paxta va boshqa xom ashyolarni sotishdan kelgan daromadlar soliqqa tortilmas, respublika budjeti bu daromadlardan mahrum edi.

Sobiq Ittifoq davrida davlat bilan davlat mulkchiligi o'rtasida soliq munosabatlari bo'lishi mumkin emas degan mafkuraviy aqidaga tayangan holda davlat bilan davlat mulkiga tegishli korxonalar va tashkilotlar o'rtasida soliq munosabatlariga barham berishga harakat qilingan, lekin yuqorida ko'rib o'tganimizdek, Sobiq Ittifoq davlati tashkil etilgandan e'tiboran, uning hududida turli xil soliqlar amal qilgan.

Soliq sohasidagi o'ta muhim o'zgarishlar biri Sobiq Ittifoqning vakolatli organining (KPSS MQ) 1987 yil iyul oyidagi plenumida asdiqlangan "Davlat korxonalari (birlashmalari) to'g'risida"gi qonuni qabul qilinishi bilan bog'liq. Unga muvofiq korxonalar mulkchilik shaklidan qat'iy nazar budjetga to'lovlar bilan bir qatorda ular foydasini soliqqa tortish mumkinligi ham rasmiy ravishda tan olindi.

Nazorat savollari

1. Soliqlar qachon paydo bo'lgan?
2. Mamlakatimizdagi ilk soliqlar haqida nimalarni bilasiz?
3. Arablar istilosi davridagi soliqlarni qo'llash mexanizmi qanday?
4. Mo'g'ullar davridagi «kalon» va «kopchur» soliqlari qanday soliqlar?
5. Amir Temur davrida soliq undirish tartibi to'g'risida nimalarni bilasiz?
6. Buxoro amirligidagi soliqlarning undirilish tartibi qanday bo'lgan?
7. Xiroj solig'i ma'nosi nimani anglatadi?
8. Soliqlarning rivojlanish davrlari haqida nimalar bilasiz?

3-BOB. SOLIQLAR VA SOLIQQA TORTISHGA OID ILMIY QARASHLAR HAMDA NAZARIYALAR

3.1. Soliqlarga oid g'oyalar ilk qarashlar

Soliqlarning iqtisodiy mohiyatiga bevosita bag'ishlagan ilk ilmiy tadqiqot olib borgan olim sifatida U.Petti¹⁰ tan olinishiga qaramasdan, undan sal oldinroq 1651 yilda e'lon qilingan Tomas Gobbsning "Leviatan" nomli siyosiy-falsafiy asarida soliqlarga alohida e'tibor qaratilgan. Uning fikriga ko'ra, ibtidoiy jamiyatni "hamma hammaga qarshi urush" sifatida tasvirlagan. Jamiyatning bunday o'ldiradigan holatini oldini olish maqsadida odamlar davlat hokimiyatini yaratishadi deb hisoblaydi. Ushbu hokimiyatni namoyon qiluvchi odamlarni borligini ta'minlash uchun jamiyat a'zolari umumiy jamg'arma – davlat g'aznasini yoki fisk (lot. "fiskus" - g'azna) tashkil etadilar. Uning fikricha "soliqlar - jamiyat tinchligi sotib olinadigan baho"¹¹ bo'lib hisoblanadi.

Voban (1707) Gobbs fikrining mohiyati bo'yicha boshqacha talqin qildi: "Mamlakatning hukmdori ularga bu himoyani berolmaydi, agar ular unga zarur mablag'larni etkazib bermasalar". Xuddi shunday keyingi davrlarda (1748 yil) Sharl Lui Monteske uni tamomila shakllantirdi. Soliq to'lovchilar deydi u "o'zlarining mol - mulklarining ma'lum bir qismini berishadi, boshqa qismi bilan xotirjam foydalanishlari uchun", deb ta'riflab o'tadi¹².

J.J.Russo nomi "jamiyat shartnomasi" nazariyasi bilan bog'liq, fiskal shartnoma nazariyasi yoki unga yaqin bo'lgan davlat va fuqarolar o'rtasida xizmatlar almashuvi nazariyasi hosil bo'ldi. Keyinroq bu konsepsiya bir muncha chuqurlashtirildi: soliq - bu jamiyat hayotida alohida shaxslarning ishtirok etish shakli, deb ta'rif berdi. XIX-asrda soliqni jamiyat boyligini qayta taqsimlovchi instrument sifatida ko'rib chiqildi. Kuchliroq yelkalar og'irroq yukni ko'tarish

¹⁰ U. Pettining 1662 yilda chop etilgan "Soliq va yig'imlar to'g'risida traktat" nomli asarida soliqlarning nazariy jihatlari ilk bor tadqiq etilgan. U.Petti soliqlarni mutanosib bo'lishi zarur, chunki bu turli miqdordagi daromadlarning neytralligini ta'minlaydi degan g'oyani ilgari suradi.

¹¹ Mayburd Ye.M. Vvedenie v istoriyu ekonomicheskoy misli. Ot prorokov do professorov. - M.: Delo, Vita-Press, 1996. - 128 s.

¹² Shu yerda 128 b.

kerak, zaiflarni ozod qilish va kuchsizlarni qo‘llab-quvvatlash, ba’zida esa jamiyat yelkasiga chiqarish kerak degan fikrga kelindi.

Klassik maktabning birinchi vakillaridan biri bo‘lmish angliyalik iqtisodchi Uilyam Petti (ingl. William Petty; 1623-1687) o‘zining «Soliq va to‘lovlar to‘g‘risida traktat»ida (1662) shunday fikr yuritgan edi: “Soliq solish mutanosib va teng bo‘lishi hamda soliq hajmi avvaldan hisoblab chiqilishi, shu bilan birga favqulodda soliqlar esa imkon qadar kamroq bo‘lishi kerak” deb ta’kidlagan.

A.Smitning soliqlar xususida bildirgan fikrlarida davlatning iqtisodiyotga aralashmasligini va budjet daromadlarini shakllantirish maqsadida iqtisodiyotga soliqlar vositasida ta’sir etishi kerakligini (bunda ham faqal fiskal jihatdan) yoqlab chiqqanligini keltirish mumkin. U soliqlar “xalq kapitali hisobidan davlat daromadlarini ko‘paytiradi” deb izohlaydi va soliqlarning to‘lash manbai sifatida uchta asosiy xususiy daromad turini: renta, foyda va ish haqini keltiradi.

A.Smit “har qanday soliq oxir oqibatda uchta turli xil ushbu daromadlarning birontasidan to‘lanishi yoki barchasidan bir xil to‘lanishi kerak¹³” degan fikrga keladi. Shuningdek klassik nazariya namoyandalaridan yana biri D.Rikardoning qarashlari ham asosan Adam Smitning qarashlari bilan mos kelsa-da, soliqlarning jamiyatdagi rolini nisbatan kengroq baholaydi. D.Rikardo soliqlarning zarurligini e’tirof etib, uning davlat xarajatlarini qoplash bilan bog‘laydi, soliqlarning undirilish manbasini ishlab chiqarish faoliyati ya’ni korxonalar faoliyati bilan baholaydi: “...noishlab chiqarishdagi ishchilarni saqlab turishga yo‘naltiriladigan davlat xarajatlarini qoplash uchun solinadigan soliqlar, mamlakatning ishlab chiqarish faoliyatidan undiriladi¹⁴”.

Soliqlarning jamiyat hayotidagi rolga olim katta baho berar ekan, solik yuki darajasining oshishi oqibatida qanday noxushliklar kelib chiqishini quyidagicha izohlaydi: – “Katta qarzdorlikka yuz tutgan mamlakat noqulay holatga tushib qoladi. Bu holatda har bir soliq to‘lovchi o‘zidagi yukni (soliqni – muallifdan)

¹³ Smit A. Issledovanie o prirode i prichinax bogatstva narodov. Izdatel'stvo sosial'no-ekonomicheskoy literaturi. Moskva, 1962.–S. 588 (Vosproizvedeno po izdaniyu v izdatel'stve «Direktmedia Publishing». Moskva, 2008)

¹⁴ Rikardo D. Nachala politicheskoy ekonomii i nalogovogo oblojeniya. Sochineniya, tom I. Gosudarstvennoe izdatel'stvo politicheskoy literaturi. M.: - 1955.- S. 203.

to‘lashni boshqaga o‘tkazishdan manfaatdordir. Bunday yukdan qutilish imkonini beradigan boshqa mamlakatga o‘z kapitali bilan ko‘chib ketish taskini oxir oqibatda kishini yutib chiqadi, shu taskin bilan u o‘z vatanini va eski aloqalarni tark etadi”¹⁵.

Soliqlar, - deb yozadi D.Rikardo, - hokimiyat ixtiyoriga kelib tushadigan yer mahsuloti va mamlakat mehnatining bir qismini tashkil etadi va oxir-oqibatda ular kapital hisobidan yoki mamlakat daromadi hisobidan to‘lanadi. Har qanday soliq, u yer solig‘i, desyatina yoki olingan maxsulotdan soliq bo‘ladimi ishlab chiqarish xarajatlarini oshishiga sabab bo‘ladi va yakunda xom ashyo materiallar narhini oshiradi. Xom ashyolarga materiallarga soliqni yer egasi, fermer tomonidan to‘lanmasdan, balki iste‘molchi tomonidan to‘lab beriladi.

Dastlabki davrlarda soliqlarga fiskal jihatdan haddan tashqari erkinliklarning berilishi xususiy mulkchilikning daxlsizligiga zid keladi va davlat daromadlarining asosiy manbai sifatida favqulodda holatlardagina yangi soliqlar joriy etilishiga xalq vakillari ruxsati bilan yo‘l qo‘yilishi belgilandi. Merkantilistlar maktabining namoyandalaridan biri J.Boden (fr. Jean Bodin; 1530-1596) ham soliqlarga shunday ko‘z bilan qaraydi¹⁶.

Biroq, merkantilistlar garchi XVII asrda asosiy tamoyil hisoblangan tenglik tamoyiliga o‘zining sodiqligini bildirgan bo‘lsalar-da, soliq solish tamoyillarini bevosita ishlab chiqish muammosini o‘z oldilarga maqsad qilib qo‘ymaganlar.

Rus olimi, professor I.I.Yanjul (1846-1914) o‘zining davrida “soliq deganda davlat yoki jamiyat vakillari bo‘lgan ijtimoiy guruhlar tomonidan ijtimoiy ehtiyojlarni qondirish yo‘lidagi xarajatlarini qoplash uchun qonuniy yo‘l bilan huquqiy usulda fuqarolarning xususiy mulkidan undiriladigan bir tomonlama iqtisodiy qurbonlikni tushunish kerak”¹⁷.

Tinimsiz urushlar va tinchlik davrida ham saqlab turiladigan armiyalarning yaratilishi katta xarajatlarni talab qilardi va yuzaga kelgan vaziyatlar soliqlarni

¹⁵ Rikardo D. Nachala politicheskoy ekonomii i nalogovogo oblojeniya. Sochineniya, tom I. Gosudarstvennoe izdatel'stvo politicheskoy literaturi. M.: - 1955.- S. 205.

¹⁶ Pushkareva V.M. Istoriya finansovoy misli i politiki nalogov: Ucheb. posobie. – M.: INFRA-M, 1996. – 58s.

¹⁷ Yanjul I.I. Osnovnie nachala finansovoy nauki: Uchenie o gosudarstvennix doxodax. –M: «Statut» (v serii «Zolotie stranisi finansovogo prava Rossii»), 2002, tom 3. S. 240.

davlat daromadlarining doimiy hamda barqaror manbaiga aylanishi sabab bo'ldi. Urush davrida joriy etilgan ayrim vaqtincha soliqlar bekor qilinmasdan, aksincha soliqlar soni oshirilib borildi. Bu o'z-o'zidan aholining noroziligiga sabab bo'ldi, yuzaga kelgan bunday vaziyat moliya fani tomonidan soliqning nazariy asoslarini yaratilishini davr taqozosiga aylantirdi. Shunday qilib soliq nazariyasi shakllana boshladi, umuman olganda soliq nazariyasi bu soliqning mohiyati va tabiati hamda jamiyatning iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy hayotidagi o'rnini, roli va ahamiyati to'g'risidagi ilmiy ta'limotlar tizimidir.

Soliq nazariyasi dastlab umumiy soliq nazariyasi sifatida rivojlangan bo'lsa, keyin xususiy soliq nazariyalarining tamal toshi qo'yila boshlandi. Soliqlarning umumiy nazariyasi soliqqa tortishning umumiy jihatlari tadqiq etishga qaratilgan ilmiy konsepsiyalar tizimidan iborat bo'lsa, soliqning xususiy nazariyasi esa soliqqa tortishning ayrim jihatlari tadqiq etilgan ilmiy qarashlar tizimini tashkil etadi.

3.2. Soliqqa tortishning umumiy nazariyalari

Almashinuv nazariyasi dastlabki umumiy soliq nazariyalaridan biri hisoblanadi, soliq davlat tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlar sifatida qaytarilishiga asoslanadi. Ushbu davrlarda "soliqlarning dastlabki ekvivalentlik va qaytarishlik xarakteriga asoslanib, soliq munosabatlarining "bir hujayrali" ilk mohiyati yoritilgan"¹⁸. Mazkur nazariyaning mohiyati shundan iboratki, fuqarolar soliq orqali tashqaridan qilinadigan hujumlardan himoya, huquqlarini himoya qilinishi yuzasidan tartibning saqlanishi kabi xizmatlarni davlatdan sotib oladi. Biroq bunday nazariya o'rta asrlardagi holatga xos bo'lib, go'yo qirol va fuqarolar o'rtasida shartnoma sifatida soliq va boj to'lovlari evaziga harbiy va huquqiy himoya almashinardi. Bunday sharoitlarda almashinuv nazariyasi mavjud munosabatlarning rasmiy mazmuni hisoblanardi xolos.

XVII-XVIII asrlardagi ma'rifat davrida almashinuv nazariyasining atomistik nazariya deb nomlangan turi paydo bo'ldi. Atomistik nazariya vakillari fransiyalik

¹⁸ Barulin SV. Teoriya i istoriya nalogooblojeniya: Ucheb. posobie. M.: Ekonomist, 2006. S. 35.

mutafakkirlar Sebasten Le Pretr de Voban (fr. Sébastien Le Prestre de Vauban, 1633-1707) («jamoat shartnomasi» nazariyasi) va Sharl Lui de Monteske (fr. Charles-Louis de Seconda, Baron de La Brède et de Montesquieu; 1689-1755) («davlat shartnomasi» nazariyasi) kabilar unga asos soldi. Ushbu nazariya soliq fuqarolar va davlat o'rtasidagi shartnoma mahsuli ekanini e'tirof etdi, unga muvofiq fuqaro shaxsiy va mulkiy xavfsizligi himoyasi hamda boshqa xizmatlar uchun davlatga haq to'laydi.

Shuningdek ichki tartibni va mamlakatda tinchlik-totuvlikni qo'llab-quvvatlash muammosi tashqi dushmandan himoya qilish muammosi bilan umumlashtiriladi. Bunday muammoni hal etish uchun armiya, sud, politsiya va boshqa davlat organlari talab etiladi, ularni saqlab turish uchun soliq to'lash zarur. David Yumning (ingl. David Hume; 1711 - 1776) «fiskal shartnomasi» g'oyasini alohida ajratib ko'rsatish maqsadga muvofiq. O'zining «Soliqlar to'g'risida»gi inshosida (1752) u shunday yozgan edi: iste'mol qilish uchun soliqlar (yuqori darajada – muallifdan) o'rnatilsa, ishchilar o'z ehtiyojlarini kamaytirishlari yoki o'z mehnatiga to'lanadigan haqning oshirilishini talab qilishlari kerak va o'shanda soliq yuki boylarga tushadi, biroq agar soliqlar maqbul darajada bo'lsa va bosqichma-bosqich joriy etilsa, ishchilar ko'proq va yaxshiroq ishlay boshlaydi, ularning turmush darajasi esa ish haqi oshirilmasa ham avvalgidek qoladi. Bunday holat mamlakatning umumiy iqtisodiy o'sishiga olib boradi degan xulosaga keladi. Mashhur rus iqtisodchisi I.M. Kulisher (1878—1934) almashuv nazariyasining xususiyati va iqtisodiy ta'limotlar taraqqiyotidagi o'rni haqida to'xtalib, shunday degan: “ ushbu bitim har doim ham ixtiyoriy, boz ustiga adolatli ham bo'lmagan, lekin baribir ushbu ayirboshlash oxir oqibatda foydalidir, hattoki zaif bo'lib qolgan hukumat ham fuqarolarini, ular o'zlarini mustaqil himoya qilganidan ko'ra, arzonroq hamda yaxshiroq muhofaza qila oladi”¹⁹.

Biroq iqtisodiy ta'limotlarni rivojlantirishdagi fransiyalik olimlarning xizmati atomistik nazariyani yaratish bilan cheklanib qolmadi. Fransiyaning fiziokratlar maktabi vakili Onor Mirabo (fr. Honoré Gabriel Riqueti, comte de Mirabeau,

¹⁹ Kulisher I.M. Ocherki finansovoy nauki. Pg., 1919.

1749-1791) tomonidan XVIII asrda F.Kene bilan hamkorlikda yozilgan risolalaridan (pamflet) birida soliq bo'yicha mulohazalarining asosiy qoidalarini shakllantirdi. Mirabo har qanday soliq solish uchta tamoyilga javob berishi kerak deb hisoblardi: birinchidan, u bevosita daromadlar manbaining o'ziga asoslangan bo'lishi lozim; ikkinchidan ushbu daromadlar bilan muayyan munosabatda bo'lishi zarur; uchinchidan, uni undirish xarajatlari haddan ortiq ko'p bo'lmasligi kerak.

Fransua Kene (fr. François Quesnay, 1694-1774) o'zining iqtisodiy jadvalini tahlil qilishda takror ishlab chiqarish jarayonini qisqartiruvchi sabablar sifatida quyidagilarga alohida to'xtalgan:

- 1) soliq solishning noqulay shakli;
- 2) soliqlarning ortiqcha yuki;
- 3) ortiqcha sud chiqimlari.

Demak, F.Kene takror ishlab chiqarish ko'lamini kengaytirish iqtisodiyotni rivojlanishining muhim yo'nalishlaridan biri sifatida qarab, soliq yuki va sud chiqimlarini salbiy ta'sir etuvchi omillar deb baholaydi. Fiziokratlar maktabning xizmati shundan iboratki, u soliq umumiy yoki sof foydadan olinishi kerakmi degan savolga birinchi bo'lib javob berayotib, oxirgisiga ustuvorlik berdi, bu esa ularning nuqtai nazaridan soliq yuki taqsimlanishining tengligini ta'minlashi kerak. Shunday qilib, ular soliq solish tamoyillari to'g'risidagi masalani birinchilardan bo'lib ilgari surdi.

XVIII asrda soliqlarni sug'urta mukofoti singari baholash g'oyasi paydo bo'ladi. Ushbu nazariyaga muvofiq soliq to'lovchilar sug'urta jamiyati a'zolari sifatida ishtirok etadi. XIX asrning ikkinchi yarmida fransiyalik davlat arbobi Adolf Ter (fr. Louis-Adolphe Thiers, 1797-1877) va shotlandiyalik iqtisodchi Jon Ramsey Mak-Kullox (John Ramsey McCulloch; 1789-1864) sug'urta mukofoti sifatida ushbu g'oyani rivojlantirdi va ushbu g'oyani yoqlovchi izdoshlarini topdi. Ularning fikricha, soliq bu sug'urta to'lovi bo'lib, u biror-bir xavfni (urush, yong'in, o'g'rilik va hokazo) oldini olish uchun fuqarolar tomonidan davlatga to'lanadi. Bunda, A. Ter nazariyasiga ko'ra, har kim o'z daromadi yoki mulkiga mutanosib ravishda soliq to'lashi kerak, chunki mudofaa va muhofaza qilishga

sarflanadigan xarajatlar qoʻriqlanadigan mulk summasi boʻyicha taqsimlanishi kerak. Biroq, haqiqiy sugʻurtadan farqli ravishda soliqlar sugʻurta hodisasi yuz berganda qoplash summasini olish uchun toʻlanmaydi, balki muhofazani taʼminlash va tartibni saqlash boʻyicha hukumat sarf-xarajatlarini moliyalashtirish uchun toʻlanadi.

Sugʻurta mukofoti sifatida soliq nazariyasi bilan parallel ravishda XIX asrning birinchi yarmida shveysariyalik iqtisodchi Jan Simond de Sismondi (fr. Jean Charles Léonard Simonde de Sismondi; 1773-1842) oʻzining «Siyosiy iqtisodiyotning yangi davri» nomli asosiy asarida (1819) soliq nazariyasini rohatlanish nazariyasi sifatida taʼriflaydi, unga muvofiq soliqlar yordamida har bir soliq toʻlovchi rohat-farogʻatdan boshqa narsa sotib olmaydi. Rohat-farogʻat deganda u jamoat tartibi, adolat, shaxsiy va mulkiy himoyani nazarda tutadi. Rohat-farogʻat shuningdek jamoat ishlari, xalq maʼrifati, milliy xavfsizlikni oʻz ichiga oladi. Boshqacha aytganda, fuqarolar soliqlarga ularning shaxsiy va mulkiy himoyasini taʼminlash uchun hukumat tomonidan koʻrsatiladigan xizmat sifatida qarashlari kerak. Ularning yordamida davlatning har yillik xarajatlari qoplanadi. Shuningdek, Sismondi soliqlar shaxsiy kapitaldan emas, balki sof daromaddan olinishi kerak deb hisoblagan. “Xullas soliqlar sifatida toʻlanadigan pullarni maqbul foydalanildi deyish mumkin, qachonki jamiyat rohat-farogʻati yoʻlida yigʻilgan ushbu mablagʻlar haqiqatda hukmdorlarning manmanlik va ehtirolari uchun ishlatilmasdan, ijtimoiy rohatlanish uchun sarf etilganda. Soliqlar fuqarolarning rohatlanish bahosidir”²⁰. Shu maʼnoda ushbu nazariya tarafdorlari eng avvalo yigʻilgan soliqlarning jamiyat farovonligi uchun sarflanishi zarurligini yoqlab chiqqan boʻlsalar, keyingi navbatda ushbu mablagʻlardan yakka ehtiyojlarni, yaʼni ayrim yuqori tabaqali zodagonlarning shaxsiy manfaatlari uchun foydalanishni qoralaydi.

Klassik maktab oʻsha davrlardagi soliq nazariyalarida alohida oʻrin egallaydi. Klassik olimlar soliqlarning iqtisodiy tabiati, uning mohiyatini yoritish va toʻlash

²⁰ Mayburov I.A. i dr. Teoriya i istoriya nalogooblojeniya. 2-e izd., pererab. i dop. –M.: YuNITI-DANA, 2011. – 30 s.

manbasi masalalari oid muhim tadqiqotlar olib borishdi. Klassik nazariya soliqlar davlat budjeti daromad manbai sifatidagi rolini e'tirof etib, iqtisodiyotni boshqarishdagi ahamiyatini bir muncha inkor etishdi. Ularning fikricha, raqobatbardosh iqtisodiy muhit iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta'minay oladigan tabiiy mexanizmlarga ega, tabiiy iqtisodiy qonunlar "ko'rinmas qo'llar" yordamida iqtisodiyotni tartibga solib turadi.

Klassik maktabning birinchi vakillaridan biri bo'lgan angliyalik iqtisodchi «Soliq va yig'imlar to'g'risida traktat» asarining muallifi Uilyam Petti (ingl. William Petty; 1623-1687) o'z qarashlarida "tarixiy an'analar va o'zaro kelishuvlar orqali tabiiy boshqarilishi mumkin bo'lgan juda ko'p narsalar qonun ostida tartibga solishga o'tganligi"ni davlat boshqaruvining kamchiliklari sifatida e'tirof etadi. Shu tufayli U.Petti tabiiy qonunlarni cheklovchi davlat tomonidan ishlab chiqiladigan me'yoriy hujjatlarning qabul qilinishiga qarshi chiqadi. Davlatning asosiy funksiyalari sifatida ish kuchlaridan to'liq foydalanishni tashkil qilish va uning sifatini oshirish hamda davlat maqsadli xarajatlarini quyidagilarga ajratadi: 1) harbiy xarajatlar, 2) boshqaruv xarajatlari, 3) cherkov xarajatlari, 4) ta'lim xarajatlari, 5) nogiron va yetim bolalarni boqish xarajatlari, 6) yo'llarni, ko'priklarni, portlarni va boshqa umumfoydalanishdagi inshootlarni saqlash xarajatlari²¹.

Biroq klassik maktabda Adam Smit (ingl. Adam Smith; 1723-1790) markaziy rolni o'ynaydi, u soliqning iqtisodiy tabiatini o'rgangan va tamoyillarini ishlab chiqqan. Klassik nazariyada Adam Smit almashinuv nazariyasiga asoslanadi va soliqni ko'rsatilgan xizmatlar uchun davlatga to'langan adolatli haq deb e'tirof etadi. A.Smit soliqlarning iqtisodiyotni boshqarishdagi rolini keng e'tirof etmagan holda, "har bir davlatning boyligi va unga bog'liq ravishda qudrati doimo mamlakat jamg'armasini shakllantiradigan yillik mahsulotlari qiymatiga mos kelmog'i lozim, qaysiki barcha soliqlar oxir oqibatda uning (boyluk – muallifdan) hisobidan to'lanadi. Shuning uchun har bir mamlakat siyosiy iqtisodiyotining eng

²¹ Petti U. Traktat o nalogax i sborax, Moskva, 1963, s. 11.

muhim vazifasi uning boyligi va qudratini oshirishdan iborat²²—degan xulosaga keladi.

David Rikardo (ingl. David Ricardo, 1772-1823) klassik maktab vakili va A.Smit izdoshi hisoblanadi. D.Rikardoning fikricha “Soliqqa tortishning o‘sishi yoki hukumat xarajatlarining ko‘payishi bilan, agar xalq bunga mos ravishda o‘z kapital va daromadlarini oshirmasa, xalq foydalanadigan qulayliklar soni kamayishi kerak. Hukumatning vazifasi jamg‘arishga bo‘lgan intilishlarni rag‘batlantirishdan iborat bo‘lishi kerak. U hech qachon kapitalga tushadigan soliqlarni joriy etmasligi kerak. Agar bunday qilmas ekan mehnatni saqlab turish uchun mo‘ljallangan fondga ta’sir etadi va bu bilan mamlakatning kelajakdagi ishlab chiqarishini kamaytiradi”²³.

Shunga qaramay, davlatning almashuv bitimlariga asoslangan barcha nazariyalarda soliq to‘lash va davlat tomonidan ko‘rsatiladigan xizmatlar (olinadigan naf) o‘rtasida hech bir muayyan bog‘lanish mavjud emas. Chunki ushbu bitimni tuzilishida hech qanday ixtiyoriylik yo‘q, majburiy xarakterga ega, shuningdek soliq to‘lovchi shaxs tomonidan to‘lanadigan miqdor va unga davlat tomonidan ko‘rsatiladigan ijtimoiy xizmatlar o‘rtasida har doim tengsizlik qaror topadi. Bunga sabab soliq to‘lovchi o‘zi “iste’mol” qilayotgan xavfsizlikning riskini baholay olmaydi, tinchlikni hech qanday ne‘mat bilan almashtirib bo‘lmaydi, shuningdek davlat ko‘rsatayotgan ta’lim yoki tibbiy xizmatlar chegara bilmaydi, o‘lim to‘shagida yotgan kishi boyliklari ko‘ziga ko‘rinmaydi, sog‘ligini tiklash uchun barcha bor-budini berishga tayyor, aynan davlat fuqaroning bevaqt o‘lim to‘shagiga mixlanib qolmasligi uchun profilaktika (emlash, epidemiyaning oldini olish va h.k.) tadbirlarini amalga oshiradi.

Bu o‘rinda o‘zbekistonlik taniqli olim prof. K.A.Yax‘yoevning fikrlarini keltirib o‘tishni joiz deb topdik: “Bozor iqtisodiyoti ekvivalentli iqtisodiyot. Bu yerda hamma narsa sotiladi: mahsulot, ish, xizmat, ularning qiymati va obyektiv

²² Smit A. Issledovanie o prirode i prichinax bogatstva narodov. Izdatel'stvo sosial'no-ekonomicheskoy literaturi. Moskva, 1962.—S. 274 (Vosproizvedeno po izdaniyu v izdatel'stve «Direktmedia Publishing». Moskva, 2008)

²³ Rikardo D. Nachala politicheskoy ekonomii i nalogovogo oblojeniya. Sochineniya, tom I. Gosudarstvennoe izdatel'stvo politicheskoy literaturi. M.: - 1955.- S. 131.

zarurligi bozorda oldi-sotdi munosabatlari orqali namoyon bo'ladi. Bozor munosabatlarida davlat ham uning boshqaruvchisi, ham asosiy ishtirokchisi (sub'ekti) bo'ladi. Bu yerda davlat ishtiroki uning jamiyat uchun o'ta zarur bo'lgan mamlakat xavfsizligini ta'minlash, tartib-intizom o'rnatish, ta'lim tarbiyaviy tadbirlar, aholi sog'ligini ta'minlash, mamlakatni boshqarish, dunyo hamdo'stligi mamlakatlari bilan har xil aloqalarni o'rnatish, bozor iqtisodiyoti infratuzilmalarini tashkil etish va rivojlantirish kabi chora tadbirlarni amalga oshirishda o'z ifodasini topadi. Yuqoridagi tadbirlarni amalga oshirish xarajatlari bozor sharoitida erkin sotilish lozim edi. Ammo, uni bozor «ko'tarmaydi». Sababi ikkita. Birinchidan, bu xizmatlar murakkab bo'lganligi birorta yuridik shaxs, hattoki eng yirigi ham bajara olmaydi. Ikkinchidan, davlat xizmatlari xarajati alohida soliq to'lovchilar uchun juda qimmatga tushishi mumkin. Shuning uchun, davlatning bunday xizmatlarini «ijtimoiy tovarlar», to'g'rirog'i ijtimoiy xizmatlar deb ataladi. Shu xizmatlar haqini olish davlat uchun obyektiv zarur, chunki u xizmatlarga mablag' sarflanadi. Bu xizmatlarni erkin sotish yo'qligidan davlat uni majburiy undirishni talab qilib Oliy Majlisga murojaat qiladi»²⁴.

Keyingi davrlarda asta-sekin huquqiy davlat to'g'risidagi ta'limotlarning rivojlanishi natijasida soliqlarning majburiylik xususiyatiga asoslangan yangi nazariyalarni (qurbonliklar nazariyasi va kollektiv (jamoaviy) ehtiyojlar nazariyasi) paydo bo'lishiga olib keladi. Bu nazariyalar soliqni davlat xarajatlarini qoplash manbai sifatida davlat tomonidan qondiriladigan jamoaviy ehtiyojlardan kelib chiqadigan majburiyat sifatida talqin qildi. Ushbu nazariyalar soliqlarning mohiyati va xususiyati bo'yicha qarashlarda keskin burilish yasadi.

Qurbonliklar nazariyasi – soliqning majburiylik xususiyatiga ustuvorlik berilgan dastlabki nazariyalardan biridir. Lekin shunga qaramay ushbu nazariyaning dastlabki uchqunlarini fiziokratlarda uchratishimiz mumkin, ular yagona yer solig'ini asoslashda «agar davlat butun xalq boyligi, barcha ne'matlar uchun yerdan, tabiat in'omlaridan minnatdor bo'lsa, u holda davlat xalqdan talab qilishi mumkin bo'lgan barcha qurbonliklar ushbu manbadan olinishi kerak» degan

²⁴ Yahyoev Q.A. Soliqqa tortish nazariyasi va amaliyoti. - T.: Fan va texnologiyalar markazi, 2003. - 14 b.

fikrni ilgari suradilar²⁵. Fransiyalik iqtisodchi N. Kanar o'zining «Siyosiy iqtisod tamoyillari» kitobida (1801) soliqlar to'lashda individum tomonidan davlat manfaatlari uchun keltiriladigan qurbonlik (xayr-sadaqa) to'g'risidagi g'oyani rivojlantiradi.

Jon Styuart Mill (ingl. John Stuart Mill; 1806-1873) o'zining «Siyosiy iqtisodiyot asoslari» nomli kitobining «Hukumat ta'siri to'g'risida»gi beshinchi jildida soliq tizimini takomillashtirish, uning ijro etuvchilari ustidan nazorat va daromadlarni qayta taqsimlash masalalarini ko'rib chiqdi. U soliqni balo emas, balki zarurat tufayli keltirilgan qurbonlik deb ataydi. Hukumat xo'jalikning normal shart-sharoitlarini ta'minlash uchun mas'ul alohida ishlab chiqaruvchi hisoblanadi. Soliq ular uchun to'langan haqdir. Shunday qilib, D.S.Mill davlat faoliyat olib borishi uchun soliqlar shaklida daromadlarni yig'ishi zarurligini e'tirof etadi. Biroq uning nuqtai nazaridan soliqlar, shu jumladan egri soliqlar birinchi ehtiyoj tovarlarga nisbatan qo'llanilmaslik kerak hamda ularga yuqori soliq va import bojlar solinmasligi kerak. Bunda soliq har bir fuqaro uchun ayni bir narx yoki ayni bir xil qurbonlik hisoblangan vaziyatda uni normal soliq solish deb atadi va uning fikricha soliq solish tengligi qurbonliklar tengligini anglatadi. Shu munosabat bilan u mutanosib soliq solish tarafdori bo'ldi, boz ustiga mutanosib soliq mulkka emas, balki sarflash mumkin bo'lgan mablag'larga mutanosib ravishda soliq solish kerak. Qurbonliklar nazariyasi XIX asrning ikkinchi yarmida yanada rivojlandi, XX asrning birinchi o'n yilligida ham o'z dolzarbligini saqlab qoldi.

Soliqlarning davlat tomonidan majburiy tartibda, muayyan o'rnatilgan stavkalarda undirilishi g'oyasi kollektiv ehtiyojlar nazariyasida rivojlantirildi. Kollektiv ehtiyojlar nazariyasi XIX asr va XX asr boshidagi jahonda yuzaga kelgan haqiqiy vaziyatni aks ettirdi, chunki bu davrda davlat xarajatlarining harbiy sarflar hisobiga keskin ko'payishi va soliq yukining oshirilishini asoslash zarurati yuzaga kelgandi. Barcha moliya maktablari: nemis, italyan, avstriya, amerika maktablari soliqni davlat tomonidan ko'rsatiladigan kollektiv xizmatlar uchun ekvivalent sifatida ko'rib chiqib, bundan soliqning majburiylik xususiyati – boj,

²⁵ Pushkareva V.M. Istoriya finansovoy misli i politiki nalogov: Ucheb. posobie. – M.: INFRA-M, 1996. – 65 s.

domenlardan olinadigan daromadlar va regaliylardan farqlovchi o'ziga xos belgisi ekanligi isbotlashga urindilar.

Ushbu maktabning yana bir yorqin vakillaridan biri nemis olimi Adolf Vagner (Adolph Wagner, 1835-1917) soliqlar funksiyalarini tadqiq etib, «umumiy asoslar va ko'lamlar bo'yicha davlat va mahalliy jamoat uyushmalarining barcha xizmatlari uchun umumiy taqdirlash sifatida bir tomonlama o'rnatilgan shaklda va miqdorda suverenit davlat yoki mahalliy hokimiyat organlari umumiy sarf-xarajatlarini qoplash maqsadida alohida xo'jaliklar yoki jismoniy shaxslarda undiriladigan majburiy badallar» deb soliqlarga ta'rif beradi. Kollektiv ehtiyojlar nazariyasiga rioya qilgan holda A.Vagner soliq solishning yetarliligi va qulayligi moliyaviy tamoyillarini yuqori o'ringa qo'ydi, bunda davlat manfaatlariga ustuvorlik berdi hamda moliya fanida davlat va soliq to'lovchilar manfaatlarining muvozanatlashtirish to'g'risidagi masalani o'rtaga tashladi. Biroq, A.Vagner o'z tadqiqotlarida ijtimoiy-siyosiy yondashuvni ilgari surdi, bunga ko'ra soliq siyosati nafaqat fiskal, balki tartibga soluvchi ijtimoiy-siyosiy maqsadlarni ham ko'zda tutishi kerak. "Soliqlarga yaqin kelajakda, sof moliyaviy maqsad bilan bir qatorda, - deydi A.Vagner, - yana bir boshqa farqli maqsad – xalq daromadlari va mulkini taqsimlashda soliqlar yordamida tartibga soluvchi aralashuvni amalga oshirish va shuning asosida, erkin ayirboshlash sharoitida yuzaga keladigan o'zgarishlarni ta'minlash maqsadi qo'yilishi mumkin. Men bu nuqtai-nazarni nafaqat turli ziddiyatlarga qarshi turib qo'llayman, balki endi mazkur maqsadni alohida daromad va mol-mulkni iste'mol qilinishida ham tartibga soluvchi mazmundagi aralashuv yo'nalishida kengaytiraman. Ko'rsatilgan ushbu maqsadning bunday belgilanishidan kengaygan, yoki, aytish joiz bo'lsa, soliqning sof moliyaviy mazmuni bilan birgalikda, ikkinchi ijtimoiy-siyosiy mohiyati kelib chiqadi"²⁶.

Kollektiv ehtiyojlar nazariyasi ko'plab tanqidga uchrashiga qaramasdan, ushbu nazariya XX asr 30-yillarda G'arb moliya fanida yetakchi o'rin egallaganini va asr oxirida zarur tuzatishlarni hisobga olgan holda G'arb iqtisodiy ta'limotida

²⁶ Titov A.S. Ponyatie, sushnost' i osnovnie napravleniya razvitiya nalogovoy politiki // Finansovoe pravo. – №5, 2005 – S.21.

munosib o'rinni egalaganini qayd etish zarur. Shuningdek soliqlarning kollektiv ehtiyojlari nazariyasidagi «kollektiv» so'zi «jamiyat ehtiyojlari» so'ziga to'g'rilanib keynschilar hamda neokeynschilar tomonidan to'liq qabul qilindi.

Keynschilik va neoklassik nazariya – XX asrda paydo bo'lib, rivojlanishga yo'l tutgan ikkita yo'nalishdir. Ushbu yo'nalishlarni hozirgi davrda ham bir-birini inkor etuvchi, joyi kelganda bir-birini to'ldiruvchi takomillashgan soliq nazariyasi sifatida alohida ajratib ko'rsatish mumkin. Mazkur nazariyalar o'z davrida yechimini kutib turgan savollarga javob bera olgan, yuzaga kelgan muammolarni hal etishda muhim ahamiyatga ega bo'lganligini e'tirof etish zarur.

Angliyalik iqtisodchi Jon Meynard Keynes (ingl. John Maynard Keynes; 1883-1946) va uning izdoshlari ishlanmalari asosida XX asr boshlarida asos solingan keynschilik nazariyasi klassiklar nazariyasini ko'p jihatdan inkor etadi. Ushbu nazariyaning bosh g'oyasi soliqlarning iqtisodiyotni tartibga solish muhim moliyaviy instrumenti va mamlakatning iqtisodiy barqarorligini ta'minlashning asosiy shartlaridan biri ekanligidan iborat.

Mazkur nazariya ishlab chiqarilgan mahsulotning sotilishini ta'minlash hamda pirovard natijada mamlakatning iqtisodiy o'sishini xizmat qiladigan ishlab chiqarishni rag'batlantirish uchun «samarali talab»ni yaratish zarurligini isbotlaydi. Umumiy talab dinamikasini faol davlat aralashuvi orqali tartibga solishni taklif qiladi. Davlat nafaqat pul-kredit, balki budjet-soliq siyosati orqali soliqlarning tabaqalashtirilgan stavkalaridan foydalanib yalpi iste'molni rag'batlantirishga ta'sir ko'rsatishi kerak. Iqtisodiy inqiroz davrida ish bilan bandlik pasayadi, demak, ishsizlik bo'yicha davlatning nafaqaga sarflaydigan xarajatlari yuqori bo'ladi, soliqlarni oshirishga to'g'ri keladi, davlat shu orqali talabni oshiradi, iqtisodiyot ko'tarilish davriga kelib soliqlarni pasaytirish imkoniyati yaratiladi.

J.Keyns «Ish bilan bandlikning umumiy nazariyasi, foiz va pullar» ("The General Theory of Employment, Interest, and Money", 1936) asarida o'z nazariyasining mazmun-mohiyatini bayon qiladi: iqtisodiy o'sish pul omonatlari hajmiga bog'liq. Ish bilan to'liq bandlik bo'lmasa, yuqori darajadagi jamg'armalar iqtisodiy o'sishga to'sqinlik qiladi, chunki ular ishlab chiqarishga

yoʻnaltirilmasdan va daromadning passiv manbai sifatida saqlanib qoladi. Bunday oqibatlarni bartaraf etish uchun jamgʻarmalarning meʼyoriy miqdorini pasaytirish zarur yoki isteʼmolning meʼyoriy miqdorini oshirish zarur. Soliqlar yordamida aynan ortiqcha jamgʻarmalarni budjetga undirish orqali mazkur muammolarni bartaraf etish mumkin deb hisoblaydi.

Biroq, ilmiy-texnika taraqqiyoti va tovarlarni ortiqcha ishlab chiqarilishi bilan bogʻliq boʻlmagan inqirozli holatlarning tobora jadal tus olishi sharoitlarida keynschilik nazariyasining asosiy mazmunini tashkil etuvchi «samarali talab»ga erishish nuqtai nazaridan davlatning iqtisodiyotga aralashuvi qaysidir maʼnoda oʻzini oqlamay qoldi va ushbu nazariyani faqat bir tomonlama yondashuv sifatida tanqid qiluvchilar koʻpaydi. Davlat tomonidan iqtisodiyotni tartibga solishning keynschilik nazariyasining quyidagi jihatlari tanqidga uchradi. Birinchidan, realizatsiya bilan bogʻliq boʻlmagan va ishlab chiqarish jarayonlaridagi oʻzgarishlar tufayli inflyatsiya surunkali xususiyat kasb etganda talabni emas, balki taklifni ragʻbatlantiruvchi davlat aralashuvi zarur boʻldi. Ikkinchidan, iqtisodiyotda integratsion jarayonlarning rivojlanishi mamlakatlarning tashqi bozorga qaramligini oshirdi. Bunday sharoitda davlat tomonidan talabning ragʻbatlantirilishi xorijiy investitsiyalarga ijobiy taʼsir koʻrsatishi bilan birga iqtisodiy xavfsizlikka salbiy koʻrsatishi tabiiy hol. Ushbular sabab «samarali talab»ning keynschilik konsepsiyasi oʻrniga «samarali taklif»ning neoklassik nazariyasi rivojlana bordi.

Neoklassik nazariya erkin va tabiiy raqobatga, iqtisodiy, xususan ishlab chiqarish jarayonlarining barqarorligini taʼminlashga ustuvorlik berishga asoslanadi. Alfred Marshall (ingl. Alfred Marshall; 1842-1924) bu nazariya asoschilaridan biri hisoblanadi. Ushbu nazariyaning keynschilik nazariyasidan asosiy farqi davlat tomonidan iqtisodiyotni tartibga solishga boshqacha yondashuvdan iborat. Agar keynschilik maktabi vakillari dinamik muvozanat barqaror emas va shu tufayli davlat iqtisodiy jarayonlarga davlatning toʻgʻridan-toʻgʻri aralashuvi zarur deb hisoblagan boʻlsa, neoklassik nazariyaga koʻra erkin raqobat muhitini yaratuvchi qonunlarga xalaqit beruvchi toʻsiqlarni bartaraf etishga

qaratilgan davlat aralashuvi zarur va bunday davlatning iqtisodiyotga aralashuvi iqtisodiy muvozanatni ta'minlovchi tabiiy qonunlar harakatini cheklab qo'ymasligi lozim.

Neoklassik modelning asoschilaridan bo'lgan A.Marshall davlatning iqtisodiyotni tartibga solishdagi rolini bilvosita vazifa deb qarab, davlatni xarajatlari muntazam ortib borishi tufayli iqtisodiy barqarorlikka putur yetkazadigan omil sifatida qaradi. Neoklassiklar Markaziy bankning kredit-pul siyosatiga ustuvorlik berib, budget- siyosatini yetarli baholamagan holda, to'liq bandlik va milliy boylukning barqaror o'sishini ta'minlovchi daromadlarni samarali qayta taqsimlash mexanizmini yaratish mumkin deb hisoblaydilar.

Neoklassik nazariya, o'z navbatida, ikki yo'nalishda keng rivojlandi: taklif iqtisodiyoti nazariyasi va monetarizm.

Taklif iqtisodiyoti nazariyasi - bu fundamental nazariya bo'lib, konservativ iqtisodchilarning eng faol guruhiga taalluqli. U AQSh iqtisodiy romantizmi, pragmatizm va siyosiy demagogiya aralashmasidan kelib chiqqan. U AQSh ma'muriyatining iqtisodiy siyosatini belgilashda muhim rol o'ynaydi.

J.Kemp, J.Russelotorg, U.Rot kabi siyosatchilar, J.Vanniski, J.Gilder, I.Kristol kabi jurnalistlar, A.Laffer, R.Mandel kabi nazariyachi-professorlardan iborat amaliy arboblar nazariyaga asos soldi. Empirik tadqiqotlar M.Feldstayn, M.Boskin kabi professorlar tomonidan taqdim etildi.

Taklif iqtisodiyoti nazariyasi vakillari iqtisodiy liberalizm g'oyalari tarafdorlari hisoblanadi. Nazariyaning asosiy konsepsiyasi davlat moliyasi va kapitalni jamg'arish kabi makroiqtisodiy muammolarni tahlil qilishda makroiqtisodiy tamoyillaridan keng foydalanishga qaratilgan. Bunda asosiy g'oya rag'batlantiruvchi soliq siyosatini qo'llash orqali iqtisodiy faollikni oshirish, samarali iqtisodiy siyosat yuritish orqali ustuvor yo'nalishdagi ishlab chiqarish jarayonlarini (taklifni) qo'llab-quvvatlashga asoslanadi. Taklif iqtisodiyoti nazariyasi vakillari iqtisodiyotga davlat aralashuvining «zararli» jihatlarini bartaraf etishni, davlat tomonidan tartibga solinadigan faoliyatni minimallashtirishni,

shuningdek tadbirkorlikning bozor asoslarini mustahkamlash va erkin raqobat muhiyatini yaratilishini talab qiladi.

Taklif iqtisodiyoti nazariyasi vakillari jamiyatning iqtisodiy taraqqiy etishini xususiy mulkchilikni himoya qilish va narx siyosatini erkinlashtirish, bozor iqtisodiyoti raqobatbardoshligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar tizimini takomillashtirish, tadbirkorlarning manfaatlarini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan iqtisodiy munosabatlar takomillashtirishni ilgari suradilar. Biroq mazkur nazariya tarafdorlari davlatning iqtisodiyotdagi ishtirokini to'liq inkor etmaydilar, davlatning rolini isloh etishni taklif qiladilar. Taklif iqtisodiyoti nazariyasi vakillari davlatning asosiy vazifasi jamiyatning barcha a'zolariga «teng imkoniyatlar» yaratish va amerikaliklarning turmush tarzini yaxshilash hamda orzu-havas va intilishlarini ro'yobga chiqarish uchun shart-sharoitlar yaratib berishdan iborat deb hisoblaydilar. Bunda boylikni oshirishga zamin yaratish, mulkchilikka cheksiz egalik qilish huquqini berish, tadbirkorlarning iqtisodiy faolligi oshirish jamiyat gullab-yashnashi uchun zarur shartlar sifatida e'tirof etadilar.

Taklif iqtisodiyoti nazariyasi namoyondalari soliqlarning past darajali stavklari omonatlar o'sishini va investitsiya faoliyatining kengayishini ta'minlovchi shartlardan biri degan xulosani ilgari surdilar. Pasaytirilgan soliq stavkalarining rag'batlantiruvchi ta'sirini nazariy isboti uchun ular amerikalik iqtisodchi **Artur Lafferning** (ingl. Arthur Betz Laffer; 1940 yil 14 avgust) konsepsiyasidan foydalandi. A.Laffer soliq yuki va davlat daromadlari o'rtasidagi aloqani belgilovchi qonuniyat mavjud, degan fikrni ilgari suradi. Turli mamlakatlarning statistik ma'lumotlarini umumlashtirib, u shunday xulosaga keldiki, soliq stavkalarini kamaytirish ishlab chiqarishning va iqtisodiy faollikning o'sishini rag'batlantiradi. Kamroq stavkada davlat ko'proq daromad oladi, chunki yuqori soliqlar ishlab chiqarishni bo'g'ib qo'yadi, korxonani aylanma mablag'lari va investitsiyalaridan mahrum qiladi.

XX asrning 50-yillarida erkin bozor g'oyasi tarafdori amerikalik iqtisodchi, Chikago universiteti iqtisodiyot professori Milton Fridman (ingl. Milton Friedman; 1912-2006) tomonidan monetarizm nazariyasi ilgari surildi. Monetaristlar budjet

multiplikatori mexanizmini shubha ostiga qo‘ydi, unda soliq stavkalari va budget sarf-xarajatlari o‘zgarishi milliy daromadning ko‘p karra o‘shirishini ta‘minlaydi va keynschilarning budget chora-tadbirlarining talabning to‘lov qobiliyati holatiga, ish bilan ta‘minlanganlikka va narxlarga kuchli va puxta taxmin qilingan ta‘sir to‘g‘risidagi da‘vosini bekor qilishga urinib ko‘rdi. Fridman davlat rolini undan boshqa hech qim bajara olmaydigan faoliyat bilan cheklashni taklif qildi: muomaladagi pullarni tartibga solish.

Davlat tomonidan iqtisodiyotni tartibga solishda monetaristlar keyns nazariyasidagidek soliqlarga muhim o‘rin bermadi. Soliqlarni boshqa mexanizmlar bilan bir qatorda pul muomalasiga ta‘sir ko‘rsatuvchi dastaklardan biri sifatida qaraldi. Monetaristlar davlat tomonidan har yili inflyatsiyaning qo‘shimcha ravishda o‘shirishini keltirib chiqaradigan xarajatlarni oshirish orqali jamiyat boyligini yaratishga, ishlab chiqarish hajmlarini, bandlik va narxlarni tartibga solinishiga qarshi chiqadilar. Biroq monetarizm vakillari zayomlar yordamida ortiqcha pul massasini muomaladan olib qo‘yish imkoni bo‘lmasa, soliqlar yordamida bu vazifani bajarish zarur deb hisoblaydilar. M.Fridman soliqlarning yuqori stavkalariga qarshi chiqdi, uning fikricha davlatning puxta o‘ylanmagan soliq siyosati ishlab chiqaruvchilar bilan iste‘molchilar va yollanma ishchilar o‘rtasidagi munosabatlarga putur yetkazishi mumkin, tadbirkorlarning ixtiyorida qoldiriladigan foydasini kamaytirib, kengaytirilgan takror ishlab chiqarish jarayonlari uchun investitsiyalar yo‘naltirish imkoniyatlarini kamaytiradi. Shu munosabat bilan M.Fridman korxonaga nisbatan soliq stavkalarini pasaytirish orqali ishlab chiqarishga sarflanishi mumkin bo‘lgan jamg‘armalarni oshirish imkoniyatini yaratish zarur deb hisoblaydi.

Umuman olganda barcha neoklassik nazariyalarning asosiy g‘oyasi inflyatsiyani kamaytirish va korporatsiyalarga va bozorda iste‘mol talabini shakllantiradigan aholi qismiga katta miqdorda soliq imtiyozlarini berishdan iborat. Biroq neoklassik yo‘nalish usullarining ommabopligiga va ulardan amaliy foydalanilishiga qaramay, iqtisodiyotni tartibga solishning keynsian metodlari to‘liq almashtirilmadi. Amerikalik iqtisodchi Jon Kennet Gelbreyt (ingl. John

Kenneth Galbraith; 1908—2006) o‘zining «Iqtisodiy nazariya va jamiyat maqsadlari» (Economics and the Public Purpose; 1973)²⁷ asarida daromadlarning adolatli taqsimlanishi va soliqlarning qat’iy progressiv tuzilmasi uchun kurashdi, chunki soliqlarning bunday tuzilmasi jamiyatning o‘z foydasidan emas, balki adolatdan manfaatdorligini aks ettiradi.

Gelbreytning fikriga ko‘ra daromatlardagi yuqori tafovutlarni qisqartirishga xizmat qiladigan soliqlar barqarorlashtiruvchi eng samarali vosita deb hisoblaydi. Bunda soliq tizimi takomillashgan bo‘lishi zarur, soliqdan qochish yo‘llari qancha kam bo‘lsa, shuncha adolat va barqarorlashtirishga to‘laqonli xizmat qiladi.

3.3. Soliqqa tortishning xususiy nazariyalari

Soliqlarning davlat g‘aznasiga yoki soliq to‘lovchilarga yoxud jamiyatdagi jarayonlarga ta‘sirini aniqlash, shuningdek eng maqbul soliqqa tortish tizimini yaratishga qaratilgan ta‘limotlarning rivojlanishi soliqlarning xususiy nazariyalarining paydo bo‘lishiga muhim turtki bergan.

Xususiy nazariyalar orasida bevosita va bilvosita soliqqa tortishning nisbat munosablari nazariyasi yaratilgan dastlabki nazariyalardan biri hisoblanadi. Ushbu nazariyaning yaratilishi ko‘p jihatdan bilvosita soliqlarning paydo bo‘lishi bilan bog‘liq jarayon hisoblanadi. Dastlab soliqlar faqat to‘g‘ri soliqlar shaklda undirilgan, ya‘ni yerdan, mulkdan yoki hosildan soliqlar olingan. Bu holat jamiyatda soliq yukini adolatli taqsimlanishiga to‘sqinlik qilar edi, chunki soliq tushumlari orqali davlat xarajatlarini qoplar ekan, bu xarajatlar mamlakatning xavfsizligini ta‘minlashga, qolevarsa butun jamiyatni taraqqiy ettirishga sarflansada, jamiyatning barcha a‘zolari soliqni birday to‘lamas edi. Bunda mulk, yer va shundan kelib chiqqan holda hosilga ega bo‘lmaganlar soliq to‘lamas edi, soliq yukini aholining bunday qatlamiga zimmasiga qisman bo‘lsa-da o‘tkazish maqsadida dastlabki davrlarda ko‘mirga, tuzga, shamga bilvosita iste‘mol soliqlar joriy etilgan. Keyingi davrlarda bilvosita soliqlar shu qadar rivojlandiki, ko‘pgina

²⁷ Ushbu asar rus tilida “Ekonomicheskie teorii i seli obshestva” nomlanib tarjima qilingan. Ta’kidlash joizki, ingliz tilida Economics so‘zi iqtisodiy nazariya, iqtisodiyot bilan shug‘ullanadigan fan ma’nosida keng qo‘llanilsa, Economy so‘zi ko‘proq iqtisodiyot tarmog‘i, xo‘jalik yuritish ma’nosida kengroq qo‘llaniladi.

davlatlarning asosiy daromad manbaiga aylanib qoldi. Yevropa taraqqiyotining ilk davrlarida to'g'ri va bilvosita soliq solishni belgilash jamiyatning siyosiy ravnaqiga bog'liq edi. Lekin shunga qaramay ilk o'rta asrlardagi yirik shaharlarda soliq tizimi asosan to'g'ri soliq solishga tayandi. Bilvosita soliqlar og'ir va xalq ahvoriga salbiy ta'sir ko'rsatadi deb hisoblanardi, chunki ular tovar qiymatini oshirardi. Shunday qilib, bilvosita soliqlarga nisbatan dastlabki davrlarda salbiy nazariy qarashlar shakllandi, ularni xalq ahvolini yomonlashtiradi, narxlarni oshirishi orqali kam daromadli oilalar uchun zaruriy tovarlarni xarid qilish qobiliyatini cheklaydi deb qaraldi. O'rta asrlar oxirida paydo bo'lgan keyingi qarashlarda, aksincha, bilvosita soliq solish zaruriyatini soliqqa tortishning tenglik tamoyilini ta'minlanishida ahamiyati nuqtai nazaridan asoslashga urinishlar paydo bo'ldi. Turli xil yo'llar bilan boy tabaqali zadogonlar to'g'ri soliqlardan imtiyozlarga ega bo'lgan sharoitda bilvosita soliqqa tortish samarali usul sifatida e'tirof etildi. Shu sababli bilvosita soliq solish g'oyasi tarafdorlari ularning xarajatlari uchun soliq belgilash orqali imtiyozli sinflarni soliqdan qochish imkoniyatlarini chegaralashga urindilar va bilvosita soliqqa tortish tenglikni o'rnatish vositasi sifatida qaraldi.

Shuningdek A.Smit bilvosita soliqqa tortishda ehtiyotkorlik bilan yondashish tarafdori bo'lgan, bunda birinchi zaruriy tovarlarni bilvosita soliqqa tortilishi kambag'al aholini turmush tarziga salbiy ta'sir etishi va bilvosita soliqqa aksariyat hollarda faqat qimmatbaho tovarlarni tortishni yoqlab chiqqan. "... zaruriy mollarga soliqning joriy etilishi, ishchilarning ish haqiga to'g'ri soliq singari ta'sir ko'rsatadi. Bunda ishchi tomonidan ushbu soliqning to'lanishi uzoq muddatga ish haqidan to'lab boriladigan bo'nak sifatida qaralmaslik kerak. Oxir oqibatda ushbu bo'naklarni tadbirkor ish haqini oshirish tariqasida o'z hisobidan qoplash berish kerak bo'ladi. ... Men tomonimdan zeb-ziyat mollari deb atalgan tovarlarga soliq solinsa, hatto ushbu tovarlarni kambag'allar iste'mol qilinganda ham, boshqacha holat yuz beradi. Bu soliqlarni joriy etilishi natijasida narxlarning oshishi

ishchilarning ish haqini oshirish zaruriyatini keltirib chiqarmaydi.²⁸» di, ular ixtiyoriylik g'oyasi orqali uni asoslab berdi. Bu g'oya bilvosita soliqlar to'g'ri soliqlarga nisbatan yengilroq degan fikrdan kelib chiqdi, shu sababli soliq solinadigan tovarni kambag'allar tomonidan xarid qilmay turib, ulardan oson qutilib qolish mumkin. Biroq XIX asr oxirida bu masala bo'yicha bahs-munozara qilgan iqtisodchilar to'g'ri soliq solishning muvozanatini saqlash maqsadiga, bilvosita soliqlar daromadlarni samarali olishga mo'ljallangan deb hisoblab, bilvosita va to'g'ri soliqlar o'rtasida muvozanatni saqlash zarurati to'g'risida xulosaga keldi. Ba'zi mutaxassilar «to'g'ri va bilvosita soliqlar oqilona uyg'unligi» to'g'risidagi g'oyaga soliq tizimi tamoyillaridan biri sifatida qaraydi.

Bilvosita soliqqa tortishning nazariy jihatlarini va salbiy oqibatlarini xususida bir qancha tadqiqotlar amalga oshirilgan bo'lib, ular orasida rus iqtisodchisi Yanjul Ivan Ivanovichning xizmatlarini alohida ta'kidlab o'tish mumkin. I.I. Yanjul bilvosita soliqqa tortishning oltita qoidasini²⁹ o'z davrida ishlab chiqqan bo'lib, ushbu qoidalar hozirgi kunda ham ahamiyatini yo'qotgan emas:

1. Bilvosita soliqqa asosan zaruriyati jihatdan ikkinchi darajali predmetlar tortilishi kerak. Ko'pchilik holatda mahsulotning birinchi zaruriy yoki ikkinchi darajali zaruriy ekanligini aniqlashda qiyinchiliklar yuzaga keladi, ushbu holatda yagona mezon sifatida mahsulotning keng tarqalganligini inobatga olinishi kerak. Mahsulot qanchalik iste'molda ko'p foydalanilsa, shunchalik zaruriy mahsulot va shunga mos ravishda kam bilvosita soliqqa tortilishi zarur.

2. Bilvosita soliqlar soni juda ko'p bo'lmasligi lozim, aks holda ular mamlakatning ishlab chiqarish kuchlari va sanoatining rivojlanishini cheklab qo'yishi mumkin.

3. Bilvosita soliqlar uni aniqlash imkoniyati mavjud soliq obyektlari va muddatlariga ega bo'lishi lozim. Soliq iste'molchi qo'lga o'tishiga qadar tovar qiymatiga qo'shilgan bo'lishi kerak. O'z navbatida bilvosita soliqqa tortishda ikki

²⁸ Smit A. Issledovanie o prirode i prichinax bogatstva narodov. Izdatel'stvo sosial'no-ekonomicheskoy literaturi. Moskva, 1962.– (Vosproizvedeno po izdaniyu v izdatel'stve «Direktmedia Publishing». Moskva, 2008). S.621.

²⁹ Yanjul I.I. Osnovnie nachala finansovoy nauki: Uchenie o gosudarstvennix doxodax. –M: «Statut» (v serii «Zolotie stranisi finansovogo prava Rossii»), 2002, tom 3. S. 401-404.

usuldan biridan foydalanish maqsadga muvofiq: birinchidan, soliq ishlab chiqaruvchi tomonidan oldindan to'langan bo'lishi; ikkinchidan soliq sotuvchi tomonidan to'lig'icha to'lanishi. Birinchi usul nisbatan qulay, chunki iste'molchilarga nisbatan ishlab chiqaruvchilar sonining kamligi soliq ma'murchiligini yengillashtiradi. Ikkinchi usulning afzalligi shundaki, bunda soliqni to'lash muddati iste'mol qilish davriga yaqin turadi, bunda foiz miqdorining obyektiv tarzda past bo'lishi tufayli uni (soliqni) to'lash og'irligi ishlab chiqaruvchiga sezilmaydi. Bundan xulosa chiqarish mumkinki, xonadon xo'jaligi ichida ishlab chiqarilgan va iste'mol qilingan mahsulotlarni bilvosita soliqqa tortishga yo'l qo'yib bo'lmaydi.

4. Agar soliqqa tortiladigan tovar sifat va narxi bo'yicha farq qilsa, bilvosita soliqlar stavkalari tabaqalashtirilgan progressiv tartibda qo'llanilishi zarur. Masalan, sigaretlar narxidan kelib chiqib maxorka yoki papirosga nisbatan yuqoriroq foizlarda soliqqa tortilishi kerak.

5. Stavkalarining miqdori soliqqa tortiladigan mahsulotning xarakteriga va uning iste'mol darajasiga mos kelishi kerak. Bunda stavkalar bilvosita soliq bo'yicha tushumlarga salbiy ta'sir etmasligi zarur, ya'ni stavkalar, iste'molning haddan ziyod kamayishi natijasida bilvosita soliq tushumlari pasayishi mumkin bo'lgan, me'yordan oshib ketmaslik kerak.

6. Mamlakatda ishlab chiqariladigan mahsulotlarni bilvosita soliqqa tortish jarayonlari import qilinadigan tovarlarga nisbatan o'rnatiladigan bojxona bojlari bilan izchillikda amalga oshirilishi lozim.

Ijtimoiy-iqtisodiy islohotchilar **yagona soliq nazariyasi** bilan bir necha marta qurollandi. Ushbu nazariya ko'p jihatdan soliq masalalariga ijtimoiy-siyosiy tus berish jihatdan ko'rib chiqilganligini qayd etish zarur. Yagona soliq o'rnatish g'oyasi turli davrlarda mashhur bo'lgan. XVIII asrda Angliyada hatto qurilish uchun yagona soliq shiori ostida faoliyat olib borgan partiya ham bo'lgan.

Ushbu nazariyaning turli tarafdorlari barcha ofatlarga qarshi vosita sifatida yagona soliqni ilgari surgan. Ushbu soliq o'rnatilgach, qashshoqlik bartaraf etilishi, ish haqi oshishi, ortiqcha ishlab chiqarishga yo'l qo'yilmasligi, sanoatning barcha

sohalarida talabga mos ravishda ishlab chiqarishning kengayishi yuz berishi keltirib oʻtilgan.

Yagona soliq – soliq solishning bitta aniq obyektiga, daromad manbalaridan biriga solinadigan yagona, ixchamlashtirilgan soliqdir. Shu sababli yagona soliq koʻpgina alohida soliqlar undirilishiga nisbatan nazariy jihatdan maqsadga muvofiq, oddiy va oqilona hisoblandi. Yagona soliq obyektini sifatida turli nazariyachilar tomonidan yer, sarf-xarajatlar, mulk, daromad, kapital taklif etildi.

Yer ijarasi soligʻi yagona soliqning ilk soliqlaridan biri hisoblanadi. Jumladan, fiziokratlar – jamiyatni rivojlantirish qishloq xoʻjaligi tizimi tarafdorlari sanoat daromadga sof ustama haq qoʻshmaydi deb hisoblashgan. Barcha boylik yerda joylashgan va yerdan paydo boʻladi. Shu sababli daromadlarning yagona manbasi sifatida yer ijarasiga yagona soliqni belgilash zarur va yer egalari bunday soliqni toʻlashlari kerak degan fikrni ilgari surishgan. U fikrlarini asoslash uchun yagona soliqqa tortish obyektini boʻlgan «yerlar umumiyli» gʻoyasi taklif etildi. Yer Oloh tomonidan yaratilgan tuhfadir, u barchaga tegishli boʻlishi kerak. Bundan tashqari, barcha boyliklarning paydo boʻlish va yaratilish asosi yer deb qaraldi. Haqiqatda esa yer ayrim toifa zadogonlarga tegishli boʻlgani bois, ular boylikning yagona manbaining egalari sifatida yagona soliq toʻlashlari kerak. XIX asrda «yagona yer soligʻi»ni ilgari surgan amerikalik iqtisodchi Genri Jorj (ingl. George Henry, 1839-1897) soliqqa tortishning mazkur tartibini umumiy boylikni va ijtimoiy tenglikni taʼminlash vositasi sifatida baholadi.

Soliqlarning ijtimoiy-siyosiy tabiati soliq solishning nazariy jihatlariga katta taʼsir oʻtkazdi. Ayniqsa bu mutanosib va progressiv soliq solish nazariyalari oʻzaro nisbatida kuzatildi. Soliqlar har doim noqonuniy faoliyatini cheklash va mulkning bir qismini majburiy undirilishini aks ettirganligi tufayli soliq tizimi sinf va guruh manfaatlari, ijtimoiy kuchlarning mavqeiga xolisona baho berishi tabiiy holdir.

Mutanosib soliq solish gʻoyasiga muvofiq soliq stavkalari uning hajmidan qatʼi nazar soliq toʻlovchi daromadiga yagona foizlarda belgilanishi kerak. Ushbu holat har doim boy tabaqali aholi vakillari tomonidan qoʻllab-quvvatlandi hamda tenglik va adolat tamoyillariga mos kelishi bilan asoslashga urindilar.

Progressiv soliq solishga muvofiq soliq to'lovchi daromadi oshib borgani sari soliq stavkalari va soliq solish yuki ortib boradi. Boy fuqarolardan nafaqat mutlaq, balki nisbatan ko'proq soliq undirish zarur deb hisoblanardi. Ushbu nazariya XIX asr o'rtalarida uzil-kesil qaror topdi, biroq uning elementlari A.Smit asarlarida, shuningdek fransiyalik faylasuf-ma'rifatparvarlar J.J.Russo va J.B.Sey asarlarida uchraydi. Soliqning progressiv stavkalari tarafdorlari ushbu soliqqa tortish tizimini adolatliroq deb hisoblab, tengsizlikni kamaytirish va mulk hamda daromadlarning adolatli qayta taqsimlashga ijobiy ta'sir ko'rsatishi orqali asoslashga urindilar.

Soliq solishning asosiy muammolaridan biri soliqlarni qayta yuklash nazariyasida o'z aksini topdi, uni o'rganish XVII asrdayoq boshlangandi. Soliqlarni boshqalar zimmasiga qayta yuklash nazariyasiga soliqning haqiqiy yukini aniqlash muammosi asos soldi desak mubolag'a bo'lmaydi. Soliq yukini aniqlash muammosi dunyoda bir necha asrlardan buyon qizg'in baxs-munozaraga sabab bo'layotgan masalalardan biridir. Mamlakat bo'yicha iqtisodiy ko'rsatkichlar, o'rnatilgan soliq stavkalari, shuningdek yalpi ichki mahsulotdagi budjet daromadlarining ulushining hisoblab topilishi yoki korxonalar doirasida soliqning umumiy daromaddagi hissasini aniqlash makro yoki mikrodarajadagi soliq yukini bo'yicha to'liq tassavurni shakllantirmaydi. Masalan, mikrodarajada korxonalar zimmasiga tushadigan soliqning haqiqiy yukini aniqlash nafaqat korxonalarining hisobot ma'lumotlari asosida hisoblab chiqarilgan ko'rsatkichga, balki soliqlarning boshqa soliq to'lovchilar zimmasiga qayta yuklanishi darajasiga chambarchas bog'liqdir.

Bunda biz oldindan ma'lum bo'lgan, lekin birinchi marta XVIII asrga kelib o'zining nazariy isbotini topgan hodisaga duch kelamiz. Jamiyat har doim yangi soliqni joriy etilishi paytida bu hodisaning guvohi bo'ladi. Ko'pchilik hollarda soliqlarning boshqa soliq to'lovchilar zimmasiga yuklanish hodisasi ko'p bosqichli bo'ladi. Buning qanday kechishini qo'shilgan qiymat solig'i misolida ko'rib chiqaylik. Temir rudasi qazib oluvchi korxonalar qo'shilgan qiymat solig'ini narxga kiritadi va temir erituvchi korxonalar zimmasiga yuklaydi, xuddi shunday temir erituvchi korxonalar soliqni po'latni qayta ishlovchi korxonalar zimmasiga yuklaydi, u

esa o'z navbatida soliqni temir asboblarni ishlab chiqaruvchi korxonaning zimmasiga yuklaydi va xullas, shu tarzda qo'shilgan qiymat solig'i tovarning chakana bahosigacha yetib bormaguncha hamda oxirgi iste'molchidan undirilmagunga qadar bu jarayon davom etaveradi. Soliqlarni boshqa soliq to'lovchilar zimmasiga yuklash hech kutilmagan va hatto ko'ngilsiz oqibatlariga ham olib kelishi mumkin³⁰.

Prussiyada XIX asrda savdo bozorida katta univermaglar shunday katta mavqega ega bo'ldilarki, buning natijasida mayda savdogarlar raqobatga bardosh berolmay qoldilar. Ularning yoppasiga inqirozga uchrashi bu hududda univermaglarni monopolistga aylantirib qo'yishi muqarrar edi. Shu tufayli hukumat mayda savdogarlarga yordam berish maqsadida univermaglar uchun savdo aylanmasidan 2 foiz miqdoridagi soliqni joriy qildi. Buning natijasida univermaglardagi narx 2 foizga oshishi va ushbu soliqdan ozod bo'lgan mayda savdogarlar raqobatbardosh bo'lishi ko'zda tutilgan edi. Aslida esa unday bo'lib chiqmaydi. Univermaglar narxni ko'tarish o'rniga barcha mol yetkazib beruvchilardan narxni 2 foizga pasaytirishni talab qildilar. Mol yetkazib beruvchi zavod, fabrikalar doimiy mijozlaridan ajralib qolmasliklari uchun bu talabga bo'ysunishga majbur edilar. Shu tufayli univermaglarga narxni ikki foizga pasaytirilishidan ko'rilgan zararni qoplash maqsadida, zavod va fabrikalar mayda savdogarlarga narxni 2 foizga qimmatroq qilib qo'yishdi. Demak, joriy etilgan soliq avvaliga mol yetkazib beruvchilar zimmasiga yuklandi, keyin ular ham o'z navbatida soliqni mayda savdogarlarning zimmasiga yukladilar³¹.

Jon Lokk (ingl. John Locke; 1632 —1704) qayta yuklash nazariyasining asoschisi hisoblanadi, u barcha soliqlar oxir-oqibat yer egasi zimmasiga tushishi haqida xulosaga kelib, ushbu muammoni hal qilishning aniq yo'llari va metodlarini taklif etdi. XIX asr oxirida Kolumbiya universiteti professori Edvin Seligmen (ingl. Edwin Robert Anderson Seligman; 1861-1939) «Soliq yuki va uni qayta

³⁰ Toshmatov Sh.A. Komilov M.M. Qo'shilgan qiymat solig'i. Monografiya. Toshkent: Iqtisodiyot va huquq dunyosi" nashriyoti –2004. – 102 b.

³¹ Mayburd Ye.M. «Vvedenie v istoriyu ekonomicheskoy misli». Moskva, izdatel'stvo «Delo», izdatel'stvo «Vita-Press», 1996. S. 129-130.

yuklash» (The Shifting and Incidence of Taxation; 1892)³² kitobida ushbu nazariyaning asosiy qoidalarini bayon qilib berdi va uning ikki turini ko'rsatdi: sotuvchidan xaridorga yuklash (odatda, bu bilvosita soliq solishda yuz beradi) va xaridordan sotuvchiga yuklash (bilvosita soliqlar biror-bir tovar narxi yuqori stavkalar, masalan aksizlar tufayli juda yuqori bo'lsa, ushbu tovarga bo'lgan talabni ancha cheklaydi).

Shunday qilib, har bir soliqning qayta yuklanish jarayonlariga to'g'ri baho berish uchun soliqlarni tabiatini, shuningdek uni undirishdagi mamlakatda mavjud barcha iqtisodiy va siyosiy shart-sharoitlarini hisobga olish zarur.

Yuqoridagi keltirilgan xususiy nazariyalardan tashqari optimal soliqqa tortish nazariyasi ko'proq matematik hisob-kitob asoslangandir. Optimal soliq yukini aniqlash muammosi soliqqa tortishning eng past bo'lgan neytral variantni aniqlashdan iborat. 1920-yillarning oxirida ingliz olimi F.Ramsey³³ tomonidan ushbu muammoning yechimi taklif qilgan. Ramsey qoidasiga ko'ra, soliq solinadigan tovarlarga bo'lgan talabning elastikligiga (taklif elastikligi o'zgarmas bo'lgan sharoitda) soliq stavkalari teskari mutanosiblikda o'zgartirish zarur ya'ni tovarga bo'lgan talab noelastik bo'lsa yuqoriroq stavkada, tovarga bo'lgan talab elastik bo'lsa pastroq stavkada soliqqa tortilishi lozim. Ramsey qoidasi optimal soliqqa tortish nazariyasining shakllanishida muhim rol o'ynadi. Allokatsion³⁴ samaradorligi nuqtai nazaridan davlatning soliqlarni yig'ish va qayta taqsimlash imkoniyatini ifodalovchi me'yorlarga muvofiq keluvchi optimal soliqqa tortish tuzilmasi Pareto³⁵ mezoniga mos keluvchi optimal soliq tuzilmasi deyiladi. Soliqqa tortishni optimallashtirish muammosi aynan shu kabi tuzilmalarni aniqlashdan iboratdir.

³² Iqtisodiy adabiyotlarda ushbu asarning nomlanishi rus tilida «Perelojenie i padenie nalogov» tarzida keltirilgan. Asarning yuqorida keltirilgan o'zbek tilidagi nomi bevosita ingliz tilidan tarjima qilinganligi uchun rus tilidagi tarjimadan farq qiladi.

³³ Frenk Plampton Ramsey (inglizcha Frank Plumpton Ramsey; 1903-1930) — ingliz metamatiki, juda qisqa umr ko'rishiga qaramay matematika sohasidagi tadqiqotlari orqali falsafa va iqtisodiy fanlarga salmoqli hissa qo'shgan.

³⁴ Allocation – inglizcha so'zdan olingan bo'lib, aniqlangan, belgilangan ma'nosini anglatadi.

³⁵ Vil'fredo Pareto (1848 – 1923) – italiyalik injener, iqtisodchi va sosiolog, jamiyatni boshqarishning elita nazariyasi asoschilaridan biri.

O‘z-o‘zini nazorat qilish uchun savollar:

1. Soliq nazariyalaridan biri bo‘lgan “almashinuv nazariyasi”ning mohiyatini tushuntirib bering.
2. Soliqlarni sug‘urta mukofoti sifatida baholash g‘oyasini yoritib bering.
3. Soliq nazariyasining “rohatlanish nazariyasi” ning mohiyati nimadan iborat.
4. Qurbonlik nazariyasi yuzasidan fikr-mulohazalaringiz.
5. Soliqqa tortishning keynschilik nazariyasi mazmuni va qo‘llanish holatlari.
6. Soliqqa tortishning umumiy nazariyalarini tizimlashtirgan holda izohlang.
7. Xususiy nazariyalarni keltirib o‘ting va ularni mazmunini tushuntiring.
8. Optimal soliqqa tortish nazariyasini yoritib bering.

4-BOB. SOLIQLARNING IQTISODIY MOHIYATI VA TAMOYILLARI

4.1. Soliqlarning iqtisodiy mohiyati va obyektiv zarurligi

Soliq nazariyasining rivojlanishiga salmoqli hissa qoʻshgan olimlar safiga ikkilanmasdan N.I.Turgenevni³⁶ keltirish mumkin. U soliqlarning mohiyati haqida toʻxtalib, – “Soliqlar jamiyat yoki davlat maqsadlariga, yaʼni kishilar jamiyatni yoxud davlatni tashkil qilishda kutadigan maqsadlarga erishish vositasidir”³⁷ degan fikrni ilgari suradi. Bu albatta, soliqlarga berilgan oʻziga xos taʼrif boʻlib, soliqlar mohiyatining siyosiy jihatlariga qoʻproq urgʻu berilgan. Chunki keyingi oʻrinlarda muallif shunday davom etadi “kishilar jamiyatni tashkil etib, davlatga eng yuqori darajadagi hokimiyatni va shu bilan birga soliqlarni ulardan (kishilardan – muallifdan) talab qilish huquqini taqdim etdi. Lekin talab qilish huquqi bilan soliq solish huquqini chalkashtirmaslik kerak. Birinchi holatda (talab qilish huquqi – muallifdan) hech qanday bahslarsiz Hukumatga tegishli boʻlsa, keyingi holatda u (soliq solish huquqi) bir muncha chegaralangandir. Koʻpchilik davlatlarda soliqlarni joriy etish xalq vakillarining roziligi bilan amalga oshiriladi. Bunda rozilikning olinishi nafaqat halq uchun, balki Hukumat uchun ham foydalidir”³⁸. XIX asrda yashab ijod qilgan moliya huquqi boʻyicha yirik rus olimi I.T.Tarasov soliqlarning mohiyati toʻgʻrisida toʻxtalib shundan taʼsir beradi, – “soliqlar deganda ehson (povinnostey) hamda domen, regaliy va monopoliyadan olinadigan daromadlardan farqli ravishda fuqarolardan undirilib, davlat xarajatlarini qoplash uchun ishlatiladigan doimiy va teng huquqli davlat yigʻimlariga aytiladi³⁹”. Ushbu taʼrifda I.T.Tarasov soliqlarni davlat budjetiga tushadigan boshqa daromadlardan farqli jihatlarini koʻrsatib bergan lekin, soliqlarni faqat fuqarolardan undirilishi xususidagi fikriga qoʻshilish qiyin, chunki

³⁶ Turgenev N.I. ni mashhur rus yozuvchisi Turgenev I.S. (1818-1907) bilan chalkashtirmaslik zarur. Turgenev Nikolay Ivanovich (1789—1871) Chor Rossiyasi Moliya vazirligida ishlagan yirik mansabdor, rus iqtisodchi olimi, “Soliqlar nazariyasi tajribasi” asarining Mualliflari. Turgenev Ivan Sergeevich (1818–1883) rus shoiri va yozuvchisi Rossiya Imperatori Fanlar akademiyasi muxbir aʼzosi, mumtoz jahon adabiyotining namoyandalaridan biri. Mashhur “Mumu”, “Otsi i deti” va boshqa asarlar Mualliflari.

³⁷ Turgenev N. Opitʼ teorii nalogovʼ. Sankt-Peterburgʼ. Tipografiya N.Grecha. 1818 g. S.44. Kopiya pdf v Harvard college library. www.books.google.com

³⁸ Shu yerda 45 b.

³⁹ Finansi i nalogi. Ocherki teorii i politiki. – m.: «Status» (v serii «Zolotie stranisi finansovogo prava Rossii»), 2004, tom 4. S. 275. (I.T.Tarasov. Ocherk nauki finansovogo prava. Yaroslavlʼ, 1883 g.)

bizning zamonimizda soliqlarning aksariyat salmoqli qismi yuridik shaxslar tomonidan undiriladi.

I.T.Tarasovning zamondoshi moliya sohasidagi yirik rus olimi A.A.Isaevning soliqlar to'g'risida bildirgan fikrlari keng qamrovli bo'lib, soliqlarning iqtisodiy mohiyatini yoritishga turli jihatlardan yondashilgan. "Soliqlar mohiyatan davlatning umumiy va o'z-o'zini boshqarish xarajatlarini qoplashga xizmat qiluvchi xususiy xo'jaliklarning majburiy pul to'lovlarini anglatadi. Biz tomonimizdan soliqlarga bunday ta'rif berish orqali, ularni boshqa manbalardan olinadigan davlat daromadlaridan farqli jihatini ko'rsatib beramiz. Ta'rifdagi "majburiy to'lov" so'zi soliqlarning xususiy xo'jaliklar tomonidan davlatga o'tkazib beradigan daromadlaridan farqli tomonini ko'rsatadi: g'aznaga davlat mulkini sotishdan tushgan tushum, garchand xususiy xo'jaliklar tomonidan yo'naltirilsa-da, lekin erkin almashinuvi natijasida yuzaga keladi va xech qanday qiymatliklarsiz majburiy to'lov amalga oshirilishini anglatmaydi. "Pul" so'zini ta'rifda ifodalanishi soliqlarning natura holidagi majburiyatlar farqini ko'rsatadi. Soliqlarning ishlatilishi yo'nalish vazifasi "umumiy" xarajatlarni qoplashga yo'naltirilishi haqida gapirib, ularni maxsus boshqarish tarmoqlari xarajatlarini qoplash maqsadida undiriladigan bojlardan farqini izohlaganmiz"⁴⁰.

Mamlakatimizda soliqlar xususidagi ta'limotlarning tarixi XX-asrning boshlarida, aniqrog'i 1917 yilda Rossiyada yuz bergan siyosiy o'zgarishlar bilan bevosita bog'liqdir. Chunki Sho'rolar Ittifoqi tarkibiga O'zbekistonning kiritilishi fan tarqqiyotini mafkuraga qaram qilib qo'ydi. Oktabr inqilobidan keyin soliq nazariyasi mustaqil fan sifatida rivojlanishdan to'xtadi desak mubolag'a bo'lmaydi. Soliqlar davlat moliyasining bir bo'lagi sifatida xususiy mulkni bartaraf etilishi, natsionalizatsiya va kolxozlashtirish davriga xos xususiyat deb qaraldi. Ushbu davrda yashab ijod etgan mashhur rus olimi, Rossiyadagi soliq to'g'risidagi

⁴⁰ Finansi i nalogi. Ocherki teorii i politiki. – m.: «Status» (v serii «Zolotie stranisi finansovogo prava Rossii»), 2004, tom 4. A.A.Isaev. S. 486. Ocherk teorii i politiki nalogov. Yaroslavl', 1887 g

ta'limotning asoschisi A.A.Sokolovning⁴¹ "Teoriya nalogov" (Soliqlar nazariyasi) nomli asari 1920-30 yillarda sobiq Ittifoqning shakllanish davrida soliq siyosatida yuzaga kelgan yangi muammolarni yoritishga qaratilgan muhim qadam bo'ldi. Mazkur asar olimning Moskva tijorat institutidagi faoliyati davomida o'qigan 17 ta ma'ruzalaridan tarkib topgan bo'lib, unda soliqlarning tasniflanishi, soliq solish prinsiplari, progressiv soliq stavkalari nazariyasi, soliqlarning iqtisodiy siyosat quroli sifatida foydalanish, soliqlarning boshqalar zimmasiga o'tkazish bilan bog'liq muammolar tadqiq etilgan⁴². Ittifoq davrida soliqlarga va umuman soliq nazariyasini mafkuraga og'ishmay to'g'ri talqin etgan sanoqli olimlar safiga A.A.Sokolovni kiritish mumkin. Soliqlarni har bir ijtimoiy tuzumda amal qilishini inkor etmagan holda A.A.Sokolov "soliq deganda davlat hokimiyati tomonidan amalga oshiradigan xarajatlarini qoplash yoki iqtisodiy siyosatning qaysidir vazifalariga (maqsadlariga – muallifdan) erishish uchun uning to'lovchilariga maxsus ekvivalent (huquq – muallifdan) taqdim etmasdan alohida xo'jalik yurituvchi shaxslar yoki xo'jaliklardan undiriladigan majburiy yig'im tushuniladi" degan ta'rifni beradi va sho'ro hukumatida ham soliqlarning iqtisodiyotni tartibga solishdagi muhim richagi bo'lishi zarurligi to'g'risida to'xtalib, "agar soliq faqat fiskal jihatdan joriy etilsa ham, u baribir sun'iy omil bo'lib hisoblanadi hamda narx va foydaga ta'sir etgan holda xo'jalik munosabatlariga kirib boradi va ularni o'zgartirishga olib keladi" deydi⁴³. 30-yillar keyin boshlab sobiq Ittifoq moliya fanida, ayniqsa soliq nazariyasida dunyoda shakllangan fan tamoyillaridan chetga og'ishib boshlandi. Mazkur fanning yangi talqindagi shakllanishida yangi qurilgan sotsialistik tuzum tamoyillari asos qilib olindi va mohiyatan u soliqlarni inkor etar edi. Usha davrdagi aksariyat Ittifoq olimlari soliqlarni kapitalizmga xos tushuncha deb qarashardi va buni isbotlashga harakat qilardilar. Ayrim Sho'ro davridagi olimlar qiymatning mehnat nazariyasiga asoslanib soliqlarni tovarga

⁴¹ Aleksandr Aleksandrovich Sokolov 1885 yilda Rossiyada tug'ilgan vafoti to'g'risidagi aniq ma'lumotlar mavjud emas, so'nggi ilmiy maqolalari 1929 yilda chiqqan. Taxmin qilinishlari bo'yicha 30-yillardagi sobiq Ittifoqda yuz bergan qatog'onlik qurboni.

⁴² «Sokolov A.A. Teoriya nalogov. Teoriya nalogov. Finansovoe izdatel'stvo NKf SSSR. Moskva, 1928.» seriya «Nauchnoe nasledie» pereizd. M.: OOO «YurInfoR-Press», 2003. S. 57.

⁴³ Shu yerda 69 va 228 betlar.

qiyoslamochi bo'lganlar. Masalan, akademik V.G. Chantladze shunga o'xshash fikrni yuritib bu ikkita kategoriya o'rtasidagi quyidagi farqlarni ajratib ko'rsatgan: 1) soliqlar o'z qiymatiga ega emas va mulkni almashuvi, tovarlarga xos bo'lgan ayirboshlash orqali emas, balki taqsimot orqali amalga oshmoqda yoki bilvosita soliqlarda taqsimot vositasidagi ayirboshlash orqali amalga oshmoqda; 2) sotuvchi tomonidan tovar ayirboshlanganda qiymat o'tkazilmaydi, iste'mol qiymati o'tkaziladi xolos, soliq undirishda qiymat ham o'tkaziladi⁴⁴.

Fikrimizcha, soliqlarni har doim ham qiymat bilan bevosita bog'lash uncha ham o'rinli emas, to'g'ri mahsulot qiymatini shakllanishida asosiy komponentlaridan biri unga sarf etilgan xarajat hisoblanadi va davr xarajatlariga ayrim soliqlar(mol-mulk solig'i, yer solig'i va h.k) kiritiladi, lekin mahsulotlar qiymatsiz tekinga berilganda ham qo'shilgan qiymat solig'i tekinga bergan korxonada, foyda solig'i tekinga olgan korxonada hisoblanishi mumkin⁴⁵.

Shunday qilib sho'rolar davridagi iqtisodiy ta'limotlarda, ma'lum sabablarga ko'ra, soliqdarga aloqador barcha tadqiqotlarga sinfiy pozitsiyadan qaralar edi. Bundan tashqari soliqlarni burjuaziya davlatlariga xos bo'lgan ekspluatatsiya qilish dastagi deb qaralgan va soliq solish muammolari bo'yicha fundamental tadqiqotlar olib borilmagan⁴⁶. Shunday qilib asta-sekin soliqlar turli xildagi qat'iy to'lovlar va ma'muriy tUSDagi majburiy ajratmalar kabi tushunchalar bilan almashtira boshlandi.

Soliqlarning iqtisodiy mohiyati to'g'risida respublikamizning bir necha taniqli hozirgi zamon olimlarining bildirgan fikrlari o'rinlidir. Xususan, professorlar A.O'Imasov va A.Vahobovlar soliqdarga quyidagi ta'rifni berishadi: "Soliqlar - bu davlat boshqa iqtisodiyot sub'ektlaridan o'z foydasiga undirib oladigan majburiy pul to'lovidir"⁴⁷. Ushbu qisqa ta'rif orqali olimlar soliqdarning ham majburiylikini, davlat foydasiga undirilishini hamda iqtisodiyot sub'ektlaridan (jismoniy yoki

⁴⁴ Chantladze V.G. Voprosi teorii finansov. - Tbilisi: izd. Tbil. Un-ta, 1979. - S.76.

⁴⁵ O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksining 135-moddasiga asosan tekin olingan mol-mulk, tovar va xizmatlar soliq to'lovchining daromadi hisoblanadi.

⁴⁶ Aliev B.X., Abdug'alimov A.M., Aliev M.B. Teoriya i istoriya nalogooblojeniya. - M.; Vuzovskiy uchebnik, 2008. - S.21.

⁴⁷ Iqtisodiyot nazariyasi: Darslik / A.O'Imasov, A.V. Vahobov. - T.: "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati, 2006. - 385 b.

yuridik shaxslardan) undirilishini ko'rsatib bergan. Professor T.Malikov "soliqlar korxonalarda ishlab chiqarish va muomala xarajatlarini qisqartirish, jahon bozorida milliy korxonalarining raqobatdoshligini oshirish uchun shart-sharoitlar yaratib beradi"⁴⁸ deb, soliqlarning korxonalar faoliyatini rivojlantirishdagi ahamiyatiga yuqori baho beradi. Shuningdek, professor H.Sobirov soliqlar iqtisodiy mohiyati haqida to'xtalib, "soliqlar...budjet va budjetdan tashqari fondlarni tashkil qilish maqsadida.....olinadigan badallardir"⁴⁹ degan ta'rifni ilgari suradi, bu fikrni biroz takomillashtirgan holda Q.Bozorov soliqlarni "jamiyatning pul mablag'lariga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish maqsadida davlat (pul) jamg'armalarini tashkil qilish uchun"⁵⁰ undiriladigan to'lovlar sifatida e'tirof etadi. Fikrimizcha, professor Yo.Abdullaev va Q.Yaxyoevlar soliqlarning mohiyati to'g'risida berilgan ta'rifni mukammalroq deyish mumkin, chunki bu olimlar tomonidan berilgan ta'rifda soliqlarni budjet daromadlarini tashkil qilish uchun emas, balki "budjetga tushadigan pul va qonun bilan belgilangan majburiy munosabatlar"⁵¹ ekanligiga alohida to'xtaladilar. Demak, professor Yo.Abdullaev va Q.Yaxyoevlar ushbu bergan ta'riflari orqali soliqlardan tashqari to'lovlar orqali ham budjet daromadlarining bir qismi tashkil topishi mumkinligiga urg'u beradilar.

Soliqlarning iqtisodiy mohiyatini chuqurroq tushunish uchun quyida mutaxassislar tomonidan keltirilgan tavsiflarni ko'rib o'tamiz:

1. Soliq to'lovchi pulning u yoki bu summasini davlatga to'lar ekan, buning evaziga bevosita biron-bir tovar yohud xizmat olmaydi. Alohida olingan soliq to'lovchi tomonidan to'langan soliq miqdori bilan u iste'mol qiladigan ijtimoiy ne'matlar o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri bog'liqlik mavjud bo'lmaydi. Xuddi ana shu xususiyatiga ko'ra soliq narxdan (tovar yoki xizmatlarni ixtiyoriy iste'mol qilganligi uchun to'lanadigan haq sifatida) ruxsatnoma (litsenziya)lar va vositachilik yig'imlaridan farq qiladi, chunki bular majburiy yoki ixtiyoriy

⁴⁸ Malikov T.S. Soliqlar va soliqqa tortishning dolzarb masalalari. - T.: Akademiya, 2002. - 53 b.

⁴⁹ Sobirov X.S. Soliq atamalarining qisqacha lug'ati. // Soliq to'lovchining jurnali. -Toshkent, 1997.- №2- 40 b.

⁵⁰ Bazarov K.T. Mexanizm nalogooblojeniya pribili predpriyatij: problemi i puti ix resheniya. avtoreferat dissertasii na soiskanie uchenoy stepeni k.e.n. -T.: BFA, 1998.-10 s.

⁵¹ Abdullaev Yo.A., Yahyoev Q.A. Soliq mavzusida 100 savol javob.-T.: Mehnat, 1997 - 8 b.

to'lovlar hisoblansa-da, biroq hammavaqt hukumat tomonidan ko'rsatilgan xizmatdan muayyan foyda (naf) ko'rilishi bilan bog'liqdir.

Davlatga to'lanadigan soliqlar bilan uning evaziga olinadigan iqtisodiy va ijtimoiy ne'matlar o'rtasida bevosita, har bir kishining ko'zi ilg'aydigan bog'liqlikning yo'qligi soliq to'lovchilar soliqqa tortishni yuk sifatida baholashlari uchun sabab bo'ladi, vaholanki, ular soliqlar hisobidan qilinadigan davlat xarajatlarining yo'nalishini ma'qullashlari ham mumkin.

Alohida olingan soliq to'lovchi odatda jamiyat va o'zining ko'rgan foydasi yoki manfaatini to'lagan soliqlari bilan solishtirib o'tirmaydi. Bu shunga olib keladiki, oqibatda fuqarolarning bir qismi soliqlar to'lashdan bo'yin tovlashga, o'z daromadlarini yashirishga urinadi. Davlat o'z fuqarolaridan yig'ib olgan soliqlarni samarali va oshkora tarzda ishlatsa hamda fuqarolarning aksariyat qismi davlatning iqtisodiy ijtimoiy va boshqa dasturlarini o'z mablag'lari hisobidan pul bilan ta'minlashga rozi bo'lgandagina yuksak soliq axloqi tamoyillari yuzaga keladi.

2. Soliqlar majburiy to'lovlar hisoblanadi. Soliqlarning to'la va o'z vaqtida to'lanishi uchun javobgarlik soliq to'lovchilar zimmasiga yuklangan bo'lsa-da, ular ixtiyoriy emas, majburiy ravishda to'laydilar, davlat soliq to'lashdan bo'yin tovlaganlarni qattiq jazolaydi.

3. Davlat foydasiga soliq to'lash orqali daromadning avvaldan belgilab qo'yilgan, eng muhimi, qonuniy tartibda ko'zda tutilgan qismi undirib olinadi.

Ko'pgina davlatlarning, shu jumladan, O'zbekistonning ham qonunlarida soliqlarni belgilash va ularning hajmlarini aniqlashga faqat Oliy qonun chiqaruvchi hokimiyat yoki uning tomonidan vakolat berilgan organlar haqlidirlar, deb mustahkamlab qo'yilgan. O'zining xohish-istagiga qarab yangi soliqlar belgilash yoki ularning hajmlarini aniqlashga hech kimning haqqi yo'q. To'lovlarning qonuniy, ochiq-oydin xususiyatga ega bo'lishi soliqlarning bosh tavsifi hisoblanadi⁵².

Dunyo mamlakatlari iqtisodiyotida soliqlar mohiyati va mazmuniga ko'ra ko'plab milliy xususiyatlari ega bo'lgan ko'pqirrali shakllarda namoyon bo'ladi va

⁵² Gataulin Sh.Q. Soliqlar va soliqqa tortish.–T.: DSQ, 1996.-15–b

natijada har bir davlatning o'z soliq tizimi shakllanib boradi. Soliqlarni tanlash, ularning tarkibi, undirish usullari, soliq stavkalari, har xil darajadagi hokimiyat organlarining fiskal vakolati, soliq bazasi, ta'sir doirasi, soliq imtiyozlari mohiyati jihatidan bu tizimlar bir-biridan tubdan farq qilsa-da, lekin ikkita asosiy umumiy xususiyatini aniqlash mumkin.

Ushbu xususiyatlardan birinchisi, keng qamrovli yoki milliy soliq islohotlari yangi soliqlarni joriy qilish, soliq bazasini o'zgartirish, har-xil soliq turlarining o'zaro munosabatlari orqali hamda soliq og'irligini qayta taqsimlash va boshqa holatlar bilan amalga oshiriladi. Ikkinchi xususiyatda esa, soliq tizimini qurish tamoyillari umumiy deyilganda, bir xil ma'noli bo'lmasdan, ko'pchilik holatlarda davlatning shu va shunga o'xshash boshqa iqtisodiy jarayonlarga bo'lgan munosabatlari bilan bog'liq bo'ladi.

Soliqlar - bu pul tushumlari, ya'ni soliq - bu pul, shuning uchun uni doim yashirishga moyillik mavjud bo'lgan va bo'ladi. Chunki hech kim o'zining pulini boshqaga bekordan-bekorga berib qo'yishni istamagani uchun, imkoni boricha soliqdan qochishga, uni to'lamaslikka harakat qiladi. Demak, soliqqa tortish tizimi shunday tashkil etilishi kerakki, undan qonuniy va noqonuniy qochish imkoniyatlari minimallashtirilsin⁵³. «...soliqlar qanchalik past darajada bo'lmasin, hech kimga, hech qachon va hech qaerda yoqqan emas. Muhimi, soliqlar asosli, barqaror, moslashuvchan bo'lishi, mahsulot ishlab chiqaruvchining qo'lini bog'lab qo'ymasligi, cho'chitib yubormasligi, aksincha, uni rag'batlantirishi zarur. Soliqlar korxonalarining tadbirkorligi va tashabbuskorligini har tomonlama rag'batlantirishi lozim»⁵⁴.

Soliqlarning mohiyati xususida bildirilgan fikrlarga yakun yasab umumiy xulosa o'rnida ta'kidlash lozimki, soliqlarning budget daromadlarini shakllantirishdagi ijtimoiylik – soliqlarni jamiyat a'zolari tomonidan to'lanashi bilan xarakterlanadi, demak shakllantirilgan daromadlarni davlat tomonidan tasarruf etishdagi yakka hollik qanchalik yuqori darajada bo'lsa soliqlarni

⁵³ Toshmatov Sh.A. Korxonalarini rivojlantirishda soliqlar roli. Monografiya. – Toshkent, Fan va texnologiya.– 2008.– 48 b.

⁵⁴ Karimov I.A. Xavfsizlik va tinchlik uchun kurashmoq kerak. T.10 – Toshkent, "O'zbekiston", 2002. – 210 b.

yashirishga bo'lgan moyillik ham shuncha yuqori bo'ladi, aksincha bo'lsa soliqlardan imtiyoz olishga bo'lgan intilish katta bo'ladi. Soliqlar har qanday davlatning qaror topishi va amal qilishining obyektiv zarurati bo'lib hisoblanadi. Ushbu obyektiv zaruriyat uning mohiyatini belgilab beradi.

Soliqlarni ta'riflashdagi fikrlarda dunyo, jumladan mamlakatimiz olimlarida ham umumiylik va xususiylik mavjuddir. Demak soliqlar davlatning mavjud bo'lishi uchun zarurat bo'lib, davlat va mahalliy hokimiyat tuzilmalarni moliyaviy ta'minlash, shuningdek davlat zimmasiga olgan vazifalarni bajarish maqsadida o'rnatilgan stavkalarda majburiy tarzda undiriladigan hamda uning to'lovchilariga yakka tartibdagi ekvivalent huquqni bermaydigan to'lovlar hisoblanadi. Agar soliq qarzdorliklarini pul to'lovlari shaklida undirish imkoni bo'lmasa, ushbu qarzdorliklar evaziga soliq to'lovchi mol-mulkining bir qismi davlat mulkiga o'tkazilishi mumkin.

4.2. Soliqlarning funksiyalari va tasniflanishi

Soliqlarning funksiyalari haqida gap ketganda olimlar dunyosida bunga turlicha qarashlar mavjud ayrim olimlar soliqlarning faqat fiskal funksiyasini e'tirof etadi, faqat ushbu funksiya asrlar davomida o'z holicha saqlanib qolganligi va mazkur funksiya mavjud bo'lganligi uchun dastlabki davrlarda soliq'larga va umuman soliq tizimiga asos solinganligini ta'kidlaydi. Ushbu qarashlar klassik iqtisodiy nazariyachilariga ham xosdir. Boshqa guruh olimlar soliqlarning fiskal funksiyasi bilan birga tartibga solish funksiyasini ham e'tirof etadilar. Bu ikki funksiya rivojlangan bozor munosabatlariga xos bo'lib, soliqlarning fiskal funksiyasidan tartibga solish funksiyasini ajratib bo'lmaydi va shu bilan birga ikki funksiyani amalga oshirishda bir-biriga qarama-qarshilik hamda ziddiyatlar mavjud bo'lishini ta'kidlab o'tadilar. Uchinchi guruh olimlari soliqlarning ko'p funksiyaliligini e'tirof etadilar. Ushbu olimlar soliqlarning yuqorida keltirilgan ikkita funksiyasidan tashqari nazorat, rag'batlantirish va taqsimlash funksiyasini ham kiritadilar va hatto ayrim olimlar soliq'larga axborot funksiyasi ham xos degan qarashni ilgari suradilar.

Soliq funksiyalariga turli xil qarashlar doim boʻlgan va hozir ham davom etmoqda. Rus olimi A.A.Sokolovning fikricha “soliqlar ikkita asosiy funksiyani bajaradi – pul mablagʻlarini yigʻish (jamlash) funksiyasi va ularni qayta taqsimlash funksiyasini bajaradi. Aniqrogʻi mablagʻlarni qayta taqsimlash haqida gap ketadigan boʻlsa, bu funksiya soliqdan koʻra soliqlar yordamida mablagʻlar jamlanadigan budjetga (uning xarajat qismiga) koʻproq tegishlidir”⁵⁵. Bundan xulosa qilish mumkinki, A.A.Sokolov soliqlarning ikkita funksiyasini eʼtirof etgan boʻlsa-da, keyingi oʻrinlarda ikkinchi (qayta taqsimlash) funksiyani moliyaga tegishli degan fikrni ilgari suradi va buni soliqlar vositasida yigʻilib boʻlgan mablagʻlarni qayta taqsimlanishi bilan bogʻlaydi, bizningcha soliqlarning taqsimlash funksiyasi hali soliq solinmagan daromadlarni bir qismini budjetga undirish va shu orqali daromadni ikki qismga taqsimlashni – daromad olgan (soliq toʻlovchi) hamda budjetga undiriladigan qismlarga ajratishni koʻzda tutadi. Soliqlarning iqtisodiyotdagi roli xususida moliya sohasidagi asarlari bilan taniqli boʻlgan olim I.X.Ozerov toʻxtalib shunday deydi – “bizning davrimiz moliya faniga oʻziga xos iz qoldirdi. Rasmiy uyushmalarning oʻz mablagʻlarini jamlash usullari iqtisodiy hayotga kuchli taʼsir etishi maʼlum boʻldi. Koʻrib turibmizki, soliqlarni iqtisodiy va ijtimoiy islohotlar dastagi sifatida qarashlar oshib bormoqda va ayrimlar tomonidan soliqlarning mulkni qayta taqsimlash, sanoatni bir shaklini qoʻllab-quvvatlash va boshqalarini rivojlantirish maqsadidagi ijtimoiy islohotchi sifatidagi roli taʼkidlanmoqda”⁵⁶.

Oʻzbekiston olimlari soliqlarning funksiyalarini turlicha talqin kiladilar. Iqtisodchi olimlarimizdan akademik M. Sharifxujayev va professor A. Oʻlmasovlar soliqlarning funksiyalari toʻgʻrisida kuyidagicha fikr bildirishgan - "Soliqlar uch hil funksiyani bajaradi: fiskal, yani davlat budjetiga muhim ravishda pul tushirib turish; xujalik faoliyatini ragʻbatlantirish; aholi ayrim toifalarini sotsial himoya qilish"⁵⁷.

⁵⁵ «Sokolov A.A. Teoriya nalogov. Teoriya nalogov. Finansovoe izdatel'stvo NKf SSSR. Moskva, 1928.» seriya «Nauchnoe nasledie» pereizd. M.: OOO «YurInfoR-Press», 2003. S. 226.

⁵⁶ Ozerov I.X. Osnovi finansovoy nauki. M., 1923. S. 71.

⁵⁷ Oʻlmasov A., Sharifhoʻjayev M. “Iqtisodiyot nazariyasi” T. Mehnat 1997 y. 337-bet.

Professor Q. A. Yahyoev soliqlarning funksiyalari to'g'risida fikr yuritib, soliqlarning quyidagi funksiyalari borligini ta'kidlaydi. Birinchi va asosiy funksiyasi - fiskal (taqsimlash) funksiya. Bu funksiya orqali budjet xarajatlarini moliyaviy resurslar bilan taminlash amalga oshiriladi. Shuningdek professor T.S.Malikovning fikricha "soliqlar quyidagi funksiyalarni bajaradi: taqsimlash, nazorat, tartibga solish"⁵⁸.

Shu masalada Rossiyalik prof. V.M. Rodionova quyidagicha fikrlarni ta'kidlab o'tgan: "Soliqni iqtisodiy kategoriyaga xos ikkita funksiya fiksal va iqtisodiy sifatida ko'rib chiqish mumkin. Birinchisini yordamida budjet fondi shakllanadi; ikkinchisini amalga oshirib, davlat takror ishlab chiqarishga ta'sir etadi, uning rivojlanishini rag'batlantirishi yoki ushlab turishi, kapital jamg'armani tezlashtirish yoki zaiflashtirish orqali jismoniy shaxsning to'lov qobiliyatini kengaytirib yoki toraytirib turadi"⁵⁹.


Demak, yuqorida keltirilgan fikrlardan ko'rinib turibdiki, soliqlarning funksiyalari to'g'risida iqtisodchi - olimlar o'rtasida yagona fikr xanuzgacha yo'qdir. Olimlarimizning fikrlari soliq funksiyalarining soniga nisbatan ham, ularning mazmuniga ko'ra ham bir - birlaridan farq qilayotir. Bunday natijaga kelayotganlikning asosiy sababi muammo hal etilayotgan paytda olimlar tomonidan turlicha tarzda yondashilayotganligidir. Buning natijasida olimlarning fikrlari ham turlicha bo'layotir.

Bizning fikrimizcha ham soliqlarga ko'p funksiyalilik xosdir. Bunda quyidagi asosiy funksiyalarni keltirib o'tishimiz mumkin: fiskal, nazorat, taqsimlash va tartibga solish. Mamlakatda soliqlarning tartibga solish funksiyasini qo'llanishida ayrim ustuvor sohalarni (faoliyatni) qo'llab-quvvatlash maqsadida rag'batlantirish funksiyasidan ayrim ustuvor bo'lmagan yo'nalishlarni cheklash maqsadida cheklovlardan foydalaniladi. Soliqlarning rag'batlantirish va cheklov funksiyalarini umumlashtirgan holda tartibga solish funksiyasi sifatida yiriklashtirish mumkin.

⁵⁸ Malikov T.S. Soliqlar va soliqqa tortishning dolzarb masalalari. – Toshkent, "Akademiya", –178 b.

⁵⁹ Finansi. Pod red. V.M.Rodionovoy. M., «Finansi i statistika», 2005. 132 s.

Umumiy holatda soliqlarning funksiyalarini quyidagicha aks ettirish mumkin (4.1-chizmaga qarang).



4.1-chizma. Soliq funksiyalari⁶⁰

Iqtisodiyotni tartiblash har bir davlatning oldida turgan muhim masalalardan biri hisoblanadi. Iqtisodiyotni tartiblashning turli xil usullari (maʼmuriy, tashkiliy, psixologik hamda iqtisodiy) mavjud boʻlib, ularning orasida iqtisodiy usul bir tomondan taʼsirchanligi va samaradorligi bilan ikkinchi tomondan davlat faoliyatining mazmuniga ham ohangligi bilan ajralib turadi. Oʻz navbatida iqtisodiy usul ham turli xil vositalar orqali amalga oshiriladi. Bular jumlasiga: narx; dotatsiya; kredit stavkasiga taʼsir etish; sanatsiya; soliq shu kabilar kiradi, oʻz navbatida ushbu sanalganlardan dastlabki toʻrttasi vaqtinchaligi va oʻzgaruvchanligi bilan xarakterlansa, soliq tizimi orqali iqtisodiyotni tartibga solish ham samarali, ham taʼsirchan va uzoq vaqt amal qilishligi bilan ahamiyatlidir.

Nazariy jihatdan maʼlumki, iqtisodiyotni tartiblashning bozor mexanizmi mavjud boʻlib, u bozordagi barqaror muvozanatni taʼminlay olish imkoniyati cheklangan boʻlib, bu holat iqtisodiyotni tartiblashning davlat mexanizmini mavjud boʻlishligining sharti hisoblanadi. Shuningdek, davlatning oldida turgan asosiy iqtisodiy vazifalardan biri boʻlib, real sektor va noishlab chiqarish sektori oʻrtasidagi muvozanatni taʼminlash hisoblanadiki, buni taʼminlashning asosiy yoʻllaridan biri sifatida soliqlar yuzaga chiqadi.

⁶⁰ Chizmada keltirilgan soliq funksiyalari koʻpchilik iqtisodiy adabiyotlarda olimlar tomonidan eʼtirof etilgan soliq funksiyalari asosida tayyorlangan.

Soliqlarni tasniflash - bu soliqlarni puxta tahlil qilish va farqlarini aniqlash maqsadida ularni muayyan mezonlar bo'yicha guruhlashdan iboratdir. Soliqlarni paydo bo'lish tarixida ilk bor guruhlash ularni *to'g'ri va egri* soliqlarga ajratish bo'lgan. Ilk marotaba soliqlarni bunday tasniflash Jon Lokk (ingl. John Locke; 1632-1704) tomonidan taklif etilgan bo'lib, u 1692 yilda barcha soliqlar, jumladan, iste'mol soliqlari, oxir-oqibat yer egasiga tushishini asoslashga urindi. J.Lokkning fikricha, savdogar va barcha vositachilar soliqni oxirgi iste'molchiga o'tkazadilar, u esa bunday og'ir yukni ko'tara olmaydi. Shuning uchun u to'lovni kamaytirishni talab qiladi. Agar to'lov miqdori oldingi darajada qolsa, ishchi o'zini boqa olmaydi va uni ta'minlash vazifasi hukumat zimmasiga yuklanadi, u esa o'z navbatida shu munosabat bilan ko'chmas mulkni soliqqa tortish darajasini oshiradi. Yil oxirida esa, mulkdor soliq yukini ko'taradi. Agar mamlakatda yer egasidan boshqa yana kimlarnidir soliqqa tortishga urinishlar zoe ketsa, u holda yer egasiga ularni bevosita yer solig'iga tortish yoki xuddi shu yukni o'z zimmasiga pasaytirilgan ijara to'lovi shaklida olish huquqini berish kerak⁶¹. J.Lokk oxir oqibat shunday xulosa chiqaradiki, yer egasiga bilvosita tushadigan soliqlardan ko'ra undan bevosita undiriladigan soliq - to'g'ri (directly) soliqqa afzallik berish kerak. Ayni mana shuning natijasida soliqlarni to'g'ri soliqlarga - direct taxes hamda boshqa shaxsga o'tkaziladigan indirect taxes bilvosita soliqlarga bo'lish kelib chiqqan. Shunday qilib, Lokk taklif qilgan soliqlarning iqtisodiy tasnifi asosida qayta yuklash jarayonlari yotadi⁶².

XVIII asr oxiriga kelib, ushbu tasniflash fiziokratlar tomonidan qo'llab-quvvatlandi. Ularning fikricha, yer egasining hamma soliqlar to'lanadigan daromadi sof daromad bo'lgani uchun yer solig'i to'g'ri soliq hisoblanadi, bundan tashqari u birlikda ifodalanadi. Boshqa qolgan hamma soliqlar egri soliqlardir, chunki ular faqatgina bilvosita tarzda ularni to'lashi kerak bo'lgan kishilar zimmasiga tushadi. Bu davrda to'g'ri va egri soliq iboralari boshqalar zimmasiga o'tkaziladigan va o'tkazilmaydigan soliqlar tushunchasiga moslashtirildi.

⁶¹ Kulisher I.M. Ocherki finansovoy nauki. Vip.1. - Petrograd: Nauka i Shkola, 1919. - S.89-90.

⁶² Bu haqda keyingi paragrafda kengroq to'xtalamiz.

Soliqlarni tasniflashda rus olimi professor A.A.Sokolovning o'ziga xos yondashuvi mavjud bo'lib, u soliqlarni ikki guruhini ajratadi: 1) to'lovchining shaxsiga u yoki bu darajada bog'liq soliqlar yoki *shaxsiy (personal) okladli*; 2) muayyan to'lovchining shaxsiga mutlaqo bog'liq bo'lmagan yoki obyektli soliqlar (alohida tovarlarga soliqlar, hujjatlar va to'lovchining shaxsidan butkul alohida olinadigan soliqlar)⁶³. Mazkur tasnifga asosan personal-okladli soliqlarning obyektli soliqlardan farqi personal-okladli soliqlarda uning to'lovchisining to'lov qobiliyati hisobga olinadi.

Soliqlarni to'g'ri va egri soliqlarga tasniflashga zamonaviy yondashuvlar sifatida K.Makkonnell va S.Bryularning qarashlarini keltirishimiz mumkin:

- 1) iste'mol (xarajatlar) uchun egri soliqlar;
- 2) to'g'ri shaxsiy soliqlar (daromadga soliqlar)⁶⁴.

Yuqoridagilardan tashqari soliqqa tortish nazariyasida soliqlarni quyidagi mezonlar asosida tasniflash keng tarqalgan:

- soliqlarni belgilash va aniqlashtirish huquqi qonunchilik asosida qaysi organga birlashtirilganligiga qarab:

- 1) davlat soliqlari; 2) mahalliy soliqlar.

Shuni e'tiborga olish kerakki, bunday tasniflash bir darajadagi soliqni qat'iy belgilash va uning tegishli darajadagi davlat hokimiyati budjetiga kelib tushishini bildirmaydi, ya'ni yuqoridagi guruhlardan biriga tegishli bo'lgan soliq, odatda, barcha darajalardagi budjetlar o'rtasida taqsimlanishi ham mumkin. Masalan, respublikamizda har yili budjet parametrlari tasdiqlanadi va unda umumdavlat soliqlarining mahalliy budjetga o'tkaziladigan qismi bo'yicha me'yorlar qayta ko'rib chiqiladi.

- qaysi budjetga berkitilganligiga qarab:

- 1) berkitirilgan; 2) tartibga soluvchi.

⁶³ Sokolov A.A. Teoriya nalogov, - M.: fin. izd. NKFS SSSR, 1928. - S.28.

⁶⁴ Makkonnell K.R., Bryu S.L. Ekonomiks: Prinsipi, problemi i politika. V 2 t.: Per. s angl. 11-go izd. T.1. - M.: 2003. - S.140.

Soliqlarning bunday tasniflanishi ham yuqorida keltirilgan umumdavlat va mahalliy soliqlarga ajratilishiga o'xshab ketadi, ya'ni bunda asosiy e'tibor qaysi budjetga aynan soliqlar berkitib qo'yilganligi yoki vaziyatdan kelib chiqib turli darajadagi budjetga taqsimlanishi mumkinligini anglatadigan tartibga soluvchi soliqlarga kiritiladi.

- ma'lum bir maqsadga yo'naltirilganiga qarab:

1) abstrakt (umumiy). Bunday soliqlarga budjetga umumiy holda kelib tushib, aniq bir oldindan ko'zda tutilgan maqsadga yo'naltirilmaydigan, umumiy tarzda budjet xarajatlarini qoplash uchun yo'naltiriladigan soliqlarni kiritish mumkin. Masalan, qo'shilgan qiymat solig'i, aksiz solig'i yoki foyda va jismoniy shaxslar daromad solig'i umumiy tartibda umumdavlat budjetiga yo'naltirilmaydi;

2) maqsadli, ularning o'ziga xos farq qiluvchi xususiyati shundan iboratki, ular budjetga kelib tushganda umumiy tartibda emas, balki qat'iy tartibda muayyan xarajatlarni qoplashga yo'naltiriladi. Bunga aniq misol keltirish respublikamiz sharoitida qiyinroq, chunki aynan mamlakatimizda bir maqsadga yo'naltiriladigan soliqlar mavjud emas. Lekin majburiy xarakterga ega bo'lgan ajratmalarni soliqlar sifatida nazarda tutadigan bo'lsak (chunki majburiy ajratmalar soliqlar sifatida undirilishi 2004 yildan boshlab soliq idoralari zimmasiga yuklatilgan), yo'l, pensiya va maktab ta'limi jamg'armalari uchun majburiy to'lovlarni ushbu turkum soliqlar tarkibiga kiritishimiz mumkin. Shu bilan birga, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatuvchi kichik biznes sub'ektlaridan olinadigan yagona soliq to'lovining bir qismi 8 foizni "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakatiga yo'naltirilishini inobatga olsak, bu soliq to'lovining ushbu qismini ham maqsadli ravishda sarflanadigan soliqlar sifatida baholash mumkin.

- soliqqa tortish sub'ekti (soliq to'lovchi)ga ko'ra:

- 1) jismoniy shaxslardan soliqlar;
- 2) yuridik shaxslardan soliqlarga ajratiladi.

- soliqqa tortish obyektiga ko'ra:

- 1) mulkiy;
- 2) daromaddan;

3) iste'moldan;

2) foydalanilgan resursdan undiriladigan soliqlarga bo'linadi.

- soliq to'lovi manbalariga qarab yuridik shaxslardan olinadigan soliqlar quyidagicha tasniflanadi:

1) qo'shilgan qiymatdan undiriladigan soliq;

2) xarajatlarga kiritiladigan soliqlar;

3) korxonaning foydasidan undiriladigan soliqlar.

- soliqqa tortish stavkalariga ko'ra soliqlar progressiv, proporsional, regressiv va qat'iy belgilangan stavkalarda undiriladigan soliqlarga ajratiladi.

Hozirda soliqlarni to'lash usuliga qarab guruhlash ham keng uchraydi. Bunda, deklarativ, kadastr va manbadan undiriladigan soliqlarga ajratiladi. Respublikamizda yangi tahrirdagi Soliq kodeksining qabul qilinishi munosabati bilan soliq agenti tushunchasining unda aks eitishi soliq miqdorini hisoblab chiqadigan sub'ektga qarab soliqlarni tasniflash imkonini beradi. Bu mezonga ko'ra, soliq idoralari tomonidan hisoblanadigan, soliq agentlari tomonidan va to'g'ridan-to'g'ri soliq to'lovchilar tomonidan hisoblanadigan soliqlar bo'linadi. Umuman olganda yuqorida keltirilgan soliqlar tasnifi iqtisodiy adabiyotda qat'iy bo'lmasdan, turli adabiyotlarda turli xil tasniflashlarga duch kelish mumkin.

4.3. Soliqqa tortish tamoyillari

Soliqqa tortish tamoyillarining asos solinishida va uni hisoblash yo'riqlarining rivojlanishida buyuk sarkarda va davlat arbobi Amir Temurning xizmati G'arbning buyuk namoyandalari bo'lgan U. Petti, A.Smit va D.Rikardodan kam emasligiga guvoh bo'lamiz. Amir Temur hukmronligi davrida soliqlarni hisoblash tartib qoidalari ishlab chiqilgan bo'lib, ular shu paytda amal qilgan soliqlarga nisbatan qo'llanilgan. "...amr qildimki, xirojni ekindan olingan hosilga va yerning unumdorligiga qarab yig'sinlar". Shuningdek soliq imtiyozlarini berish va undan samarali foydalanish tartibi ham keng yo'lga qo'yilgan: "... amr etdimki, kimki biron sahroni obod qilsa, yoki koriz qursa, yo biron bog' ko'kartirsa yoxud biron xarob bo'lib yotgan yerni obod qilsa, birinchi yili undan hech narsa

olmasinlar, ikkinchi yili raiyyat o'z roziligi bilan berganini olsinlar, uchinchi yili qonun-qoidasiga muvofiq xiroj yig'ilsin"⁶⁵.

Biz bu mulohazalar bilan o'z davrining buyuk iqtisodchilari va hozirgi kunga qadar kuchini yo'qotmagan nazariy ta'limotlar asoschilari bo'lgan U.Petti, A.Smit va D.Rikardolarni qarashlarini kamsitish yoki ularga tanqidiy jihatdan baho berish fikridan yiroqdamiz. Biz tomonimizdan bildirilgan xususiy fikrlarimiz orqali ajdodlarimizning soliq sohasidagi progressiv qarashlarini va bu qarashlarning soliqqa tortish ta'limotini rivojlanishidagi ahamiyatini yuqoriligiga xolisona, shu bilan birga bizningcha, odilona baho berishga urindik.

Soliqlar iqtisodiy kategoriya va shu bilan birga huquqiy kategoriya bo'lganligi uchun ma'lum bir prinsiplar asosida tashkil etiladi yoki undiriladi yoxud ozod etiladi. O'z navbatida soliq huquqi jamiyat rivojlanishining obyektiv qonuniyatlari asosida ishlab chiqilgan prinsiplarga tayanib ish yuritadi. Mohiyatan olib qaralganda mazkur prinsiplar boshqaruv g'oyalarini o'zida aks ettirib, barcha soliq munosabatlarini ishtirokchilarini huquqiy ustuvorlik jihatlarini belgilab beradi va davlat ushbu prinsiplarga asoslangan holda soliq tizimini tashkil etadi. Soliqqa tortish prinsiplari haqida gap ketganda dastavval klassik iqtisodchi A.Smit ta'limotiga murojaat qilinadi. Soliqlar to'g'risidagi ta'limotga o'zining ulkan hissasini qo'shgan A.Smit soliq undirishda rioya qilinishi kerak bo'lgan to'rtta asosiy qoidasi haqida batafsil to'xtalib o'tgan, ko'pgina iqtisodiy adabiyotda A.Smit tomonidan ishlab chiqilgan soliqqa tortish prinsiplari⁶⁶ degan nom olgan ushbu qoidalar quyidagilardan iborat:

Birinchi qoida: davlatning barcha fuqarolari hukumatni saqlab turishda o'zlarining to'lov qobiliyatlariga, ya'ni davlatning qanoti ostida egalik qiladigan daromadlariga mos ravishda hamkorlik qilishlari kerak. Bu qoidaga amal qilish yoki amal qilmaslik soliqlarni taqsimlashda *tenglik* yoki *tengsizlikka* olib keladi.

Ikkinchi qoida: har bir shaxs to'lashi majbur bo'lgan soliq *aniq* belgilangan bo'lishi kerak, ixtiyoriy ravishda o'zgartirilmashligi lozim. To'lov muddati, to'lov


⁶⁵ Temur tuzuklari, "Cho'lpon" Toshkent, 1991. - 99 b.

⁶⁶ Ushbu kitobda prinsip va tamoyil so'zlari bir ma'noda qo'llanilgan.

usuli va to'lov miqdori - bularning hammasi soliq to'lovchi uchun ham va chetdagi har qanday boshqa kishilar uchun ham oldindan belgilangan va aniq bo'lishi kerak. Bunda ushbu tamoyilni A.Smit budjet daromadlari kafolati nuqtai nazaridan emas, balki soliq to'lovchining erkinligini ta'minlash nuqtai nazaridan baholaydi. Mazkur tamoyilga amal qilinmagan joyda har bir soliq to'lovchining ustidan u yoki bu darajada soliq yig'uvchi ustunlikni qo'lga oladi, soliq to'lovchi uchun soliqni oshirishi yoki do'q-po'pisa orqali o'ziga sovg'a yoki pora undirib olish imkoniyati yaratiladi. Soliq masalasida har bir shaxs qancha to'lashi kerakligini aniq bilishi muhim ahamiyatga ega, bu esa Smit nazariyasida noaniqlikning kichik darajasi nisbatan tengsizlikning katta darajasini keltirib chiqaradi.

Uchinchi qoida: har qanday soliq uni to'lovchilari uchun *qulay* vaqtda va usulda yig'ilishi kerak. Agar yer rentasi yoki xonadonni ijarasi uchun soliqni undirish yer yoki xonadon egasi (haqni - muallifdan) oladigan vaqtga to'g'ri kelsa, unga soliqni to'lash bu vaqtda qulay, ya'ni bu vaqtda u to'lash uchun mablag'ga ega bo'ladi.

To'rtinchi qoida: har qanday soliq uni to'lovchilari qo'lidan chiqib, davlat g'aznasiga borib yetgunga qadar *eng kam xarajat (arzon - muallifdan)* bo'lishi kerak⁶⁷.



4.3-chizma. Soliqqa tortishning klassik tamoyillari

⁶⁷ Adam Smit. Izsledovanie o bogatstve narodov. Sokrashenniy perevod M.P.Shepkina i A.A.Kaufmana. Izdanie M.N.Prokopovicha. Pbg.1911. S. 215-216.

Umumiy tarzda aytganda, A.Smit tomonidan ishlab chiqilgan qoidalar soliqlarni joriy etish va undirish amaliyotida hukumatning o'zboshimchaligini cheklaydigan muayyan tartibga solishga qaratilgan, fuqarolar va davlatning o'zaro huquqlari hamda majburiyatlari tizimini yaratishga yo'naltirilgandir. Shunga qaramay, ushbu tamoyillar o'z vaqti uchun muhim nazariy xususiyatga kasb etib, jamiyatda shakllangan fikrlar va dunyoqarashlarning manfaatdor tabaqalar va sinflar o'rtasida tabaqalanishini nisbatan yumshatishga xizmat qilar edi.

A.Smit tomonidan ishlab chiqilgan tamoyillar nemis olimi A.Vagner (1835-1917) tomonidan o'z vaqtida ma'lum darajada tizimlashtirilgan va boyitilgan. Adolf Vagner soliqqa tortish prinsiplarining 9 ta asosiy qoidalarini to'rtta guruhda birlashtiradi.⁶⁸:

1. Moliyaviy prinsiplar: yetarlilik va qayishqoqlik.

2. Iqtisodiy-xo'jalik prinsiplari: a) soliq solish manbasini munosib tanlash, ya'ni bunda eng muhimi soliq solish faqat shaxsiy va milliy daromadni qamrab olishi kerakmi yoki shaxsiy va xalq kapitali hisobidan ham qoplanishi kerakmi, shuningdek soliq solishda xalq xo'jaligi va xususiy xo'jalik nuqtai nazaridan farqlanishi kerakmi, agar farqlanishi lozim bo'lsa, unda qaysi yo'l bilan farqlash zarur degan masalalarni hal etish lozim; b) soliq solishning va alohida soliq turlarining soliq to'lovchiga ta'sirini hamda soliqlarning boshqalar zimmasiga o'tkazilishi bo'yicha umumiy tadqiqotlarni inobatga olgan holda soliqlarning ayrim turlarini tanlash.

3. Adolatlilik prinsiplari: soliqqa tortishning umumiyliigi va tengligi.


4. Soliq ma'murchiligi prinsiplari: soliqqa tortishning aniqligi, soliq to'lovlarini amalga oshirishning qulayligi va undirish arzonligi.

Ushbu prinsiplardan ustunlik, Vagner fikriga ko'ra moliyaviy prinsiplarga berilishi kerak. Moliyaviy prinsiplar iqtisodiy-xo'jalik prinsiplaridan ham, adolatlilik prinsiplaridan ham oldin qo'yilishi kerak, chunki ayrim paytlarda fiskal zaruriyatlar tufayli adolatlilik prinsiplaridan voz kechiladi.

⁶⁸ «Sokolov A.A. Teoriya nalogov. Teoriya nalogov. Finansovoe izdatel'stvo NKf SSSR. Moskva, 1928.» seriya «Nauchnoe nasledie» pereizd. M.: OOO «YurInfoR-Press», 2003. S. 155.

Bugungi kunda 18-19-asrlarda ishlab chiqilgan, 20-asrda aniqlashtirilgan soliqqa tortish prinsiplari tizimi shakllantirilgan holda iqtisodiy, tashkiliy va huquqiy jihatlari tasniflanadi.

Tenglik va adolatlilik prinsipi. Mazkur prinsipga ko'ra soliq yuki teng bo'lishi va shunga mos tarzda har bir soliq to'lovchi davlat budjeti to'lashi lozim bo'lgan soliq to'lovlarini vijdonan to'lashi kerak. Barcha soliq to'lovchilar to'lov qobiliyatidan kelib chiqqan holda davlat ehtiyojlarini moliyalashtirishda moddiy jihatdan ishtirok etish majburiyatini his etishi va shundan kelib chiqib soliqqa tortish soliq to'lovchilar uchun umumiy va teng taqsimlanishi lozim.



4.4-chizma. Soliqqa tortishning iqtisodiy prinsiplari

Jahon soliqqa tortish amaliyotida tenglik va adolatlilik tamoyili tamoyiliga ikki asosiy yondashuv mavjud:

soliq to'lovchilarga davlat tomonidan munosib ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish - bunga ko'ra soliq to'lovchi to'layotgan soliqlariga munosib ijtimoiy xizmatlarni his etishi lozim, ya'ni davlat tomonidan unga ko'rsatilayotgan xizmatlar, jumladan, ta'lim, sog'iqlik saqlash va h.k.. Shuningdek mazkur yondashuv soliq to'lovchining

yetarli darajada nafga ega bo'lishini ta'minlashga qaratilgan bo'lib, unga ko'ra, to'lanadigan soliqlar to'lovchining davlatdan oladigan ko'magidan keladigan nafga mos kelishi bilan izohlanadi, ya'ni to'langan soliqlarning ma'lum qismi uning to'lovchisiga turli xildagi kompensatsiyalar, transfertlar, ta'lim va sog'liqni saqlashni moliyalashtirish orqali qaytib keladi. Shunday qilib, bu yerda ushbu yondashuv budjet xarajatlarining tuzilmasi bilan chambarchas bog'liq.

soliq to'lovchining to'lov qobiliyati - mazkur yondashuv budjet xarajatlarini tuzilishi soliq to'lovchilarning to'lov qobiliyati darajasi bilan o'zaro aloqadorligini hisobga olish zarurligini ko'rsatadi. Shu jihatdan, ushbu yondashuv budjet xarajatlari tuzilmasiga bevosita bog'liq emas. Har bir soliq to'lovchi to'lov qobiliyatidan, soliq salohiyatidan kelib chiqqan holda soliq to'lashi kerak.

Soliq tizimi shakllanar ekan, odatda ushbu ikki yondashuv birgalikda ishlatiladi va bu o'z navbatida soliq tizimi tuzilishining eng muhim tamoyilini amalga oshirish uchun yaxshi sharoitlar yaratadi.

Samaradorlik prinsipi. Mazkur prinsip quyidagi xususiyatlaridan kelib chiqib hech bir davlat o'z soliq tizimini qurishda uni inkor eta olmaydi.

*Birinchi*dan, soliqlar iqtisodiy qarorlar qabul qilishda sezilarli ta'sirga ega bo'lmasligi kerak. Aynan, samarali soliq tizimi o'z dastaklari orqali iqtisodiy o'sishni, aholi va xo'jalik sub'ektlari iqtisodiy faolligini rag'batlantirishini nazarda tutadi.

*Ikkinchi*dan, har bir soliq samaradorligi kam harajat talab qilishi va soliq ma'murchiligi tizimini faol holatini qo'llab quvvatlashda ko'rinadi.

Soliqqa tortishning mosligi prinsipi. Mazkur prinsip davlat budjeti daromadlari va soliq to'lovchilarning manfaatlarining mos kelishi zarurligi bilan ifodalanadi.

Soliqlar va yig'implarning turli-tumanlik prinsipi. Mazkur prinsip quyidagi jihatlari bilan xarakterlanadi:

- davlat soliq tizimi tabaqalashtirilgan soliqlar va soliqqa tortish obyektiga asoslanishi hamda soliqlarni qayta taqsimlash talablariga javob berishi kerak;

- yagona soliq solishga yoki bitta soliq turiga asoslangan soliqqa tortish tizimining tashkil etilishi davlatning iqtisodiy holatining o'zgarishi natijasida davlat budjetining daromadlariga putur yetkazishi mumkin.

Soliqqa tortishning umumiyliigi prinsipi. Har bir shaxs qonun bilan o'rnatilgan tartibda va muddatlarda belgilangan soliqlar va yig'implarni to'lashga majburdirlar va shu orqali umumdavlat xarajatlarining moliyalashtirilishi ishtirok etadi.

Soliqqa tortishning bugungi kunda **tashkiliy prinsiplariga** quyidagilarni kiritish mumkin:

1. **Universallik prinsipi.** Mazkur prinsipga ko'ra mulkchilik shaklidan, soliqqa tortish sub'ektidan, tarmoq xususiyatidan qat'iy nazar davlat soliq tizimi barcha uchun bir xil talabda bo'lishi kerak.

2. **Soliqni undirishning qulayliligi va muddatliliigi prinsipi.** Bu prinsip xo'jalik sub'ektlari uchun juda mahimdir, chunki soliqlar shunday muddatlarni undirilishi kerakki natijada soliq to'lovchilar uchun qulay bo'lishi kerak. Shuni qayd etish kerakki, soliqni to'lash tartibi maksimal darajada soddalashtirilgan tirtibda bo'lishi maqsadga muvofiq.

3. **Soliqlarni davlat boshqaruvi darajasida taqsimlash prinsipi.** Federativ davlatlarda mazkur prinsip alohida ahamiyat kasb etadi va albatta qonun bilan begilab qo'yilgan bo'lishi kerak. Har bir davlat boshqaruv organi soliqlarning belgilanishi, bekor qilinishi, soliq imtiyozlarini berish, soliq stavkalarini belgilash, soliqlarning budjetga o'z vaqtida va to'liq shakllantirilishi borasida aniq vakolatlarga ega bo'lishi maqsadga muvofiq.


4. **Soliq tizimining yagonaligi prinsipi.** Pmazkur prinsip davlatda olib borilayotgan yagona moliyaviy siyosat bilan chambarchas bog'liq. Chunki soliq tizim davlat moliya tizimining asosiy bo'g'ini hisoblanadi.

5. **Samaradorlik prinsipi.** Yegomazkur prinsipning iqtisodiy mohiyati milliy soliq tizimi munosabatlari shakllantirish va boshqarish hamda ular ustidan nazoratning olib borish bilan bog'liq xarajatlar minimal darajada bo'lishi kerak.

6. Ochiqlik prinsipi. Soliq to‘lovchining majburiyatlari soliqqa oid qonun hujjatlarida aniq belgilab qo‘yilgan va tushunarli tarzda bo‘lishi kerak.

7. Qat‘iylik prinsipi. Samarali amal qiluvchi soliq tizimida mazkur prinsipga ehtiyoj sezilmaydi. Qonun hujjatlarida belgilangan soliq qonunchiligi qat‘iy tarzda amal qilishi zarur.

8. Soliq solishning bir martalik prinsipi. Ushbu prinsipga asosan soliqqa tortish tizimida bitta manbaning yoki obyektning ikki yoxud undan ortiq marta soliq solinishiga yo‘l qo‘yilmasligi kerak.



4.5-chizma. Soliqqa tortishning huquqiy prinsiplari

1. Tenglik va adolatlilik prinsipi. Iqtisodiy prinsip sifatida ham ushbu prinsip e‘tirof etilgan, lekin huquqiy jihatdan mazkur prinsipning mohiyati soliq ma‘murchiligining adolatlilikini ta‘minlashda namoyon bo‘ladi, ya‘ni davlatga soliq yig‘uvchilar va soliq to‘lovchilar qonunga itoat etish nuqtai nazaridan teng bo‘lishi lozimligini bildiradi. Soliqlar va to‘lovlar bo‘yicha qonunchilikda soliqni yig‘uvchi va to‘lovchi ikkala tomon majburiyatlari va javobgarligini aniq belgilanishi, ulardan birining kamsitilishiga yo‘l qo‘yilmasligi lozim.

2. Soliqlarni belgilashning qonuniyligi prinsipi. Ushbu prinsipga ko‘ra davlatning soliq talablari va soliq to‘lovchining majburiyatlari qonunda ko‘rsatilgan bo‘lishi zarur. Soliqlar ixtiyoriy bo‘lishi kerak emas, fuqarolar soliqlar

va to'lovlarni to'lashni o'zining konstitutsiyaviy huquqini amalga oshirish sifatida bilishi zarur. Boshqa me'yoriy hujjatlar bilan soliqqa oid holatlar tartibga solinmasligi hamda yakka tartibda imtiyozlar joriy etilmasligi lozim.

3. Soliq qonunchiligining ustuvorligi prinsipi. Mazkur prinsipning mohiyati shundan iboratki, soliqqa tortish masalalariga bog'liq bo'lmagan huquqiy-me'yoriy hujjatlar soliqqa tortishning alohida tartibini belgilovchi qoidalardan iborat bo'lmashligi kerak. Ushbu prinsipning amaliyot qo'llanilishi agarda soliqqa oid bo'lmagan huquqiy-me'yoriy hujjatlarda soliq munosabatlariga taalluqli qoidalar mavjud bo'lganda ular soliq qonunchiligiga oid hujjatlarda belgilangan normalarga mos kelgandagina amal qilishi mumkin.

Mamlakatimizda soliqqa tortish prinsiplari dastlab 1991 yil 15 fevralda qabul qilingan "Korxonalar, birlashmalar va tashkilotlardan olinadigan soliqlar to'g'risida"gi Qonunda aks ettirilgan⁶⁹.

- manbalaridan qat'i nazar, barcha daromadlardan soliq to'lanishi majburiyligi;
- barcha hududiy-ma'muriy pog'onalar uchun yagona bo'lgan umumdavlat soliq siyosatini mahalliy hokimiyat idoralarining umumdavlat soliq siyosati doirasida soliq'larga oid qonun chiqarish faoliyatidagi mustaqilligi bilan uyg'un holda amalga oshirish;

- o'z faoliyati bilan eng muhim ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik muammolarni hal etishga ko'maklashayotgan samarali ishlovchi korxonalariga imtiyoz berish, shuningdek xo'jalik yuritishning ilg'or shakllarini rag'batlantirish sistemasi orqali soliq mezonlarining rag'batlantiruvchi ahamiyatini ta'minlash;

- deklaratsiyalar hamda tanlab o'tkaziladigan tekshirish va taftishlar uyushtirish asosida barcha sub'ektlarning soliq to'lovlari yuzasidan olgan majburiyatlari ustidan moliyaviy nazorat qilish, qonunlarni buzuvchilarga nisbatan iqtisodiy choralar ko'rish.

Respublikamizda mutaqillik davrida amalga oshirilgan islohotlarda soliq qonunchiligi bazasini ham takomillashtirilib borildi va soliqqa oid qonunlar umumlashtirilib, 1997 yil 24 aprelda dastlabki Soliq kodeksi qabul qildi. Mazkur

⁶⁹ O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1991 yil, N 4, 86-modda

Soliq kodeksi 1998 yildan boshlab amalga kiritildi va quyidagi soliq haqidagi qonun hujjatlari prinsiplari o‘z ifodasini topdi.⁷⁰

– har bir shaxs ushbu Kodeksda belgilangan soliqlar va yig‘imlarni to‘lashi shart;

– soliq solish-yuridik shaxslarga nisbatan mulkchilik shaklidan qat’i nazar, qonun oldida tenglik, jismoniy shaxslarga nisbatan esa jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e’tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeidan qat’i nazar, qonun oldida tenglik asosida amalga oshiriladi;

– belgilanayotgan soliqlar va yig‘imlar tovarlarning (ishlar, xizmatlarning) yoki pul mablag‘larining O‘zbekiston Respublikasi hududi doirasida erkin muomalada bo‘lishini bevosita yoki bilvosita cheklab qo‘yishi yoxud soliq to‘lovchining iqtisodiy faoliyatini boshqacha tarzda cheklab qo‘yishi yoki unga g‘ov bo‘lishi mumkin emas;

– olingan manbalaridan qat’i nazar, barcha daromadlarga soliq solinishi shart;

– soliq imtiyozlarini belgilash ijtimoiy adolat prinsiplariga mos bo‘lishi kerakligi belgilab qo‘yilgan edi.

Ushbu beshta prinsip dastlabki Soliq kodeksida 2006 yilga qadar saqlanib qolgan edi. O‘zbekiston Respublikasining 2006 yil 10 oktabrdagi “Tadbirkorlik sub’ektlarini huquqiy himoya qilish tizimi takomillashtirilganligi hamda ularning moliyaviy javobgarligi erkinlashtirilganligi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi Qonuniga asosan “soliqlar, yig‘imlar va boshqa majburiy to‘lovlarga oid normativ-huquqiy hujjatlardagi bartaraf etib bo‘lmaydigan barcha shubhali, ziddiyatli qoidalar va noaniqliklar soliq to‘lovchi tadbirkorlik sub’ekti foydasiga talqin qilinadi” degan prinsip bilan to‘ldirildi. 2008 yildan kuchga kirgan Soliq kodeksida ham soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlari prinsiplari kengaytirildi va aniqlashtirildi. 2019 yilda qabul qilinib, 2020 yilda kuchga kirgan yangi tahrirdagi Soliq kodeksida mazkur prinsiplar yanada takomillashtirildi.

⁷⁰ O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. – T.: “O‘zbekiston”, 1997. – 6 b.

Majburiylik prinsipi. Har bir shaxs Soliq kodeksida belgilangan soliqlar va unda nazarda tutilgan yig'implarni to'lashi shart.

Hech kimga soliqlar va yig'implarning barcha alomatlariga ega bo'lgan, biroq Soliq kodeksda nazarda tutilmagan yoxud uning normalari buzilgan holda belgilangan soliqlar va yig'implarni to'lash majburiyati yuklatilishi mumkin emas.

Soliq solishning aniqligi va soliq organlarining soliq to'lovchilar bilan hamkorligi prinsipi. Soliqlarni va yig'implarni belgilovchi soliq to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari, agar Soliq kodeksda boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, soliq to'lovchilarni hamda ushbu soliqlarning va yig'implarning boshqa barcha elementlarini, shu jumladan ularni to'lash muddatlari va tartibini aniqlab berishi kerak.

Soliq organlari soliq munosabatlari doirasida soliq to'lovchilar bilan soliq to'g'risidagi qonunchilikni to'g'ri bajarish maqsadida hamkorlik qilishi shart. Bunda soliq organlari soliq to'lovchilarning qonuniy faoliyatiga asossiz to'siqlar yaratishga haqli emas, soliq to'lovchilar esa soliq organlari o'z vakolatlarini amalga oshirishi uchun shart-sharoit yaratishi kerak.

Adolatlilik prinsipi. Soliqlar va yig'implar kamsitish xususiyatiga ega bo'lishi hamda ijtimoiy, irqiy, milliy, diniy va boshqa shu kabi mezonlardan kelib chiqqan holda qo'llanilishi mumkin emas.

Mulkning shakliga, jismoniy shaxslarning fuqaroligiga yoki kapitalning kelib chiqish mamlakatiga qarab farqlangan soliq stavkalarini, soliq imtiyozlarini yoki boshqa afzalliklarni belgilashga yo'l qo'yilmaydi.

Fuqarolarning o'z konstitutsiyaviy huquqlarini amalga oshirishiga to'sqinlik qiladigan soliqlarni belgilashga yo'l qo'yilmaydi.

Soliq tizimining yagonaligi prinsipi. Soliq tizimi O'zbekiston Respublikasining butun hududida yagonadir.

O'zbekiston Respublikasining yagona iqtisodiy makonini buzuvchi, xususan, O'zbekiston Respublikasining hududi doirasida tovarlarning (xizmatlarning) yoki moliyaviy mablag'larning erkin muomalada bo'lishini bevosita yoki bilvosita cheklab qo'yadigan soliqlar belgilanishiga yo'l qo'yilmaydi.

Oshkoralik prinsipi. Soliq to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari rasman e'lon qilinishi shart.

Rasman e'lon qilinmagan soliq to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari kuchga kiritilmagan hujjat sifatida huquqiy oqibatlarni keltirib chiqarmaydi.

Soliq to'lovchining haqligi prezumpsiyasi prinsipi. Soliq to'g'risidagi qonunchilik hujjatlaridagi barcha bartaraf etib bo'lmaydigan qarama-qarshiliklar va noaniqliklar soliq to'lovchining foydasiga talqin etiladi.

O'z-o'zini nazorat qilish uchun savollar:

1. Soliqlarning iqtisodiy mohiyatini izohlang.
2. Soliqlarning obyektiv zarurligi nimada.
3. Soliq funksiyalarini tavsiflang.
4. Soliqqa tortishning klassik tamoyillari haqida nimalarni bilasiz?
5. Soliqqa tortishning iqtisodiy prinsiplari nimalardan iborat?
6. Soliqqa tortishning huquqiy prinsiplari haqida nimalarni bilasiz?
7. O'zbekiston Respublikasi soliq qonunchiligining prinsiplarini sharhlang.


5-BOB. SOLIQ QONUNCHILIGI ASOSLARI

5.1. Soliq to'g'risidagi qonunlar va qonun osti hujjatlari

Huquqiy demokratiyaga asoslangan jamiyatda qonun ustuvorligi prinsipini ta'minlovchi asosiy shartlar quyidagilardan iborat.

Hokimiyatlar bo'linishi prinsipining real joriy etilganligi. Bu prinsipga ko'ra qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati bo'g'inlari o'zlarining Konstitutsiyada va qonunda belgilangan vakolatlari doirasida faoliyat yuritadilar.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 93-moddasining birinchi bandiga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti fuqarolarning huquqlari va erkinliklariga, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiya va qonunlariga rioya etilishining kafilidir⁷¹.



5.1-rasm. O'zbekiston Respublikasi soliq tizimining huquqiy asoslari

Joriy qonunlar va barcha normativ huquqiy aktlar Konstitutsiyaga tamomila mos va unga muvofiq yaratilishi lozim. Bu esa mamlakatda qonuniylik va huquqiy tartibot, taraqqiyot va barqarorlik hukm surishiga olib keladi.

Qonun ustuvorligini ta'minlovchi va mustahkamlovchi vositalardan biri kodekslashtirishdir. Kodekslar huquq tarmog'ining bosh qonuni sifatida

⁷¹ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi

Konstitutsiya prinsiplarini rivojlantirish yoʻlida yaratiladi va ular konstitutsiya, konstitu-siyaviy qonunlardan keyingi maqeni egallaydi. Kodekslar oʻzining mantiqiy mukammalligi, pishiqligi, ichki barqarorligi huquqiy qoidalarga amal qilganligi tufayli kodeks normalari hayotda oʻzi-ning amalini oson topadi.

Qonun osti, idoraviy normativ hujjatlarga havolalar, yaʼni ilovalar (shior va deklaratsiyalar tarzidagi norma-lar) koʻp boʻlishining oldini olish zarur. Bunday ilovalar haddan ziyod koʻp boʻlishi keyinchalik amaliyotda qonun chetda qolib, uning oʻrnini idoraviy hujjat egallab olishi bilan qonun ustuvorligiga ziyon yetishi xavfini keltirib chiqaradi.

Qonunlarning barqaror va ustuvor boʻlishiga erishish. Ularga tez-tez qoʻshimcha va oʻzgartirishlar kiritish, piro-vard natijada qonunning ahamiyati va nufuzi tushib ketishiga olib keladi.

Shunday qilib Oʻzbekistonda huquqiy davlat barpo etish va fuqarolik jamiyatini shakllantirish maqsadida Konstitutsiya va qonunlarning ustuvorligini taʼminlash uchun kompleks tashkiliy huquqiy kafolatlar yaratildi. Albatta, konstitutsiyaviy huquqiy kafolatlar va yuridik mexanizmlarni muttasil takomillashtirib, ularning samaradorligini oshirib borish lozim. Shu oʻrinda Konstitutsiya va qonunlar ustuvorligini taʼminlashning iqtisodiy, siyosiy, maʼnaviy-axloqiy, ruhiy kafolatlari ham mavjudligini esdan chiqarmaslik lozim.

Soliq toʻgʻrisidagi qonun hujjatlari Soliq kodeksdan va qabul qilinishi Soliq kodeksda toʻgʻridan-toʻgʻri nazarda tutilgan boshqa normativ-huquqiy hujjatlardan iborat.

Agar Oʻzbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida Oʻzbekiston Respublikasining soliq toʻgʻrisidagi qonun hujjatlarida nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan boʻlsa, xalqaro shartnoma qoidalari qoʻllaniladi.

Normativ-huquqiy hujjat yoki uning bir qismi, agar Soliq kodeksiga nisbatan quyidagi shartlardan hech boʻlmaganda bittasi bajarilsa, Soliq kodeksning qoidalariga muvofiq emas deb topiladi:

1) Soliq kodeksiga muvofiq bunday hujjatlarni qabul qilish huquqiga ega boʻlmagan organ tomonidan qabul qilingan boʻlsa yoxud normativ-huquqiy

hujjatlarni qabul qilishning belgilangan tartibi buzilgan holda qabul qilingan bo'lsa;

2) soliq munosabatlari sub'ektlarining Soliq kodeksida nazarda tutilgan huquqlarini bekor qilsa yoki cheklasa;

3) soliq munosabatlari sub'ektlari harakatlarining Soliq kodeksida belgilangan asoslarini, shartlarini, ketma-ketligini yoki tartibini o'zgartirsa;

4) Soliq kodeksida taqiqlangan harakatlarga ruxsat bersa yoki yo'l qo'ysa;

5) Soliq kodeksining normalariga yoki qoidalarining mazmuniga boshqacha tarzda zid bo'lsa.

Soliq kodeksiga muvofiq bo'lmagan normativ-huquqiy hujjatni qabul qilgan organ yoki uning yuqori turuvchi organlari bu hujjatni bekor qilishga yoki unga zarur o'zgartishlar kiritishga haqli. Bu organlar Soliq kodeksiga muvofiq bo'lmagan normativ-huquqiy hujjatni bekor qilishni yoki unga zarur o'zgartishlar kiritishni rad etgan taqdirda, u sud tomonidan haqiqiy emas deb topilishi mumkin.

Normativ-huquqiy hujjat yoki uning qismi ular qabul qilingan sanadan e'tiboran Soliq kodeksiga muvofiq emas deb topiladi.

Respublikamizda mutaqillik davrida amalga oshirilgan islohotlarda soliq qonunchiligi bazasini ham takomillashtirilib borildi va soliqqa oid qonunlar umumlashtirilib, 1997 yil 24 aprelda dastlabki Soliq kodeksi qabul qildi. Mazkur Soliq kodeksi 1998 yildan boshlab amalga kiritildi va quyidagi soliq haqidagi qonun hujjatlari prinsiplari o'z ifodasini topdi:⁷²

– har bir shaxs Soliq kodeksida belgilangan soliqlar va yig'implarni to'lashi shart;

– soliq solish-yuridik shaxslarga nisbatan mulkchilik shaklidan qat'i nazar, qonun oldida tenglik, jismoniy shaxslarga nisbatan esa jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar, qonun oldida tenglik asosida amalga oshiriladi;

– belgilanayotgan soliqlar va yig'implar tovarlarning (ishlar, xizmatlarning) yoki pul mablag'larining O'zbekiston Respublikasi hududi doirasida erkin

⁷² O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. – T.: "O'zbekiston", 1997. – 6 b.

muomalada bo'lishini bevosita yoki bilvosita cheklab qo'yishi yoxud soliq to'lovchining iqtisodiy faoliyatini boshqacha tarzda cheklab qo'yishi yoki unga g'ov bo'lishi mumkin emas;

– olingan manbalaridan qat'ri nazar, barcha daromadlarga soliq solinishi shart;

– soliq imtiyozlarini belgilash ijtimoiy adolat prinsiplariga mos bo'lishi kerakligi belgilab qo'yilgan edi.

Ushbu beshta prinsip dastlabki Soliq kodeksida 2006 yilga qadar saqlanib qolgan edi. Ushbu Soliq kodeksi bor-yo'g'i 135 moddadan iborat bo'lib, uning to'g'ridan-to'g'ri amal qilish mexanizmi yo'lga qo'yilmagan edi. Shuning uchun deyarli har bir soliq turi bo'yicha bir necha qonunosti hujjatlari – nizom, yo'riqnoma, tushuntirish xatlari qabul qilinib, ular orqali soliqlarni hisoblash va tartibga solish masalalari hal etilar edi. Bu haqda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov to'xtalib, "1997 yilda ishlab chiqilgan va qabul qilingan Soliq kodeksi iqtisodiy islohotlar sohasida bugungi kunning yangi va ustuvor vazifalari talablariga javob bermaydi. Faqat so'nggi ikki yil davomida Soliq kodeksi va soliq qonunchiligiga yuzdan ortiq o'zgartish va qo'shimchalar kiritilgani ham shundan dalolat beradi"⁷³ deb ta'kidlaganlar. Mamlakatimiz Prezidenti I.Karimov 2005 yilning 28 yanvarida Oliy Majlisning Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisida mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlarga atroflicha to'xtalib, 2005 yilda iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishning eng muhim ustuvor vazifalarini belgilab berdilar. Mamlakatimizda soliq siyosatini yanada takomillashtirish zarurligi ham muhim ustuvor vazifalardan biri sifatida e'tirof etildi. Mamlakatimiz rahbari o'z ma'ruzalarida soliq to'lovchilarga soliqqa tortish tizimida qo'shimcha imtiyozlar va preferensiyalar berish, soliqlarni unifikatsiya qilish, soliq yukini yengillashtirish, soliq qonunchiligining barqarorligini ta'minlash hamda ushbu yo'nalishda ilg'or mamlakatlar ijobiy tajribalaridan foydalanish lozimligini ta'kidlab o'tdilar⁷⁴.

⁷³ Karimov I.A. O'zbek xalqi hech qachon, hech kimga qaram bo'lmaydi. T.13 –T.: O'zbekiston, 2005.–219 b.

⁷⁴ Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizasiya va isloh etishdir". O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruzasi. Xalq so'zi. 2005 yil 29 yanvar' -№20 (3565).

Shu munosabat bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri amal qiluvchi yangi tahrirdagi Soliq kodeksini yaratish bo‘yicha hukumat komissiyasi uch yil davomida ish olib bordi. 2008 yildan boshlab yangi tahrirdagi Soliq kodeksi joriy etildi. Ushbu kodeks 392 moddadan iborat bo‘lib, o‘z ichiga nafaqat soliqqa tortish masalalarini olgan ushdan tashqari majburiy to‘lovlar va davlat bojlarini hisoblash hamda tartibga solish masalalarini ham qamrab olgan.

Soliq yukini izchillik bilan kamaytirish, soliq solish tizimini soddalashtirish va soliq ma‘muriyatchiligini takomillashtirish iqtisodiyotni jadal rivojlantirish hamda mamlakatning investitsiyaviy jozibadorligini yaxshilashning eng muhim shartlari hisoblanadi.

Shu bilan birga, o‘rganishlar natijalari mazkur sohada bir maromda iqtisodiy o‘sishga, ishbilarmonlik va investitsiyaviy faollikni oshirishga, sog‘lom raqobat muhitini shakllantirishga, shuningdek, soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar yig‘iluvchanligining zarur darajasini ta‘minlashga to‘sqinlik qilayotgan bir qator tizimli muammolarni ko‘rsatdi⁷⁵, xususan:

umumbelgilangan soliqlarni to‘lovchilar uchun soliq yuki darajasining yuqoriligi, shuningdek, soliq solishning soddalashtirilgan va umumbelgilangan tizimida soliqlarni to‘laydigan xo‘jalik yurituvchi sub‘ektlar o‘rtasidagi soliq yuki darajasidagi farqning sezilarliligi;

qo‘shilgan qiymat solig‘ini undirishning samarasiz tizimi, soliq to‘lovchilarning aylanma mablag‘larini jalb qiladigan, shuningdek, iste‘mol mahsulotining oraliq va yakuniy qiymati qimmatlashishiga olib keladigan hamda yirik va kichik biznes o‘rtasidagi kooperatsiyaning rivojlanishiga to‘sqinlik qiladigan majburiy to‘lovlarning mavjudligi;

soliq to‘lovchilar tomonidan xodimlarning real sonini va mehnatga haq to‘lash fondini yashirishga olib keluvchi mehnatga haq to‘lash fondi soliq stavkalarining yuqoriligi;

⁷⁵ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 29 iyundagi “O‘zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi to‘g‘risida”gi PF-5468-sonli Farmoni. Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 30.06.2018 y. www.lex.uz.

imtiyozlarning samaradorligini monitoring va nazorat qilish bo'yicha ta'sirchan tizimning mavjud emasligi sababli sog'lom raqobatni ta'minlashga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi, xo'jalik yurituvchi sub'ektlarni soliq va bojxona, shu jumladan individual xususiyatga ega bo'lgan imtiyozlar hisobiga qo'llab-quvvatlash amaliyotining keng tarqalganligi;

davlat organlari va tashkilotlari o'rtasida axborot almashish mexanizmlarining, elektron soliq ma'muriyatchiligi hamda soliq nazoratini amalga oshirish shakl va uslublarining takomillashmaganligi;

o'tkaziladigan nazorat tadbirlarining sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi va insofli tadbirkorlik sub'ektlarining faoliyatiga aralashishlarni kamaytirishga to'sqinlik qiluvchi nazorat faoliyatini amalga oshirishda xavf-xatarlarni tahlil qilish va boshqarishning aniq tizimi yo'qligi;

mahalliy soliq va yig'implarning ma'muriyatchiligi mexanizmlarining samarasizligi oqibatida ularning yig'iluvchanlik darajasi yetarli emasligi, shuningdek, ko'chmas mulk va yer uchastkalarini to'liq hisobga olish va qiymatini obyektiv aniqlashning mavjud emasligi.

Mavjud tizimli muammolarni bartaraf etish, 2017 — 2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida belgilangan soliq yukini kamaytirish va soliq solish tizimini soddalashtirish, soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish vazifalarini amalga oshirish maqsadida, shuningdek, keng jamoatchilik muhokamasi natijalari hamda Xalqaro valyuta jamg'armasi, Jahon banki va xalqaro ekspertlarning tavsiyalaridan kelib chiqib, O'zbekiston Respublikasining 2019 yil 30 dekabrda O'RQ-599-son Qonuni⁷⁶ bilan O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi yangi tahriri tasdiqlangandi.

Yangi tahrirdagi Soliq kodeksida soliq to'g'risidagi qonun hujjatlari prinsiplari ham kengaytirildi va aniqlashtirildi, ya'ni bunda oltita prinsiplar keltirilgan.

⁷⁶ O'zbekiston Respublikasining 2019 yil 30 dekabrda O'RQ-599-son Qonuni.

5.2. O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi

O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Soliq kodeksi Umumiy qismining 1-bo‘limi “Umumiy qoidalar” deb nomlanib, unda Soliq kodeksi bilan tartibga solinadigan asosiy qoidalar va ularning prinsiplari, respublikamizda joriy etilayotgan asosiy soliqlar tizimi va rejimi, soliq munosabatlari sub’ektlarining huquqlari va majburiyatlari, soliq to‘lovchilarning konsolidatsiyalashgan guruhi, soliqlarning elementlari hamda Kodeksda qo‘llanilgan asosiy tushunchalarga izohlar berilgan.

Soliqlar majburiy pul munosabatlarini o‘zida ifoda etuvchi vosita bo‘lib, bu munosabatlar soliq to‘lovchilar bilan ularning pul mablag‘larini o‘z mulkiga aylantiruvchi davlat o‘rtasida shakllanadi. Davlat soliq munosabatlariga kirishishda qonunchilik me‘yorlariga asoslanadi va bu me‘yorlar soliq solish prinsiplari, soliqlarni joriy etish asoslari, soliqlar va ularning elementlari, soliqlarni hisoblash va undirish rejimlari, soliq to‘lovchilarning huquq va majburiyatlaridan iborat bo‘ladi.

Soliq munosabatlarining yuqorida qayd etilgan huquqiy me‘yorlari mujassamlashgan asosiy qonun hujjati Soliq kodeksi hisoblanadi va mamlakatimizda soliqqa oid munosabatlarni tartibga soluvchi asosiy qonun hujjati - O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi hisoblanadi. Kodeksning asosiy qoidalari qonun ustuvorligiga qaratilgan bo‘lib, soliqlar va yig‘imlarni joriy etish va bekor qilish, hisoblab chiqarish hamda to‘lash kabi majburiyatlarni bajarish bilan bog‘liq munosabatlar ushbu qonun hujjati orqali tartibga solinadi.

Shu sababli, Soliq kodeksining 1-moddasida soliqlar va yig‘imlarni belgilash, joriy etish va bekor qilish, hisoblab chiqarish hamda to‘lashga doir munosabatlar, shuningdek soliq majburiyatlarini bajarish bilan bog‘liq munosabatlarni tartibga solish asosan ushbu hujjat Soliq kodeksi bilan amalga oshirilishi belgilab qo‘yilgan.

Mazkur moddadagi, soliqlar va yig‘imlarni belgilash deyilganda, soliq to‘lovchisi va Soliq kodeksining 17-moddasida belgilangan barcha soliqlar va

yig'imglar, shuningdek ularni hisoblash va to'lash uchun zarur bo'lgan Soliq kodeksining 69-moddasida ko'rsatilgan soliqlarning barcha elementlari (soliq solish obyekti; soliq bazasi; soliq stavkasi; soliq davri; soliqni hisoblab chiqarish tartibi; soliq hisobotini taqdim etish tartibi; soliqni to'lash tartibi.) mavjud bo'lgan majburiy to'lovlar tushuniladi.

Qayd etish lozimki, soliqlar va yig'imlarni belgilash soliq munosabatlarining dastlabki bosqichi bo'lib, faqat qonun hujjatida ya'ni Soliq kodeksida soliqlar va yig'imlar belgilangan bo'lsa, soliq to'lovchi tomonidan o'z majburiyatlarni amalga oshirish uchun ularni amaliyotda qo'llash majburiyati paydo bo'ladi. Shu sababli, soliqlar va yig'imlar belgilash tegishli qonun hujjatini qabul qilish orqali amalga oshiriladi. Bunda, soliqlar va yig'imlar belgilangan vaqt bo'lib, mazkur qonun hujjati rasman matbuotda e'lon qilingan kun hisoblanadi.

Soliqlar va yig'imlarni joriy etish, qonun hujjatlarida joriy qilinishi, hisoblash va to'lash muddatlari belgilangan kalendar vaqt asosida amalga oshiriladi. Agar qonun hujjatida soliq joriy etilgan va rasman matbuotda e'lon qilingan bo'lsa, mazkur soliqning joriy qilinishi Soliq kodeksining 4-moddasi bo'yicha aniqlanadi.

Soliqlar va yig'imlarni hisoblash deyilganda, soliq to'lovchining soliq qonunchiligida o'rnatilgan tartibda tegishli soliq davri yoki hisobot davri uchun soliq elementlarini qo'llash asosida, Soliq kodeksning 74-moddasida belgilangan tartibda soliqlar va yig'imlarni hisoblab chiqqish bilan bog'liq harakati tushuniladi.

Soliqlarni to'lash deyilda, hisoblangan yoki to'lanishi lozim bo'lgan soliq miqdorini to'lov xabarnomasi orqali bankning tegishli tasdig'i asosida pul mablag'larini budjetga o'tkazilishi tushuniladi. Bunda, har bir soliqni to'lash tartiblari Soliq kodeksining maxsus qismi bo'yicha amalga oshiriladi,

Kodeksning 2-moddasida, soliq to'g'risidagi qonun hujjatlari Soliq kodeksidan va qabul qilinishi aynan Soliq kodeksida to'g'ridan-to'g'ri nazarda tutilgan boshqa normativ-huquqiy hujjatlardan iborat bo'lishi;

Agar, O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida O'zbekiston Respublikasining soliq to'g'risidagi qonun hujjatlarida nazarda tutilganidan

boshqacha qoidalar belgilangan bo'lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo'llanilishi belgilangan.

Ta'kidlash joizki, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 123-moddasida, O'zbekiston Respublikasi hududida yagona soliq tizimi amal qilishi, soliqlar joriy qilishga faqat O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi haqli ekanligi belgilangan. Unga muvofiq, mazkur huquq O'zbekiston Respublikasining 2020 yil 30 dekabrda "O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi O'RQ-599-son qonuni orqali amalga oshirilib, O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Soliq kodeksi 2020 yil 1 yanvardan amaliyotga joriy etildi.

O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi mamlakatimizda soliq munosabatlarini tartibga soluvchi asosiy qonun hujjati bo'lib, barcha soliqqa oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlardagi soliqqa oid me'yorlar Kodeks me'yorlariga muvofiq bo'lishi lozim.

Soliq kodeksida nazarda tutilgan to'g'ridan-to'g'ri soliqqa oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlar tizimi deyilganda, O'zbekiston Respublikasining 2000 yil 14 dekabrda "Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida"gi qonuni bo'yicha quyidagi normativ-huquqiy hujjatlar nazarda tutilgan:

- O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi;
- O'zbekiston Respublikasining qonunlari;
- O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlari;
- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon, qaror va farmoyishlari;
- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari;
- vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralarning hujjatlari;
- mahalliy davlat hokimiyati organlarining qarorlari.

Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksida yoki soliqqa oid boshqa qonun hujjatlarida nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo'lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo'llaniladi va bu xalqaro shartnoma qoidalarining

mamlakatimizning soliq to'g'risidagi qonun hujjatlariga nisbatan ustuvorligini belgilaydi.

Chunki, O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarida mamlakatimizning davlatlararo munosabatlarning huquqiy asoslari belgilab beriladi va bu huquqiy asoslar Birlashgan millatlar tashkilotining xalqaro hamkorlik harakatlarini rivojlantirish prinsiplariga muvofiq tuziladi.

O'z navbatida, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 17-moddasida O'zbekiston Respublikasi xalqaro munosabatlarning to'la huquqli sub'ekti hisoblanib xalqaro huquqning umum e'tirof etilgan boshqa qoidalari va normalariga asoslanishi ko'zda tutilgan.

Shu sababli, xalqaro huquq normalari va umumqabulqilingan prinsiplar esa O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan ayrim huquq va normalarga nisbatan ustuvor hisoblanadi shu sababli, xalqaro shartnoma normalari yuqori hisoblanadi.

Soliq kodeksining 3-moddasida normativ-huquqiy hujjatlarni yoki ularning qismlarini Soliq kodeksining qoidalari muvofiq emas deb topish haqidagi qoidalar belgilanib unga ko'ra, normativ-huquqiy hujjat yoki uning bir qismi, quyidagi shartlardan hech bo'lmaganda bittasi bajarilsa, unda ushbu hujjat Soliq kodeksi qoidalari muvofiq emas deb topilishi mumkinligi:

- Soliq kodeksi qoidalari muvofiq bunday hujjatlarni qabul qilish huquqiga ega bo'lmagan organ tomonidan qabul qilingan bo'lsa, yoki normativ-huquqiy hujjatlarni qabul qilishning belgilangan tartibi buzilgan holda qabul qilingan bo'lsa;

- soliq munosabatlari sub'ektlarining Soliq kodeksida nazarda tutilgan huquqlarini bekor qilsa yoki cheklasa;

- soliq munosabatlari sub'ektlari harakatlarining Soliq kodeksida belgilangan asoslarini, shartlarini, ketma-ketligini yoki tartibini o'zgartirsa;

- Soliq kodeksida taqiqlangan harakatlarga ruxsat bersa yoki yo'l qo'ysa;

- Soliq kodeksining normalariga yoki qoidalarining mazmuniga boshqacha tarzda zid bo'lsa, demak bunday hujjatlar Kodeks qoidalariga muvofiq emas deb topilishi belgilangan.

Mazkur me'yorlar O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining soliq konuchiligi me'yorlarni belgilashda to'g'ridan-to'g'ri qonun hujjati ekanligini asoslaydi. Kodeksning 2-moddasida berilgan tushuntirishlarda qayd etilganidek, O'zbekiston Respublikasining "Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilish huquqiga ega bo'lgan organlar keltirib o'tildi, agar mazkur organlardan tashqari organ tomonidan soliqqa oid me'yoriy hujjatlar qabul qilinsa, o'z navbatida bundan hujjat Soliq kodeksi qoidalariga muvofiq emas deb topiladi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2005 yil 14 fevraldagi 62-son qarori bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining reglamenti"da hamda O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirining 2009 yil 14 fevralda 1905-son bilan ro'yxatdan o'tkazilgan "Vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralarning normativ-huquqiy hujjatlarini tayyorlash va qabul qilish qoidalari"da davlat organlari tomonidan normativ-hujjatlarni tayyorlash va tasdiqlash qoidalari belgilangan.

Mazkur qoidalarda, agar qaysidir organ soliqqa oid biror me'yorni yoki normati-huquqiy hujjatni belgilasa yoki qabul qilsa (masalan soliqlarni hisoblash yoki to'lash, shuningdek soliq nazorati bilan bog'liq), lekin mazkur me'yor yoki normativ-huquqiy hujjat Soliq kodeksi qoidalariga muvofiq bo'lmasa, unda ushbu organ yoki uning yuqori turuvchi organi mazkur hujjatni bekor qilishi yoki unga zarur o'zgartishlar kiritishi lozim, aks holda, ya'ni Soliq kodeksi qoidalariga muvofiq bo'lmagan normativ-huquqiy hujjatni bekor qilish yoki unga zarur o'zgartishlar kiritish rad etilgan taqdirda, mazkur hujjat sud tomonidan haqiqiy emas deb topilishi mumkin. Bunda, Soliq kodeksi qoidalariga zid bo'lgan normativ-huquqiy hujjat yoki uning qismi qabul qilingan sanadan e'tiboran Soliq kodeksiga muvofiq emas deb topiladi.

5.3. Davlat budjeti to'g'risidagi qonunlar

Budjet kodeksi O'zbekiston Respublikasining budjet tizimi budjetlarini shakllantirish, tuzish, ko'rib chiqish, qabul qilish, tasdiqlash, ijro etish, davlat tomonidan mablag' jalb qilish va budjet to'g'risidagi qonunchilik ijrosini nazorat qilish sohasidagi munosabatlarni tartibga soladi.

Budjet to'g'risidagi qonunchilik Budjet kodeksi va boshqa qonunchilik hujjatlaridan iboratdir. Budjet to'g'risidagi qonunchilikning boshqa qonunchilik hujjatlarida ko'rsatilgan normalari Budjet kodeksiga muvofiq bo'lishi kerak. Agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida O'zbekiston Respublikasining budjet to'g'risidagi qonunchiligida nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo'lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo'llaniladi⁷⁷.

Ta'kidlash lozimki, mamlakat iqtisodiyotining tarmoqlarini isloh qilish doirasida iqtisodiy va moliyaviy statistika ma'lumotlaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish va budjet jarayoni ochiqligini oshirishning yangi mexanizmlarini joriy etish bo'yicha izchil ishlar olib borilmoqda.

Budjet ma'lumotlarining ochiqligi va shaffofligini yanada oshirish, budjet mablag'larining shakllanishi va sarflanishi ustidan parlament va jamoatchilik nazoratini kuchaytirish maqsadida, shuningdek, 2017 — 2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida belgilangan vazifalarga muvofiq⁷⁸:

2019 yildan boshlab budjet mablag'larini taqsimlashda fuqarolar ishtirokining tuman (shahar)lar budjetlari qo'shimcha manbalarining kamida 10 foizini jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarga yo'naltirishni nazarda tutadigan mexanizmi joriy etilgan;

2020 yildan boshlab Davlat budjeti va davlat maqsadli jamg'armalari budjetlari axborotlar batafsil bayon etilgan, ilg'or xalqaro standartlarga muvofiq tayyorlangan qonun bilan tasdiqlanishi belgilandi (*avval Davlat budjeti va davlat*

⁷⁷ O'zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksi 2014. Lex.uz. internet manbacidan olingan.

⁷⁸ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 22 avgustdagi "Byudjet ma'lumotlarining ochiqligini va byudjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3917-sonli qarori.

maqsadli jamg'armalari budjetlari parametrlari Prezident qarori bilan tasdiqlangan);

Davlat budjeti va davlat maqsadli jamg'armalari budjetlari, soliq va budjet siyosatining asosiy yo'nalishlari loyihalari, shuningdek, Davlat budjeti va davlat maqsadli jamg'armalari budjetlari ijrosi to'g'risidagi hisobotlar O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasiga taqdim etilishidan oldin majburiy jamoatchilik muhokamasiga qo'yilishi shart;

Davlat budjeti va davlat maqsadli jamg'armalari budjetlari loyihalari hamda ularning ijrosi to'g'risidagi hisobotlar bilan birga O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan ishlab chiqiladigan «Fuqarolar uchun budjet» axborot nashri jamoatchilik muhokamasi uchun e'lon qilinadi;

O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasining Davlat budjeti va davlat maqsadli jamg'armalari budjetlari, soliq va budjet siyosatining asosiy yo'nalishlari loyihalari, shuningdek, Davlat budjetining va davlat maqsadli jamg'armalari budjetlarining ijrosi to'g'risidagi yillik hisobot yuzasidan tashqi audit va baholash natijalari bo'yicha xulosalari majburiy e'lon qilinadi.

Davlat budjeti va davlat maqsadli jamg'armalari budjetlari, soliq va budjet siyosatining asosiy yo'nalishlari loyihalari, Davlat budjeti va davlat maqsadli jamg'armalari budjetlari ijrosi to'g'risidagi hisobotlar, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasining xulosalarini joylashtirish orqali budjet xarajatlarining manzilliligi ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish, jamoatchilik fikrini shakllantirish uchun tuman (shahar)lar budjetlarining qo'shimcha manbalari hisobidan moliyalashtirilish taklif etilayotgan tadbirlar to'g'risidagi axborotni joylashtirish va budjet qonunchiligini buzish holatlari to'g'risida xabardor qilish va budjet jarayonini takomillashtirish bo'yicha takliflar kiritish imkoniyatini o'z ichiga olgan fuqarolar bilan qayta aloqani tashkil etilishi joriy qilinadi.

O'zbekiston Respublikasining O'zbekiston Respublikasining Davlat Budjeti to'g'risidagi Qonunning maqsadi muayyan davr uchun O'zbekiston

Respublikasining konsolidatsiyalashgan budjetini shakllantirish va ijro etish bilan bog'liq munosabatlarni tartibga solishdan iborat. Xususan:

birinchi darajali budjet mablag'larini taqsimlovchilar uchun O'zbekiston Respublikasining respublika budjetidan ajratiladigan mablag'lardan foydalanish;

O'zbekiston Respublikasining konsolidatsiyalashgan budjeti daromadlari va xarajatlari;

Davlat maqsadli jamg'armalarining hamda O'zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasining daromadlari prognozi va xarajatlari;

Respublika budjeti daromadlari prognozi va xarajatlari Qoraqalpog'iston Respublikasi budjetining, viloyatlar hamda Toshkent shahar mahalliy budjetlarining daromadlari va xarajatlari prognozlari;

ayrim to'lovlar stavkalari;

Vazirlar Mahkamasining, Qoraqalpog'iston Respublikasi respublika budjetining, viloyatlar viloyat budjetlarining va Toshkent shahri shahar budjetining, tumanlar va shaharlar budjetlarining zaxira jamg'armalarini shakllantirish;

O'zbekiston Respublikasining budjet tizimi barqarorligini ta'minlash;

O'zbekiston Respublikasi nomidan va O'zbekiston Respublikasining kafolati ostida olinadigan davlat qarzining cheklangan hajmini belgilash;

O'zbekiston Respublikasining konsolidatsiyalashgan budjeti taqchilligining cheklangan miqdorini belgilash;

Qoraqalpog'iston Respublikasi budjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy budjetlari, tumanlar va shaharlar budjetlari daromadlarini shakllantirishning o'ziga xos xususiyatlari (*Soliqlarning turlarining tumanlar va shaharlar, Qoraqalpog'iston Respublikasining respublika budjetiga, viloyatlarning viloyat budjetlariga va Toshkent shahrining shahar, shuningdek Respublika budjetiga ulushlarda tegishli hajmlarda o'tkazilishi*);

O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti xarajatlarini amalga oshirishning o'ziga xos xususiyatlari (*Mahalliy davlat hokimiyati organlarining*

tashabbusiga ko'ra amalga oshiriladigan qo'shimcha tadbirlarni moliyalashtirilishi);

Budjet jarayonining ochiqligini ta'minlash;

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan budjet ijrosining ochiqligini ta'minlash;

O'zbekiston Respublikasi Konsolidatsiyalashgan budjetining jamlanma parametrlari hamda budjet mo'ljallarini tasdiqlanishi belgilangan.

5.4. Xalqaro shartnomalar

O'zbekiston Respublikasining soliq solish masalalariga oid xalqaro shartnomalarini va xalqaro soliq huquqining umumiy normalarini qo'llash ushbu moddada belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi tomonlardan biri bo'lgan, ikkiyoqlama soliq solishning oldini olish va soliqlarni to'lashdan bo'yin tovlashni bartaraf etish masalalarini tartibga soladigan xalqaro shartnoma qoidolari shunday shartnomani tuzgan bir yoki ikkala davlatning soliq rezidentlariga nisbatan qo'llaniladi.

Ushbu moddaning ikkinchi qismi qoidolari O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasi tuzilgan davlatning soliq rezidentiga nisbatan, agar soliq rezidenti ushbu xalqaro shartnoma qoidalaridan mazkur xalqaro shartnoma tuzilgan davlatning soliq rezidenti bo'lmagan boshqa shaxs manfaatlarini ko'zlab foydalansa, tatbiq etilmaydi.

Ushbu moddaning beshinchi — o'n ikkinchi qismlari qoidolari O'zbekiston Respublikasi xalqaro shartnomasiga muvofiq to'lov manbaidan daromad olish uchun haqiqiy huquqqa ega bo'lgan shaxsni aniqlash uchun qo'llaniladi.

Yuridik shaxs tomonidan to'lanadigan daromadlardan mustaqil ravishda foydalanish va (yoki) ularni tasarruf etish huquqiga ega bo'lgan shaxs yoxud uning manfaatlarini ko'zlab bunday daromadlarni tasarruf etishga vakolatli bo'lgan o'zga shaxs ushbu daromadlarga nisbatan haqiqiy huquqqa ega bo'lgan shaxs deb topiladi. Bunda bu huquq ushbu yuridik shaxsda bevosita va (yoki) bilvosita

ishtirok etish yoki uning ustidan nazorat boʻlganligi yoxud boshqa holatlar tufayli yuzaga kelganligi ahamiyatga ega emas.

Yuridik shaxs tashkil etmagan tuzilmaning daromadlariga nisbatan haqiqiy huquqqa ega boʻlgan shaxs xuddi shunday tartibda aniqlanadi.

Daromadlarga nisbatan haqiqiy huquqqa ega boʻlgan shaxsni aniqlashda ushbu moddaning beshinchi qismida koʻrsatilgan shaxslar tomonidan bajariladigan vazifalar, shuningdek ular qabul qiladigan tavakkalchiliklar inobatga olinadi.

Agar Oʻzbekiston Respublikasidagi manbalardan olinadigan daromadlarni tasarruf etishga nisbatan chet ellik shaxs cheklangan vakolatlarga ega boʻlsa, hech qanday boshqa vazifalarni bajarmasa va hech qanday tavakkalchilikni oʻz zimmasiga olmasa, bunday daromadlarni bevosita yoki bilvosita boshqa shaxsга toʻlagan (toʻliq yoki qisman) holda, ushbu boshqa shaxsning manfaatlarini koʻzlab mazkur daromadlarga nisbatan vositachilik vazifalarini amalga oshirsa, bu chet ellik shaxs Oʻzbekiston Respublikasidagi manbalardan olinadigan daromadlarga nisbatan haqiqiy huquqqa ega deb eʼtirof etilmaydi.

Oʻzbekiston Respublikasidagi manbalardan daromadlarni bunday daromadlarga nisbatan haqiqiy huquqqa ega boʻlmagan chet ellik shaxsга toʻlash chogʻida, agar toʻlov manbaiga bunday daromadlarga (ularning bir qismiga) nisbatan haqiqiy huquqqa ega shaxs maʼlum boʻlsa, toʻlanayotgan daromadga soliq solish quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

1) agar toʻlanayotgan daromadlarga (ularning bir qismiga) nisbatan haqiqiy huquqqa ega boʻlgan shaxs Oʻzbekiston Respublikasining soliq rezidenti boʻlsa, toʻlanayotgan daromadga (uning bir qismiga) soliq solishi, Oʻzbekiston Respublikasining soliq rezidentlariga nisbatan ushbu Kodeks qoidalariga muvofiq amalga oshiriladi. Bunda toʻlanayotgan daromadlarga (ularning bir qismiga) taalluqli soliq, agar toʻlov manbai oʻzi hisobga olingan joydagi soliq organini xabardor qilgan boʻlsa, toʻlov manbai tomonidan ushlab qolinmaydi. Bunday xabardor qilish tartibi Oʻzbekiston Respublikasi Davlat soliq qoʻmitasi tomonidan belgilanadi;

2) agar toʻlanayotgan daromadlarga (ularning bir qismiga) nisbatan haqiqiy huquqqa ega boʻlgan shaxs soliq solish masalalari boʻyicha Oʻzbekiston Respublikasi bilan amaldagi xalqaro shartnoma mavjud boʻlgan davlatning (hududning) soliq rezidenti boʻlsa, toʻlanayotgan daromadlarga (ularning bir qismiga) soliq solishga nisbatan mazkur xalqaro shartnoma qoidalarini qoʻllaniladi.

Koʻrsatilgan qoidalar, bosharti daromadlar toʻlanadigan va bu daromadlarga nisbatan haqiqiy huquqqa ega boʻlmagan shaxsning doimiy turgan joyi soliq solish masalalari boʻyicha Oʻzbekiston Respublikasi bilan amaldagi xalqaro shartnomaga ega boʻlgan davlat (hudud) boʻlsa, qoʻllaniladi.

Agar daromadlar toʻlanadigan va bu daromadlarga nisbatan haqiqiy huquqqa ega boʻlmagan shaxsning doimiy turgan joyi soliq solish masalalari boʻyicha Oʻzbekiston Respublikasi bilan amaldagi xalqaro shartnomaga ega boʻlmagan davlat (hudud) boʻlsa, soliq toʻlov manbaida mazkur Kodeks bilan belgilangan soliq stavkalari boʻyicha ushlab qolinadi. Agar bunday daromadlar ushbu daromadlarga nisbatan haqiqiy huquqqa ega boʻlmagan va bu daromadlarga (ularning bir qismiga) nisbatan haqiqiy huquqqa ega boʻlgan shaxs qaysi davlat (hudud) rezidenti ekanligi oʻziga maʼlum boʻlmagan shaxsga toʻlansa, toʻlov manbaidagi soliq ham soliq stavkalari boʻyicha ushlab qolinadi.

Xalqaro shartnomada Oʻzbekiston Respublikasi tomonidan belgilangan vakolatli organ Oʻzbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasi qoidalariga muvofiq chet davlatning vakolatli organidan chet davlat soliq toʻlovchisi tomonidan Oʻzbekiston Respublikasida bajarilmagan soliq majburiyatlarini bajarishiga koʻmaklashish toʻgʻrisida soʻrashga haqli.

Oʻzbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasi (bitimi) qoidalarini qoʻllashning belgilangan tartibi norezidentning Oʻzbekiston Respublikasidagi manbalardan olingan va doimiy muassasa bilan bogʻliq boʻlmagan daromadlaridan olinadigan soliq norezidentga tutilgan daromadlariga nisbatan tatbiq etiladi.

Soliq agenti soliq solishdan ozod qilishni yoki pasaytirilgan soliq stavkasini, agar daromad oluvchi norezident Oʻzbekiston Respublikasining xalqaro

shartnomasi tuzilgan davlatning soliq rezidenti bo'lsa, mustaqil ravishda qo'llash huquqiga ega.

O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasi qoidalari daromad oluvchi tomonidan soliq agentiga soliq rezidentligini tasdiqlovchi hujjat daromadni to'lash sanasidan kechiktirmay taqdim etilishi sharti bilan qo'llaniladi.

Daromadlar norezidentga dividendlar, foizlar va (yoki) royalti tarzida to'langanda, basharti norezident ushbu daromadlarga bo'lgan huquqqa haqiqatda ega bo'lsa, soliq agenti O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida belgilangan qoidalarda nazarda tutilgan soliq solishdan ozod qilishni yoki pasaytirilgan soliq stavkasini qo'llaydi. Soliq agenti norezidentdan ushbu norezident tegishli daromadni olishga bo'lgan huquqqa haqiqatda ega ekanligi tasdiqnomasini so'rab olishga haqli.

O'z-o'zini nazorat qilish uchun savollar:

1. Soliq to'g'risidagi qonunlar va qonun osti hujjatlarini izohlang.
2. O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi va kiritilgan o'zgarishlari hamda qabul qilish bosqichlarini tavsiflang.
3. Davlat budjeti to'g'risidagi qonunlar qanday hujjat hisoblanadi?
4. Xalqaro shartnomalarini tavsiflang.
5. Norezidentning daromadlariga nisbatan xalqaro shartnomalar qanday tatbiq etiladi?

6-BOB. SOLIQ ELEMENTLARI VA ULARNING TAVSIFI

6.1. Soliqlarning elementlari va ularning mohiyati

Soliq elementlari haqida gap borganda ko‘pincha adabiyotlarda soliqqa tortish tizimi haqida so‘z yuritiladi. Shu o‘rinda soliqqa tortish tizimi soliq tizimiga nisbatan tor tushuncha bo‘lib, aslida soliq tizimi tarkibini tashkil etadi. Soliq tizimi soliqqa oid barcha munosabatlarni qamrab olsa, soliqqa tortish tizimi esa soliqlarni undirish bo‘yicha iqtisodiy-huquqiy munosabatlarini o‘z ichiga oladi. Shu jihatdan soliqqa tortish tizimi qonun chiqaruvchi hokimiyat tomonidan qonun yo‘li bilan belgilangan hamda ijro hokimiyati tomonidan soliqlarni tashkil etish usullari, elementlari va tamoyillari majmuasidan iborat. Soliqqa tortish tizimining mohiyati garchand o‘zgarmas bo‘lib ko‘rinsada, uning shakl-shamoyili va yo‘nalishi davlatning ijtimoiy-iqtisodiy siyosatiga, qolaversa soliq siyosatining mazmuniga bog‘liq bo‘ladi. Chunki, soliqqa tortish tizimi o‘z ichiga tarkiban soliq elementlari, soliqlarni tashkil etish tamoyillari va usullarini oladi, bu elementlarning qay darajada talqin etilishi esa bevosita davlat siyosati yo‘nalishiga bog‘liq. Masalan, soliq elementlariga kiruvchi stavkasining qaysi turlarining ko‘proq amal qilishi, soliq imtiyozlarining belgilanishi, soliqlarni undirishni qaysi usullaridan ustuvorlik bilan foydalanish asosan ijro hokimiyati faoliyatining mazmuniga bog‘liq. Binobarin, shu ma’nodagi xuddi soliqlarni vazifalari kabi soliqqa tortish tizimi ham har bir davlatda o‘ziga xos tarzda amal qilishi va tashkil etilishi mumkin.

Demak, davlat qonunchiligi bilan belgilangan va uning maxsus idoralari tomonidan undiriladigan soliqlarni tashkil etish usullari, elementlari va tamoyillari majmuiga soliqqa tortish tizimi deb ataladi. Soliqqa tortish tizimining asosiy bo‘g‘ini hisoblangan soliq elementlari esa soliqqa tortishda ifodalanadigan tushunchalar bo‘lib, ular soliq to‘lovchilar va davlat budjeti o‘rtasidagi iqtisodiy-huquqiy munosabatlarda namoyon bo‘ladi.

Soliq nazariyasida soliqqa oid munosabatlarni to‘liq va teranroq ifoda etish uchun iqtisodiy voqeliklarni har bir kichik guruhlariga muayyan nomdagi iboralar bilan izohlanadi. Soliq elementlari ham xuddi shunday soliqqa oid iqtisodiy hodisalarni izohlashga xizmat qiluvchi yaxlit tushunchadir. Soliq elementlari

tushunchasi soliqqa tortish tizimini muhim tarkibiy qismi bo‘lib, uning o‘zi ham kichik tizimni tashkil etadi, ya’ni soliq elementlari ham bir necha iqtisodiy kategoriyalarni yaxlit holdagi harakatini bildiradi.

Soliq elementlari bir nechta tushunchalardan iborat bo‘lib, ular tarkiban: soliq sub’ekti, soliq obyekti, soliq predmeti, soliq manbai, soliqqa tortish birligi, soliq stavkasi, soliq imtiyozlari, soliq normasi, soliqni to‘lash muddatlari, soliq yuki, soliq bazasini hisoblash usullari, soliqqa tortish usullari kabi tushunchalarni qamrab oladi. Quyida soliq elementlarining har biriga qisqacha to‘xtalib o‘tamiz.

6.2.Soliq solish obyekti, bazasi, stavkasi, davri va soliqni hisoblab chiqarish tartibi

Soliq sub’ekti soliq to‘lash majburiyati yuklangan yuridik va jismoniy shaxslar yoki boshqacha qilib aytganda soliq sub’ekti - bu soliqqa oid munosabatlarni tashkil etuvchi tomonlarning o‘zaro majmuasi bo‘lib, unda bir tomondan soliq to‘lovchilar (yuridik va jismoniy shaxslar) boshqa tomondan soliqni undirish vakolati yuklangan soliq xizmati organlari - Davlat soliq qo‘mitasi, soliq boshqarmalari, tuman va shahar davlat soliq inspeksiyalari qatnashadi. O‘z faoliyatida barcha yuridik va jismoniy shaxslar soliq sub’ekti sifatida namoyon bo‘lmaydi. Chunki, bu yerda soliqlardan batamom ozod etiluvchi yuridik va jismoniy shaxslar mavjudki, ular soliq sub’ekti sifatida soliq munosabatlarida ishtirok etmaydilar.

Soliq agenti yuridik va jismoniy shaxslardan soliqni ushlab qolish va davlat budjetiga o‘tkazib beruvchi yuridik shaxslar. Bunday yuridik shaxslar o‘z faoliyatida bevosita yoki bilvosita ishtirok etgan xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar, ya’ni yuridik va jismoniy shaxslarning mazkur korxonada o‘z mehnati, investitsiyasi bilan ishtirok etishi natijasida olgan daromadi (foydasi)dan soliqlarni ushlab qoladi va davlat budjetiga o‘tkazib beradi. Soliq agentlari davlat budjetiga soliqlarni bevosita yoki bilvosita ishga yollaganligi natijasida to‘lanadigan ish haqidan, dividendlardan, doimiy muassasa orqali faoliyat ko‘rsatmaydigan norezident yuridik va jismoniy shaxslardan ushlanishi lozim bo‘lgan soliq

summalarini ushlab qoladi va budjetga o'tkazib beradi, ushlab qolinmagan, kam ushlab qolingan va o'z vaqtida o'tkazib berilmagan soliq summasi uchun qonunchilikda belgilangan moliyaviy, ma'muriy va jinoiy javobgarlikka tortiladilar. Har bir yuridik shaxs soliq munosabatlarida soliq sub'ekti bo'lishi bilan birgalikda soliq agenti sifatida ham ishtirok etadi. Soliq agenti iqtisodiy adabiyotlarda asosan fiskal agent sifatida qayd etiladi.

Soliq obyekti soliq to'lovchining soliq hisoblanadigan va soliqqa tortish uchun asos bo'lib xizmat qiladigan daromadi, oboroti va mol-mulki tushuniladi. Soliq obyekt i sifatida foyda yoki daromad, muayyan tovarlarni qiymati, yer maydoni, jismoniy va yuridik shaxslarning mulklari, tabiiy resurslardan foydalanish miqdori va boshqalar kiradi. Soliq obyekt i aslida jamiyatdagi mavjud moddiy va ma'naviy boyliklarning ayrimlariga qonun yo'li bilan ulardan foydalanuvchi, egalik qiluvchi va tasarruf qiluvchi soliq sub'ektlarining huquqlarini soliqqa tortishni ifodalaydi. Binobarin, moddiy yoki ma'naviy boyliklar soliq obyekt i qilib albatta unga mulkiy huquqqa ega bo'lgandagina yuzaga chiqadi. Masalan, egasiz imoratga soliq solinmaydi, chunki egasiz imoratga nisbatan soliq sub'ekti mavjud emas, vaholanki, bo'lgan taqdirda ham soliq obyekt i sifatida imorat emas, balki ushbu imoratga bo'lgan mulkiy huquqqa soliq solinadi. Shu jihatdan aytish mumkinki, soliq obyekt i aslida yuridik va jismoniy shaxslarning mulkiy huquqi va daromadiga qaratiladi.

Soliqqa tortish predmeti soliq solinadigan daromad, oborot, molmulk va boshqalarga bo'lgan huquq emas, balki ularning o'zidir, ya'ni soliq solish obyekt i bo'lib biror-bir soliq predmetiga bo'lgan huquq tushunilsa, predmet bo'lib ana shu egalik qilinadigan daromad, yer uchastkasi, imorat va boshqalarning o'zi tushuniladi. Soliq obyekt i yoki soliqqa tortish predmeti, unga kim egalik qilish huquqiga ega bo'lsa, unda soliqni to'lash majburiyati, ya'ni soliq sub'ektini namoyon qiladi. Demak, aytishimiz mumkinki, soliqqa tortish predmetiga egalik qilish huquqi soliq obyektini vujudga keltirsa, o'z navbatida ushbu predmetga kimning egalik qilishi soliq sub'ektini yoki soliq to'lovchisini namoyon etadi.

Soliq manbai bu soliq to'lovchining to'laydigan soliqlari manbai,

ya'ni daromadi. Soliq obyektini va soliq manbaini bir-biridan farqlash lozim. Ayrim soliq turlari bo'yicha, masalan, foydaga, yalpi daromadga, jismoniy shaxslarning daromadiga soliqlar bo'yicha soliq obyektini ham soliq manbai ham bir xil bo'ladi, ya'ni nima obyekt bo'lsa, uning o'zi manba hisoblanadi. Shu o'rinda soliqqa tortish predmeti, soliq obyektini va soliq manbaini farqlash va ularning mohiyatini ochib berish uchun aniq soliq turi bo'yicha ko'rib chiqishga harakat qilamiz. Yer solig'i bo'yicha ko'radigan bo'lsak, uning soliqqa tortish predmeti bo'lib, yer uchastkasi maydoni, unga kimning egalik qilish huquqi mavjud bo'lsa soliq obyektini paydo bo'ladi va ushbu yer solig'i qaysi manba hisobidan davlat budjetiga to'lansa, masalan, yerdan turli xil ko'rinishda foydalanish natijasida olinadigan daromad uning manbai hisoblanadi. Demak, soliqqa tortish predmeti o'z-o'zidan kimdadir soliq to'lash majburiyatini vujudga keltirmaydi. Yerga bo'lgan huquqni joylardagi mahalliy hokimiyat organlari beradi va shu bilan birgalikda yerdan foydalanuvchida soliq to'lash majburiyati vujudga keladi, chunki unda ushbu yer uchastkasidan foydalanish huquqi mavjud. Demak, soliq predmetiga kimning egalik qilish huquqi mavjud bo'ladigan bo'lsa, u soliq munosabatlarida soliq sub'ekti sifatida ishtirok etadi.

Soliq bazasi soliq obyektining soliq stavkasi qo'llaniladigan miqdori. Hisoblanadigan soliq miqdori nafaqat soliq stavkalarining miqдорiga, shu bilan birgalikda soliq stavkasi qo'llaniladigan obyektning miqдорiga ham bog'liq. Soliq bazasining miqdori qonunchilikda soliqqa tortilishi lozim bo'lgan soliq obyektidan ruxsat etiladigan chegirmalarga bog'liq ravishda o'zgarib turishi mumkin. Soliq bazasini soliq to'lovchilarning mazkur toifasiga taqdim etiladigan soliq imtiyozlariga muvofiq ravishda kamaytirishga ruxsat etiladi. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, soliq bazasi soliq obyektidan katta yoki kichik bo'lishi mumkin. Masalan, soliq to'lovchiga soliqdan imtiyozlar ko'zda tutilgan bo'lsa, bunday sharoitda soliq bazasi soliq obyektidan kichik, soliq obyektini qonunchilik bilan kengaytiriladigan bo'lsa undan katta bo'lishi mumkin.

Soliqqa tortish birligi bu obyektning o'lchov birligi. Masalan, daromad yoki mol-mulk solig'ida obyektning o'lchov birligi bo'lib uning so'mdagi bahosi ifodalansa, yer solig'ida o'lchov birligi bo'lib kv.m. yoki gektar hisoblanadi.

Soliq stavkasi obyektning har bir birligi uchun davlat tomonidan belgilab qo'yilgan me'yordir. Soliq stavkasi soliq elementlari ichida eng ko'p amaliy ahamiyatga ega bo'lgan unsurdir. Chunki, soliq stavkalarini o'zgartirish orqali davlat xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatiga sezilarli ta'sir etadi, ayrim faoliyat, sohaga ustuvorlik berilishi, kapital zarur sohalarga yo'naltirilishi, rag'batlantirilishi mumkin.

Soliq bazasini hisoblash usullari. Soliq bazasini hisoblashning ikki xil usuli mavjud bo'lib, ular kassa usuli va hisobga olish usullaridir. Kassa usulida soliq to'lovchida soliqlarni to'lash majburiyatlari daromad olganidan keyin vujudga kelsa, hisobga olish usulida esa daromad olingan yoki sotishdan tushum qachon kelib tushishidan qat'iy nazar tovarlarni jo'natilishi o'z navbatida soliqlarni to'lash majburiyatlarini vujudga keltiradi.

Soliqqa tortish usullari uch xil ko'rinishda amalga oshirilib. Ular quyidagilarga: ***soliqqa tortishning kadastrli, deklaratsiya va manba oldidan soliqqa tortish usullariga*** ajratiladi.

Soliqlarni to'lash muddatlari va tartiblari. Soliq qonunchiligida har bir soliq turining budjetga to'lash muddatlari belgilangan. Soliqni to'lash muddatlari deganda soliq to'lovchilarning davlat budjeti oldida soliq majburiyatlarining bajarish muddati ifodalanadi. Soliqni to'lash muddatlari o'z mohiyatiga ko'ra ikki xil ko'rinishga ega: avans (bo'nak) to'lovlari va haqiqiy daromad olinganidan keyingi to'lovlar.

Soliqni to'lash tartibida esa: soliqni yo'naltirilganligi (*budjetga yoki budjetdan tashqari jamg'armalarga*), soliqni to'lash vositasi (*milliy valyuta, so'mda yoki boshqa mamlakatlar milliy valyutasida. O'zbekiston Respublikasi soliq qonunchiligiga muvofiq soliqlar faqat milliy valyuta, so'mda to'lanishi mumkin*) hamda soliqni to'lash shakllari (naqd pul yoki naqd pulsiz) ifodalanadi.

Soliq stavkasi soliq bazasining o'lchov birligiga nisbatan hisoblanadigan soliqning foizlardagi yoki mutlaq summadagi miqdorini ifodalaydi. Soliq stavkalari Soliq kodeksi bilan belgilanadi. Aksiz solig'ining stavkalari, mahsulot narxi dinamikasidan va uni realizatsiya qilish, shu jumladan import qilish hajmidan kelib chiqib, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlari bilan yil davomida qayta ko'rib chiqilishi mumkin.

Soliq stavkasi Obyektning har bir birligi uchun davlat tomonidan belgilab qo'yilgan me'yorlar soliq stavkasi deyiladi. Soliq stavkalari ikki xil usulda ifodalanadi: qat'iy va nisbiy stavkalar. qat'iy stavkalar bu pul birligida ifodalangan stavkalar bo'lsa (so'm va b.q), nisbiy stavkalar foizlarda (%) aks ettiriladi. Bozor iqtisodiyotga o'tish va inflyatsiya sharoitida nisbiy stavkalarni qullash maqsadga muvoffiqdir. Agar stavka so'mlarda hisobga olinsa, soliqlardan to'shgan budjet daromadi yil oxiriga kelib hech qanday iqtisodiy ahamiyatga ega bo'lmay qolishi mumkin. Soliq stavkalari usullaridan tashqari, o'zbekistonda soliq qonunchiligi bo'yicha soliq stavkalarini qo'yidagi turlari mavjud:

Proporsional;

Progressiv;

Nolli;

Regressiv stavkalar.

Proporsional soliq stavkasida obyekt qanday bo'lishidan qat'iy nazar bir xil ulushdagi soliq to'lanadi. Masalan; QQC bo'yicha oborot 10 ming so'm bo'lsa ham, 100 ming so'm bo'lsa ham, 1 mln so'm bo'lsa ham 15% (2021 yilda) soliq olinadi. Yoki yuridik shaxslarning asosiy fondlarini qiymati qanday bo'lishidan qat'iy nazar undiriladigan mol-mulk solig'i 2 % (2021 yilda) tashkil etadi.

Progressiv soliq stavkada esa daromad obyekti ko'payishi bilan soliq stavkasi ham oshib boradi. Bu soliq stavkasi mamlakatimizda faqat jismoniy shaxslar daromadidan solig'da o'z ifodasini topgan

Nolli stavkalar Soliqlarni tashkil etishni chet el tajribasiga moslashtirish maqsadida 1998 yildan boshlab, QQC bo'yicha ya'ni eksportga tovarlar

yuborganda soliq tortish nolli stavkada belgilandi. Shu mahsulotlar bo'yicha tamomila soliq to'lamaslik joriy etildi.

Regressiv soliq stavkalar Daromad oshib borishi bilan soliq stavkalari kamayib, mahsulot ishlab chiqarishni kengaytirishni talab etadi. Chetga eksport tovarlar chiqarib, qat'iy valyuta tushumiga erishganlar iqtisodiy jihatdan qiziqtiriladi, ya'ni jami ishlab chiqarilgan mahsulot sotishdan to'shgan daromaddan ozod qilinadi Yuqorida keltirilgan soliq stavkalari turlarini tahlil qilib nolli va regressiv stavkalar iqtisodiyotni ko'tarishda katta ahamiyatga ega ekan deyishimiz mumkin.

Soliq davri deganda tugagandan keyin soliq bazasi aniqlanadigan hamda to'lanishi lozim bo'lgan soliq summasi hisoblab chiqariladigan kalendar yil yoki boshqa davr tushuniladi.

Soliq davri bir necha hisobot davrlaridan iborat bo'lishi mumkin.

Kalendar yil soliq davri hisoblanadigan soliqlarga nisbatan ushbu qismning qoidalari mazkur moddaning to'rtinchi - o'ninchi qismlarida nazarda tutilgan xususiyatlarni hisobga olgan holda qo'llaniladi.

Agar yuridik shaxs kalendar yil boshlanganidan keyin, lekin shu yilning 1 dekabriga qadar tashkil etilgan bo'lsa, uning uchun u tashkil etilgan kundan e'tiboran shu yilning oxiriga qadar bo'lgan davr birinchi soliq davri deb e'tirof etiladi.

Agar yuridik shaxs 1 dekabrda 31 dekabr qadar bo'lgan davrda tashkil etilgan bo'lsa, tashkil etilgan kundan e'tiboran tashkil etilgan yildan keyingi kalendar yilning oxirigacha bo'lgan davr uning uchun birinchi soliq davri deb e'tirof etiladi. Bunda yuridik shaxs davlat ro'yxatidan o'tkazilgan kun u tashkil etilgan kun deb e'tirof etiladi.

Agar yuridik shaxs kalendar yil oxirigacha tugatilgan (qayta tashkil etilgan) bo'lsa, uning uchun shu yil boshidan to tugatish (qayta tashkil etish) tamomlangan kungacha bo'lgan davr oxirgi soliq davri deb e'tirof etiladi.

Agar kalendar yil boshlanganidan keyin tashkil etilgan yuridik shaxs shu yil oxiriga qadar tugatilgan (qayta tashkil etilgan) bo'lsa, uning uchun u tuzilgan

kundan e'tiboran tugatilgan (qayta tashkil etilgan) kungacha bo'lgan davr soliq davri deb e'tirof etiladi.

Agar yuridik shaxs joriy kalendar yilning 1 dekabridan 31 dekabriga qadar bo'lgan davrda tashkil etilgan bo'lsa va tashkil etilgan yildan keyingi kalendar yil oxirigacha tugatilgan (qayta tashkil etilgan) bo'lsa, uning uchun u tuzilgan kundan e'tiboran tugatilgan (qayta tashkil etilgan) kungacha bo'lgan davr soliq davri deb e'tirof etiladi.

Agar faoliyati O'zbekiston Respublikasida doimiy muassasa tuzishga olib kelmagan chet el yuridik shaxsi o'zini mustaqil ravishda O'zbekiston Respublikasining soliq rezidenti deb e'tirof etsa, uning uchun foyda solig'i bo'yicha birinchi soliq davrini aniqlash quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

1) agar ushbu chet el yuridik shaxsi o'zini O'zbekiston Respublikasining soliq rezidenti deb e'tirof etish to'g'risidagi arizani taqdim etgan kalendar yilning 1 yanvaridan e'tiboran o'zini O'zbekiston Respublikasining soliq rezidenti deb e'tirof etsa, mazkur ariza taqdim etilgan kalendar yil uning uchun birinchi soliq davri hisoblanadi;

2) agar ushbu chet el yuridik shaxsi tegishli ariza taqdim etilgan sanadan e'tiboran o'zini O'zbekiston Respublikasining soliq rezidenti deb e'tirof etsa, ko'rsatilgan ariza soliq organiga taqdim etilgan sanadan e'tiboran ushbu ariza taqdim etilgan kalendar yilning oxirigacha bo'lgan davr uning uchun birinchi soliq davri hisoblanadi. Bunda, agar chet el yuridik shaxsining o'zini O'zbekiston Respublikasining soliq rezidenti deb e'tirof etish to'g'risidagi arizasi 1 dekabrda 31 dekabr qadar bo'lgan davrda taqdim etilgan bo'lsa, uning uchun ushbu ariza soliq organiga taqdim etilgan sanadan e'tiboran u soliq organiga taqdim etilgan kundan keyingi kalendar yilning oxirigacha bo'lgan davr birinchi soliq davri hisoblanadi.

Soliqni hisoblab chiqarish tartibi soliq bazasidan, soliq stavkasidan, shuningdek mavjud bo'lgan taqdirda, soliq imtiyozlaridan kelib chiqqan holda soliq davri uchun soliq summasini hisob-kitob qilish qoidalarini belgilaydi.

Soliqni hisoblab chiqarish soliq to'lovchi tomonidan mustaqil ravishda amalga oshiriladi. Soliq kodeksida nazarda tutilgan hollarda bu majburiyat soliq organiga yoki soliq agentiga yuklatilishi mumkin.

Soliq stavkalari respublika va mahalliy budjetlar xarajatlarini mablag' bilan ta'minlashda muvozanat darajasini hamda xo'jalik sub'ektlarining moliyaviy imkoniyatlarini belgilaydi. Demak, ular moliya budjet munosabatlarini sog'lomlashtirish bilan chambarchas bog'liqdir. Soliq stavkalari korxonalarining iqtisodiy mustaqilligini ta'minlaganlari holda, moliya-budjet munosabatlarining pul muomalasiga ko'rsatadigan salbiy ta'siriga barham bera olishi ham kerak. Bu esa, respublikamizda amalga oshirilayotgan soliq islohotining muhim jihatini tashkil etadi. Soliq elementlari tarkibida soliq stavkalari alohida o'rin tutadi. Iqtisodiy adabiyotlarda soliq stavkasi deganda soliq obyektining har bir soliq birligi uchun davlat tomonidan belgilab qo'yilgan me'yor tushuniladi. Soliq stavkasining ahamiyati soliq obyektini qancha qismi qanday miqdorda majburiy to'lov sifatida budjetga undirishini xarakterlaydigan masalaga javob beradi.

6.3. Soliq hisobotini taqdim etish tartibi va soliqni to'lash tartibi

Soliq to'lovchining soliq to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq yuzaga keladigan majburiyati soliq majburiyati deb e'tirof etiladi. Soliq to'lovchilarning soliq majburiyatlarini amalga oshirishi, ya'ni belgilangan soliqlar va yig'implarni o'z vaqtida hamda to'liq hajmda hisoblab chiqarish va to'lashlari uchun ularning hisobkitoblarini belgilangan tartibda yuritishlari, soliq hisobotlarini tuzib belgilangan tartibda davlat soliq xizmati organlariga taqdim etishlari zarur.

Mazkur vazifalarni to'laqonli bajarilishi uchun soliq to'lovchi soliqni hisoblash obyektlarini yoki uni hisoblash bilan bog'liq obyektlar to'g'risidagi barcha ma'lumotlarning hisobkitoblarini olib borishlari shart bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining **62-moddasida** soliq solish obyektlari va (yoki) soliq solish bilan bog'liq obyektlar to'g'risidagi axborotni umumlashtirish hamda tizimlashtirish, shuningdek soliqlarni, yig'implarni hisoblab

chiqarish va soliq hisobotini tuzish maqsadida Soliq kodeksi talablariga muvofiq soliq to'lovchi yoki soliq agenti tomonidan hisob hujjatlarini yuritish soliq solish maqsadlarida hisobga olish deb e'tirof etilishi belgilangan.

Soliq to'lovchining har bir soliq turi yoki to'langan daromadlar bo'yicha hisob-kitoblarni va soliq deklaratsiyalarini, shuningdek hisob-kitoblarga hamda soliq deklaratsiyalariga doir ilovalarni o'z ichiga oladigan, soliq to'lovchilarning va soliq agentlarining soliq majburiyatlarini aniqlash uchun asos bo'lib xizmat qiladigan hujjatlari soliq hisobotidir.

Soliq hisoboti O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bilan kelishilgan holda tasdiqlanadigan shakllarda tuziladi.

Soliq hisoboti soliq organlariga shaxs faqat soliq to'lovchi deb e'tirof etiladigan soliqlar bo'yicha taqdim etiladi.

Soliq hisobotida ko'rsatilgan ma'lumotlarning to'g'riligi uchun javobgarlik soliq to'lovchining yoki soliq agentining zimmasiga yuklanadi.

Soliq hisoboti soliq to'lovchi hisobga olingan joydagi soliq organiga belgilangan shaklda qog'oz yoki elektron shaklda ushbu Kodeksga muvofiq soliq hisobotiga ilova qilinishi lozim bo'lgan hujjatlar bilan birga taqdim etiladi. Soliq to'lovchi ushbu Kodeksga muvofiq soliq hisobotiga ilova qilinishi lozim bo'lgan hujjatlarni elektron shaklda taqdim etishga haqli.

Yuridik shaxs bo'lgan soliq to'lovchilar va yakka tartibdagi tadbirkorlar soliq hisobotini o'zi hisobga olingan joydagi soliq organiga belgilangan shakllar bo'yicha elektron hujjat tarzida taqdim etadi. Yirik soliq to'lovchilar, joylashgan yeridan qat'i nazar, soliq hisobotini Yirik soliq to'lovchilar bo'yicha hududlararo davlat soliq inspeksiyasiga taqdim etadi. Bunda, ushbu qoidalar davlat sirlari jumlasiga kiritilgan axborotni taqdim etishga nisbatan qo'llanilmaydi.

Soliq hisoboti blankalari soliq organlari tomonidan bepul taqdim etiladi.

Soliq hisoboti Soliq kodeksida nazarda tutilgan hollarda soliq to'lovchi tomonidan soliq organiga shaxsan yoki vakil orqali taqdim etilishi yoxud pochta jo'natmasi tarzida joylanmalar ro'yxati bilan yuborilishi mumkin.

Soliq maslahatchilari tashkiloti soliq hisobotini soliq to'lovchi nomidan soliq to'lovchining shaxsiy kabineti orqali elektron hujjat tarzida taqdim etishga haqli.

Soliq organi soliq to'lovchi tomonidan belgilangan shaklda taqdim etilgan soliq hisobotini qabul qilishni rad etishga haqli emas. Soliq hisoboti qog'ozda olingan taqdirda, soliq organi soliq to'lovchining iltimosiga ko'ra, soliq hisobotining ko'chirma nusxasiga uning qabul qilib olingani to'g'risida belgi qo'yishi va u olingan sanani ko'rsatishi shart.

Soliq hisoboti, agar Soliq kodeksida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, soliq to'lovchining identifikatsiya raqami ko'rsatilgan holda taqdim etiladi.

Soliq to'lovchi va uning vakolatli vakili soliq hisobotida ko'rsatilgan ma'lumotlarning to'g'riligi va to'liqligini tasdiqlab, unga imzo qo'yadi.

Agar soliq hisobotida ko'rsatilgan ma'lumotlarning to'g'riligi va to'liqligini soliq to'lovchining vakolatli vakili tasdiqlasa, soliq hisobotida bu haqda tegishli belgi qo'yiladi. Bunda soliq hisobotiga ushbu vakilning uni imzolashga bo'lgan vakolatini tasdiqlovchi hujjatning ko'chirma nusxasi ilova qilinadi.

Soliq hisoboti elektron shaklda taqdim etilganda vakilning uni imzolashga bo'lgan vakolatini tasdiqlovchi hujjatning ko'chirma nusxasi telekommunikatsiya aloqa kanallari orqali elektron shaklda taqdim etilishi mumkin. Soliq hisoboti soliq to'g'risidagi qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda taqdim etiladi. Yuqorida nazarda tutilgan qoidalar soliq hisobotini taqdim etish majburiyati zimmasiga yuklatilgan soliq agentlariga va boshqa shaxslarga nisbatan ham tatbiq etiladi.

O'zi ilgari taqdim etgan soliq hisobotida hisoblab chiqarilgan soliq summasi kamayishiga (o'zgarishiga) olib kelgan noto'g'ri yoki to'liq bo'lmagan ma'lumotlarni va (yoki) xatolarni aniqlagan soliq to'lovchi ushbu soliq hisobotiga zarur tuzatishlarni kiritishi va soliq organiga aniqlashtirilgan soliq hisobotini taqdim etishi shart. Agar qismida ko'rsatilgan holatlar hisoblab chiqarilgan soliq summasining kamayishiga olib kelmagan bo'lsa, soliq to'lovchi o'zi ilgari taqdim etgan soliq hisobotiga zarur tuzatishlar kiritishga va soliq organiga aniqlashtirilgan soliq hisobotini taqdim etishga haqli. Bunda soliq hisobotini taqdim etishning

belgilangan muddati o'tgandan keyin taqdim etilgan aniqlashtirilgan soliq hisoboti muddat buzilgan holda taqdim etilgan deb hisoblanmaydi.

Agar aniqlashtirilgan soliq hisoboti soliq organiga soliq hisobotini taqdim etish muddati o'tgunga qadar taqdim etilgan bo'lsa, soliq hisoboti aniqlashtirilgan soliq hisoboti taqdim etilgan kun taqdim etilgan deb hisoblanadi.

Agar aniqlashtirilgan soliq hisoboti soliq organiga soliqni to'lash muddati o'tgandan keyin taqdim etilgan bo'lsa, soliq to'lovchi bir paytning o'zida quyidagi shartlarga rioya etgan taqdirda javobgarlikdan ozod qilinadi:

1) aniqlashtirilgan soliq hisoboti u hisoblab chiqarilgan soliq summasi kamayishiga (o'zgarishiga) olib kelgan holatlar soliq organi tomonidan aniqlanganligini yoki soliq auditi tayinlanganligini bilgan paytga qadar taqdim etilgan bo'lsa;

2) aniqlashtirilgan soliq hisoboti taqdim etilgunga qadar u yetishmayotgan soliq summasini va unga tegishli penyalarni to'lagan bo'lsa.

Aniqlashtirilgan soliq hisoboti soliq organiga, ushbu moddada nazarda tutilgan o'ziga xos xususiyatlarni inobatga olgan holda, soliq hisobotini topshirish uchun belgilangan tartibda taqdim etiladi.

Ushbu moddada nazarda tutilgan qoidalar soliq agentlari tomonidan taqdim etiladigan aniqlashtirilgan soliq hisobotiga nisbatan ham qo'llaniladi.

Soliq to'lovchilar va soliq agentlari soliq organlariga soliq hisobotini va unga ilova qilinadigan hujjatlarni, agar soliq qonunchiligida boshqacha qoida belgilanmagan bo'lsa, ushbu hisobot taqdim etilgan yildan keyin kamida besh yil saqlashi shart.

Agar soliq to'g'risidagi qonun hujjatlari soliq stavkasini qo'llashni, to'lanadigan soliq miqdorini, soliq imtiyozini yoki soliq chegirmasini qo'llashni va (yoki) soliqni to'lash muddatini o'zgartirishni soliq to'lovchining muayyan shartlarga rioya etishi bilan bog'lasa, ushbu soliq to'lovchi barcha tasdiqlovchi hujjatlarni mazkur shartlarning amal qilishi tugaydigan yildan keyin kamida besh yil saqlashi kerak. Bunday tasdiqlovchi hujjatlar jumlasiga, xususan, ushbu soliq bo'yicha soliq hisoboti, unga ilova qilinadigan hujjatlar, shuningdek ko'rsatilgan

shartlarga yoki majburiyatlarga rioya etilganligini tasdiqlovchi hujjatlar kiradi. Agar soliq to'g'risidagi qonun hujjatlarida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, soliq to'lovchilar va soliq agentlari soliqlar hamda yig'implarni mustaqil ravishda to'laydi.

Soliqni to'lash soliqning to'liq summasi bo'yicha yoki soliq to'g'risidagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqacha tartibda amalga oshiriladi.

Agar soliq bo'yicha soliq davri bir necha hisobot davrini tashkil etsa, ulardan har birining natijalari bo'yicha joriy to'lovlar to'lanadi. Joriy to'lovlarni to'lash majburiyati soliqni to'lash bo'yicha majburiyatga tenglashtiriladi.

Alohida soliq turlari uchun bo'nak to'lovlari nazarda tutilishi mumkin. Bo'nak to'lovlarni to'lash majburiyati soliqni to'lash bo'yicha majburiyatga tenglashtiriladi.

Yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar soliqlarni banklar orqali naqd pulsiz shaklda to'laydi.

Soliqlar va yig'implarni turlari bo'yicha hisoblab chiqarish tartibi hamda to'lash muddatlari Soliq kodeksining Maxsus qismida belgilanadi.

O'z navbatida, soliqlarni hisoblab chiqarish va to'lash maqsadlarida hisobga olish buxgalteriya hisobi ma'lumotlariga asoslanishi, buxgalteriya hisobi va hisob hujjatlarini yuritish tartibi buxgalteriya hisobi to'g'risidagi qonun hujjatlari bilan belgilanishi, "**Buxgalteriya hisobi to'g'risida**"gi O'zbekiston Respublikasining Qonunida, hisob hujjatlari soliq solish obyektlarini va soliq solish bilan bog'liq obyektlarni aniqlash, shuningdek soliqlar va yig'implarni hisoblab chiqarish uchun asos bo'lgan boshlang'ich hujjatlar, buxgalteriya hisobi registrlari hamda boshqa hujjatlardan iborat bo'lishligi qayd etilgan.

Jumladan, O'zbekiston Respublikasining "**Buxgalteriya hisobi to'g'risida**"gi Qonunida, buxgalteriya hisobi barcha xo'jalik operatsiyalarini yaxlit, uzluksiz, hujjatlar asosida hisobga olish yo'li bilan buxgalteriya axborotini yig'ish, qayd etish va umumlashtirishning tartibga solingan tizimidan, shuningdek uning asosida moliyaviy va boshqa hisobotni tuzishdan iboratligi belgilangan.

Shu bilan birga, agar buxgalteriya hisobi to'g'risidagi qonun hujjatlarida zimmasiga buxgalteriya hisobini yuritish majburiyati yuklatilmagan soliq to'lovchilar bo'lsa, ular soliq solish maqsadlarida hisobga olishni Soliq kodeksi qoidalariga muvofiq tashkil etishlari va yuritishlari lozimligi kodeksda belgilab qo'yilgan.

6.4. Soliqni belgilashda soliq imtiyozlari va ularning qo'llanilishi

Soliq to'lovchilarning ayrim toifalariga boshqa soliq to'lovchilarga nisbatan soliq to'g'risidagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan afzalliklar, shu jumladan soliqni to'lamaslik yoki ularni kamroq miqdorda to'lash imkoniyati soliq imtiyozlari deb e'tirof etiladi.

Soliq imtiyozlari - soliq to'lovchilarga soliqlar bo'yicha turli xil yengilliklar bo'lib, ular vaqtinchalik va doimiy, to'liq yoki qisman va boshqa ko'rinishlarda berilishi mumkin. Soliq imtiyozlarining turlari, amal qilish mexanizmlari, belgilash mezonlari mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasidan kelib chiqqan holda belgilanadi.

Soliq to'lovchiga soliqlarni to'lash bo'yicha muddatni kechiktirish (bo'lib-bo'lib to'lash) imkoniyati berilishi soliq imtiyozlari hisoblanmaydi.

Ayrim soliqlar bo'yicha soliq imtiyozlari, qo'shilgan qiymat solig'i, aksiz solig'i solinadigan mahsulotlar ishlab chiqarilganda va (yoki) realizatsiya qilinganda aksiz solig'i va yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqdan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlari bilan faqat belgilangan soliq stavkasini kamaytirish, lekin ko'pi bilan 50 foizga kamaytirish tarzida va ko'pi bilan uch yil muddatga, soliq to'g'risidagi qonun hujjatlarida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, soliq imtiyozlari Soliq kodeksi bilan taqdim etiladi.

Soliq imtiyozlari individual xususiyatga ega bo'lishi mumkin emas.

Soliq to'g'risidagi qonun hujjatlarida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, soliq to'lovchilar soliqlar bo'yicha imtiyozlardan tegishli huquqiy asoslar yuzaga kelgan paytdan e'tiboran ularning butun amal qilish davri mobaynida foydalanishga yoki soliq imtiyozidan foydalanishdan voz kechishga yoxud undan

foydalanishni bir yoki bir necha soliq davrlarida to'xtatib turishga haqli, bundan qo'shilgan qiymat solig'idan ozod etiladigan tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilish mustasno.

Soliqlar bo'yicha imtiyozlar soliq solishdan bo'shagan mablag'larni aniq maqsadlarga yo'naltirishi sharti bilan berilishi mumkin. Bunday mablag'lar maqsadli ishlatilmagan taqdirda maqsadsiz ishlatilgan mablag'lar summasi belgilangan tartibda penya hisoblangan holda budjetga undirilishi lozim. Soliqlar bo'yicha imtiyozlar berilishi munosabati bilan bo'shagan va mazkur imtiyozlarning amal qilish davrida foydalanilmagan mablag'lar summasi berilgan imtiyozlarning amal qilish muddati tugaganidan so'ng bir yil davomida ularni taqdim etishda belgilangan maqsadlar uchun yo'naltirilishi mumkin. Bunda belgilangan muddatda foydalanilmagan mablag'lar budjetga o'tkazilishi lozim.

Qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha imtiyozlar, shu jumladan tovarlar O'zbekiston Respublikasining hududiga olib kirilishida (importida) soliq solishdan bo'shagan mablag'larni aniq maqsadlarga yo'naltirish sharti bilan, berilishi mumkin emas.

O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki, uning Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridagi bosh boshqarmalari, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining muassasalari ushbu Kodeksda nazarda tutilgan soliqlarni to'lashdan ozod etiladi, bundan ijtimoiy soliq va O'zbekiston Respublikasining hududiga olib kirishda (importida) to'lanadigan qo'shilgan qiymat solig'i mustasno.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi va viloyatlar xalq deputatlari Kengashlari turistik zonalarda joylashgan alohida sanatoriy-kurort obyektlari egallagan yer uchastkalariga nisbatan mol-mulk solig'i va yer solig'ining kamaytirilgan soliq stavkalarini belgilash yoki soliq to'lashdan ozod qilish huquqiga ega.

Jahon soliq tizimining asosiy va ajralmas qismlaridan biri – bu soliq imtiyozlaridir. Har qanday davlat uning xo'jalik yuritish tizimi qanday bo'lishdan qat'iy nazar davlat budjetini daromadlar bilan ta'minlashda asosiy vositalardan biri

– bu soliqlar va soliqsiz to‘lovlardir. Ammo joriy etilgan soliqlar sof fiskal shaklda o‘rnatilishi mumkin emas. Chunki faqat budget manfaati nuqtai-nazaridan o‘rnatilgan soliqlarni amal qilishi uzoq vaqtni o‘z ichiga olmaydi. Shuning uchun muayyan darajada soliq imtiyozlaridan foydalanish taqozo etiladi.

Soliq tizimida soliq imtiyozlaridan foydalanishning bir qator obyektiv ijtimoiy-iqtisodiy sabablari mavjud bo‘lib, ular quyidagilardir:

Birinchidan, soliq imtiyozlarini mavjudligini asosiy sabablaridan biri bu soliq to‘lovchi (yuridik va jismoniy shaxs) larning jamiyatda tutgan mavqei, ijtimoiy holati turlicha ekanligidan. Shu jihatdan barchaga bir xil tartibda (miqdorda) soliq solish ma’noga ega bo‘lmaydi;

Ikkinchidan, davlat iqtisodiyotga ta’sir etib uni tartiblash vazifasini amalga oshiradiki, bunda turli xil dastaklardan foydalanadi. Bu dastaklarning asosiylaridan biri bu jamiyatdagi ba’zi muhim sohalarini yoki soliq to‘lovchilarning faoliyatini rag‘batlantirish maqsadida soliq imtiyozlari belgilanadi. Ya’ni, davlat soliq imtiyozlari orqali iqtisodiyotni samarali va qulay boshqarish yoki tartiblash imkoniyatiga ega bo‘ladi, bundan ko‘rinadiki, soliq imtiyozlari davlatni o‘z funktsiya va vazifalarini yuzaga chiqaruvchi muhim dastak sifatida yuzaga chiqadi;

Uchinchidan, soliq imtiyozlari qo‘llanilishining asosiy sabablaridan yana biri bu milliy daromadni qulay, samarali va oqilona taqsimlashga erishishdan iboratdir. Ya’ni, bundan soliqlar sifatida budgetga jalb etilishi lozim bo‘lgan moliyaviy resurslar imtiyoz berish tufayli budgetga jalb etilmasdan soliq to‘lovchilarning o‘zlariga maqsadli ravishda qoldiriladi. Buning afzallik tomoni shundaki, soliq to‘lovlarini budgetga olish va uni yana qayta taqsimlash ishlarini osonlashtiradi va ish faoliyat turlarini rag‘batlantirishga erishiladi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida soliq islohotlarini samarali yuritish maqsadida soliqlar vositasida ta’sir etish, ular bo‘yicha imtiyozlarni qo‘llash, iqtisodiyotning turli sohalarini bir tekis rivojlanishini ta’minlash bilan bog‘liq tadbirlar amalga oshiriladi. Davlat soliq imtiyozlarini qo‘llash orqali iqtisodiyotning turli sohalariga turlicha ta’sir ko‘rsatadi, ya’ni ayrim rentabelli va norentabelli sohalar o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlash muammosi yuzaga keladi.

Qayd etish joizki, soliq imtiyozlari xususida turli xil fikrlar mavjud. Soliq imtiyozlarining mohiyatini to'laroq anglab yetish uchun avvalo ana shu turli xil fikrlarni keltirish maqsadga muvofiq.

Q.Yahyoev fikriga ko'ra «Soliq to'lovchilarni soliqdan ozod etish, ular to'laydigan soliq miqdorini (soliq bazasini) kamaytirish yoki soliq to'lash shartini yengillashtirish soliq imtiyozidir»⁷⁹. Shuningdek, ushbu iqtisodchining ta'kidlashicha soliq imtiyozi degan termin o'rniga soliq yengilligi termini bu jarayonning mohiyatini ochib beradi⁸⁰. Sh.Gataulin soliq imtiyozlariga quyidagicha ta'rif beradi: «Soliq imtiyozlari amaldagi qonunlarga muvofiq ravishda soliqlardan to'liq yoki qisman ozod qilishdir (skidkalar, chegirib tashlashlar va hokazo)»⁸¹.

T.Malikovning ta'kidlashicha soliq imtiyozlari deganda soliq to'lovchining soliq majburiyatlari hajmining to'liq yoki qisman qisqarishi, to'lov muddatining kechiktirilishi yoki orqaga surilishi tushuniladi. Soliqlarning rag'batlantiruvchi funksiyasi soliq imtiyozlari tizimi orqali amalga oshiriladi. Soliq imtiyozi soliqqa tortish obyektining o'zgarishida, soliqqa tortish bazasining kamayishida (qisqarishida), soliq stavkalarining pasaytirilishida va boshqalarda o'z ifodasini topadi. Soliqqa tortilmaydigan obyekt minimumi, alohida shaxslar va soliq to'lovchilarning ayrim toifalarini soliq to'lashdan ozod qilish, soliqqa tortish obyektidan ayrim elementlarni chiqarish, soliq stavkalarini pasaytirish, maqsadli soliq imtiyozlari, soliq kreditlari (soliqlarning undirilishini kechiktirish) va boshqalar soliq imtiyozlarining ko'rinishlaridir (turlaridir). Masalan, korxonalar foydasidan olinadigan soliq bo'yicha imtiyozlar ishlab chiqarishni kengaytirish va uyjoy qurilishini rivojlantirish xarajatlarini moliyalashtirishni, tadbirkorlikning kichik shakllarini, nogironlar va pensionerlarning bandligini ta'minlashni, ijtimoiy, madaniy va tabiatni muhofaza qilish sohalarini rag'batlantirishga qaratilgandir. Individual xarakterga ega bo'lgan imtiyozlarni berish, odatda, ta'qiqlanadi⁸².

⁷⁹ Yahyoev Q. Soliq. T.: «Mehnat», 1997 y. 20-bet.

⁸⁰ O'sha joyda.

⁸¹ Gataulin Sh. Soliqlar va soliqqa tortish. T.: 1996 y. 74-bet.

⁸² Malikov T. Soliqqa tortishning dolzarb masalalari. T.: 2000 y. 76-bet.

Soliqlarning va ular bo'yicha beriladigan imtiyozlarning mavjudligi doimo davlat vujudga kelishi bilan bog'lanib kelingan. Buyuk Sohibqiron Amir Temur tuzuklarida ta'kidlanishicha «Soliqlar davlatning iqtisodiy tayanchi va namoyon bo'lishidir»⁸³.

Agar, Temur tuzuklarida berilgan soliqqa tortish tamoyillariga nazar tashlaydigan bo'lsak, ularning asosini ham soliqqa tortishda beriladigan imtiyozlar egallaydi. Unga muvofiq soliq to'lovchilardan soliqlarni aralashli undirish soliq siyosatini diqqat markazida turadi. «Temur tuzuklarida» keltirilishicha «Kimki biron sahroni obod qilsa yoki poliz qilsa, yoki biron bog' ko'kartirsa yoxud biron xarob bo'lib yotgan yerni obod qilsa, birinchi yili undan hech narsa olmasinlar, ikkinchi yili raiyat o'z roziligi bilan berganini olsinlar, uchinchi yili (esa oliq-soliq) qonun - qoidasiga muvofiq xiroj yig'ilsin»⁸⁴. Bundan ko'rinadiki, soliqlardan beriladigan imtiyozlar bevosita davlatni (xazinani) iqtisodiy qudratiga bog'liq bo'lib, unda soliq imtiyozlari bilan budjet (xazina) daromadlarini shakllantirishning o'zaro bog'liqligi aks ettirilgan.

Soliqqa tortish nazariyasi va amaliyotida soliq imtiyozlarining tutgan o'rni ingliz iqtisodchisi J.Keyns nazariyasida alohida o'rinni egallaydi. Keynschilar tomonidan soliq tizimi, aniqrog'i soliq imtiyozlari makroiqtisodiyot sharoitida iqtisodiyotni tartibga solishning tarkibiy elementi sifatida hamda davlatning tadbirkorlar manfaatiga ta'sir etish va budjetning daromad qismini to'ldirish borasidagi muhim iqtisodiy qurol sifatida qaraladi. Ikkinchi jahon urushidan keyin g'arb davlatlarida neoklassik yo'nalish, institutsional - ijtimoiy yo'nalish talablariga mos tarzda soliqqa tortish tizimida imtiyozlar nazariyasiga ancha e'tibor berildi. Mazkur iqtisodiy maktablar nazariy yondashuvlaridagi tub farqlar bo'lishiga qaramay ularning vaqillari umumiy tarzda soliq imtiyozlari orqali iqtisodiyotni barqarorlashtirish va uni tartibga solish vositasi sifatida qaraganlar. Iqtisodiyotni boshqarishda soliq imtiyozlari rolini ular quyidagicha ifodalar edi: agar u yoki bu davlatning iqtisodiyoti ortiqcha ishlab chiqarish bilan

⁸³ Temur tuzuklari. T.: «Cho'lpon», 1991 y. 98-bet.

⁸⁴ Temur tuzuklari. T.: «Cho'lpon», 1991 y. 98-bet.

xususiyatlanuvchi o'sish davrini o'tayotgan bo'lsa, u holda davlat soliq imtiyozlarini kamaytirish, ya'ni soliqlarni ko'paytirish, soliqqa tortishni kuchaytirish orqali korporatsiyalar bo'sh mablag'larini ko'proq budjetga jalb qilish lozim deb hisoblaganlar. Agar mamlakat iqtisodiyoti turg'unlik holatini kechirayotgan bo'lsa, iqtisodiyotni jonlantirish uchun qo'shimcha sarmoya jalb qilish lozim. Bunda soliq imtiyozlaridan ham keng foydalanish zarurati tug'iladi degan xulosaga kelishgan. Bu holatda iqtisodchilar davlatga, soliq miqdorini kamaytirish, soliq imtiyozlarini ko'paytirishni maslahat beradilarki, bu narsa budjetga qo'shimcha mablag'lar va kapital qo'yilmalar uchun mablag'lar tug'ilishiga imkoniyat tug'diradi.

Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning boshqa dastaklari qatori soliq siyosati talab va taklif o'rtasidagi mutanosiblikka erishish orqali iqtisodiyotda barqaror taraqqiyotni ta'minlashga qaratilgan. G'arb iqtisodchilari soliq tizimining ahamiyatini davlat faoliyatini amalga oshirish uchun uni zarur moliyaviy mablag'lar bilan ta'minlash sifatida ifodalayuvchi sof fiskal vazifa bilan cheklab qo'ymaydilar. Ularning soliq imtiyozlari nazariyasida soliqlarni tartibga solish vazifasiga katta e'tibor beradilar. Soliqlar davlat tomonidan iqtisodiyotni tartibga solishning muhim quroli sifatida xo'jalik yurituvchi sub'ektlar iqtisodiy hulq-atvoriga davlat ta'sirini ifodalaydilar. Ammo, bunda soliq imtiyozlari asosiy vosita sifatida qaralishi keng nazarda tutilgan. Soliq imtiyozlarini belgilash asosida ishlab chiqarishni rag'batlantirish, chet el investitsiyalari kirib kelishini ta'minlash, ijtimoiy himoyalashni tashkil etish, turli sohalarni rivojlanishiga aktiv ta'sir etish muammosi yotadi. Shu o'rinda soliq imtiyozlarini belgilash mezonlari xalqaro soliq munosabatlari mos kelishi hamda xalqaro iqtisodiy munosabatlarda davlatning faol ishtirok etishida moslashuvchan bo'lishi lozim.

Bozor munosabatlari sharoitida iqtisodiyotni tartiblash va boshqarish jarayonida bir qator vositalardan foydalaniladiki, bunda soliq tizimining soliq stavkalari va imtiyozlaridan foydalanish eng samarali va oson usullardan biri bo'lib yuzaga chiqadi. Soliq imtiyozlaridan ishlab chiqarish jarayonini

boshqarishda, investitsiyalarni ragʻbatlantirishda va boshqalarda keng foydalaniladi.

Soliq imtiyozlari ragʻbatlantirish va samarali qoʻllanilishiga qarab quyidagi koʻrinishlarda ifodalanishi mumkin:

- soliqlardan butunlay ozod qilish;
- yangi tashkil etilgan korxonalariga imtiyozlar berish;
- soliq toʻlashdan vaqtincha ozod etish;
- soliqqa tortiladigan bazani kamaytirish;
- soliqdan qisman ozod qilish;
- xorijiy investitsiyalarga imtiyozlar berish;
- eksportga imtiyozlar berish va boshqalar.

Soliq imtiyozlari vositasida iqtisodiyotni boshqarish, davlatni shunday faoliyati bilan bogʻliqlik, u takror ishlab chiqarish jarayonida vujudga kelgan nomutanosiblikni yoʻqotish uchun sharoit yaratadi. Boshqacha qilib aytganda, agar soliqlarning baʼzi tizimi ishlab chiqarishni tartibga solishning davlat strategiyasini aniqlasa, taktikasi soliq imtiyozlari orqali amalga oshiriladi. Soliq imtiyozlarini soliq subʼekti, soliq obyekt, soliqlarni undirish vositalari, muddatlari nuqtai nazaridan bir necha guruhlarga (turlarga) boʻlish mumkin. Soliq imtiyozlarini turli xil asoslar boʻyicha guruhlash mumkin. Maʼlumki, Oʻzbekiston Respublikasi soliq tizimini huquqiy bazasi takomillashib bormoqda.

Hozirga qadar qabul qilingan barcha soliqqa oid qonun hujjatlariga eʼtibor beradigan boʻlsak, ularning barchasiga soliq imtiyozlarini belgilash boʻyicha umumiy oʻxshashliklar mavjudligiga guvoh boʻlish mumkin.

Yaʼni, barcha qonun hujjatlarida soliq turlari boʻyicha imtiyozlar asosan quyidagi shakllarda namoyon boʻldi:

- ♣ soliqdan batamom ozod etish;
- ♣ soliqdan vaqtincha yoki qisman ozod etish;
- ♣ soliq bazasini kamaytirish tarzida berilgan.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida soliq tizimini takomillashtirib borishda, xorijiy mamlakatlarda soliq stavkalarining qo'llanish mexanizmidan foydalanish, soliqlarni to'liq va o'z vaqtida kelib tushishini nazorat qilish tajribalarini o'rganish maqsadga muvofiq bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi soliq qonunchiligida soliq imtiyozlarini belgilash muayyan mezonlar asosida amalga oshirilgan. Soliq imtiyozlarini soliq to'lovchilarning ijtimoiy holatiga, respublikada qaysi sohani rivojlantirish ustuvorligiga, soliq to'lovchilarning importning o'rnini bosadigan mahsulotlarni ishlab chiqarish va mahsulotni eksport qilish darajasiga hamda davlatlar o'rtasidagi halqaro iqtisodiy munosabatlarga asoslanib belgilangandir. Soliq imtiyozlarining mezonlarini to'g'ri, obyektiv aniqlash soliqlarning adolatlilik tamoyilini ifodasi sifatida yuzaga chiqadi.

O'z-o'zini nazorat qilish uchun savollar:

1. Soliq elementlari tarkibiga nimalar kiradi?
2. Soliq obykti nima?
3. Soliq agenti deganda kimlarni tushunasiz?
4. Soliq stavkalari nima va u qanday turlarga bo'linadi?
5. Proporsional soliq stavkalariga misollar keltiring?
6. Progressiv soliq stavkalariga qaysi soliq turlarini kiritish mumkin?
7. Soliq imtiyozlari qanday turlarga bo'linadi?
8. Soliq imtiyozlari qanday mezonlar asosida belgilanadi?
9. Soliqni qanday undirish usullari mavjud?

7-BOB. SOLIQ MUNOSABATLARINING SUBYEKTLARI, ULARNING HUQUQLARI VA MAJBURIYATLARI

7.1.Soliq to'lovchilarning huquq va majburiyatlari

Soliq to'lovchilar, soliq agentlari va vakolatli organlar soliq munosabatlarining subyektlaridir. Soliq organlari, Soliq kodeksida nazarda tutilgan hollarda, hujjatlarni elektron hujjat tarzida soliq to'lovchining shaxsiy kabinetiga yuboradi. Yuborilgan hujjatlar soliq to'lovchi tomonidan o'qib chiqilganidan keyin, lekin ushbu hujjat jo'natilgan sanadan e'tiboran uch kundan kechiktirmay olingan deb hisoblanadi.

Agar soliq to'lovchida soliq to'lovchining shaxsiy kabinetini mavjud bo'lmasa, hujjatlar buyurtma xat qilib pochta orqali yuboriladi va ular jo'natilganidan so'ng besh kundan keyin olingan deb hisoblanadi. Hujjatlar soliq to'lovchiga yoki uning vakiliga shaxsan mazkur hujjatlar olingan sana ko'rsatilgan holda imzo qo'ydirib topshirilishi mumkin.

Soliq to'lovchilar, Soliq kodeksida nazarda tutilgan hollarda, soliq organlariga hujjatlarni mazkur moddaning ikkinchi to'rtinchi qismlarida ko'rsatilganiga o'xshash tartibda yuboradi. Bunda ushbu hujjatlar soliq organlariga soliq to'lovchining shaxsiy kabinetini orqali yuborilganda jo'natilgan kun, pochta orqali yuborilganda besh kundan keyin olingan deb hisoblanadi.

Soliq kodeksida nazarda tutilgan hujjatlarning, elektron hujjat aylanishini ta'minlash uchun zarur bo'lgan hujjatlarning shakllari, mazkur hujjatlarning shakllarini to'ldirish tartibi, bunday hujjatlarni qog'ozda yoki telekommunikatsiya kanallari orqali elektron shaklda yoxud soliq to'lovchining shaxsiy kabinetini orqali yuborish hamda olish tartibi O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi tomonidan tasdiqlanadi.

Soliq kodeksiga muvofiq zimmasiga belgilangan soliqlar hamda yig'implarni to'lash majburiyati yuklatilgan yuridik va jismoniy shaxslar soliq to'lovchilar deb e'tirof etiladi.

Yuridik shaxslarning alohida bo'linmalari mazkur shaxslarning soliqlar va yig'implarni to'lash bo'yicha majburiyatlarini Soliq kodeksida nazarda tutilgan hollarda va tartibda ushbu alohida bo'linmalar joylashgan yeri bo'yicha bajaradi.

Yirik soliq to'lovchilar toifasiga kiritilgan soliq to'lovchilar alohida bo'linmalarni hisobga olib markazlashgan holda soliq hisobotini taqdim etadi va soliqlarni (yig'implarni) to'laydi. Soliq kodeksida nazarda tutilgan hollarda yuridik shaxs tashkil etmagan holdagi chet el tuzilmalari soliq to'lovchilar deb e'tirof etiladi.

Soliq to'lovchilar quyidagi huquqlarga ega:

soliq organlaridan va boshqa vakolatli organlardan (ularning vakolatlari doirasida) amaldagi soliqlar to'g'risida, soliq to'g'risidagi qonun hujjatlaridagi o'zgarishlar haqida, soliqlarni hisoblab chiqarish va to'lash tartibi to'g'risida axborotni, soliq hisobotining va arizalarning shakllarini, shuningdek ularni to'ldirish tartibi haqida tushuntirishlarni bepul olish;

o'z soliq majburiyatlarini bajarish yuzasidan soliq organlarida va boshqa vakolatli organlarda mavjud bo'lgan ma'lumotlarni olish;

Soliq kodeksida belgilangan asoslar mavjud bo'lganda va tartibda soliq imtiyozlaridan foydalanish yoxud ulardan foydalanishni rad etish;

soliqlar, penyalar va jarimalarning ortiqcha to'langan yoki ortiqcha undirilgan summalarini o'z vaqtida hisobga o'tkazish yoki qaytarish;

Soliq kodeksida belgilangan tartibda va shartlarda soliqlarni to'lashni kechiktirish yoki bo'lib-bo'lib to'lash;

soliq solish obyektlarini hisobga olishda, soliqlarni hisoblab chiqarish va to'lashda o'zlari yo'l qo'ygan xatolarni mustaqil ravishda tuzatish;

Soliq kodeksiga muvofiq o'z hududida o'tkaziladigan sayyor soliq tekshiruvini va soliq auditini o'tkazish chog'ida hozir bo'lish;

sayyor soliq tekshiruvi va soliq audit materiallari bilan tanishish, shuningdek ushbu tekshiruvlarning dalolatnomalarini olish;

soliq tekshiruvini amalga oshiruvchi soliq organlariga soliq to'g'risidagi qonun hujjatlarining ijrosiga taalluqli masalalar bo'yicha tushuntirishlar berish;

solliq organlari va boshqa vakolatli organlarning hamda ular mansabdor shaxslarining Solliq kodeksiga va (yoki) solliq to'g'risidagi boshqa qonun hujjatlariga muvofiq bo'lmagan talablarini bajarmaslik;

solliq organlari va boshqa vakolatli organlarning normativ tusga ega bo'lmagan hujjatlari hamda qarorlari, ular mansabdor shaxslarining harakatlari (harakatsizligi) ustidan belgilangan tartibda shikoyat qilish;

solliq organlari va boshqa vakolatli organlarning qonunga xilof qarorlari yoki ular mansabdor shaxslarining noqonuniy harakatlari (harakatsizligi) tufayli yetkazilgan zararlarning o'rni qoplanishini belgilangan tartibda talab qilish;

Solliq kodeksida nazarda tutilgan hollarda, solliq tekshiruvi materiallarini yoki solliq organlarining boshqa hujjatlarini ko'rib chiqish jarayonida ishtirok etish;

solliq munosabatlari masalalariga oid o'z manfaatlarini shaxsan yoxud solliq maslahatchilari tashkiloti yoki boshqa o'z vakillari orqali ifodalash;

solliq siriga rioya etish va uni saqlash.

Solliq to'lovchilar solliq to'g'risidagi boshqa qonun hujjatlarida belgilangan o'zga huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

Solliq to'lovchining solliq munosabatlarida shaxsan ishtirok etishi uni vakilga ega bo'lish huquqidan mahrum etmaydi, xuddi shuningdek vakilning ishtirok etishi solliq to'lovchini bunday munosabatlarda shaxsan ishtirok etish huquqidan mahrum etmaydi.

Solliq to'lovchilarning huquqlari solliq organlari va boshqa vakolatli organlar mansabdor shaxslarining tegishli majburiyatlari bilan ta'minlanadi.

Solliq to'lovchilarning huquqlarini ta'minlashga oid majburiyatlarni bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlarida nazarda tutilgan javobgarlikka sabab bo'ladi.

Solliq to'lovchilar:

belgilangan solliqlar va yig'imlarni o'z vaqtida hamda to'liq hajmda hisoblab chiqarishi va to'lashi;

hujjatlarni ko'rib chiqish yoki tushuntirishlar berish zaruriyati to'g'risida chaqiruv xatini olganida solliq organiga kelishi;

tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishda xaridorga hisobvaraqa-fakturalarni, cheklarni yoki ularga tenglashtirilgan boshqa hujjatlarni berishi;

soliq tekshiruvini o'tkazayotgan soliq organlarining mansabdor shaxslariga soliqlarni hisoblab chiqarish va to'lash uchun asos bo'lib xizmat qiladigan hujjatlar, shuningdek elektron manbalarda saqlanadigan tegishli axborot bilan tanishish imkoniyatini ta'minlashi;

soliq organlari va boshqa vakolatli organlarning qonuniy talablarini bajarishi, ko'rsatilgan organlarning va ular mansabdor shaxslarining qonuniy faoliyatiga to'sqinlik qilmasligi;

agar Soliq kodeksida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, soliq hisobotlarining va soliqlarni hisoblab chiqarish hamda to'lash uchun zarur bo'lgan boshqa hujjatlarning tegishli soliqlarni to'lash uchun belgilangan kalendar yildan keyingi besh yil mobaynida but saqlanishini ta'minlashi;

o'zi soliq bo'yicha hisobga olingan joydagi soliq organlarini O'zbekiston Respublikasi yuridik shaxslaridagi va chet el yuridik shaxslaridagi ishtiroki to'g'risida, agar ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) ulushi 10 foizdan ortiq bo'lsa, xabardor etishi shart.

Yuridik shaxs bo'lgan soliq to'lovchilar yuqorida nazarda tutilgan majburiyatlardan tashqari, o'zlari hisobga olingan joydagi soliq organlariga o'zlarining barcha alohida bo'linmalari to'g'risida va alohida bo'linmalarga oid ilgari xabar qilingan ma'lumotlaridagi o'zgarishlar to'g'risida alohida bo'linma tashkil etilgan yoki mazkur ma'lumotlar o'zgartirilgan kundan e'tiboran bir oy ichida xabar qilishi shart.

Zimmasiga soliq hisobotini elektron shaklda taqdim etish majburiyati yuklatilgan shaxslar soliq organlari tomonidan soliq to'g'risidagi qonun hujjatlari bilan tartibga solinadigan munosabatlardagi o'z vakolatlarini amalga oshirish chog'ida foydalaniladigan hujjatlarning soliq organidan telekommunikatsiya aloqa tarmoqlari orqali elektron shaklda olinishini ta'minlashi kerak.

Soliq solish obyektini deb e'tirof etiladigan ko'chmas mulkka ega bo'lgan chet el yuridik shaxslari ushbu moddada nazarda tutilgan majburiyatlardan tashqari,

ko'chmas mulk obyekti turgan joydagi soliq organiga ushbu chet el yuridik shaxsining ishtirokchilari to'g'risidagi ma'lumotlarni Soliq kodeksida nazarda tutilgan hollarda va tartibda xabar qilishi shart. Yuridik shaxs tashkil etmagan holdagi chet el tuzilmalari ko'rsatilgan holatlarda o'z muassislari, benefitsiarlari va boshqaruvchilari haqidagi ma'lumotlarni xabar qilishi kerak. Chet el yuridik shaxsida (yuridik shaxs tashkil etmagan holdagi chet el tuzilmasida) ko'rsatilgan bir nechta mol-mulk obyekti mavjud bo'lgan taqdirda, ushbu shaxs tanloviga ko'ra, xabar mol-mulk obyektlarining biri turgan yerdagi soliq organiga taqdim etiladi.

O'zbekiston Respublikasining bojxona chegarasi orqali tovarlar olib o'tilishi munosabati bilan soliqlar to'laydigan soliq to'lovchilar zimmasida O'zbekiston Respublikasining bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan majburiyatlar ham bo'ladi.

Soliq to'lovchilarning zimmasida qonun hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlar ham bo'lishi mumkin.

7.2. Soliq to'lovchilar konsolidatsiyalashgan guruhi ishtirokchilarining huquq va majburiyatlari

Soliq to'lovchilarning xo'jalik faoliyati bo'yicha jami moliyaviy natijasini hisobga olgan holda foyda solig'ini hisoblab chiqarish va to'lash maqsadida, Soliq kodeksida nazarda tutilgan tartib hamda shartlarda tegishli shartnoma asosidagi ixtiyoriy birlashmasi soliq to'lovchilarning konsolidatsiyalashgan guruhi deb e'tirof etiladi.

Soliq to'lovchilarning konsolidatsiyalashgan guruhini tashkil etish to'g'risida tuzilgan amaldagi shartnomaning tarafi bo'lgan va Soliq kodeksida bunday guruh ishtirokchilari uchun nazarda tutilgan barcha shartlarni qanoatlantiradigan yuridik shaxs soliq to'lovchilarning konsolidatsiyalashgan guruhi ishtirokchisi deb e'tirof etiladi.

Soliq to'lovchilarning konsolidatsiyalashgan guruhini tashkil etish to'g'risidagi shartnomaga muvofiq zimmasiga soliq to'lovchilarning

konsolidatsiyalashgan guruhi bo'yicha foyda solig'ini hisoblab chiqarish va to'lash majburiyati yuklatilgan ishtirokchi soliq to'lovchilar konsolidatsiyalashgan guruhining mas'ul ishtirokchisi deb e'tirof etiladi.

Ko'rsatilgan soliqni hisoblab chiqarish va to'lashga oid huquqiy munosabatlarda, foyda solig'ini to'lovchilar kabi, soliq to'lovchilar konsolidatsiyalashgan guruhining mas'ul ishtirokchisi shunday huquqlarni amalga oshiradi va majburiyatlarni zimmasiga oladi.

Soliq kodeksiga va O'zbekiston Respublikasining fuqarolik qonun hujjatlariga muvofiq tuzilgan soliq to'lovchilarning konsolidatsiyalashgan guruhini tashkil etish to'g'risidagi shartnoma soliq to'lovchilar konsolidatsiyalashgan guruhi mas'ul ishtirokchisining vakolatlarini tasdiqlovchi hujjatdir.

Soliq to'lovchilar konsolidatsiyalashgan guruhining ishtirokchilari quyidagilarga haqli:

1) konsolidatsiyalashgan guruhning mas'ul ishtirokchisidan ushbu konsolidatsiyalashgan guruhning faoliyati munosabati bilan soliq organi tomonidan mas'ul ishtirokchiga taqdim etilgan hujjatlar, qarorlar, talabnomalar, solishtirma dalolatnomalar va boshqa hujjatlarning ko'chirma nusxalarini olish;

2) Soliq kodeksida nazarda tutilgan o'ziga xos xususiyatlarni hisobga olgan holda soliq organlarining hujjatlari, ular mansabdor shaxslarining harakatlari (harakatsizligi) ustidan yuqori turuvchi soliq organiga yoki sudga shikoyat qilish;

3) soliq to'lovchilar konsolidatsiyalashgan guruhi mas'ul ishtirokchisining soliq to'lovchilarning konsolidatsiyalashgan guruhi bo'yicha foyda solig'ini to'lash majburiyatini ixtiyoriy ravishda bajarish;

4) mas'ul ishtirokchida soliq to'lovchilarning konsolidatsiyalashgan guruhi bo'yicha foyda solig'i hisoblab chiqarilishi va to'lanishi munosabati bilan o'tkaziladigan soliq tekshiruvlarini o'tkazishda, shuningdek bunday soliq tekshiruvlarining materiallarini ko'rib chiqishda ishtirok etish.

Soliq kodeksida soliq to'lovchilarning konsolidatsiyalashgan guruhi ishtirokchilari uchun nazarda tutilgan shartlarga muvofiq bo'lgan bunday guruh ishtirokchisi soliq to'lovchilarning konsolidatsiyalashgan guruhini tashkil etish

to'g'risidagi shartnomaning amal qilish muddati mobaynida o'zining ushbu guruhdagi ishtirokini ixtiyoriy ravishda tugatishga haqli emas.

Soliq to'lovchilar konsolidatsiyalashgan guruhining ishtirokchilari:

1) soliq to'lovchilarning konsolidatsiyalashgan guruhini tuzish to'g'risidagi shartnomani va unga o'zgartishlarni ro'yxatdan o'tkazish uchun zarur bo'lgan barcha harakatlarni amalga oshirishi hamda barcha hujjatlarni taqdim etishi;

2) soliq to'lovchilar konsolidatsiyalashgan guruhining mas'ul ishtirokchisiga soliq to'lovchilarning konsolidatsiyalashgan guruhi bo'yicha foyda solig'ini to'lovchining majburiyatlarini bajarish va huquqlarini amalga oshirish uchun unga zarur bo'lgan ma'lumotlarni taqdim etishi (shu jumladan elektron shaklda taqdim etishi). Bunday ma'lumotlar jumlasiga olingan daromadlar va qilingan xarajatlarga nisbatan foyda solig'i bo'yicha soliq bazasining hisob-kitoblari, hisobga olish registrlarining ma'lumotlari va boshqa hujjatlar kiradi;

3) soliq to'lovchilar konsolidatsiyalashgan guruhining faoliyati munosabati bilan soliq organi tomonidan soliq nazorati tadbirlari amalga oshirilganda talab qilinadigan hujjatlar va boshqa axborotni Soliq kodeksida belgilangan tartibda soliq organlariga taqdim etishi;

4) soliq to'lovchilarning konsolidatsiyalashgan guruhi bo'yicha foyda solig'ini (bo'nak va joriy to'lovlarni), tegishli penyalar va jarimalarni to'lash bo'yicha majburiyat Soliq kodeksida belgilangan tartibda ushbu guruhning mas'ul ishtirokchisi tomonidan bajarilmagan yoki lozim darajada bajarilmagan taqdirda, bunday majburiyatni bajarishi;

5) Soliq kodeksida nazarda tutilgan shartlarga rioya etilmagan taqdirda, soliq to'lovchilar konsolidatsiyalashgan guruhining mas'ul ishtirokchisini va mazkur guruhni tuzish to'g'risidagi shartnoma ro'yxatga olingan soliq organini darhol xabardor qilishi;

6) Soliq kodeksining Soliq hisobi va soliq hisobotlari bo'limida nazarda tutilgan tartibda soliq solish maqsadida hisob yuritishi shart.

Soliq to'lovchilarning konsolidatsiyalashgan guruhi bo'yicha foyda solig'iga nisbatan soliq majburiyati mas'ul ishtirokchi tomonidan bajarilmaganda yoki lozim

darajada bajarilmaganda, ushbu guruhning ko'rsatilgan soliq majburiyatini bajargan ishtirokchisi fuqarolik qonun hujjatlarida va mazkur guruhni tuzish to'g'risidagi shartnomada nazarda tutilgan miqdorlarda hamda tartibda regress talabi qo'yish huquqiga ega bo'ladi. Ushbu qoida soliq to'lovchilar konsolidatsiyalashgan guruhining mas'ul ishtirokchisi o'rniga uning soliq majburiyati (shu jumladan bo'nak va joriy to'lovlarni to'lash) shu konsolidatsiyalashgan guruhning bir nechta ishtirokchisi tomonidan bajarilgan hollarga nisbatan ham tatbiq etiladi.

Yuridik shaxs soliq to'lovchilarning konsolidatsiyalashgan guruhi tarkibidan chiqqanda:

1) yuridik shaxs foyda solig'i bo'yicha konsolidatsiyalashgan guruh tarkibidan chiqqan soliq davridan boshlab soliq hisobiga soliq to'lovchilarning konsolidatsiyalashgan guruhi ishtirokchisi bo'lmagan soliq to'lovchining soliq hisobi bo'yicha Soliq kodeksining Soliq hisobi va soliq hisobotlari bo'limi talablariga rioya etishga qaratilgan o'zgartishlar kiritishi;

2) ushbu yuridik shaxs soliq to'lovchilar konsolidatsiyalashgan guruhining tarkibidan chiqib ketgan soliq davridan boshlab o'zi tomonidan haqiqatda olingan foydadan kelib chiqqan holda foyda solig'ini hisoblab chiqishi va to'lashi. Soliq to'lovchilar konsolidatsiyalashgan guruhining mas'ul ishtirokchisi tomonidan ushbu guruh bo'yicha haqiqatda to'langan foyda solig'i summalarini hisobga olgan holda, ko'rsatilgan talab tegishli hisobot va soliq davrlariga nisbatan tatbiq etiladi hamda foyda solig'i bo'yicha bo'nak va joriy to'lovlarni Soliq kodeksining Foyda solig'i bo'limida belgilangan muddatlarda to'lash majburiyatini o'z ichiga oladi;

3) Soliq kodeksining Foyda solig'i bo'limida nazarda tutilgan muddatlarda foyda solig'i bo'yicha soliq hisobotini o'zi hisobda turgan yerdagi soliq organiga taqdim etishi shart.

Yuridik shaxsning soliq to'lovchilarning konsolidatsiyalashgan guruhi tarkibidan chiqib ketishi uni ushbu yuridik shaxs shunday konsolidatsiyalashgan guruhning ishtirokchisi bo'lgan davrda yuzaga kelgan soliq to'lovchilarning

konsolidatsiyalashgan guruhi bo'yicha foyda solig'iga nisbatan soliq majburiyatlarini bajarishdan ozod etmaydi.

Mazkur qoida, ushbu yuridik shaxsga uning soliq to'lovchilarning konsolidatsiyalashgan guruhi tarkibidan chiqib ketguniga qadar mazkur soliq majburiyati bajarilmaganligi yoki soliq to'g'risidagi qonun hujjatlari buzilganligi to'g'risida ma'lum bo'lganidan yoki ma'lum bo'lmaganidan qat'i nazar, qo'llaniladi.

Soliq to'lovchilar konsolidatsiyalashgan guruhi mas'ul ishtirokchisining huquqlari va majburiyatlari

Soliq to'lovchilar konsolidatsiyalashgan guruhining mas'ul ishtirokchisi Soliq kodeksida nazarda tutilgan huquqlar va majburiyatlardan tashqari, ushbu moddada belgilangan huquqlarga ega bo'ladi va majburiyatlarni o'z zimmasiga oladi.

Soliq to'lovchilar konsolidatsiyalashgan guruhining mas'ul ishtirokchisi, agar Soliq kodeksida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, soliq to'lovchilar konsolidatsiyalashgan guruhining faoliyati munosabati bilan yuzaga keladigan munosabatlarda foyda solig'ini to'lovchilar uchun Soliq kodeksida nazarda tutilgan huquqlarga ega bo'ladi va majburiyatlarni o'z zimmasiga oladi.

Soliq to'lovchilar konsolidatsiyalashgan guruhining mas'ul ishtirokchisi quyidagi huquqlarga ega:

1) soliq organlariga va ularning mansabdor shaxslariga soliq to'lovchilarning konsolidatsiyalashgan guruhi bo'yicha foyda solig'ini (bo'nak va joriy to'lovlarni) hisoblab chiqarish va to'lash yuzasidan har qanday tushuntirishlarni taqdim etish;

2) soliq to'lovchilarning konsolidatsiyalashgan guruhi bo'yicha foyda solig'i to'lanishi munosabati bilan bunday guruhning istalgan ishtirokchisi va uning alohida bo'linmalari joylashgan yerda o'tkaziladigan sayyor soliq tekshiruvlari hamda soliq auditi o'tkazilayotganda ishtirok etish;

3) soliq to'lovchilarning konsolidatsiyalashgan guruhi bo'yicha foyda solig'i to'lanishi munosabati bilan o'tkaziladigan soliq tekshiruvlari hujjatlarining va soliq tekshiruvlarining natijalari yuzasidan soliq organi tomonidan chiqarilgan qarorlarning ko'chirma nusxalarini olish. Shuningdek foyda solig'ini (bo'nak

to'lovlarini) to'lash to'g'risidagi talabnomalarni hamda soliq to'lovchilarning konsolidatsiyalashgan guruhi faoliyati bilan bog'liq boshqa hujjatlarni olish;

4) soliq to'lovchilarning konsolidatsiyalashgan guruhi bo'yicha foyda solig'ini to'lash munosabati bilan o'tkaziladigan soliq tekshiruvlarining va soliq nazorati qo'shimcha tadbirlarining materiallari ushbu Kodeksda nazarda tutilgan hollarda va tartibda soliq organining rahbari (rahbar o'rinbosari) tomonidan ko'rib chiqilayotganda ishtirok etish;

5) soliq organlaridan soliq to'lovchilarning konsolidatsiyalashgan guruhi ishtirokchilari to'g'risidagi soliq sirini tashkil etuvchi ma'lumotlarni olish;

6) soliq organlarining va boshqa vakolatli organlarning hujjatlari, ular mansabdor shaxslarining harakatlari (harakatsizligi) ustidan, shu jumladan soliq to'lovchilarning konsolidatsiyalashgan guruhi bo'yicha foyda solig'ini hisoblab chiqarishda ular tomonidan majburiyatlarning bajarilishi (huquqlarning amalga oshirilishi) munosabati bilan soliq to'lovchilar konsolidatsiyalashgan guruhining ayrim ishtirokchilari manfaatlarini ko'zlab belgilangan tartibda shikoyat qilish;

7) soliq to'lovchilarning konsolidatsiyalashgan guruhi bo'yicha ortiqcha to'langan foyda solig'ini hisobga olish (qaytarish) to'g'risidagi ariza bilan soliq organiga murojaat etish.

Soliq to'lovchilar konsolidatsiyalashgan guruhining mas'ul ishtirokchisi:

1) soliq organiga ushbu Kodeksda nazarda tutilgan tartibda va muddatlarda ro'yxatdan o'tkazish uchun soliq to'lovchilarning konsolidatsiyalashgan guruhini tuzish to'g'risidagi shartnomani, ushbu shartnomani o'zgartirish to'g'risidagi bitimni, soliq to'lovchilarning konsolidatsiyalashgan guruhi faoliyatini tugatish to'g'risidagi qarorni yoki bildirish xatini taqdim etishi;

2) Soliq kodeksining Foyda solig'i bo'limida belgilangan tartibda soliq to'lovchilarning konsolidatsiyalashgan guruhi bo'yicha soliq hisobini yuritishi, foyda solig'ini (bo'nak va joriy to'lovlarni) hisoblab chiqarishi va to'lashi;

3) soliq organiga soliq to'lovchilarning konsolidatsiyalashgan guruhi bo'yicha foyda solig'i bo'yicha soliq hisobotini, shuningdek mazkur guruhning boshqa

ishtirokchilaridan olingan hujjatlarni Soliq kodeksida belgilangan tartibda va muddatlarda taqdim etishi;

4) soliq to'lovchilar konsolidatsiyalashgan guruhining faoliyati tugatilgan taqdirda, ushbu guruh ishtirokchilariga foyda solig'ini (bo'nak va joriy to'lovlarni) hisoblab chiqarish va to'lash hamda tegishli hisobot hamda soliq davrlari uchun soliq hisobotini tuzish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni soliq to'lovchilarning konsolidatsiyalashgan guruhini tuzish to'g'risidagi shartnomada nazarda tutilgan tartibda va muddatlarda taqdim etishi. Soliq to'lovchilarning konsolidatsiyalashgan guruhi tarkibidan bir yoki bir nechta yuridik shaxs chiqib ketganda bunday ma'lumotlar ushbu konsolidatsiyalashgan guruhning boshqa ishtirokchilariga va konsolidatsiyalashgan guruh tarkibidan chiqib ketgan yuridik shaxslarga xuddi shunday tartibda taqdim etiladi;

5) soliq to'lovchilarning konsolidatsiyalashgan guruhi bo'yicha foyda solig'ini to'lovchining majburiyatlarini bajarish munosabati bilan yuzaga keladigan soliq qarzini uzishi;

6) soliqlarni to'lash to'g'risidagi talabnoma olinganligi haqida u olingan kundan e'tiboran besh kun ichida soliq to'lovchilarning konsolidatsiyalashgan guruhi ishtirokchilarini xabardor qilishi;

7) soliq organlari tomonidan soliq nazorati amalga oshirilishi hamda soliq to'lovchilarning konsolidatsiyalashgan guruhi bo'yicha foyda solig'ini to'lovchining majburiyatlari bajarilishi uchun zarur bo'lgan hujjatlarni, izohlarni va boshqa axborotni soliq to'lovchilarning konsolidatsiyalashgan guruhi ishtirokchilaridan talab qilib olishi;

8) ushbu konsolidatsiyalashgan guruhni tashkil etish to'g'risidagi shartnomani ro'yxatdan o'tkazgan soliq organi tomonidan soliq nazorati tadbirlari doirasida talab qilingan, soliq to'lovchilarning konsolidatsiyalashgan guruhi bo'yicha boshlang'ich hujjatlarni, soliq hisobi registrlarini va boshqa axborotni taqdim etishi shart.

Soliq to'lovchilarning konsolidatsiyalashgan guruhi tarkibidan bir yoki bir nechta yuridik shaxs chiqib ketgan taqdirda shu konsolidatsiyalashgan guruhning mas'ul ishtirokchisi:

1) soliq to'lovchilar konsolidatsiyalashgan guruhining foyda solig'i bo'yicha yuridik shaxslar konsolidatsiyalashgan guruh tarkibidan chiqib ketgan soliq davri boshlanishidan soliq hisobiga tegishli o'zgartishlar kiritishi;

2) tugagan hisobot davrlari bo'yicha foyda solig'i yuzasidan bo'nak va joriy to'lovlarni qaytadan hisoblashni amalga oshirishi va hisobda turgan joyidagi soliq organiga soliq to'lovchilarning konsolidatsiyalashgan guruhi bo'yicha foyda solig'iga doir aniqlashtirilgan soliq hisobotini taqdim etishi shart.

Soliq to'lovchilar konsolidatsiyalashgan guruhining mas'ul ishtirokchisi o'ziga berilgan vakolatlar doirasida soliq to'lovchining ushbu Kodeksda nazarda tutilgan boshqa huquqlariga ega bo'ladi va uning zimmasida boshqa majburiyatlar ham bo'ladi.

7.3. Soliq to'lovchilarning vakillari va soliq agentlari

Soliq kodeksiga muvofiq zimmasiga soliqlarni hisoblab chiqarish, soliq to'lovchidan ushlab qolish va budjet tizimiga o'tkazish majburiyati yuklatilgan shaxslar soliq agentlari deb e'tirof etiladi. Soliq agentlari, agar Soliq kodeksida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, soliq to'lovchilar kabi huquqlarga ega bo'ladi.

Soliq agentlari:

soliqlarni to'g'ri va o'z vaqtida hisoblab chiqarishi, ushlab qolishi hamda budjet tizimiga o'tkazishi;

soliq organlariga soliqni ushlab qolish imkoniyati yo'qligi va soliq to'lovchining soliq qarzi summasi to'g'risida bunday holatlar soliq agentiga ma'lum bo'lgan kundan e'tiboran bir oy ichida yozma ravishda yoki elektron shaklda xabar qilishi;

hisoblangan va to'langan daromadlarning, hisoblab chiqarilgan, ushlab qolingani va budjet tizimiga o'tkazilgan soliqlarning hisobini har bir soliq to'lovchi bo'yicha alohida yuritishi;

soliqlarning to'g'ri hisoblab chiqarilishi, ushlab qolinishi va o'tkazilishi ustidan nazoratni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan hujjatlarni soliq organlariga taqdim etishi;

soliq hisobotlarining hamda soliqlarni hisoblab chiqarish, ushlab qolish va o'tkazish uchun zarur bo'lgan boshqa hujjatlarning Soliq kodeksida nazar tutilgan da'vo muddati mobaynida but saqlanishini ta'minlashi shart.

Soliq agentlarining zimmasida qonun hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlar ham bo'lishi mumkin.

Soliq to'lovchi, agar Soliq kodeksida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, soliq munosabatlarida qonuniy yoki vakolatli vakil orqali ishtirok etishga haqli. Vakilning vakolatlari qonun hujjatlariga muvofiq hujjatlar bilan tasdiqlangan bo'lishi kerak.

Yuridik shaxs bo'lgan soliq to'lovchining qonuniy vakili deb ushbu yuridik shaxsga qonun yoki uning ta'sis hujjatlari asosida vakillik qilishga vakolatli shaxslar e'tirof etiladi.

Jismoniy shaxs bo'lgan soliq to'lovchining qonuniy vakili deb fuqarolik qonun hujjatlariga muvofiq uning vakillari sifatida faoliyat olib boradigan shaxslar e'tirof etiladi.

Yuridik shaxs qonuniy vakillarining mazkur yuridik shaxsning soliq munosabatlarida ishtirok etishi munosabati bilan sodir etilgan harakatlari (harakatsizligi) ushbu yuridik shaxsning harakati (harakatsizligi) hisoblanadi.

Soliq to'lovchi tomonidan belgilangan tartibda soliq organlari, bojxona organlari va soliq munosabatlarining boshqa ishtirokchilari bilan munosabatlarda o'z manfaatlarini ifodalash vakolati berilgan soliq maslahatchilari tashkilotlari yoki boshqa shaxslar soliq to'lovchining vakolatli vakillari bo'lishi mumkin.

Yuridik shaxs bo'lgan soliq to'lovchining vakolatli vakili, agar ushbu Kodeksda boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, o'z vakolatlarini tuzilgan

shartnoma yoki fuqarolik qonun hujjatlarida belgilangan tartibda beriladigan ishonchnoma asosida amalga oshiradi.

Jismoniy shaxs bo'lgan soliq to'lovchining vakolatli vakili o'z vakolatlarini fuqarolik qonun hujjatlariga muvofiq notarial tasdiqlangan ishonchnoma asosida amalga oshiradi.

Soliq, moliya, bojxona va boshqa davlat organlarining mansabdor shaxslari soliq to'lovchining vakolatli vakillari bo'la olmaydi.

Soliq to'lovchilar konsolidatsiyalashgan guruhining mas'ul ishtirokchisi qonun asosida soliq to'lovchilar konsolidatsiyalashgan guruhi barcha ishtirokchilarining vakolatli vakili hisoblanadi.

Soliq to'lovchilarning konsolidatsiyalashgan guruhini tuzish to'g'risidagi shartnoma qoidalaridan qat'i nazar, ushbu guruhning mas'ul ishtirokchisi quyidagilar bilan bog'liq huquqiy munosabatlarda mazkur konsolidatsiyalashgan guruh ishtirokchilarining manfaatlarini ifodalashga haqli:

soliq to'lovchilarning konsolidatsiyalashgan guruhini tuzish to'g'risidagi shartnomani soliq organlarida ro'yxatdan o'tkazish, shuningdek ushbu shartnomaga o'zgartirish kiritish, shartnomaning amal qilish muddatini uzaytirish to'g'risidagi qaror va uni tugatish bilan bog'liq huquqiy munosabatlarda;

soliq to'lovchilarning konsolidatsiyalashgan guruhi ishtirokchisidan soliq to'lovchilarning konsolidatsiyalashgan guruhi uchun foyda solig'i bo'yicha qarzlarni majburiy undirish bilan bog'liq huquqiy munosabatlarda;

soliq organining mansabdor shaxsi tomonidan amalga oshirilgan harakatlar (harakatsizlik) xususiyati bo'yicha ular soliq to'lovchilar konsolidatsiyalashgan guruhining ishtirokchisi bo'lgan yuridik shaxsning huquqlariga bevosita ta'sir qilsa.

Amal qilish muddati tugashi bilan soliq to'lovchilarning konsolidatsiyalashgan guruhini tuzish to'g'risidagi shartnoma muddatidan oldin bekor qilinganda yoki tugatilganda ushbu guruhning mas'ul ishtirokchisi bo'lgan shaxs ushbu moddaning o'ninchi va o'n birinchi qismlarida nazarda tutilgan vakolatlarini saqlab qoladi.

Soliq to'lovchilar konsolidatsiyalashgan guruhining mas'ul ishtirokchisi bo'lgan shaxslar mazkur guruh ishtirokchilarining manfaatlarini ifodalash bo'yicha ushbu Kodeks bilan o'zlariga berilgan vakolatlarni qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tuzilgan shartnoma yoki berilgan ishonchnoma asosida uchinchi shaxslarga berishga haqlidir.

Quyidagilar vakolatli organlardir:

soliq organlari — O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi, Yirik soliq to'lovchilar bo'yicha hududlararo davlat soliq inspeksiyasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar davlat soliq boshqarmalari, shuningdek tumanlar (shaharlar) davlat soliq inspeksiyalari;

bojxona organlari — O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi, Davlat bojxona qo'mitasining Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahri bo'yicha boshqarmalari, «Toshkent — AERO» maxsus bojxona kompleksi va bojxona postlari;

yig'implarni undirish funksiyasini amalga oshiruvchi davlat organlari va tashkilotlar.

7.4.Soliq organlarining huquqlari va majburiyatlari

Soliq organlari quyidagilarga haqli:

soliq to'lovchilardan va uchinchi shaxslardan soliqlarni va yig'implarni hisoblab chiqarish hamda to'lash uchun zarur bo'lgan hujjatlar va ma'lumotlarni (axborotni), shu jumladan elektron tarzda taqdim etishini talab qilish;

Soliq kodeksida belgilangan tartibda soliq tekshiruvlari va boshqa soliq nazorati tadbirlarini o'tkazish;

hududni, ishlab chiqarish, omborxonalar, savdo binolarini va boshqa binolarni, shu jumladan soliq to'lovchi daromad olish uchun foydalanadigan yoki soliq solish obyektlarini saqlash bilan bog'liq joylarni ko'zdan kechirish;

mol-mulkni inventarizatsiya qilish va bajarilgan ishlar, ko'rsatilgan xizmatlarning nazorat o'lchovlarini o'tkazish;

qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda kassani va tovar-moddiy boyliklar hamda hujjatlar saqlanadigan joylarni ikki kundan ortiq bo'lmagan muddatga, ikki kundan ortiq muddatga esa, sud qarori bo'yicha muhrlash;

solliqlarni va yig'implarni hisoblab chiqarish bilan bog'liq hujjatlarni va elektron axborot jismlarini olib qo'yish;

foto- va videotasvirga tushirish, tushuntirishlar hamda boshqa ma'lumotlarni olish;

tarjimoni, ekspertni jalb etish va ekspertiza tayinlash;

solliq to'lovchi hisob hujjatlarini yo'qotgan yoki yo'q qilgan hollarda solliq to'lovchi to'g'risidagi o'zida mavjud axborot, shuningdek boshqa shu kabi solliq to'lovchilar to'g'risidagi ma'lumotlar asosida solliqlar summasini hisob-kitob orqali mustaqil ravishda aniqlash;

o'zaro kelishuv asosida solliq monitoringida ishtirok etayotgan solliq to'lovchi tomonidan solliq to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi, solliqlarni hisoblab chiqarishning to'g'riligi, to'liqligi va o'z vaqtida to'lanishi yuzasidan solliq monitoringini o'tkazish;

solliq qarzini majburiy undirish choralarni ko'rish;

solliqqa oid huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqish va moliyaviy sanksiyalar qo'llash;

solliq huquqbuzarliklarining aniqlangan holatlari bo'yicha tovar-moddiy boyliklarni belgilangan tartibda davlat daromadiga o'tkazish. Yuridik shaxs bo'lgan solliq to'lovchilar va yakka tartibdagi tadbirkorlarning tovar-moddiy boyliklarini davlat daromadiga o'tkazish sud tartibida amalga oshiriladi;

solliq to'lovchilarga nisbatan ular tomonidan noqonuniy olingan mablag'larni davlat daromadiga undirish to'g'risida sudlarga da'volar kiritish;

hujjatlarning davlat tiliga tarjima qilinishini talab qilish;

solliq to'lovchilarni va solliq agentlarini yozma bildirish asosida solliq organlariga ular tomonidan solliqlarni to'lash (ushlab qolish va o'tkazish) yuzasidan yoki solliq tekshiruvi bilan bog'liq ravishda, shuningdek ular tomonidan

soliq to'g'risidagi qonun hujjatlarining bajarilishi bilan bog'liq boshqa hollarda tushuntirishlar berishga chaqirish;

belgilangan tartibda soliq to'lovchining yoki soliq agentining bankdagi hisobvaraqlari bo'yicha operatsiyalarni to'xtatib turish va ularning mol-mulkini xatlab qo'yish;

soliq to'lovchilar va ularning vakillaridan, soliq agentlaridan soliq to'g'risidagi qonun hujjatlarining aniqlangan buzilishlarini bartaraf etishni talab qilish hamda ushbu talablarning bajarilishini nazorat qilish;

Soliq kodeksida belgilangan majburiyatlarning banklar tomonidan bajarilishini nazorat qilish.

Soliq organlari qonunga muvofiq boshqa huquqlarni ham amalga oshirishi mumkin.

Soliq organlari:

soliq to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etishi;

soliq to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi, soliqlar va yig'imlarning to'g'ri hisoblab chiqarilishi, to'liq hamda o'z vaqtida to'lanishi ustidan nazoratni amalga oshirishi;

soliq to'lovchilar, soliq solish obyektlari va soliq solish bilan bog'liq obyektlar, hisoblangan va to'langan soliqlar to'liq va o'z vaqtida hisobga olinishini ta'minlashi;

soliq tekshiruvlarini o'tkazishda soliq to'lovchilarga ularning huquqlari va majburiyatlari to'g'risida ma'lumot berishi, shuningdek o'tkazilgan tekshirishlar natijalari to'g'risida xabardor qilishi;

soliq to'g'risidagi qonun hujjatlarini O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasining rasmiy veb-saytida o'z vaqtida e'lon qilishi;

soliq to'lovchilarga soliq to'g'risidagi qonun hujjatlarini ijro etishida yordam berishi, soliq to'g'risidagi qonun hujjatlari normalarini va soliq imtiyozlarini qo'llash tartibini tushuntirishi;

solliq to'g'risidagi qonun hujjatlari buzilganligi faktlarini tahlil qilishi va baholashi, solliqqa oid huquqbuzarliklarga olib keladigan sabablar va sharoitlarni bartaraf etish to'g'risidagi takliflarni tegishli davlat organlariga kiritishi;

huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan birgalikda solliqqa oid huquqbuzarliklarga qarshi kurashishga doir uzoq muddatli va joriy dasturlarni ishlab chiqishi hamda amalga oshirishi;

solliq to'g'risidagi qonun hujjatlari buzilganligi to'g'risidagi arizalarni, xabarlarini va boshqa axborotni o'rganishi;

davlat daromadiga o'tkazilgan mol-mulknii realizatsiya qilishdan pul mablag'larining to'liq va o'z vaqtida tushishini nazorat qilishi;

masalani hal etish solliq organlari vakolatlari doirasiga kirmaydigan hollarda solliq to'g'risidagi qonun hujjatlarining buzilishi faktlari bo'yicha materiallarni huquqni muhofaza qiluvchi organlarga topshirishi;

o'z vakolatlari doirasida valyuta va eksport-import operatsiyalarini amalga oshirishning belgilangan tartibiga rioya etilishi ustidan nazorat qilishi;

solliq siriga rioya etishi va uning saqlanishini ta'minlashi;

solliq to'lovchining talabiga binoan solliqlarni to'lash bo'yicha solliq majburiyatining bajarilishi yuzasidan solishtirma dalolatnoma tuzishi;

Solliq kodeksiga muvofiq solliq qarzi summasini so'zsiz undirishi;

yuridik va jismoniy shaxslarni, shu jumladan O'zbekiston Respublikasi norezidentlarini hisobga olishi, ularga solliq to'lovchilarning identifikatsiya raqamini berishi hamda bu haqda statistika va ro'yxatdan o'tkazuvchi organlarga rasmiy ravishda ma'lum qilishi;

solliq to'lovchining talabiga binoan uning solliq organlarida hisobga qo'yilganligini tasdiqlovchi ma'lumotnomani berishi;

solliq to'g'risidagi qonun hujjatlarini qo'llash masalalari yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining yozma tushuntirishlariga amal qilishi shart.

Solliq organlarining zimmasida qonun hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlar ham bo'lishi mumkin.

O‘z-o‘zini nazorat qilish uchun savollar:

1. Soliq to‘lovchilarning huquq va majburiyatlarini izohlang.
2. Soliq to‘lovchilar konsolidatsiyalashgan guruhi tushunchasini izohlang.
3. Soliq to‘lovchilar konsolidatsiyalashgan guruhi huquq va majburiyatlarini izohlang.
4. Soliq to‘lovchilarning vakillari va soliq agentlarini tavsiflang.
5. Soliq organlarining huquqlari va majburiyatlari nimalardan iborat?

8-BOB. SOLIQQA OID HUQUQBUZARLIKLAR VA JAVOBGARLIKNING UMUMIY QOIDALARI

8.1. Soliqqa oid huquqbuzarlik tushunchasi, ularning turlari va javobgarlikka tortishning umumiy shartlari

Soliq kodeksi bilan soliq organlariga soliqqa oid huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqish va moliyaviy sanksiyalar qo'llash huquqi belgilangan.

Moliyaviy sanksiyalar soliqqa oid huquqbuzarlik sodir etganlik uchun javobgarlik chorasidir. Moliyaviy sanksiyalar Soliq kodeksining 28 va 29-boblarida nazarda⁸⁵ tutilgan miqdorlarda belgilanadi va pul undirish (jarimalar) tarzida qo'llaniladi. Javobgarlikni yengillashtiruvchi hech bo'lmaganda bitta holat mavjud bo'lgan taqdirda, jarima miqdori Soliq kodeksining tegishli moddasida belgilangan miqdorga nisbatan ikki marta kamaytiriladi. Aniqlangan soliqqa oid huquqbuzarliklardagi aybga iqror bo'linganda va soliq organining soliqqa oid huquqbuzarlik uchun javobgarlikka tortish to'g'risidagi qarori olingan kundan e'tiboran o'n kunlik muddatda moliyaviy sanksiyalar summasi ixtiyoriy ravishda to'langanda jarima miqdori Soliq kodeksining tegishli moddalarida belgilangan miqdorga nisbatan ikki baravarga kamaytiriladi. Soliq kodeksining 216-moddasi ikkinchi qismida nazarda tutilgan javobgarlikni yengillashtiruvchi va og'irlashtiruvchi holatlar mavjud bo'lgan taqdirda, jarima miqdori ikki barobar oshiriladi.

Bir shaxs tomonidan ikki va undan ortiq soliqqa oid huquqbuzarlik sodir etilgan taqdirda, moliyaviy sanksiyalar har bir huquqbuzarlik uchun alohida tarzda undiriladi.

Soliq to'lovchining, soliq agentining yoki boshqa shaxsning Soliq kodeksida javobgarlik belgilangan g'ayriqonuniy aybli qilmishi (harakati yoki harakatsizligi) soliqqa oid huquqbuzarlik deb e'tirof etiladi.

⁸⁵ O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi. Lex.uz. internet manbasi

Yuridik va jismoniy shaxslar soliqqa oid huquqbuzarliklarni sodir etganlik uchun Soliq kodeksida (28 va 29-boblarida) nazarda tutilgan hollarda javobgar bo'ladi.

Jismoniy shaxs soliqqa oid huquqbuzarliklar sodir etganlik uchun o'n olti yoshdan boshlab javobgarlikka tortilishi mumkin. Hech kim soliqqa oid huquqbuzarlikni sodir etganlik uchun ushbu Kodeksda nazarda tutilganidan boshqa asoslar bo'yicha va tartibda javobgarlikka tortilishi mumkin emas. Hech kim soliqqa oid sodir etilgan ayni bir huquqbuzarlik uchun takroran javobgarlikka tortilishi mumkin emas.

Yuridik shaxsning soliq to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganligi uchun javobgarlikka tortilishiga mazkur huquqbuzarlik sodir etilganligi fakti soliq organining kuchga kirgan qarorida aniqlanganligi asos bo'ladi.

Yuridik shaxsning soliqqa oid huquqbuzarlikni sodir etganlik uchun javobgarlikka tortilishi tegishli asoslar mavjud bo'lgan taqdirda uning mansabdor shaxslarini ma'muriy, jinoiy yoki qonunda nazarda tutilgan boshqa javobgarlikdan ozod etmaydi.

Shaxsning soliqqa oid huquqbuzarlik sodir etganlik uchun javobgarlikka tortilishi uni to'lanishi kerak bo'lgan soliqlar (yig'imlar) va penyalarning summalarini to'lash (o'tkazish) majburiyatidan ozod etmaydi.

Shaxsning aybi qonunda belgilangan tartibda isbotlanmaguniga qadar u soliqqa oid huquqbuzarlikni sodir etishda aybdor deb hisoblanmaydi. Javobgarlikka tortilayotgan shaxs o'zining soliqqa oid huquqbuzarlikni sodir etganlikda aybdor emasligini isbotlashi shart emas.

Soliqqa oid huquqbuzarlik fakti va shaxsning uni sodir etishda aybdorligi to'g'risida dalolat beruvchi holatlarni isbotlash majburiyati soliq organlarining zimmasiga yuklatiladi.

Shaxs soliqqa oid huquqbuzarlikni sodir etganlik uchun quyidagi holatlardan hech bo'lmaganda bittasi mavjud bo'lgan taqdirda javobgarlikka tortilishi mumkin emas:

- 1) soliqqa oid huquqbuzarlik holatining mavjud emasligi;

- 2) soliqqa oid huquqbuzarlikni sodir etishda shaxsning aybi mavjud emasligi;
- 3) soliqqa oid huquqbuzarlikni sodir etganlik uchun javobgarlikka tortish muddatlari o'tib ketganligi.

Soliq kodeksida nazarda tutilgan boshqa holatlar mavjud bo'lganda ham shaxs soliqqa oid huquqbuzarlikni sodir etganlik uchun javobgarlikka tortilishi mumkin emas.

Soliqqa oid huquqbuzarlik sodir etilganda ayb shakllari quyidagilardan iborat:

G'ayrihuquqiy xatti-harakatni (*harakat va harakatsizlik*) qasddan yoki ehtiyotsizlik oqibatida sodir etgan shaxs soliqqa oid huquqbuzarlikni sodir etganlikda aybdor deb e'tirof etiladi.

Agar soliqqa oid huquqbuzarlik sodir etgan shaxs o'z harakati (*harakatsizligi*) g'ayriqonuniy ekanligini bilgan bo'lsa, bunday harakatning (*harakatsizlikning*) zararli oqibatlari yuzaga kelishini istagan yoxud ularning yuzaga kelishiga ongli ravishda yo'l qo'ygan bo'lsa, bunday huquqbuzarlik qasddan sodir etilgan deb topiladi.

Agar soliqqa oid huquqbuzarlik sodir etgan shaxs o'z harakatlari (*harakatsizligi*) g'ayriqonuniy ekanligini yoxud bunday harakatlar (*harakatsizlik*) natijasida yuzaga keladigan oqibatlarning zararli ekanligini garchand ularni oldindan ko'rishi lozim va mumkin bo'lgani holda bilmagan bo'lsa, bunday huquqbuzarlik ehtiyotsizlik tufayli sodir etilgan deb e'tirof etiladi.

Yuridik shaxsning soliqqa oid huquqbuzarlikni sodir etganlikda aybdorligi uning mansabdor shaxslarining yoki vakillarining harakatlari (*harakatsizligi*) ushbu soliqqa oid huquqbuzarlik sodir etilishini keltirib chiqargan aybiga qarab aniqlanadi.

8.2. Javobgarlikka tortishni istisno etuvchi, javobgarlikni yengillashtiruvchi va og'irlashtiruvchi holatlar

Shaxsning soliqqa oid huquqbuzarlik sodir etganlikdagi aybini istisno qiladigan holatlar deb quyidagilar e'tirof etiladi:

- 1) soliqqa oid huquqbuzarlik belgilari bo'lgan qilmishning tabiiy ofat yoki boshqa favqulodda va bartaraf etib bo'lmaydigan holatlar oqibatida sodir

etilganligi. Mazkur holatlar hammaga ma'lum faktlarning mavjudligi, ommaviy axborot vositalarida e'lon qilingan ma'lumotlar va isbotlash uchun maxsus vositalar talab etilmaydigan boshqa usullar bilan aniqlanadi;

2) soliqqa oid huquqbuzarlik alomatlari bo'lgan qilmish bunday qilmish sodir etilgan paytda kasallik oqibatida o'z harakatlarini o'zi idora etolmaydigan yoki boshqara olmaydigan holatda bo'lgan soliq to'lovchi — jismoniy shaxs tomonidan sodir etilganda. Mazkur holatlar mazmuni, mohiyati va sanasi bo'yicha soliqqa oid huquqbuzarlik sodir etilgan o'sha soliq davriga taalluqli bo'lgan hujjatlarni soliq organiga taqdim etish orqali isbotlanadi;

3) soliq organining yoki boshqa vakolatli organning (*ushbu organ mansabdor shaxsining*) soliqni (*yig'imni*) hisoblab chiqarish, to'lash tartibi to'g'risida yoki soliq to'g'risidagi qonun hujjatlari qo'llanilishining boshqa masalalari bo'yicha o'z vakolatlari doirasida soliq to'lovchiga (*yig'im to'lovchiga, soliq agentiga*) yoxud noma'lum doiradagi shaxslarga bergan yozma tushuntirishlari soliq to'lovchi (*yig'im to'lovchi, soliq agenti*) tomonidan bajarilganda. Mazkur holatlar ushbu organning tegishli hujjati mavjud bo'lgan taqdirda belgilanadi, ushbu hujjat ma'nosi va mazmuniga ko'ra, bunday hujjat qabul qilingan sanadan qat'i nazar, soliqqa oid huquqbuzarlik yuz bergan soliq davriga taalluqli bo'ladi;

4) soliq monitoringini o'tkazish davrida soliq organining soliq to'lovchiga (*yig'im to'lovchiga, soliq agentiga*) yuborilgan asoslantirilgan fikri soliq to'lovchi (*yig'im to'lovchi, soliq agenti*) tomonidan bajarilganda.

Soliq organi tomonidan berilgan yozma tushuntirishlar va soliq monitoringini o'tkazish davrida soliq organining soliq to'lovchiga yuborilgan asoslantirilgan fikri soliq to'lovchi (*yig'im to'lovchi, soliq agenti*) tomonidan bajarilganda, agar soliq organining yozma tushuntirishlari yoki asoslantirilgan fikri soliq to'lovchi (*yig'im to'lovchi, soliq agenti*) tomonidan taqdim etilgan to'liq bo'lmagan yoki noto'g'ri axborotga asoslangan bo'lsa, qo'llanilmaydi.

Soliqqa oid huquqbuzarlik belgilari bo'lgan qilmishning tabiiy ofat yoki boshqa favqulodda va bartaraf etib bo'lmaydigan holatlar oqibatida sodir etilganligi. Mazkur holatlar hammaga ma'lum faktlarning mavjudligi, ommaviy

axborot vositalarida e'lon qilingan ma'lumotlar va isbotlash uchun maxsus vositalar talab etilmaydigan boshqa usullar bilan aniqlanadi va ushbu holatlar mavjud bo'lganida shaxs soliqqa oid huquqbuzarlik sodir etganlik uchun javobgar bo'lmaydi.

Soliqqa oid huquqbuzarlik uchun javobgarlikni yengillashtiruvchi holatlar deb quyidagilar e'tirof etiladi:

1) shaxsiy yoki oilaviy sharoitlar og'ir kechishi oqibatida soliqqa oid huquqbuzarlikni sodir etish;

2) tahdid yoki majburlash ta'sirida yoxud moddiy, xizmat yoki boshqa jihatdan qaramlik sababli soliqqa oid huquqbuzarlikni sodir etish;

3) sud yoki ishni ko'rayotgan soliq organi tomonidan javobgarlikni yengillashtiruvchi deb topilishi mumkin bo'lgan boshqa holatlar.

Soliqqa oid huquqbuzarlikning ilgari xuddi shunday huquqbuzarlik uchun javobgarlikka tortilgan shaxs tomonidan sodir etilganligi javobgarlikni og'irlashtiruvchi holat deb e'tirof etiladi. Agar soliqqa oid huquqbuzarlikni sodir etganlik uchun o'ziga nisbatan javobgarlik choralari qo'llanilgan shaxs bu choralar qo'llanilgan kundan e'tiboran bir yil ichida bunday huquqbuzarlikni qayta sodir etmagan bo'lsa, u javobgarlikka tortilmagan deb hisoblanadi.

Soliqqa oid huquqbuzarlik uchun javobgarlikni yengillashtiruvchi yoki og'irlashtiruvchi holatlar sud yoki ishni ko'rayotgan soliq organi tomonidan belgilanadi va moliyaviy sanksiyalar qo'llanilganda inobatga olinadi.

Agar soliqqa oid huquqbuzarlik sodir etilgan kundan e'tiboran yoki mazkur huquqbuzarlik sodir etilgan soliq davri tugaganidan keyingi kundan e'tiboran va javobgarlikka tortish to'g'risidagi qaror chiqarilgan paytga qadar besh yil (o'tish muddati) o'tgan bo'lsa, shaxs soliqqa oid huquqbuzarlik sodir etganlik uchun javobgarlikka tortilishi mumkin emas.

Soliq tizimini yanada takomillashtirish, iqtisodiyotda xufiyona aylanmani qisqartirish va O'zbekiston Respublikasi soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasining asosiy yo'nalishlarini amalga oshirish maqsadida tadbirkorlik sub'ektlari aniqlangan soliqqa oid huquqbuzarlikni tan olib, davlat soliq xizmati

organlarining soliqqa oid huquqbuzarlik uchun javobgarlikka tortish to'g'risidagi qarorini olgan kundan e'tiboran o'n kun muddat ichida moliyaviy jarimalarni ixtiyoriy ravishda to'lasa, tadbirkorlik sub'ektlarining mansabdor shaxslari yoki xodimlari yoxud tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi fuqarolar mazkur huquqbuzarlik uchun qonun hujjatlarida belgilangan jinoiy va ma'muriy javobgarlikdan ozod etiladi⁸⁶.

8.3. Soliqqa oid huquqbuzarlik sodir etilganda ayb shakllari va aybini istisno qiluvchi holatlar

Soliqqa oid huquqbuzarlik sodir etilgan kundan e'tiboran muddatning o'tishini hisoblab chiqarish barcha soliqqa oid huquqbuzarliklarga nisbatan qo'llaniladi, Soliq kodeksining 223-moddasida (*soliq bazasini yashirish (kamaytirib ko'rsatish)*) va 224-moddasida (*soliqni (yig'imni) to'lamaslik yoki to'liq to'lamaslik*) nazarda tutilgan soliqqa oid huquqbuzarliklar bundan mustasno.

Muddatning o'tishini tegishli soliq davri tugaganidan keyingi kundan e'tiboran hisoblab chiqarish *soliq bazasini yashirish (kamaytirib ko'rsatish)* va *soliqni (yig'imni) to'lamaslik yoki to'liq to'lamaslikni* nazarda tutuvchi holatlar soliqqa oid huquqbuzarliklarga nisbatan qo'llaniladi.

Agar soliqqa oid huquqbuzarlik uchun javobgarlikka tortilayotgan shaxs soliq tekshiruvini o'tkazishga faol qarshilik ko'rsatgan bo'lsa va ushbu soliq tekshiruvini o'tkazish hamda budjet tizimiga to'lanishi lozim bo'lgan soliq summalarini soliq organlari tomonidan aniqlash uchun bartaraf etib bo'lmaydigan to'siqqa aylangan bo'lsa, javobgarlikka tortish muddatining o'tishi to'xtatiladi.

Javobgarlikka tortish muddatining o'tishi Soliq kodeksi 144-moddasining uchinchi qismida nazarda tutilgan dalolatnoma tuzilgan kundan e'tiboran to'xtatilgan deb hisoblanadi. Mazkur holatda javobgarlikka tortish muddatining o'tishi sayyor soliq tekshiruvini o'tkazishga to'sqinlik qiluvchi holatlarning amal qilishi tugagan va muddat o'tishini tiklash to'g'risidagi qaror chiqarilgan kundan e'tiboran qayta tiklanadi.

⁸⁶ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 10 iyuldagi "Soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4389-sonli qarori.

Moliyaviy sanksiyalar soliqqa oid huquqbuzarlik sodir etganlik uchun javobgarlik chorasidir.

Moliyaviy sanksiyalar Soliq Kodeksning 28-bobida (*Soliqqa oid huquqbuzarliklar va ularni sodir etganlik uchun javobgarlik*) va 29-bobida (*Soliq to'g'risidagi qomunchilikni buzganlik uchun banklarning javobgarligi*) nazarda tutilgan miqdorlarda belgilanadi va pul undirish (jarimalar) tarzida qo'llaniladi.

Javobgarlikni yengillashtiruvchi hech bo'lmaganda bitta holat mavjud bo'lgan taqdirda, jarima miqdori Soliq kodeksining tegishli moddasida belgilangan miqdorga nisbatan ikki marta kamaytiriladi.

Aniqlangan soliqqa oid huquqbuzarliklardagi aybga iqror bo'linganda va soliq organining soliqqa oid huquqbuzarlik uchun javobgarlikka tortish to'g'risidagi qarori olingan kundan e'tiboran o'n kunlik muddatda moliyaviy sanksiyalar summasi ixtiyoriy ravishda to'langanda jarima miqdori Soliq kodeksining tegishli moddalarida belgilangan miqdorga nisbatan ikki baravarga kamaytiriladi.

Soliqqa oid huquqbuzarlikning ilgari xuddi shunday huquqbuzarlik uchun javobgarlikka tortilgan shaxs tomonidan sodir etilganligi javobgarlikni og'irlashtiruvchi holat deb e'tirof etiladi jarima miqdori ikki barobar oshiriladi.

Bir shaxs tomonidan ikki va undan ortiq soliqqa oid huquqbuzarlik sodir etilgan taqdirda, moliyaviy sanksiyalar har bir huquqbuzarlik uchun alohida tarzda undiriladi.

8.4.Soliqqa oid huquqbuzarliklarni sodir etganlik uchun javobgarlik choralari

Qo'shilgan qiymat solig'ining soliq to'lovchisi sifatida soliq organlarida hisobga qo'yishning belgilangan tartibi soliq to'lovchi tomonidan buzilganda, - soliq to'g'risidagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hisobga qo'yish sanasidan haqiqatda hisobga qo'yilgan sanagacha bo'lgan davrda olgan daromadining besh foizi miqdorida, lekin besh million so'mdan kam bo'lmagan miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

Soliq to'lovchilarni soliq solish obyektini bo'yicha hisobga qo'yishni (*Soliq kodeksining 131-moddasi*) nazarda tutilgan hollarda soliq solish obyektini bo'yicha

soliq organlarida hisobga qo'yish muddatlari buzilganda, agar hisobga qo'yishning belgilangan muddatidan o'tishi:

o'ttiz kundan ko'p bo'lmaganda, - bir million so'm miqdorida jarima solishga sabab bo'ladi;

o'ttiz kundan ko'p bo'lganda, - ikki million so'm miqdorida jarima solishga sabab bo'ladi.

Chet el yuridik shaxsi tomonidan O'zbekiston Respublikasi hududida doimiy muassasasini tashkil etishga olib keluvchi faoliyatning soliq organida hisobga qo'ymasdan amalga oshirilishi - bunday faoliyatni amalga oshirish boshlangandan haqiqatda hisobga qo'yilgan sanagacha bo'lgan davrda olingan daromaddan o'n foiz miqdorida, lekin o'n million so'mdan kam bo'lmagan miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

Jismoniy shaxs tomonidan tadbirkorlik faoliyatini yakka tartibdagi tadbirkor sifatida davlat ro'yxatidan o'tmasdan amalga oshirish, - bunday faoliyatdan olingan daromadlarning o'n foizi miqdorida, lekin bir million so'mdan kam bo'lmagan miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

Soliq hisobotini soliq to'g'risidagi qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda taqdim etmaslik, - bu soliq hisoboti asosida to'lanishi (qo'shimcha to'lanishi) lozim bo'lgan soliq summasini belgilangan muddatda to'lanmagan har bir kechiktirilgan kun uchun bir foiz miqdorida, lekin ko'rsatilgan summaning o'n foizidan ortiq bo'lmagan miqdorida jarima solishga sabab bo'ladi.

Nazorat-kassa texnikasining va (yoki) hisob-kitob terminallarining qo'llanilishi majburiy bo'lgani holda, ularni qo'llamasdan savdoni amalga oshirganlik va xizmatlar ko'rsatganlik, xuddi shuningdek sotib oluvchiga kvitansiyalar yozib berish, talonlarni, cheklarni yoki ularga tenglashtirilgan hujjatlarni berish majburiy bo'lgani holda bunday hujjatlarni bermasdan tovarlarni realizatsiya qilganlik va xizmatlar ko'rsatganlik, shuningdek hisob-kitob terminallari orqali to'lovlarni qabul qilishni rad etganlik - besh million so'm miqdorida jarima solishga sabab bo'ladi.

Soliq organlarida ro'yxatga olinmagan nazorat-kassa texnikasini qo'llagan yoki sotib oluvchiga kvitansiyalar, talonlar, cheklar yoki ularga tenglashtirilgan hujjatlarni bergan holda savdoni amalga oshirganlik va (yoki) xizmatlar ko'rsatganlik, — yetti million so'm miqdorida jarima solishga sabab bo'ladi.

Boshqa shaxslar nomiga rasmiylashtirilgan hisob-kitob terminallaridan soliq to'lovchi tomonidan foydalanilishi, — yigirma million so'm miqdorida jarima solishga sabab bo'ladi.

Texnik talablarga muvofiq bo'lmagan yoki xizmat ko'rsatish dasturi buzilgan nazorat-kassa texnikalaridan foydalanganlik, yigirma million so'm miqdorida jarima solishga sabab bo'ladi.

Yakka tartibdagi tadbirkor tomonidan daromadlar va (yoki) xarajatlarni hisobga olish (daromadlar va xarajatlar hisobini yuritish kitobi) qoidalarini buzish besh yuz ming so'm miqdorida jarima solishga sabab bo'ladi.

Soliq bazasini yashirish (kamaytirib ko'rsatish) yashirilgan (kamaytirib ko'rsatilgan) soliq bazasi summasining yigirma foizi miqdorida jarima solishga sabab bo'ladi.

Yashirilgan (kamaytirib ko'rsatilgan) soliq bazasi summasidan Soliq kodeksiga muvofiq soliqlarni hisoblash amalga oshiriladi.

Soliq bazasini yashirish (kamaytirib ko'rsatish) (Soliq kodeksi 223-moddasi) maqsadida soliq bazasini yashirish (kamaytirib ko'rsatish) deb quyidagilar e'tirof etiladi:

tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan tushum summasini hisobga olish registrlarida aks ettirmaslik;

yuklarni tovar-kuzatuv hujjatlarini rasmiylashtirmasdan yoxud soxta hujjatlar bo'yicha tashish;

hisobda realizatsiya qilinmagan deb ko'rsatilgan tovarlarning omborda yoki realizatsiya qilish joyida mavjud emasligi;

rasmiylashtirilmagan (kirim qilinmagan) tovarlarni saqlash, ulardan foydalanish va realizatsiya qilish;

tovarlar (xizmatlar) realizatsiya qilinganligidan dalolat beruvchi hujjatlarni almashtirish, soxtalashtirish yoki yo‘q qilish;

qalbaki birlamchi buxgalteriya hujjatlaridan foydalanish;

nazorat-kassa texnikasining fiskal xotirasi xizmati dasturiga noqonuniy ravishda o‘zgartirish kiritish;

foydalanilmagan moddiy xarajatlarni foydalanilgan deb, ishlab chiqarish hisobotiga qo‘shish;

tovarlarni sotishdan (xizmat ko‘rsatishdan) olingan tushumni hisobot davridan keyingi davrga o‘tkazish (sotish hajmini va daromadni (foydani) qasddan kamaytirish);

moddiy, yoqilg‘i-energetika resurslari xarajatlarini (limitlarni) va amortizatsiya (eskirish) normasini sun‘iy ravishda oshirish yoki normativlarni noto‘g‘ri qo‘llash;

ish beruvchi bilan mehnat munosabatlarida bo‘lgan xodimlarning haqiqiy ish haqi summasi soliq hisobotida aks ettirilmaganligi;

mehnat faoliyatini amalga oshiruvchi xodimlarning soliq hisobotida aks ettirilmaganligi;

realizatsiya qilingan tovarlar qiymatini hisob hujjatlarida haqiqatda realizatsiya qilingan qiymatidan pasaytirilgan narxlar bo‘yicha aks ettirish.

mehnat faoliyatini amalga oshiruvchi xodimlarning soliq hisobotida aks ettirilmaganligi va realizatsiya qilingan tovarlar qiymatini hisob hujjatlarida haqiqatda realizatsiya qilingan qiymatidan pasaytirilgan narxlar bo‘yicha aks ettirish ko‘rsatilgan soliqqa oid huquqbuzarliklar bo‘yicha yashirilgan soliq bazasi summasi oxirgi o‘n ikki oy uchun aniqlanadi.

Soliqni (yig‘imni) noto‘g‘ri hisoblab chiqarish yoki boshqa g‘ayriqonuniy harakatlar (harakatsizlik) natijasida soliq (yig‘im) summasini to‘lamaslik yoki to‘liq to‘lamaslik, agar bunday qilmish soliq bazasini yashirish (kamaytirib ko‘rsatish), Transfert narxni belgilashda soliqlarni to‘lamaslik yoki to‘liq to‘lamaslik va Nazorat qilinadigan chet el kompaniyasining foyda ulushi soliq bazasiga kiritilmaganligi natijasida soliqni to‘lamaslik yoki to‘liq to‘lamaslikni

(Soliq kodeksining 223, 226 va 227-moddalari) nazarda tutuvchi soliqqa oid huquqbuzarliklar alomatlarini o'z ichiga olmagan bo'lsa, - to'lanmagan soliq (yig'im) summasining yigirma foizi miqdorida jarima solishga sabab bo'ladi.

Qo'shilgan qiymat solig'idan ozod qilingan tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishda, shuningdek qo'shilgan qiymat solig'ini to'lovchilar bo'lmagan mahsulot yetkazib beruvchilar tomonidan tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishda qo'shilgan qiymat solig'ini hisobvaraqa-fakturada aks ettirganlik, - mahsulot yetkazib beruvchilarga hisobvaraqa-fakturada ko'rsatilgan qo'shilgan qiymat solig'i summasining yigirma foizi miqdorida jarima solishga sabab bo'ladi. Bunda mahsulot yetkazib beruvchi hisobvaraqa-fakturada ko'rsatilgan soliq summasini budjetga to'lashi shart.

Nazorat qilinadigan bitimlarda soliq solish maqsadida mustaqil shaxslar o'rtasidagi bitimlarning tijorat va (yoki) moliyaviy shartlari bilan solishtirib bo'lmaydigan tijorat va (yoki) moliyaviy shartlar qo'llanilishi natijasida soliq summalarini soliq to'lovchi tomonidan to'lamaganlik yoki to'liq to'lamaganlik, - to'lanmagan soliq summasining qirq foizi miqdorida jarima solishga sabab bo'ladi.

Nazorat qilinadigan chet el kompaniyasining yuridik yoki jismoniy shaxs bo'lgan nazorat qiluvchi shaxslari tomonidan mazkur kompaniya foydasining ulushi soliq bazasiga kiritilmaganligi natijasida soliq summalarini to'lamaganlik yoki to'liq to'lamaganlik, nazorat qilinadigan chet el kompaniyasining soliq bazasiga kiritilishi lozim bo'lgan foydasiga nisbatan tegishincha foyda solig'i bo'yicha yoki jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i bo'yicha to'lanmagan soliq summasining yigirma foizi miqdorida, lekin o'n million so'mdan kam bo'lmagan miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

Soliq kodeksining 134-moddasida nazarda tutilgan ma'lumotnomani (ko'chirmalarni) bank tomonidan soliq organiga taqdim etmaslik, shuningdek ma'lumotnomalarni (ko'chirmalarni) belgilangan muddatni buzgan holda yoki noto'g'ri ma'lumotlar bo'lgan ma'lumotnomalarni (ko'chirmalarni) taqdim etish, ya'ni Soliq organining bank mijoziga nisbatan axborot taqdim etish to'g'risidagi

so'roviga binoan bank yozma so'rov olingan kundan e'tiboran uch kun ichida soliq organlariga quyidagilarni:

1) mijozning bankda hisobvaraqlari va omonatlari (depozitlari) mavjudligi to'g'risidagi ma'lumotlarni;

2) mijozning hisobvaraqlari va omonatlaridagi (depozitlaridagi) pul mablag'larining qoldiqlari haqidagi ma'lumotlarni;

3) mijozning hisobvaraqlaridagi operatsiyalarga hamda omonatlariga (depozitlariga) doir ko'chirmalarni;

4) soliq to'lovchining soliq majburiyatlarini bajarishi bilan bog'liq boshqa ma'lumotlarni ta'ym etmaganligi, ikki million so'm miqdorida jarima solishga sabab bo'ladi.

Bank tomonidan soliq (yig'im), bo'nak to'lovi, penya va jarima summasini o'tkazish to'g'risidagi soliq to'lovchining topshiriqnomasini, soliq organining inkasso topshiriqnomasini bajarmaslik (bajarilishini kechiktirish) O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki qayta moliyalashtirish stavkasining bir yuz ellikdan bir qismi miqdorida ($14/150=0,09\%$), lekin kechiktirilgan har bir kalendar kun uchun o'tkazilmagan summa bir foizining beshdan bir qismidan ko'p bo'lmagan miqdorda ($1/5=0,2$) jarima solishga sabab bo'ladi.

Soliq sohasidagi huquqbuzarliklar uchun O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeks talablari asosida ham ma'muriy jarima qo'llanilishi belgilangan.

O'z-o'zini nazorat qilish uchun savollar:


1. Soliqqa oid huquqbuzarlik tushunchasini izohlang.
2. Soliqqa oid huquqbuzarlikning qanday turlari mavjud?
3. Soliqqa oid huquqbuzarlikning javobgarlikka tortishning umumiy shartlarini izohlang.
4. Javobgarlikka tortishni istisno etuvchi, javobgarlikni yengillashtiruvchi va og'irlashtiruvchi holatlarini tavsiflang.
5. Qanday soliqqa oid huquqbuzarliklarni sodir etganlik uchun javobgarlik choralari mavjud?

9-BOB. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOLIQ TIZIMI VA UNING SHAKLLANISHINING NAZARIY ASOSLARI

9.1.Soliq tizimi mohiyati va uni guruhlash tartibi

Soliq tizimi ma’lum bir tamoyillarga asoslangan holda, soliqlar va yig‘imlar haqidagi qonun hujjatlari, soliqlar va yig‘imlar yig‘indisi, soliqlar va yig‘imlar to‘lovchilari va soliq ma’urchiligi mexanizmlari o‘zaro aloqadaor bir-biriga bog‘liq bir butunlikdagi yagona tizim.

O‘zbekiston Respublikasi hududida yagona soliq tizimi amal qiladi. Soliqlar joriy qilishga faqat O‘zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi haqli⁸⁷.



9.1.-rasm. Soliq sohasiga oid O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi normalari

Adabiyotlarda «soliq tizimi»ning turli ta’riflarini uchratish mumkin. Soliq tizimi bu

1-ta’rif:

Soliqlar va yig‘imlarni joriy qilish va undirish bilan bog‘liq, ijtimoiy munosabatlarning huquq normalari bilan tartibga solingan hamda ma’lum bir tamoyillarga asoslangan tizim.

2-ta’rif:

⁸⁷ O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi 123-moddasi. Lex.uz


Qonunchilik asosida belgilangan soliqlar, ularni joriy qilish prinsiplari, undirish shakllari va usullari hamda soliq munosabatlari ishtirokchilarining huquqlari va majburiyatlari yig'indisidir.

3-ta'rif:

Qonun hujjatlari bilan belgilangan shartlarda, budjetga undiriladigan soliqlar, yig'imlar, bojlar va boshqa majburiy to'lovlar yig'indisidir.

4-ta'rif:

Mamlakatda undiriladigan soliqlar, soliqqa tortish shakllari va usullari hamda soliq organlari yig'indisi.



9.2.-rasm. Soliq tizimi mohiyati

Soliq tizimining sifatini quyidagi mezonlar bo'yicha baholash mumkin: davlat budjeti balansi; samaradorlik va ishlab chiqarishning o'sishi; narxlarning barqarorligi; ijtimoiy siyosat samaradorligi; soliq to'lashning to'liqligi va o'z vaqtida bajarilishi.


Soliq tizimi mavjudligini ta'minlaydigan zaruriy majburiy asosiy elementlari:

Soliqqa oid qonun hujjatlari;

Soliqlar va yig'imlar tizimi;

Soliq ma'murchiligi tizimi;

Soliq munosabatlari ishtirokchilari.



9.3.-rasm. Soliq tizimining asosiy elementlari.

Soliq tizimini isloh qilish bo'yicha ishlab chiqilgan Konsepsiya loyihasi O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi doirasida respublikamiz soliq siyosatini tubdan takomillashtirishda, tizimning shaffofligini ta'minlashda va shu orqali milliy iqtisodiyotimizning barqaror rivojlanishi uchun zamin yaratishda muhim o'ringa ega.

Xususan, soliq tizimining soddalashtirilishi soliq to'lovchilar, shu jumladan xorijiy investorlar uchun o'ziga xos bir chaqiruv hisoblanib, bu bilan davlat islohotlarni faqat iqtisodiy usullarni qo'llagan holda amalga oshirish yo'lini tanlaganining yana bir amaldagi isboti hisoblanadi.

Mazkur konsepsiya loyihasida nazarda tutilgan chora-tadbirlarning amalga oshirilishi, xususan soliq yukini kamaytirilishi, iqtisodiyotning muhim qismini "soyadan" olib chiqilishi, huquqiy va mas'uliyatli biznesni rag'batlantirilishi, tadbirkorlar va xorijiy investorlar uchun real shart-sharoitlarning yaratilishi va boshqalar o'z navbatida yaqin kelajakda O'zbekiston iqtisodiyotining barqaror

rivojlanishi, manfaatli va doimiy ish o‘rinlarini yaratilishi orqali aholining yashash darajasini oshishida o‘z aksini topadi.

Shu bilan birga, soliqlar davlat budjeti daromadlarini shakllantirishda potensial manba ekanligini hamda soliq tizimini tubdan va juda ham qisqa davrda isloh qilish dastlabki yillarda mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga salbiy ta‘sir ko‘rsatishi mumkinligini ham inobatga olish lozim bo‘ladi.



9.4-rasm. Soliq tizimi 1991-1997 yillar davridagi bosqichlari

Mamlakatimizda qisqa muddat ichida soliq solishning yaxlit normativ-huquqiy bazasi yaratildi: 1991 yilda «O‘zbekiston Respublikasi fuqarolaridan, ajnabiy fuqarolardan va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslardan olinadigan daromad solig‘i to‘g‘risida» hamda «Korxonalar, birlashmalar va tashkilotlardan olinadigan soliqlar to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi qonunlari qabul qilindi.

1991–1995 yillar davomida sobiq Ittifoqda o‘ziga xos an‘anaga aylangan korxonalarining iqtisodiy holatini hisobga olmay xo‘jalik yurituvchi organlar, kooperativ va jamoat tashkilotlaridan daromad solig‘i, shuningdek, davlat korxonalari olgan foydadan undiriladigan hamda mutlaqo fiskal xususiyatga ega bo‘lgan to‘lovlar yig‘ishdan voz kechish yo‘li bilan ishlab chiqarishni

rag'batlantirish, yangi ish o'rinlarini yaratishni qo'llab-quvvatlashga e'tibor kuchaytirildi.

Mamlakatimizda soliqqa tortish prinsiplari dastlab 1991 yil 15 fevralda qabul qilingan "Korxonalar, birlashmalar va tashkilotlardan olinadigan soliqlar to'g'risida"gi Qonunda aks ettirilgan .

- manbalaridan qat'i nazar, barcha daromadlardan soliq to'lanishi majburiyligi;

- barcha hududiy-ma'muriy pog'onalar uchun yagona bo'lgan umumdavlat soliq siyosatini mahalliy hokimiyat idoralarining umumdavlat soliq siyosati doirasida soliq'larga oid qonun chiqarish faoliyatidagi mustaqilligi bilan uyg'un holda amalga oshirish;

- o'z faoliyati bilan eng muhim ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik muammolarni hal etishga ko'maklashayotgan samarali ishlovchi korxonalariga imtiyoz berish, shuningdek xo'jalik yuritishning ilg'or shakllarini rag'batlantirish sistemasi orqali soliq mezonlarining rag'batlantiruvchi ahamiyatini ta'minlash;

- deklaratsiyalar hamda tanlab o'tkaziladigan tekshirish va taftishlar uyushtirish asosida barcha sub'ektlarning soliq to'lovlari yuzasidan olgan majburiyatlari ustidan moliyaviy nazorat qilish, qonunlarni buzuvchilarga nisbatan iqtisodiy choralar ko'rish.

Aslida soliq xususiyatga ega bo'lmagan, narxlarni tartibga soluvchi mexanizm sifatida qaralgan, har bir tovarga yakka tartibda belgilangan narxlarning bir qismi bo'lgan umumiy pul aylanmasi (oborot)ga solinadigan soliq bekor qilindi. Sobiq Ittifoq davridagi bo'ydoqlar, yolg'izlar va kam bolali fuqarolarga solinadigan soliqlar, eksport va importdan undiriladigan to'lovlarga butkul barham berildi.


Aksincha, bozor iqtisodiyoti talablaridan kelib chiqib, korxonalarining amalda olgan daromadlariga solinadigan soliq, qo'shimcha qiymat solig'i, aksiz solig'i singari yangi turdagi soliqlar amaliyotga joriy etildi. Eng muhimi, tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni rag'batlantirish maqsadida ularga soliq imtiyozlari

berildi, soliqdan to'liq yoki qisman ozod bo'lishga asoslangan yangi mexanizmlar qo'llanila boshlandi.

1997 yilning 24 aprelida O'zbekistonda ilk marotaba Soliq kodeksi qabul qilindi va u ilgari amaliyotda qo'llangan ko'plab me'yoriy va idora qo'llanmalari va hujjatlarini o'zida umumlashtirdi. Ushbu hujjatning qabul qilinishi bilan soliq to'lovchilar va soliq organlari o'rtasidagi munosabatlar tartibga solindi. Soliq kodeksi soliq to'lovchilarning bilimlarini kengaytirishga xizmat qildi, soliq organlari xodimlari uchun esa ular oldida turgan vazifalarni samarali hal qilish bo'yicha yagona ish hujjatiga aylandi.

1997 yilning iyulida Davlat soliq qo'mitasi soliq va bojxona vazifalari ajratildi, bojxona organlari soliq organlari tarkibidan chiqarildi va alohida tuzilmaga birlashtirildi. O'zbekiston Respublikasining Davlat bojxona qo'mitasi tashkil qilindi. Davlat soliq xizmati organlari faoliyatining huquqiy asoslarini belgilash maqsadida 1997 yilning avgustida O'zbekiston Respublikasining «Davlat soliq xizmati to'g'risida»gi Qonuni qabul qilinib, unda davlat soliq xizmati organlarining asosiy vazifa va funksiyalari belgilanishi bilan birga uchastka davlat soliq inspektori lavozimi joriy etildi. Natijada, davlat soliq organi aholi keng qatlamlari bilan yaqindan ishlash imkoniyatiga ega bo'ldi. Soliq qonunchiligiga oid me'yoriy hujjatlarni amaliyotda qo'llash jarayonida soliq to'lovchilar bilan soliq organlari o'rtasida paydo bo'ladigan o'ta murakkab va munozarali masalalarni ko'rib chiqish va ular yuzasidan xolisona qarorlar qabul qilish uchun Davlat soliq qo'mitasi huzurida Ekspert kengashi tashkil etildi.

1998 yil boshidan Soliq kodeksining kuchga kiritilishi bilan respublikamizda soliq tizimini isloh qilishning uchinchi bosqichi boshlandi. Soliq kodeksi yuridik va jismoniy shaxslarni soliqqa tortishni tartibga solib turuvchi asosiy hujjat hisoblanadi. 1998 yilgacha bir qancha qonunlar va turli qonun hujjatlari amal qildi. Soliq kodeksi soliq tizimini tartibga keltirdi, budget daromad bazasini mustahkamlash uchun qonuniy bazani tashkil qildi, soliqlarni undirish va belgilash bo'yicha respublika va mahalliy boshqaruv organlari vakolatini aniq belgilab berdi.



9.5-rasm. Soliq tizimining 1998-2004 yillar davridagi bosqichi

Qabul qilingan Soliq kodeksi negiziga soliq siyosatining amalda qo'llanilayotgan konsepsiyasi aks ettirilgan edi. Soliq kodeksida soliq tizimining barqaror elementlaridan biri bo'lib hisoblanadigan bilvosita va bevosita soliqlarning asosiy turlari bo'yicha stavkalari belgilab berildi. Resurs soliqlari bilan soliqqa tortishda va budjet daromadini tashkil qilishda uning rolini kuchaytirishda inflyatsiyaning ta'sirini hisobga olgan holda, bu soliq turlari bo'yicha keyingi yil uchun budjet tasdiqlanayotgan vaqtda qayta ko'rib chiqib o'zgartirish kiritishga yo'l qo'yilishi va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan stavkalar belgilanishi keltirib o'tildi. 1998 yilda joriy etilgan bu Soliq kodeksining eng katta kamchiliklaridan biri to'g'ridan-to'g'ri ishlamas edi, ya'ni bevosita soliq to'lovchi undan foydalanish imkoniyatlari chegaralangan edi. Har bilan soliq turi bo'yicha alohida yo'riqnoma va hatto bahsli holatlar bo'yicha tushuntirishlardan foydalanilar edi.

Soliq kodeksining asosiy tamoyillaridan kelib chiqib, turli xo'jalik sub'ektlarini bir xil sharoitda soliqqa tortish ko'zda tutilgan. Shu bilan bir qatorda,

bevosita soliqlar bilan soliqqa tortish bo'yicha, soliq to'lovchilarning toifasi va ular tegishli tarmoqqa ko'ra soliqqa tortishning boshqa shakllari ham ko'zda tutilgan.

Jumladan:

- xo'jalik sub'ektlarining asosiy qismi foyda (daromad) solig'i to'laydi;
- kichik korxonalar uchun (aksizosti tovarlari ishlab chiqaruvchi korxonalardan tashqari), yagona soliq to'lashni ko'zda tutuvchi soliqqa tortishning soddalashtirilgan tizimi qo'llanilishi mumkin;
- savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari yalpi daromad solig'ini to'laydi;
- banklar, sug'urta tashkilotlari, videosalonlar daromad solig'i to'laydi;

Soliq kodeksida barcha soliqlar turlar bo'yicha tartibga solingan, ularning har biriga amal qilish shartlari belgilab berilgan. Soliq kodeksini ishlab chiqish va kuchga kiritish maqsadidan kelib chiqib, hamma soliq turilari bo'yicha, ular amal qilishi davomida, mexanizmlari ayrim elementlarining o'zgarishi ko'zda tutilgan.

Ushbu bosqichda ham kichik biznes sub'ektlarini soliqqa tortishga alohida e'tibor qaratildi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 15 apreldagi 159-son Qaroriga muvofiq "Soliq solishning soddalashtirilgan tizimiga o'tgan mikrofirmalar va kichik korxonalar soliq solish tartibi» tasdiqlandi. Mazkur qarorga asosan mikrofirma va kichik korxonalar soliqqa tortishning umumbelgilangan tartibidan soddalashtirilgan, ya'ni ixchamlashtirilgan soliq rejimiga o'tkazildi. Bunda kichik korxonalar uchun yagona soliq to'lash yoki umumbelgilangan tartibda soliq majburiyatlarini bajarish ixtiyoriy ekanligi qat'iy belgilandi. Kichik korxonalar uchun yagona soliqning o'rnatilishi natijasida soliq hisob-kitobini tuzish osonlashdi hamda bir nechta soliq turlari kamaytirilib va o'rniga yagona soliq joriy qilindi.

Korxonalarni soliqqa tortishning soddalashtirilgan tizimiga o'tishi uchun, uning faoliyat turidan kelib chiqib belgilangan mezonlarga ishchilarning o'rtacha yillik soniga mos kelishi bilan aniqlanishi ko'rsatilgan. Korxonalarining faoliyat turi O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi belgilagan kod bo'yicha aniqlangan. Bunda korxonalarda xodimlarning yillik o'rtacha soni, shu jumladan,

unitar (sho‘ba) korxonalarda, filiallarda va vakolatxonalarda ishlaydiganlar soni hisobga olinadi.

Iqtisodiy islohotlarni yanada erkinlashtirish va chuqurlashtirish jarayonida kichik biznesni rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki, bozor iqtisodiyotiga o‘tish sharoitida xususiy tadbirkorlik, kichik biznesni rivojlantirish, mulkdorlar sinfini shakllantirish, bozorlarni tovarlar bilan to‘ldirish, raqobat muhitini yaratish, ishsizlikka barham berish mamlakat oldida turgan asosiy vazifalardan hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 11 oktabrda “Kichik tadbirkorlik (biznes) sub’ektlariga tegishli bo‘lgan korxonalar va tashkilotlar klassifikatsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” 439-sonli Qaror qabul qilindi va unda mikrofirma va kichik korxonalar statusiga ega bo‘lgan kichik biznes sub’ektlarining faoliyat turidan kelib chiqqan holda o‘rtacha yillik ishchilar soni belgilandi.

Respublikamiz Prezidenti tomonidan savdo sohasini rivojlantirish, soliqqa tortish tizimini takomillashtirish va ularni davlat tomonidan nazorat qilish doimo yuqori darajadagi masalalardan biri bo‘lib kelgan. Xususan, 2002 yil 20 mayda qabul qilingan “Savdo va umumiy ovqatlanish sohasida soliqqa tortish tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi PF-3076-sonli Farmonlari savdo sohasini soliqqa tortishni yanada takomillashtirish uchun katta ahamiyat kasb etdi. Prezidentimizning ushbu farmonga asosan 2002 yil 1 iyuldan boshlab, savdo va umumiy ovqatlanish korxonalariga yalpi daromad solig‘i, mulk solig‘i o‘rniga yalpi tushumdan yagona soliq joriy etildi. Umumiy ovqatlanish korxonalarida yagona soliq foydalaniladigan umumiy maydonga qarab, Vazirlar Mahkamasi tomondan tasdiqlanadigan yagona soliqning bazaviy stavkasiga asoslanib joriy etilganli ko‘rsatildi. Ushbu farmon ijrosini amalga oshirish bo‘yicha hukumat tomonidan 2002 yil 13 iyunda 208-sonli va 2002 yil 12 iyulda 249-sonli qarorlar qabul qilindi. Ushbu qarorlar asosida savdo va umumiy ovqatlanish korxonalarida uchun yalpi tushumdan yagona soliqni hisoblash va undirish mexanizmlari, chakana savdo korxonalarida uchun belgilangan daromaddan olinadigan yagona soliq

to'lovi joriy qilindi. Shuningdek, dori-darmon va tibbiyot buyumlarini sotuvchi ulgurji savdo korxonalarini qo'shilgan qiymat solig'ini to'lashdan ozod etilgan.



9.6-rasm. Soliq tizimining 2005-2010 yillar davridagi bosqichi

Soliqqa tortish tizimini rivojlantirishning uchinchi bosqichi 2005 yildan boshlandi, bunda soliq siyosatini takomillashtirish mamlakat iqtisodiyotni erkinlashtirish va modernizatsiyalash bo'yicha olib borilayotgan islohotlar asosida olib borildi.

2005 yildan boshlab mamlakat soliq tizimida tub o'zgarishlar amalga oshirila boshlandi, hukumat iqtisodiyotni rivojlantirishning ustuvor vazifalaridan biri sifatida soliq siyosatini takomillashtirish vazifasini qo'ydi. Bunda soliq ma'murchiligini takomillashtirish, soliklarni unifikatsiyalash, soliqlarni adresli bulishini ta'minlash va resursdan oqilona foydalanishni ta'minlovchi soliqlarni rivojlantirish ko'zda tutildi va Yurtboshimiz tomonidan "amaldagi soliq qonunchiligini tanqidiy nuqtai nazardan tahlil qilib, shu asosda uni yanada soddalashtirish, soliqlarni unifikatsiya qilish, soliq yukini yengillashtirish, soliq

boshqaruvini takomillashtirish va erkinlashtirishni nazarda tutadigan yangi tahrirdagi Soliq kodeksini tayyorlash” masalasi ilgari surildi

2005 yilning 1 iyulidan boshlab joriy etildi. Dastlab yagona soliq to‘lovining asosiy stavkasi 13 foiz qilib belgilangan bo‘lsa, hozirgi kunda ushbu solikning asosiy stavkasi 7 foizni tashkil etadi xolos. Bu o‘zining samarasi berdi, kichik biznesning yalpi ichki mahsulotdagi ulushini 2006 yildagi 42,1 foizdan, 2009 yilga kelib 50,1 foizga yetishiga xizmat qildi. Yagona soliq to‘loviga o‘tgan kichik korxonalarining umumiy tartibda soliq to‘lovchi yirik korxonalar bilan bo‘ladigan iqtisodiy munosabatlarida soliqlarning salbiy ta’siri qisqartirish maqsadida 2006 yildan boshlab yagona soliq to‘lovi to‘lovchi korxonalariga qo‘shilgan qiymat solig‘ini ixtiyoriy ravishda tashlash huquqi berildi, bunda davlat budjetiga o‘tkaziladigan QQS hisobiga yagona soliq to‘lovining 50 foizi miqdorigacha chegirmalar berilishi joriy etildi hamda korxonalar xarajatlariga nisbatan hisoblanadigan ekologiya solig‘i 2006 yilda boshlab bekor qilindi. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 5 oktabrdagi «Tadbirkorlik sub’ektlarini tekshirishni yanada qisqartirish va uning tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Farmoniga asosan kichik korxonalar va fermer xo‘jaliklarining moliyaviy-xo‘jalik faoliyatini tekshirishlar har to‘rt yilda bir marta o‘tkazilishi belgilab qo‘yildi.

2005 yildan boshlab jismoniy shaxslar daromad solig‘ini hisoblashda soliq solinadigan daromadning bir foizi miqdoridagi mablag‘ani daromad solig‘idan chegirgan holda jamg‘arib boriladigan pensiya hisob varag‘iga o‘tkazilish tartibi joriy etildi. 2005-2013 yillarda jismoniy shaxslar daromad solig‘i stavkasi pasaytirilib borildi, hozirda eng kam stavka 8 foizni yuqori stavka 22 foizni tashkil etmoqda. Bu esa aholini ixtiyorida qoladigan daromadlarning oshishiga va turmush darajasining ko‘tarilishiga xizmat qilmoqda.

Bundan tashqari tadbirkorlarni huquqiy himoyalash bo‘yicha hukumat darajasida keng qamrovli ishlar amalga oshirilmoqda. Bunga asosan tekshirishlar soni keskin kamaytirildi, tadbirkorlik sub’ektlarini moliyaviy xo‘jalik faoliyatni tekshirish huquqi faqatgina soliq idoralarida qoldirildi, shuningdek ularga nisbatan

huquqiy ta'sir choralari faqat sud orqali qo'llanishi tartibi joriy etildi. Kichik biznes korxonalarining ortiqcha hisobotlar topshirishilishiga chek qo'yildi, barcha hisobotlar topshirish muddatlari choraklik bir marta qilib belgilandi va ular soni 10 martadan oshiqqa qisqartirildi. Ushbu davrda tadbirkorlik sub'ektlarini, ayniqsa kichik tadbirkorlik sub'ektlarini rag'batlantirishga doir Prezidentimizning bir necha Farmon va qarorlari chiqdi.

Mikrofirmalar va kichik korxonalarni jadal rivojlantirishni yanada rag'batlantirish hamda uning mamlakat iqtisodiyotida ahamiyati va ulushini tubdan oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 20 iyundagi PF-3620-sonli «Mikrofirmalar va kichik korxonalarni rivojlantirishni rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi Farmoniga muvofiq 2005 yilning 1 iyulidan boshlab O'zbekiston soliq tizimida kichik biznes sub'ektlarining ba'zi toifalari uchun yagona soliq, budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga majburiy ajratma, Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy ajratma va maktab ta'limini rivojlantirish jamg'armasiga majburiy ajratmalar o'rniga yagona soliq to'lovi joriy qilindi.

2005 yildan boshlab mamlakat soliq tizimida tub o'zgarishlar amalga oshirila boshlandi, hukumat iqtisodiyotni rivojlantirishning ustuvor vazifalaridan biri sifatida soliq siyosatini takomillashtirish vazifasini qo'ydi. Bunda soliq ma'murchiligini takomillashtirish, soliklarni unifikatsiyalash, soliqlarni adresli bulishini ta'minlash va resursdan oqilona foydalanishni ta'minlovchi soliqlarni rivojlantirish ko'zda tutildi va "amaldagi soliq qonunchiligini tanqidiy nuqtai nazardan tahlil qilib, shu asosda uni yanada soddalashtirish, soliqlarni unifikatsiya qilish, soliq yukini yengillashtirish, soliq boshqaruvini takomillashtirish va erkinlashtirishni nazarda tutadigan yangi tahrirdagi Soliq kodeksini tayyorlash" masalasi ilgari surildi.

2005 yilning 1 iyulidan boshlab joriy etildi. Dastlab yagona soliq to'lovining asosiy stavkasi 13 foiz qilib belgilangan bo'lsa, hozirgi kunda ushbu solikning asosiy stavkasi 7 foizni tashkil etadi xolos. Bu o'zining samarasi berdi, kichik biznesning yalpi ichki mahsulotdagi ulushini

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 5 oktabrdagi «Tadbirkorlik sub’ektlarini tekshirishni yanada qisqartirish va uning tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Farmoniga asosan kichik korxonalar va fermer xo‘jaliklarining moliyaviy-xo‘jalik faoliyatini tekshirishlar har to‘rt yilda bir marta o‘tkazilishi belgilab qo‘yildi.

2005-2013 yillarda foyda solig‘i stavkalarini pasaytirish davom ettirildi, bu davrda foyda solig‘ining asosiy stavkasi 15 foizdan 9 foizga pasaytirildi. Tijorat banklari uchun 2007 yildan boshlab boshqa xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar singari foyda solig‘i joriy etilib, 2013 yilda tijorat banklari uchun foyda solig‘i stavkasi 15 foiz ni tashkil etadi.

Bundan tashqari tadbirkorlarni huquqiy himoyalash bo‘yicha hukumat darajasida keng qamrovli ishlar amalga oshirilmoqda. Bunga asosan tekshirishlar soni keskin kamaytirildi, tadbirkorlik sub’ektlarini moliyaviy xo‘jalik faoliyatni tekshirish huquqi faqatgina soliq idoralarida qoldirildi, shuningdek ularga nisbatan huquqiy ta’sir choralarini faqat sud orqali qo‘llanishi tartibi joriy etildi. Kichik biznes korxonalarining ortiqcha hisobotlar topshirishilishiga chek qo‘yildi, barcha hisobotlar topshirish muddatlari choraklik bir marta qilib belgilandi va ular soni 10 martadan oshiqqa qisqartirildi. Ushbu davrda tadbirkorlik sub’ektlarini, ayniqsa kichik tadbirkorlik sub’ektlarini rag‘batlantirishga doir Prezidentimizning bir necha Farmon va qarorlari chiqdi.

Soliq kodeksi 2007 yilning 25 dekabrda tasdiqlanib, 2008 yildan boshlab kuchga kiritildi. Ushbu yangi tahrirdagi Soliq kodeksi ilgarigisidan eng asosiy farqi shundan iboratki, yangi Soliq kodeksi to‘g‘ridan-to‘g‘ri amal qilishga mo‘ljallangan, ya’ni har bir soliqni hisoblash huquqiy-me’yoriy hujjatlar, yo‘riqnomalar asosida amalga oshirilmasdan to‘g‘ridan-to‘g‘ridan Soliq kodeksida aks ettirildi, hamda ilgari qonunosti hujjatlar asosida tartibga solinuvchi soddalashtirilgan soliqqa tortish tartibi va maqsadli jamg‘armalarga majburiy ajratmalarni hisoblanish va undirish tartiblari Soliq kodeksida aks ettirildi. Shuningdek bu bosqichda kichik beznes korxonalariga yanada kulayliklar berish

maqsadida yagona soliq va maqsadli jamg'armalar uchun ajratmalar unifikatsiyalanib, yagona soliq to'lovi


Yagona soliq to'lovi yuridik shaxslardan undirilib umumdavlat budjetiga tushadigan va iqtisodiy mohiyatiga ko'ra to'g'ri soliq hisoblanadi. Yagona soliq to'lovini to'lovchilar uning summasini soliq solinadigan baza va tasdiqlangan stavkalardan kelib chiqqan holda hisob-kitob qiladilar. Bunda soliq organlariga davlat maqsadli jamg'armalariga majburiy ajratmalar bo'yicha hisob-kitoblar alohida taqdim etilmaydi, shuningdek, pensiya, yo'l va maktab ta'limini rivojlantirish jamg'armalari (Ta'lim va tibbiyot muassasalarini rekonstruksiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash jamg'armasi)ga majburiy ajratmalar summalari alohida to'lanmaydi.

Yagona soliq to'lovi to'lovchilar uchun ixtiyoriy ravishda qo'shilgan qiymat solig'iga o'tish tartibi respublikamizda 2006 yilning 1 yanvaridan boshlab joriy etildi. Bunga qadar kichik biznes sub'ektlari soddalashtirilgan tartibda soliq to'laganda, ularga nisbatan qo'shilgan qiymat solig'ini to'lash tartibi tatbiq etilmas edi. Qo'shilgan qiymat solig'i to'lashga o'tgan kichik biznes korxonalarini uchun yagona soliq to'lovi summasi budjetga to'lanishi lozim bo'lgan qo'shilgan qiymat solig'i summasiga, lekin yagona soliq to'lovi summasining 50 foizidan ko'p bo'lmagan miqdorga kamaytirilishi belgilandi.

2007 yil 1 yanvardan boshlab O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 532-sonli qaroriga asosan savdo va umumiy ovqatlanish korxonalarini uchun belgilangan yalpi daromad solig'i, mol-mulk solig'i, budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga majburiy ajratma, Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy ajratma va maktab ta'limini rivojlantirish jamg'armasiga majburiy ajratmalar va yalpi daromad o'rniga yalpi tushumdan yagona soliq to'lovi joriy qilindi. Jumladan, ular tarkibiga soliq solishning boshqa tizimini tanlash huquqisiz savdo va umumiy ovqatlanish korxonalarini (Ulgurji savdo korxonalarini uyushmasi tizimiga kiruvchi respublika ixtisoslashtirilgan ulgurji baza-kontoralari va ularning hududiy bazalari bundan mustasno) kiritildi. Mikrofirmalar va kichik korxonalar toifasiga tegishli bo'lgan tayyorlov va ta'minot-sotish tashkilotlari, brokerlik firmalari, komissiya

shartnomasi bo'yicha xizmatlar ko'rsatuvchi korxonalar va tashkilotlar soliq solishning boshqa tizimini tanlash huquqsiz lotereyalar va tavakkalchilikka asoslangan boshqa o'yinlarni tashkil etish bo'yicha faoliyatni amalga oshirish uchun yuridik shaxslar kiritildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009 yil 22 dekabrda PQ-1245-son "O'zbekiston Respublikasining 2010 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari va Davlat budjeti parametrlari to'g'risida"gi qaroriga muvofiq 2010 yil 1 yanvardan ulgurji savdo korxonalar uchun har bir o'tkazilgan savdo operatsiyasidan tushadigan tushum summasining 5 foizi miqdorida yagona soliq to'lovi bo'yicha bo'nak to'lovlarni to'lash tartibi belgilandi.



9.7-rasm. Yagona soliq to'lovining joriy etilishi natijasida umumlashtirilgan soliq va majburiy to'lovlar

Yagona soliq to'lovi yuridik shaxslardan undirilib umumdavlat budjetiga tushadigan va iqtisodiy mohiyatiga ko'ra to'g'ri soliq hisoblanadi. Yagona soliq to'lovini to'lovchilar uning summasini soliq solinadigan baza va tasdiqlangan stavkalardan kelib chiqqan holda hisob-kitob qiladilar. Bunda soliq organlariga davlat maqsadli jamg'armalariga majburiy ajratmalar bo'yicha hisob-kitoblar alohida taqdim etilmaydi, shuningdek, pensiya, yo'l va maktab ta'limini rivojlantirish jamg'armalari (Ta'lim va tibbiyot muassasalarini rekonstruksiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash jamg'armasi)ga majburiy ajratmalar summalari alohida to'lanmaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 26 apreldagi PQ-1326-son "Dehqon bozorlari va savdo komplekslari faoliyatini tashkil qilishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga muvofiq 2010 yilning 1

iyulidan boshlab chakana savdo korxonalari, xizmat ko'rsatish sohasidagi mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun yagona soliq to'lovi, lekin miqdori yuqorida sanab o'tilgan toifadagi to'lovchilar uchun YaSTning eng kam miqdori sifatida aniqlanadigan, aynan shunday faoliyat turini amalga oshirayotgan yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan to'lanadigan qat'iy belgilangan soliq miqdoridan kam bo'lmagan miqdorda to'lashi belgilandi.

Soddalashtirilgan soliq tizimi eski tahrirdagi Soliq kodeksida bitta moddaga birlashtirilgan bo'lsa, 2008 yilga kelib yangi tahrirdagi Soliq kodeksida "Soliq solishning soddalashtirilgan tartibi" deb nomlanuvchi alohida bo'lim kiritildi.



9.8.-rasm. Soliq tizimining 2011-2017 yillar davridagi bosqichi

Respublikamizda 2011 yilning 1 iyulidan boshlab Yagona soliq to'lovi to'lovchilari YaSTni O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida belgilangan tartibda, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori bilan tegishli yil uchun tasdiqlangan stavkalar bo'yicha, lekin eng kam miqdordan - egallab turgan yer maydonidan kelib chiqib, belgilangan pasaytiruvchi koeffitsientlarni hisobga olgan holda hisoblab chiqarilgan yer solig'ining uch baravaridan kam bo'lmagan miqdorda to'lashi belgilandi.

Soliq va moliyaviy hisobotlarning mavjud tizimi katta bo‘lib, tubdan soddalashtirishni va isloh qilishni talab etib, bozor iqtisodiyoti talablariga, xalqaro me‘yorlar va standartlarga muvofiq, byurokratik g‘ovlarni bartaraf etish, litsenziya va ruxsat berish tartib-taomillarini qisqartirish hamda soddalashtirish, hisobot tizimini va hisobotlarni taqdim etish tartibini tubdan takomillashtirish hisobiga ishbilarmonlik muhitini tubdan yaxshilash, tadbirkorlik subektlari faoliyati uchun maksimal darajada qulay shart-sharoitlarni vujudga keltirish maqsadida⁸⁸:

2012 yilning 1 avgustidan boshlab ruxsat berishga oid 80 ta tartib-taomilni (ularning umumiy miqdoriga nisbatan 26 foiz), shuningdek, litsenziyalanadigan faoliyat turlarining 15 tasini (umumiy miqdoriga nisbatan 20 foiz), jumladan, ularni bekor qilish va birlashtirish hisobiga bekor qilindi;

2013 yil 1 yanvardan boshlab, barcha soliq turlari va boshqa majburiy to‘lovlar (qo‘shimcha foyda solig‘i bundan mustasno) bo‘yicha oyma-oy soliq hisobotini taqdim etish bekor qilinib, mikrofirmalar yillik statistik hisobot taqdim etadilar, bunda statistika organlari har chorakda tegishli faoliyat yo‘nalishlari va sohalari bo‘yicha tanlanma o‘rganishlar o‘tkazilgan.

2014 yilning oxiriga qadar barcha tadbirkorlik statistik, soliq va moliyaviy hisobotlarni topshirishning elektron tizimiga to‘la hajmda bosqichma-bosqich o‘tkazilishi, shuningdek, 2012 — 2016 yillar mobaynida ariza beruvchilarga arizalarning o‘tish jarayonini interaktiv kuzatish imkoniyatini yaratgan holda litsenziya va ruxsatnomalarni olish uchun internet tarmog‘i orqali arizalarni berishning elektron shakllari joriy etilishi ta‘minlangan.

Ishbilarmonlik muhitini tubdan yaxshilash, tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun eng qulay shart-sharoitlarni yaratish, korxonalarining faoliyati bilan bog‘liq tartib-taomillarning barcha turlarini qisqartirish, soddalashtirish va ochiq-oydinlik darajasini oshirish, biznesni yuritish shart-sharoitlarini baholash mezonlarining jahon amaliyotida hamma tomonidan qabul qilingan tizimini joriy

⁸⁸ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 16 iyuldagi “Statistik, soliq, moliyaviy hisobotlarni, litsenziyalanadigan faoliyat turlarini va ruxsat berish tartib-taomillarini tubdan qisqartirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-4453-sonli Farmoni.

etish va shu asosda mamlakatimiz ishbilarmonlik va investitsiya muhiti darajasining xalqaro reytingini yanada oshirish maqsadida⁸⁹:

2013 yilning 1 yanvaridan boshlab shunday tartib oʻrnatilsinki, unga muvofiq tadbirkorlik subyektlari tegishli davlat va xoʻjalik boshqaruvi organlarida quyidagi tartib-taomillarni oʻz xohishlariga koʻra elektron shaklda amalga oshirish huquqiga ega boʻladilar:

bank hisobvaraqlariga masofadan turib xizmat koʻrsatish tizimi, shu jumladan, «Internet-banking» tizimi orqali soliqlarni va boshqa majburiy toʻlovlarni toʻlash - Oʻzbekiston Respublikasi Davlat soliq qoʻmitasi, Markaziy banki, tijorat banklari;

«bir oyna» tamoyili boʻyicha yuridik shaxslarning koʻchmas mulkka boʻlgan egalik huquqlarini roʻyxatga olish - Oʻzbekiston Respublikasi «Yergeodezkadastr» davlat qoʻmitasi;

tadbirkorlik subʼektlarining daʼvo arizalari va iltimosnomalarini xoʻjalik sudlariga berish - Oʻzbekiston Respublikasi Oliy xoʻjalik sudi.

2017-2021 yillarda Oʻzbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yoʻnalishi boʻyicha Harakatlar strategiyasidagi⁹⁰ soliq solish tizimini izchillik bilan soddalashtirish, soliq solinadigan bazani kengaytirish orqali soliq yukini pasaytirish kabi vazifalar ijrosi yuzasidan, shuningdek soliq maʼmuriyatchiligining zamonaviy uslublarini joriy etish, soliqlar va boshqa majburiy toʻlovlarning yigʻiluvchanligini oshirish maqsadida⁹¹ Oʻzbekiston Respublikasi davlat soliq xizmati organlari tizimini isloh etishning muhim yoʻnalishlari belgilangan:

Soliq tizimini isloh qilish konsepsiyasini Harakatlar strategiyasi doirasida iqtisodiyot va hududlarning rivojlanish holati, davlat budjeti parametrlari ijrosi, shuningdek, amalga oshirilayotgan valyuta islohoti natijalaridan kelib chiqib,

⁸⁹ Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 18 iyuldagi “Ishbilarmonlik muhitini yanada tubdan yaxshilash va tadbirkorlikka yanada keng erkinlik berish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi PF-4455-sonli Farmoni.

⁹⁰ Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “Oʻzbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish boʻyicha harakatlar strategiyasi toʻgʻrisida”gi PF-4947-sonli Farmoni.

⁹¹ Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 18 iyuldagi “Soliq maʼmuriyatchiligini tubdan takomillashtirish, soliqlar va boshqa majburiy toʻlovlarning yigʻiluvchanligini oshirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi PF-5116-sonli Farmoni.

makroiqtisodiy, monetar va fiskal siyosat bilan o‘zaro mutanosiblikda va bosqichma-bosqich ravishda amalga oshirish.

Soliq ma‘muriyatchiligi jarayoniga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va ilg‘or avtomatlashtirilgan tahlil uslublarini keng joriy etish, soliq to‘lovchilarga, eng avvalo, tadbirkorlik sub‘ektlariga to‘g‘ridan-to‘g‘ri muloqotsiz elektron xizmat ko‘rsatishga to‘liq o‘tish;

Soliq solish obyektlari va soliq solinadigan bazaning o‘z vaqtida hamda ishonchli hisobga olinishini ta‘minlash, vakolatli organlar va

tashkilotlar mansabdor shaxslarining soliq solish masalalari bilan bog‘liq bo‘lgan ishonchli axborotni o‘z muddatida taqdim etish bo‘yicha mas‘uliyatini kuchaytirish;

Soliq majburiyatlarini bajarishda soliq to‘lovchilarga har tomonlama ko‘maklashish, soliqqa oid huquqbuzarliklar profilaktikasining ta‘sirchan mexanizmlarini ishlab chiqish va soliq to‘lovchilarning huquqiy madaniyatini oshirish, soliq nazoratini amalga oshirishning zamonaviy uslublarini joriy etish;

Makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar dinamikasi va hududlarning soliq salohiyatini tizimli tahlil qilish orqali soliq solish obyektlarini to‘liq qamrab olishni ta‘minlash va soliq solinadigan bazani kengaytirish bo‘yicha samarali chora-tadbirlarni amalga oshirish;

Faoliyat ko‘rsatmayotgan korxonalarining faoliyatini tiklashga har tomonlama ko‘maklashish, past rentabelli va zarar ko‘rib ishlayotgan korxonalarining moliyaviy ahvolini sog‘lomlashtirish, o‘zaro hisob-kitoblar mexanizmlarini mustahkamlash, soliq qarzi oshishiga yo‘l qo‘ymaslik orqali soliq solinadigan bazani kengaytirish;

Soliq solish masalalarida, shu jumladan respublika va mahalliy budjetlar daromadlarini oshirishning qo‘shimcha zaxiralarini aniqlash orqali moliya organlari, manfaatdor vazirlik va idoralar, shuningdek mahalliy davlat hokimiyati organlari bilan hamkorlikni yanada kengaytirish;

Kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo‘yish, soliq organlarini ma‘naviy-axloqiy jihatdan yuqori malakali xodimlar bilan to‘ldirish bo‘yicha tizimli ishlarni amalga

oshirish, shuningdek xodimlar o'rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasini ta'minlash va ular uchun xizmatni o'tashning munosib shart-sharoitlarini yaratish.

2018 yil 1 yanvardan:

soliq organlari va halol soliq to'lovchilar o'rtasida ularga joriy soliq solish masalalarini hal qilishda har tomonlama ko'maklashgan holda kengaytirilgan axborot almashinuvini nazarda tutuvchi soliq nazoratining zamonaviy shakli – soliq monitoringi joriy etilishi;

vaqtinchalik moliyaviy qiyinchiliklarga to'qnash kelgan halol soliq to'lovchilar xo'jalik yurituvchi sub'ektlarga qonun hujjatlarida belgilangan tartibda soliq ta'tillari berilishi mumkinligi;

o'tkazilgan kameral nazorat natijalari bo'yicha aniqlangan tafovutlar yuzasidan soliq to'lovchilar tomonidan asoslar taqdim etilmagan taqdirda, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar summalarini sud tartibida undirish joriy etilishi;

ortiqcha to'langan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni qaytarish yoki hisobga olish soliq to'lovchi vakolatli organlarga murojaat etgan sanadan boshlab 15 ish kuni ichida amalga oshirilishi;

davlat soliq xizmati organlariga kirim hujjatlarini rasmiylashtirmasdan tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qiladigan xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning hisobvaraqlari bo'yicha operatsiyalarini 5 bank kunigacha bo'lgan muddatga vaqtinchalik to'xtatib turish vakolati berilishi;

Toshkent, Nukus shaharlarida va viloyat markazlarida soliq organlariga hisob-kitoblar haqidagi ma'lumotlarning onlayn rejimida berilishini ta'minlaydigan nazorat-kassa mashinalarini qo'llash orqali naqd pul tushumi ustidan avtomatlashtirilgan nazorat tizimi joriy etiladi, respublikaning qolgan hududlarida mazkur tizim bosqichma-bosqich kiritilishi;

soliq tekshiruvi obyektlarini samarali tanlab olish uchun soliqqa oid huquqbuzarliklarni sodir etish xavflarini tahlil qilish, shuningdek soliq organlari tomonidan yuqori likvidli mahsulotlar haqiqiy ishlab chiqarish hajmining doimiy hisobi va nazoratini amalga oshirish bo'yicha ixtisoslashtirilgan avtomatlashtirilgan tizim joriy etilishi;

davlat soliq xizmati organlari xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar xodimlarining hisobotdagi va haqiqiy soni muvofiqligi ustidan tizimli monitoringni amalga oshiradi, natijasi bo‘yicha soliq solinadigan bazani aniqlashtirilishi belgilandi.

Soliq yukini izchillik bilan kamaytirish, soliq solish tizimini soddalashtirish va soliq ma‘muriyatchiligini takomillashtirish iqtisodiyotni jadal rivojlantirish hamda mamlakatning investitsiyaviy jozibadorligini yaxshilashning eng muhim shartlari hisoblanadi.

Shu bilan birga, o‘rganishlar natijalari mazkur sohada bir maromda iqtisodiy o‘sishga, ishbilarmonlik va investitsiyaviy faollikni oshirishga, sog‘lom raqobat muhitini shakllantirishga, shuningdek, soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar yig‘iluvchanligining zarur darajasini ta‘minlashga to‘sqinlik qilayotgan bir qator tizimli muammolarni ko‘rsatdi.



9.9-rasm. Soliq tizimining 2018 yildan hozirga vaqtgacha bo‘lgan rivojlanish bosqichi

Mavjud tizimli muammolarni bartaraf etish, 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar

strategiyasida⁹² belgilangan soliq yukini kamaytirish va soliq solish tizimini soddalashtirish, soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish vazifalarini amalga oshirish maqsadida, shuningdek, keng jamoatchilik muhokamasi natijalari hamda Xalqaro valyuta jamg'armasi, Jahon banki va xalqaro ekspertlarning tavsiyalaridan kelib chiqib, quyidagilar O'zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasining asosiy yo'nalishlari etib belgilandi⁹³:

iqtisodiyotga soliq yukining darajasini kamaytirish, shuningdek, soliq solishning soddalashtirilgan va umumbelgilangan tizimi bo'yicha soliqlarni to'laydigan xo'jalik yurituvchi sub'ektlar o'rtasidagi soliq yuki darajasidagi nomutanosibliklarni bartaraf etish;

soliqlarni unifikatsiya qilish orqali ularning sonini optimallashtirish, shuningdek, o'xshash soliq solish bazasiga ega bo'lgan soliqlarni birlashtirish, soliq hisobotlarini qisqartirish va soddalashtirish, operatsion xarajatlarni minimallashtirish;

makroiqtisodiy vaziyatning barqarorligini, O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti va uning daromadlarini shakllantirishning mustahkamligini ta'minlash;

soliq qonunchiligini soddalashtirish, soliq munosabatlari sohasida normativ-huquqiy hujjatlardagi qarama-qarshiliklar va ziddiyatlarni bartaraf etish, insofli soliq to'lovchilarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoyasini kuchaytirish;

soliq solish masalalarini tartibga soladigan havolaki normalar va qonun osti hujjatlarini maksimal darajada cheklagan holda, soliq qonunchiligining barqarorligini hamda O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi normalarining to'g'ridan-to'g'ri amal qilishini ta'minlash, shu jumladan kodeksda soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar stavkalarining miqdorlarini belgilash;

xorijiy investorlar va investitsiyalar uchun qulay rejimni saqlab qolish, ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash va ishonchli huquqiy himoyalash;

⁹² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-sonli Farmoni.

⁹³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 29 iyundagi "O'zbekiston respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi to'g'risida"gi PF-5468-sonli Farmoni.

soliq nazoratining shakl va mexanizmlarini, shu jumladan soliq solish obyektlari hamda soliq to'lovchilarni yanada to'liq qamrab olish va hisobini ta'minlaydigan zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish hisobiga takomillashtirish, transfer narxlarni shakllantirish bilan bog'liq operatsiyalarga soliq solish tartibini joriy etish.

O'zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi doirasida 2019 yil 1 yanvardan boshlab:

a) birinchidan, mehnatga haq to'lash fondiga soliq yuki quyidagilar orqali kamaytirilishi;

b) ikkinchidan, oborot (tushum)dan soliqlarni optimallashtirgan holda umumbelgilangan va soddalashtirilgan soliqlar to'lovchilarni soliqqa tortish, shuningdek, soliq solishning soddalashtirilgan tartibiga o'tish mezonlarini takomillashtirilishi;

v) uchinchidan, soliq solishning soddalashtirilgan tartibi bo'yicha soliq to'lovchilarga soliq siyosatini takomillashtirishning salbiy ta'sirini kamaytirish choralari oshirilishi;

g) to'rtinchidan, qo'shilgan qiymat solig'i va aksiz solig'ini hisoblash va to'lash tartibi takomillashtirilishi;

Respublikamiz soliq tizimini isloh qilish valyuta konvertatsiyasining ochilishidan keyingi asosiy qadamligini, mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi uchun mustahkam poydevor bo'lishini yana bir bor ta'kidlagan holda soliq tizimini isloh qilishning hozirgi davrida quyidagilarni ham hisobga olish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Mamlakatimizda yashirin iqtisodiyot darajasini pasaytirish, tadbirkorlik faoliyatini yuritish uchun, shu jumladan tartibga solish va ma'muriy yukni kamaytirish hisobiga teng raqobat sharoitlarini yaratish, soliq qonunchiligi talablariga rioya qilish tartib-taomillarini avtomatlashtirish va uning tartibini soddalashtirish maqsadida⁹⁴:

⁹⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 30 oktyabrdagi "Yashirin iqtisodiyotni qisqartirish va soliq organlari faoliyati samaradorligini oshirish bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-6098-sonli Farmoni.

2021 yil 1 yanvardan:

a) 2022 yil 1 yanvargacha bo'lgan muddatga umumiy ovqatlanish sohasidagi kichik tadbirkorlik sub'ektlarining bank kartalari va kontaktsiz to'lovlardan foydalangan holda jismoniy shaxslardan olingan daromadlari umum belgilangan soliqlarni to'lashga majburiy tartibda o'tish maqsadida umumiy daromadga kiritilmasligi tartibi joriy etilishi;

b) rieltorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi shaxslar uchun aylanmadan olinadigan soliq stavkasini pasaytirilishi;

v) qurilish korxonalariga hisobot davri uchun mehnatga haq to'lash fondi jami miqdorining 10 foizidan oshmagan hajmda (ijtimoiy soliq summasini hisobga olmagan) ish haqini naqd pulda to'lash huquqi bilan shartnoma tuzmasdan muddatli ravishda ishchilar yollashga ruxsat beriladi. Bunda:

qurilish tashkilotlari belgilangan tartibda jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i va ijtimoiy soliqning to'lanishini ta'minlaydi, shuningdek, har oyda shartnoma tuzmasdan yollangan ishchilarga to'langan naqd pul miqdorini ko'rsatgan holda ularning reestrini davlat soliq xizmati organlariga taqdim qilib boradi;

davlat soliq xizmati organlari qurilish tashkilotlari tomonidan taqdim etilgan reestrlar asosida soliq to'lovchilarni avtomatik ravishda identifikatsiya qiladi va to'langan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i va ijtimoiy soliq hisobga olinishini ta'minlash;

xo'jalik yurituvchi sub'ektlarga korporativ bank kartalaridan foydalangan holda tovarlarni (xizmatlarni) shartnoma tuzmasdan sotib olishga ruxsat beriladi, biroq bunda elektron schot-fakturalar yoki onlayn-kassa mashinalarining cheklari majburiy ravishda olinishi;

davlat soliq xizmati organlari qonun hujjatlarida belgilangan tartibda soliq auditi tayinlanganligi to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Tadbirkorlik sub'ektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakilni xabardor qilishi;

sayyor soliq tekshiruvlari davlat soliq xizmati organlari tomonidan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Tadbirkorlik sub'ektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakilni xabardor qilgan holda amalga oshirilishi belgilandi.

O'zbekiston Respublikasining 2019 yil 30 dekabrda "O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksiga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi O'RQ-599-son Qonuni bilan 2020 yil 1 yanvardan e'tiboran soliqlar va yig'implarni belgilash, joriy etish va bekor qilishga, hisoblab chiqarish hamda to'lashga doir munosabatlarni, shuningdek soliq majburiyatlarini bajarish bilan bog'liq munosabatlarni tartibga soladigan O'zbekiston Respublikasining Yangi tahrirdagi Soliq kodeksi qabul qilindi.

9.2. Soliqlar tizimi tasnifi

Dunyo bo'ylab soliq tizimlari har xil tuzilish va turlarga ega, shuning uchun ularni turli mezonlarga ko'ra tasniflash mumkin. Shunday qilib, masalan, soliq tizimlarini mamlakatning butun iqtisodiy faoliyatiga yuklaydigan yukiga qarab tasniflash mumkin.

Fiskal -liberal xarakterdagi soliq tizimlari, bunday tizimlar ijtimoiy badallar siyosatini hisobga olgan holda soliq va yig'implarni to'lashni o'z ichiga oladi. Ushbu soliq tizimi AQSh, Yaponiya, Portugaliya, Avstraliya, shuningdek Janubiy Amerikaning aksariyat davlatlari uchun odatiy hisoblanadi. Shuni ta'kidlash kerakki, ijtimoiy reja bo'yicha to'lovlar YaIMning 30% darajasiga yetadi.

Fiskal-mo'tadil xarakterdagi soliq tizimlari. Bunday tizimlar shuni anglatadiki, soliq to'lovchilar uchun umumiy soliq yuki mamlakat yalpi ichki mahsulotining 40 foizidan oshmasligi kerak. Bunday davlatlarga: Rossiya, Kanada, Gretsiya, Shveysariya, Ispaniya, Germaniya, Buyuk Britaniya va boshqalar kiradi. Ma'lumot almashish saytidan olingan.

Fiskal jihatdan qat'iy bo'lgan soliq tizimlari. Bunday tizimlar yalpi ichki mahsulotni mamlakat ichida va chet yelda aniq qayta taqsimlashni nazarda tutadi, lekin shuni ta'kidlash kerakki, soliq yuki ham 40%dan oshmasligi kerak. Shunga

o'xshash soliq tizimiga ega bo'lgan mamlakatlarga quyidagilar kiradi: Fransiya, Belgiya, Daniya, Gollandiya, Shvesiya va boshqalar⁹⁵.

Soliq tizimida ko'pincha asosiy to'g'ridan-to'g'ri soliqlar mavjud, ammo bilvosita soliqlar ham mavjud, agar bilvosita soliqlarning ulushini hisobga olsak, unda soliq tizimlarini quyidagicha tasniflash mumkin:

Daromad solig'i ustun bo'lgan soliq tizimi. Bunday tizim bilvosita soliqlarning umumiy ulushi barcha soliq tushumlarining 35 foizidan kam bo'lgan soliq to'lovchilarning daromadlari va aktivlariga ye'tibor qaratishni nazarda tutadi. Bu soliq tizimi quyidagi mamlakatlarda amal qiladi: Avstraliya, Buyuk Britaniya, AQSh, Kanada va boshqalar;

Bilvosita soliqlar mo'tadil mavqega yega bo'lgan soliq tizimi, ya'ni soliq yuki teng ravishda taqsimlanadi va barcha yegri soliqlar to'plami mamlakatning barcha soliq tushumlarining 50 foizidan oshmaydi. Shunga o'xshash soliq tizimiga yega bo'lgan mamlakatlarga quyidagilar kiradi: Italiya, Fransiya, Germaniya va boshqalar;

Bilvosita soliqlar ustunlik qiladigan va mamlakatdagi barcha soliq tushumlarining 50% dan ortig'ini tashkil yetadigan soliq tizimi. Bunday soliq tizimiga yega bo'lgan mamlakatlarga quyidagilar kiradi: Hindiston, Pokiston, Braziliya, Rossiya va boshqalar.

Shuningdek, soliq tizimini soliq tizimida mavjud bo'lgan vakolat darajasiga qarab ajratish mumkin va ularni hokimiyat markazlashuviga ko'ra bo'lish mumkin:

Vakolatlar ichida markazlashgan soliq tizimi. Bunday tizimdagi barcha boshqaruv markazi konsolidatsiyalangan barcha soliq tushumlarining 65% dan ortig'ini tashkil yetuvchi federal hokimiyat organlari bilan birlashtirilgan. Bu ordenli davlatlarga quyidagilar kiradi: Rossiya, Avstriya, Fransiya va boshqalar;

Soliq idoralari o'rtasidagi vakolatlar o'rtacha darajada markazlashtirilgan soliq tizimi, bu barcha hokimiyatlarning ma'lum darajadagi vakolatlarga yega bo'lishini anglatadi. Bunday vakolatlar, ayniqsa federal darajada, konsolidatsiyalangan xarakterdagi barcha soliq tushumlarining 65% gacha

⁹⁵ spravochnick.ru/nalogi/nalogovaya_sistema_ponyatie_i_struktura/klassifikaciya_i_metody_nalogovyh_sistem/.

ta'minlashi kerak. Bunday soliq tizimiga yega bo'lgan davlatlarga quyidagilar kiradi: Hindiston, Avstraliya, Germaniya va boshqalar;

Vakolatlar markazlashtirilmagan soliq tizimi, ya'ni hokimiyatning barcha quyi bo'g'inlari yuqori vakolatlarga qaraganda ancha ko'p vakolatlarga yega. Bunday vakolatlar, ayniqsa federal darajada, konsolidatsiyalangan xarakterdagi barcha soliq tushumlarining 55% gacha ta'minlashi kerak. Bunday soliq tizimiga yega bo'lgan davlatlarga quyidagilar kiradi: Kanada, Daniya va AQSh.

Boshqa mezonlarga muvofiq tasnif ham mavjud. Shuni ta'kidlash kerakki, soliq tizimi har qanday mamlakatning barcha iqtisodiyotlari uchun yelemnt bo'lib, uning asoslaridan biri hisoblanadi, shuning uchun tizimni samarali va mamlakatni rivojlanishiga yordam beradigan tarzda qurish kerak.

Agar biz usullar va soliq tizimlari haqida gapiradigan bo'lsak, unda ushbu tizimlarni qurish usullari bizni hayratda qoldirishi mumkin, chunki ular umuman boshqacha. Masalan, soliq tizimini qurish usullari uchun quyidagi asosiy variantlardan foydalanishingiz mumkin: yaxlit yondashuv usuli, analitik yoki statistik yondashuv, qiyosiy tahlil qilish va baholash usuli, baholash uchun tizimli yondashuv yoki integral usul va boshqalar.

Soliq tizimini barpo yetishning barcha usullari, u yoki bu tarzda, bir nechta asosiy savollarni yechishga qisqartiriladi:

Mamlakat budjetlarini to'ldirish uchun mablag'larning umumiy miqdorini aniqlash zarurati: respublika va mahalliy;

Kelgusi va joriy yil uchun qancha xarajat kerakligini hisoblash uchun mamlakatning barcha budjetlarining tarkibini hisoblash va aniqlash zarurati;

Soliq va yig'imlar sohasidagi yangi muammolarni aniqlash va hal qilish yo'llarini topish zarurati. Ya'ni, soliq to'lovlari nuqtai nazaridan nimaga yerishish kerakligini va unga qanday yerishish kerakligini aniq tushunish;

Soliq tizimini faoliyatini takomillashtirish va kelajakda amalga oshiriladigan vazifalarni hal qilish uchun uni tashkil yetish va uning faoliyatiga doimiy ravishda aniq talablarni taqdim yetish zaruriyati;

Soliq tizimini faoliyatini takomillashtirish va kelajakda amalga oshiriladigan vazifalarni hal qilish uchun uni tashkil yetish va uning faoliyatiga doimiy ravishda aniq talablarni taqdim yetish zaruriyati;

Mamlakatdagi barcha soliqqa tortishning asosini tashkil yetadigan soliq tizimining ishlashi va tashkil yetilishi tamoyillarini aniqlash zarurati;

Muammolarni aniqlash va ularni imkon qadar tezroq yo‘q qilish uchun soliq tizimining amaldagi faoliyatini doimiy ravishda tahlil qilish zarurligi;

Soliq va yig‘imlarning turlarini takomillashtirish, ularni soliq to‘lovchilarga yanada qulayroq qilish, yangi imtiyozlar va stavkalarni ishlab chiqish maqsadida vaqti-vaqti bilan ko‘rib chiqish zarurligi;

To‘lov qarzlarini kamaytirish, vijdonan to‘lovchilarni kuzatib borish va ularni rag‘batlantirish maqsadida barcha soliq to‘lovchilarni hisobga olish va tahlil qilish zarurati;

Barcha soliq idoralarini hisobga olish, ularning ishini yaxshilash va h.k.

Soliq tizimining mohiyati soliq funksiyalarida to‘liqroq ochib berilgan.

Fiskal vazifasi – davlatga soliq tushumlaridan uning xarajatlarini qoplash uchun zarur bo‘lgan moliyaviy resurslarni taqdim yetishdir.

Tartibga soluvchi (iqtisodiy) funksiya. Bu davlatning ijtimoiy va iqtisodiy munosabatlariga soliqlarning ta‘siridan iborat.

Tartibga solish funksiyasi yordamida:

- 1) tovarlarga (ishlarga, xizmatlarga) talab va taklifni tartibga solish;
- 2) O‘zbekiston alohida sub‘ektlarining budget daromadlarini tenglashtirish.

Qayta ishlab chiqarish funksiyasi soliqlarning mavjudligidan iborat bo‘lib, buning natijasida tabiiy resurslarni qayta ishlab chiqarish amalga oshiriladi (masalan, foydali qazilmalarni qazib olish solig‘i, suv solig‘i, yer solig‘i va boshqalar).

Nazorat funksiyasi shundaki, soliqqa tortish jarayonida real soliq tushumlarini turli darajadagi budgetlar bilan oldindan rejalashtirilgan ko‘rsatkichlar bilan solishtirish mumkin bo‘ladi.

Soliq funksiyalaridan maqbul foydalanishning asosiy sharti soliqqa tortish tamoyillari hisoblanadi. Soliqqa tortish tamoyillari soliqlarning iqtisodiy hodisa sifatida maqsadga muvofiqligi va baholanishiga oid muhim, asosiy qoidalardir.

Soliq tizimini qurishning klassik tamoyillari (A. Smitning fikricha):

soliqqa tortishning universalligi va soliqni fuqarolar o'rtasida daromadlariga mutanosib ravishda taqsimlashni nazarda tutuvchi adolat tamoyili;

aniqlik prinsipi, ya'ni to'lov miqdori, usuli va vaqti soliq to'lovchiga aniq va oldindan ma'lum bo'lishi kerak;

qulaylik tamoyili soliqni to'lovchi uchun yeng qulay bo'lgan vaqtda va tartibda yig'ish kerak;

iqtisodiyot prinsipi - soliq yig'ish xarajatlarini kamaytirish.

9.3. Respublika va mahalliy budjetga tushadigan soliqlar

Mazkur o'quv qo'llanmaning 5-bobida 2020 yildan boshlab Davlat budjeti va davlat maqsadli jamg'armalari budjetlari axborotlar batafsil bayon etilgan, ilg'or xalqaro standartlarga muvofiq tayyorlangan qonun bilan tasdiqlanishi belgilanligi qayd etilgan.

Davlat budjeti quyidagi darajadagi budjetlardan iborat:

O'zbekiston Respublikasining respublika budjeti;

Qoraqalpog'iston Respublikasi budjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy budjetlari.

Qoraqalpog'iston Respublikasi budjetining, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy budjetlarining tuzilmasi:

Qoraqalpog'iston Respublikasi budjeti tuzilmasiga Qoraqalpog'iston Respublikasining respublika budjeti, Qoraqalpog'iston Respublikasi tumanlari va shaharlarining budjetlaridan;

Viloyatlar mahalliy budjetlari tuzilmasiga viloyat budjeti, tegishli viloyatlar tumanlari va shaharlarining budjetlaridan;

Toshkent shahar mahalliy budjeti tuzilmasiga shahar budjeti va shahar tarkibiga kiruvchi tumanlarning budjetlaridan iborat.

O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti 2020 yili⁹⁶ misolida keltirilgan.

Quyidagi soliq turlari tumanlar va shaharlar budjetlariga to‘liq o‘tkaziladi:

jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i;

jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i;

jismoniy shaxslarning mol-mulkini ijaraga berishdan oladigan yillik daromadlari bo‘yicha deklaratsiyaga asosan to‘lanadigan hamda yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan to‘lanadigan daromad solig‘i;

suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, bundan elektr stansiyalari tomonidan to‘lanadigan soliq mustasno;

qurilish materiallari bo‘yicha yer qa‘ridan foydalanganlik uchun soliq, bundan sement xom ashyosi va sement ishlab chiqarishda foydalaniladigan ohaktosh mustasno.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi respublika budjetiga, viloyatlar viloyat budjetlariga va Toshkent shahri shahar budjetiga quyidagilar to‘liq o‘tkaziladi:

yuridik shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i;

yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i;

elektr stansiyalari tomonidan to‘lanadigan suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq;

yakuniy iste‘molchilarga benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz realizatsiya qilishdagi aksiz solig‘i;

aylanmadan soliq;

qonunchilikda belgilangan miqdorlarda davlat bojlari (patent boji va litsenziya berganlik uchun davlat bojlaridan tashqari);

qonunchilikda belgilangan miqdorlarda O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjetiga undiriladigan jarimalar;

⁹⁶ O‘zbekiston Respublikasining 2019 yil 9 dekabrda “2020 yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-589-son Qonuni.

ayrim tovarlarning chakana savdosiga beriladigan huquq uchun undiriladigan yigʻimlar;

qonunchilikda belgilangan miqdorlarda Oʻzbekiston Respublikasi Davlat budjetiga undiriladigan boshqa yigʻimlar (bojxona yigʻimlaridan tashqari);

avtotransport vositalarini xarid qilganlik uchun ularni ichki ishlar organlarida roʻyxatdan oʻtkazish chogʻida avtotransport egalari (foydalanuvchilari) tomonidan toʻlanadigan yigʻimlar;

qonunchilikda belgilangan tartibda davlat daromadiga oʻtkaziladigan mol-mulk, mahalliy davlat hokimiyati organlarining aktivlari boʻyicha ajratmalar va dividendlar;

qonunchilikda belgilangan miqdorlarda davlat aktivlarini ijaraga berish va xususiylashtirishdan tushadigan daromadlar;

mobil aloqa xizmati va alkogol mahsulotlari, shu jumladan pivo uchun aksiz soligʻidan tushumlar tegishli ravishda 2019 yil 1 iyul holatiga koʻra Qoraqalpogʻiston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri aholisining respublika aholisidagi ulushiga muvofiq.

Qoraqalpogʻiston Respublikasi respublika budjetiga, viloyatlar viloyat budjetlariga va Toshkent shahri shahar budjetiga quyidagi ulushlarda:

jismoniy shaxslardan olinadigan daromad soligʻidan tushumlarning (jismoniy shaxslarning mol-mulkini ijaraga berishdan oladigan yillik daromadlari boʻyicha deklaratsiyaga asosan toʻlanadigan hamda yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan toʻlanadigan daromad soligʻidan tashqari) Navoiy viloyatida 70 foiz, Toshkent viloyatida 34 foiz, Toshkent shahrida 5 foiz, Qoraqalpogʻiston Respublikasi va boshqa viloyatlarda 100 foiz;

foyda soligʻidan tushumlarning (Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti qarori bilan tasdiqlanadigan roʻyxatga muvofiq yirik soliq toʻlovchilar, Oʻzbekiston Respublikasida doimiy faoliyat olib boruvchi muassasa orqali faoliyat yurituvchi Oʻzbekiston Respublikasi norezidentlari tomonidan, shuningdek norezidentlarning toʻlov manbaida ushlab qolinadigan daromadlaridan toʻlanadigan foyda soligʻidan

tashqari) Toshkent viloyatida 34 foiz, Toshkent shahrida 5 foiz, Qoraqalpog‘iston Respublikasi va boshqa viloyatlarda 100 foiz;

qo‘shilgan qiymat solig‘idan tushumlarning Qoraqalpog‘iston Respublikasida 100 foizi o‘tkaziladi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlari:

tegishli darajadagi mahalliy budjetlarga ajratiladigan soliqlar va boshqa turdagi daromadlar (shu jumladan, ushbu moddaning birinchi qismida ko‘rsatilgan daromadlar) hamda budjetlararo transfertlarni taqsimlashga;

daromadlarning prognozini oshirib bajarishdan olinadigan mablag‘larning bir qismini tumanlar va shaharlar budjetlariga hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarini amalga oshirish uchun berishga haqli.

Xalq deputatlari tumanlar va shaharlar Kengashlari:

ijaraga berilgan joyning yoki yakka tartibdagi tadbirkorlik faoliyati amalga oshirilayotgan joyning xususiyatlarini, shuningdek ko‘rsatilayotgan xizmat turining mavsumiyligini hisobga olgan holda ijara to‘lovi bo‘yicha eng kam stavkalarga hamda yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun jismoniy shaxslar daromadidan olinadigan soliqning qat‘iy belgilangan miqdorlariga nisbatan qo‘llaniladigan 0,7 dan 1,3 gacha pasayib boruvchi yoki o‘sib boruvchi koeffitsientlarni kiritishga;

tumanlar va shaharlarning ommaviy dam olish va turizmga ixtisoslashtirilgan ayrim hududlarida Toshkent shahri uchun belgilangan miqdorlargacha ijara to‘lovi bo‘yicha eng kam stavkalarga hamda jismoniy shaxslarning daromadidan olinadigan soliqning yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun qat‘iy belgilangan miqdorlariga nisbatan qo‘llaniladigan o‘sib boruvchi koeffitsientlarni kiritishga haqli.

Agar qonunchilikda mahalliy budjetlarga tushadigan daromadlarning taqsimlanishi nazarda tutilmagan bo‘lsa, bu turdagi daromadlar Qoraqalpog‘iston Respublikasi respublika budjetiga, viloyatlar viloyat budjetlariga va Toshkent shahri shahar budjetiga o‘tkaziladi.

Davlat unitar korxonalari hamda ustav kapitalida 50 foiz va undan ortiq davlat ulushi mavjud bo'lgan jamiyatlar tomonidan 2020 yilning 1 iyuliga qadar 2019 yil yakunlari bo'yicha o'z sof foydasining 50 foizidan kam bo'lmagan miqdorda O'zbekiston Respublikasi Davlat budgetiga tegishli ravishda ajratmalar va davlat ulushi bo'yicha dividendlar hisoblanadi hamda 2020 yilning 1 sentabridan kechiktirmasdan tegishli darajadagi budgetlarga o'tkaziladi.

Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, sud va prokuratura organlarining budgetdan tashqari jamg'armalariga soliqlar, majburiy yig'imlar, bojlar va jarimalar hisobidan kelib tushadigan mablag'larning bir qismi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlariga asosan O'zbekiston Respublikasining respublika budgetiga o'tkazilishi mumkin.

9.4. Maxsus soliq rejimlari

Respublikada maxsus soliq rejimlari yetarlicha qo'llanilmoqda. Shunga qaramay, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarini soliqqa tortish amaliyotini ilg'or xorij tajribasi asosida bir nechta yo'nalishlarda takomillashtirish zarurligi e'tirof etilmoqda.

Mazkur yo'nalishda professor Sh.Toshmatov soddalashtirilgan soliqqa tortish tizimini tatbiq etishda kichik biznes sub'ektlarini aniqlash mezonlarini tabaqalashtirishni taklif qilgan⁹⁷.

Germaniya, Buyuk Britaniya va Litvada kichik biznes va xususiy tadbirkorlik uchun umumbelgilangan soliqqa tortish tizimida imtiyozli stavkalar joriy etilgan (Fransiyada YaTTlar uchun maxsus soliq rejimi qo'llaniladi). Bizning fikrimizcha, Yevropa mamlakatlari (Germaniya, Fransiya, Buyuk Britaniya)da kichik korxonalar soni yirik korxonalarga nisbatan ko'proq va ular YaIMning deyarli 40-50 foizini yaratadi. Mazkur davlatlardagi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari o'z tushumlarini oshirish orqali yildan-yilga rivojlanib bormoqda.

⁹⁷ Toshmatov Sh.A. Kichik biznesni rivojlantirishda soliq siyosatini takomillashtirish. Jamiyat va boshqaruv jurnali, 2013 yil 1-son.76-b.

Mamlakatimizda soliqqa tortish nuqtai nazaridan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari uchun qulay sharoit yaratilgan.

Maxsus soliq rejimlari kichik korxonalarni asosiy soliq turlarini to'lashdan ozod qilib, ularning fiskal bosimini pasaytirmoqda, biroq ayrim mamlakatlar kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarini soliqqa tortish amaliyotida shunday tajriba mavjudki, ularni mamlakatda faoliyat yuritayotgan oilaviy korxonalar uchun tadbiriq etish va soliq amaliyotida qo'llash ijobiy natija keltiradi.

Maxsus iqtisodiy zonalarning quyidagi tasnifini nazarda tutadi⁹⁸:

erkin iqtisodiy zona (EIZ) – yangi ishlab chiqarish quvvatlarini barpo etish, yuqori texnologik ishlab chiqarishni rivojlantirish, zamonaviy raqobatbardosh, import o'rnini bosuvchi, eksportga yo'naltirilgan tayyor sanoat mahsulotini ishlab chiqarishni o'zlashtirishga faol jalb etish, shuningdek ishlab chiqarish, muhandislik-kommunikatsiya, yo'l-transport, ijtimoiy infratuzilmani va logistika xizmatlarini rivojlantirishni ta'minlash maqsadlarida tashkil etiladigan hudud;

maxsus ilmiy-texnologik zona – innovatsiya infratuzilmasini rivojlantirish maqsadlarida ilmiy tashkilotlar va ilmiy faoliyat sohasidagi boshqa tashkilotlar (texnologik parklar, texnologiyalarni tarqatish (texnologiyalar transferi) markazlari, innovatsion klasterlar, venchur fondlari, biznes-inkubatorlar va boshqalar) to'plangan hudud;

turistik-rekreatsion zona – unda zamonaviy turistik infratuzilma obyektlarini (mehmonxona komplekslari, madaniy-sog'lomlashtirish, savdo-ko'ngilochar va boshqa turistik ahamiyatdagi obyektlarni), maxsus faoliyat ko'rsatuvchi va mavsumiy rekreatsion dam olish zonalarini turistlarga xizmat ko'rsatish maqsadida zarur shart-sharoitlarni ta'minlagan holda barpo etishga doir investitsiya loyihalarini amalga oshirish uchun tashkil etiladigan hudud;

erkin savdo zonalari - konsignatsiya omborlari, maxsus bojxona va soliq rejimlari bo'lgan hududlar, shuningdek tovarlarga ishlov berish, ularni o'rab-

⁹⁸ O'zbekiston Respublikasining 2020 yil 17 fevraldagi "Maxsus iqtisodiy zonalar to'g'risida"gi O'RQ-604-son Qonuni.

joylash, saralash, saqlash uchun maydonchalar, chegara punktlarida, aeroportlarda, temir yo‘l bog‘lanmalarida yoki boshqa bojxona hududlarida tashkil etiladi;

maxsus sanoat zonasi – boshqaruv, xo‘jalik va moliyaviy faoliyatning alohida rejimi joriy etiladigan hudud, zarur ma‘muriy, ilmiy-texnologik, ishlab chiqarish, muhandislik-kommunikatsiya, yo‘l-transport va ijtimoiy infratuzilmani barpo etish uchun yer uchastkalarini ajratish orqali shakllantiriladigan xizmat ko‘rsatish va ishlab chiqarish zonalarini o‘z ichiga oladi;

Turkiyada maxsus soliq rejimini qo‘llash nuqtai nazaridan kichik va o‘rta biznes statusini faqatgina ishlab chiqarish faoliyati bilan shug‘ullanuvchi firma olish huquqiga ega. Shuning uchun ham ishlab chiqarish sektorida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik son jihatdan 98-99 foizni tashkil qiladi. Ishlab chiqarish sektorida band bo‘lganlarning 60 foizdan ko‘prog‘i, shuningdek mamlakatda yaratilayotgan qo‘shilgan qiymatning 30-40 foizi kichik biznesga to‘g‘ri keladi⁹⁹.

Soliq to‘lovchilarning ayrim toifalari uchun O‘zbekiston Respublikasi hududida quyidagi maxsus soliq rejimlari belgilanadi¹⁰⁰:

- 1) aylanmadan olinadigan soliq;
- 2) mahsulot taqsimotiga oid bitimlar ishtirokchilariga soliq solishning alohida tartibi;
- 3) maxsus iqtisodiy zonalar ishtirokchilariga va ayrim toifadagi soliq to‘lovchilarga soliq solishning alohida tartibi.

Maxsus iqtisodiy zonalar ishtirokchilariga va ayrim toifadagi soliq to‘lovchilarga soliq solishning alohida tartibi qonunchilikda yoki investitsiya bitimlarida nazarda tutilgan investitsiyalarni amalga oshirish hamda boshqa shartlarni bajarish bilan bog‘liq holda muayyan muddat uchun belgilanadi.

Maxsus soliq rejimlari ayrim soliqlarni to‘lashdan ozod etishni, pasaytirilgan soliq stavkalarini va boshqa soliq imtiyozlarini qo‘llashni nazarda tutishi mumkin.

⁹⁹ A Review of Small and Medium Sized Enterprises (SMEs) in Turkey. https://www.researchgate.net/publication/322437518_A_Review_of_Small_and_Medium_Sized_Enterprises_SMEsin_Turkey/link/5c1960e6299bf12be38a149e/download.

¹⁰⁰ O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi 18-moddasi. 2019 yil. Lex.uz. rasmiy elektron manbasi.

O‘z-o‘zini nazorat qilish uchun savollar

1. Soliq tizimi mohiyati nimadan iborat?
2. Soliq tizimi mohiyati qanday guruhlanadi?
3. Soliq tizimi rivojlanish bosqichlari izohlang.
4. Soliqlar tizimi tasnifini izohlab bering?
5. Respublika va mahalliy budjetlar qanday budjetlardan iborat?
6. Qanday soliq turlari qaysi respublika va mahalliy budjetlarga tushadi?
7. Erkin iqtisodiy zonalar va ulardaga qanday maxsus soliq rejimlari mavjud?

10-BOB. SOLIQLAR VA MAKROIQTISODIY HOLATNING UZVIY BOG‘LIQLIGI

10.1. Makro va mikrodarajada soliq yukini aniqlash tartibi va xususiyatlari

Jamiyatda soliqqa tortishning maqbul darajasini belgilash, davlat va soliq to‘lovchilar manfaatlarining o‘zaro uyg‘unligiga erishish muammosi hamisha dolzarb bo‘lib kelgan. Davlat o‘z xazinasini maksimal darajada to‘ldirishga harakat qilsa, soliq to‘lovchilar, aksincha, o‘z soliq to‘lovlarini minimal darajaga yetkazish payiga tushadi.

So‘nggi yillarda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan soliq islohotlarining ustuvor yo‘nalishlaridan biri ham soliq yukini kamaytirib borish va uni soliq to‘lovchilar o‘rtasida adolatli taqsimlashdan iborat bo‘lib kelmoqda.

Soliq yuki - soliq to‘lovchining muayyan vaqt oralig‘idagi faoliyati natijasida to‘lagan soliqlarining yig‘indisini ifodalaydi. Bunda soliq to‘lovchilarning to‘laydigan barcha soliqlar va soliqsiz majburiy to‘lovlarining yig‘indisi ifodalanadi. Soliq yukining aniq soliq to‘lovchilar zimmasiga qancha to‘g‘ri kelganligini aniqlash ancha murakkab jarayon hisoblanadi. Biroq to‘g‘ri soliqlarda soliq og‘irligi aynan soliqni budjetga hisoblab o‘tkazuvchi soliq to‘lovchilar zimmasiga tushsa, egri soliqlarda esa soliq yuki soliqni to‘lovchilar emas, balki tovar (ish, xizmat) larni iste‘mol qiluvchilar zimmasiga tushadi. Muayyan turdagi yuridik va jismoniy shaxslar bo‘yicha soliq yukining bir yilda budjetga to‘langan barcha majburiy to‘lovlar yig‘indisi bilan aniqlash mumkin.

Soliq yukining darajasi o‘z navbatida mamlakatning iqtisodiy qudratiga, inflyatsiya darajasiga, davlatning vakolatli funksiyalarni qo‘llashiga, qolaversa bozor munosabatlarining rivojlanishini va ijtimoiy harakat doirasiga bevosita bog‘liq bo‘ladi.

Soliqlarni yuridik va jismoniy shaxslardan undirish jarayonida beriladigan imtiyozlar natijasida soliq yukini soliq to‘lovchilarning biridan ikkinchisiga yuklash jarayoni kuzatiladi. Shu o‘rinda soliq bo‘yicha soliq to‘lovchilarga soliq yukini tartiblash yoki mantiqan aytganda me‘yorlashtirish muammosi yuzaga keladi.

Soliq yukini ifodalashning bir qancha ko‘rinishlari mavjud:

makrodarajadagi soliq yuki;

mezodarajadagi soliq yuki;

mikrodarajadagi soliq yuki.

Soliq yuki makrodarajada ifodalanganda butun mamlakat miqyosida ifodalanib, asosiy ko‘rsatkich sifatida muayyan vaqt oralig‘ida davlat budjetiga kelib tushgan soliqlar yig‘indisini ana shu vaqt oralig‘ida yaratilgan yalpi ichki mahsulot (YaIM) yoki milliy daromad (MD) ga nisbati olinadi. Mezodarajada ifodalanganda alohida olingan soha, tarmoq yoki sektorga to‘g‘ri keladigan soliq yuki ifodalansa, mikrodarajada esa aniq bir olingan sub’ektga to‘g‘ri keladigan soliq yuki ifodalanadi.

Soliqlarning mamlakat iqtisodiyotiga ta’siri, asosan, ularning stavkalari darajasining miqdori bilan belgilanadi. Respublika soliq tizimining shakllanishini hozirgi bosqichida soliq stavkalarining darajasi eng munozarali masalalardan hisoblanadi.

Soliqqa tortishning umumiy qonuniyatlari shuni ko‘rsatadiki, keng soliq bazasi soliqning nisbatan past stavkalariga yo‘l beradi, tor soliq bazasi esa albatta yuqori soliq stavkalarini ko‘zda tutadi.

Soliq tushumlarining darajasi nafaqat ijtimoiy-iqtisodiy omillar ta’sirida yuzaga keladi, balki soliq tizimidan samarali foydalanishga va uning o‘z vazifalarini qay darajada bajarishiga ham bog‘liq bo‘ladi. Bu funksiyalarning ta’siri haqida xo‘jalik sub’ektlaridagi soliq yuki orqali mulohaza qilish mumkin. Soliq yukining umumiy darajasini belgilash orqali iqtisodiyotni tartiblashning ham ahamiyati tobora ortib bormoqda.

Iqtisodiyotni tartiblashga soliqlar orqali ta’sir o‘tkazishda soliq yuki darajasi, uning iqtisodiy taraqqiyot jarayoniga aholining turmush darajasiga ta’siri ko‘pgina iqtisodchi olimlar tomondan o‘rganib chiqilgan.

Soliq yukining muayyan davr uchun asoslangan, adolatli va real variantlarining qo‘llanilishi ko‘pgina rivojlangan davlatlarda iqtisodiyotning samarali rivojlanib borishini ta’minlamoqda. Iqtisodiyotni soliqlar orqali

boshqarishda, xususan, tarmoqlar o'rtasidagi muvofiqlikni ta'minlashda soha va tarmoqlarda soliq yukining tegishli holatini o'rganish lozim bo'ladi.

Xo'jalik yurituvchi sub'ektlariga soliq yuki davlat soliq siyosatining natijasi bo'lib, har qanday soliq tizimining sifat tavsifini ko'rsatadi. Shu bilan bir qatorda, olinayotgan soliqlar darajasi, bir tomondan, ijtimoiy ishlab chiqarishning samaradorligi, boshqa tomondan esa, davlatning moliyaviy resurslarga bo'lgan ehtiyoji miqdori bilan belgilanadi. Shu sababli, soliq yukining og'irligini kamaytirish, birinchi navbatda, davlat xarajatlarini qisqartirish va ijtimoiy xizmatlarning to'lovlilik darajasiga bog'liq bo'ladi.

Ayrim mutaxassislar soliq tizimining samaradorligini YaIMda soliqlarning hissasi bilan bog'laydilar. Boshqa bir guruhdagi mutaxassislar esa soliq yukini to'lovlarning barchasini birlashtirish yo'li bilan hisoblashni tavsiya etadilar. Bunda budjetdan tashqari fondlarga va mahsulotni sotish hajmiga ajratmalar ham soliq yukining tarkibiga kiritiladi.

Soliq yuki darajasining shakllanishi va o'zgarishiga ko'p omillar ta'sir qiladi. Ularni shartli ravishda ikki guruhga ajratish mumkin: davlat tomonidan boshqariladigan omillar va bozor omillari.

Davlat tomonidan boshqariladigan omillar: soliq imtiyozlari, soliqlar va majburiy to'lovlar miqdori (soni), har bir soliqning bazasi va soliq stavkalari hisoblanadi. Mavjud soliqlar qatoriga yangisining kiritilishi boshqa omillar o'zgarmagan sharoitda tadbirkorlik sub'ektining soliq yuki darajasini oshiradi va aksincha, biron tur soliqning bekor qilinishi soliq yukini kamaytiradi.

Boshqa shart-sharoitlar o'zgarmagani holda alohida soliqlar bazasining kengayishi (kengaytirilishi) soliq yuki oshishiga va, aksincha, soliq bazasining qisqarishi (qisqartirilishi) soliq yuki kamayishiga olib keladi. Soliq stavkalari soliq yuki darajasiga ta'sir o'tkazishda davlat qo'lidagi eng asosiy omil hisoblanadi.

Soliq yuki darajasiga ta'sir qiluvchi bozor omillariga quyidagilar kiradi:

- raqobat shart-sharoitining o'zgarishi. Uning o'zi ham ikki yo'sinda, ya'ni tabiiy holda va davlat aralashuvi ta'sirida o'zgarishi;

- tovarga bo'lgan talabning o'zgarishi;

- tovar taklifining o'zgarishi.

Soliqqa tortishning maqbul darajasini o'rnatish soliq yukining qay yo'sinda baholanishiga bog'liq.

Jamiyat a'zolariga soliq og'irligining taqsimlanish darajasini tavsiflab aytish mumkinki, ishlab chiqarishdagi aksariyat soliqlar, xususan, egri soliqlar tovar tannarxi tarkibiga kiritiladi va pirovard natijada iste'molchi zimmasiga tushadi. Aholining soliq yukini, jon boshiga soliq salohiyatini olinadigan o'rtacha boshiga daromadga nisbatan aniqlash mumkin.

Shu asosda butun mamlakatning soliq salohiyatini hisoblashda, barcha soliq summasi va sug'urta badallarining majmui sifatida hisoblash soliq yukini hisoblashda yollangan xodimlar mehnatiga haq to'lashda har bir so'miga barcha soliqlar summasining, shuningdek, soliq yuki salmog'ini, yalpi qo'shilgan qiymat salmog'i ulushi bilan aniqlanib, uni aholining soliq yuki koeffitsientiga tuzatish (ko'paytirish) kiritish taklif etiladi.

Makrodarajada soliq yukini aniqlash umume'tirof etilgan uslubi hisobot davrida davlat budjetiga to'langan soliqlarning YaIMga nisbati: $SYu = CT / YaIM * 100$, bunda: SYu – soliq yuki; ST – hisobot davrida davlat budjetiga soliq tushumlari summasi; YaIM – hisobot davridagi yalpi ichki mahsulot.

Yuqorida ko'rib chiqilgan soliq yukini YaIMdagi soliq ulushi sifatida hisoblash metodologiyasi juda oddiy va tushunarlidir.

Shuning uchun u chet mamlakatlarda keng qo'llaniladi. Ayni paytda, bu metodologiya turli ishlab chiqarish tarmoqlariga va iqtisodiyotning turli sektorlariga mansub bo'lgan korxonalar uchun, uni taqqoslab mikrodarajadagi soliq yuki darajasini tadqiq etish imkonini bermaydi.

Soliq yukini hisoblashda soliq tushumlari o'ziga hos jihatlarini hisobga olish zarur: 1) joriy hisobot yilida hisoblangan soliqlardan shu yili to'langan qismi; 2) oldingi hisobot yili uchun hisoblangan soliqlarning to'lov muddati joriy yilda keladigan qismi; 3) o'tgan davrlar bo'yicha o'tkazilgan soliq tekshiruvlarida qo'shimcha hisoblangan summalarning joriy yilda undirib olingan qismi; 4)

avvalgi yillardan to'lanmasdan kelayotgan soliq qarzlarning shu yili undirib olingan qismi.

Hozirgi paytda O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Davlat soliq qo'mitasi yuridik shaxslarga soliq yukini hisoblashning metodologiyasini tavsiya etgan. Unda soliq yuki barcha hisoblangan soliqlar, yig'imlar va boshqa majburiy to'lovlar, budjetdan tashqari fondlarga to'lovlarning hisobga olingan summasi, mahsulot sotish hajmiga va boshqa sotuvdan tushumni o'z ichiga olgan nisbat orqali aniqlanadi.

Ish haqini to'lash bo'yicha xarajatlarning ortishi budjetdan tashqari fondlarga to'lovning ko'payishiga ta'sir yetadi. Soliq yukining ortishiga, shuningdek, soliq to'lovlarining budjetga o'z vaqtida o'tkazilmasligi natijasida to'langan jarimalar ham ta'sir etishi mumkin.

Soliq yukini aniqlashda absolyut va nisbiy soliq yukini farqlash lozim. Absolyut soliq yuki - bu jami to'langan soliqlar, yig'imlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'lib, budjet va budjetdan tashqari fondlarga o'tkaziladi, ya'ni xo'jalik yurituvchi sub'ektlar soliq majburiyatlarining absolyut miqdoridir.

Biroq, absolyut soliq yuki soliq majburiyatlarining ziddiyatini ifodalamaydi. Bu ko'rsatkich soliq to'lovchilar miqdori bilan to'lash manbalarining mosligini aks ettirmaydi. Shu sababli, nisbiy soliq yuki ko'rsatkichidan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Nisbiy soliq yuki deb uning absolyut miqdorining yangidan yaratilgan qiymatga munosabati tushuniladi, ya'ni soliqlar, yig'imlar va boshqa majburiy to'lovlar hissasi hamda yangi yaratilgan qiymatdagi boqimandalik ham bunga qo'shiladi.

Soliq yukini mikrodarajada (tadbirkorlik sub'ekti miqyosida) hisoblashning taklif etilgan uslublariga ham qisqacha to'xtalib o'tamiz. Masalan Ye.Kirova tomonidan tavsiya etilgan uslub: $SYu = (CT+IT)/YaYaQ * 100$, bunda: $YaYaQ = IH+IT+F+ST$, bunda: $YaYaQ$ – yangidan yaratilgan qiymat; IH – ish haqi to'lovlari; IT – ijtimoiy to'lovlar; F – korxonada foydasi; ST – soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar hisoblanadi.

M.Litvin tomonidan tavsiya etilgan uslub: $SYu = JS / QQ * 100$, bunda: JS – soliqlarning jami summasi; QQ – qo‘shilgan qiymat; $QQ = \text{yalpi daromad} - \text{material xarajatlar}$ yoki $QQ = \text{ish haqi} + \text{amortizatsiya} + \text{foyda} + \text{soliqlar}$ hisoblanadi.

Ye.Yegorova va Yu.Petrovlar tomonidan tavsiya etilgan uslub: $SYu = (KS+IS+MS) / QQ * 100$, bunda: KS - korxonadan undiriladigan soliqlarning umumiy summasi; IS - korxonada ishchilarining ish haqidan ushlab qolinadigan soliqlar va badallar; MS - mulkdorlar va investorlardan ushlab qolinadigan soliqlardan iborat.

Soliq yukini aniqlash bo‘yicha mahalliy yondashuvlar:

1-yondashuv: DSQ va MV: soliq yuki – jami soliqlar va yig‘imlarning mahsulot sotishdan tushumga nisbati.

2-yondashuv: Q.Yahyoev, T.Toshmurodov: soliq yuki – barcha to‘langan soliq va yig‘imlarning jami daromadga nisbati.

3-yondashuv: O.Gaybullaev, B.Isroilov, U.Radjabov: soliq yuki – barcha to‘lanadigan soliqlarning moliyaviy natijalarga nisbati.

4-yondashuv: Sh.To‘raev: soliq yuki – to‘langan barcha soliq va ajratmalar miqdorining qo‘shilgan qiymatga nisbati.

5-yondashuv: I.Niyazmetov: soliq yuki – hisoblangan barcha soliqlar, to‘lovlar va majburiy ajratmalar jamlamasining qo‘shilgan qiymatga nisbati¹⁰¹.

Tadbirkorlik sub’ektlari soliq yukini baholashning taklif qilingan uslubi:

$$SSYu = US / QQ * 100\%;$$

$$JSYu = (US + RS) / QQ * 100\%;$$

$RFB = (US + RS + PMB) / QQ * 100\%$; Bunda: US – barcha tadbirkorlik sub’ektlariga umumiy bo‘lgan soliqlar va majburiy to‘lovlar; RS – tabiiy resurslardan foydalanish, alohida xususiyatli (monopol) faoliyat turi bilan shug‘ullanish yoki ma’lum bir operatsiyani amalga oshirish huquqi uchun

¹⁰¹ Niyazmetov I. M. Soliq yukini optimallashtirish: nazariy, uslubiyat va amaliyot. Monografiya.-Toshkent. 2016. “Moliya”. 247 b.

to'lanadigan soliqlar va to'lovlar; PMB – soliqqa doir penyalar, moliyaviy jarimalar va xo'jalik sudi bojlari; QQ – qo'shilgan qiymat¹⁰².

Soliq to'lovlarini to'lash manbai bo'lib qo'shilgan qiymat hisoblanadi. Qo'shilgan qiymat - tovar va xizmatlar qiymati bo'lib, oraliq iste'molga kamaytiriladi, ya'ni keyingi ishlab chiqarish nuqtai-nazaridan iste'molga kamaytiriladi.

Qo'shilgan qiymat: $QQ = RT - MX + BD - BX$, bunda: RT – mahsulot (ish, xizmat) realizatsiyasidan tushum, QQS bilan birga; MX – material xarajatlar, QQS bilan birga; BD – realizatsiyadan tashqari boshqa daromadlar; BX – realizatsiyadan tashqari boshqa xarajatlar (soliqlardan tashqari)¹⁰³.

Soliqlarni undirishning turli usullari bir maqsadni, ya'ni qo'shilgan qiymatning bir qismini olishni nazarda tutadi. Shunday qilib, tadbirkorlik faoliyatining rivojlanishida soliq yukining ta'sirchanligi shubhasizdir. Uning ta'siri, umumiy ko'rinishda, salbiy yoki ijobiy bo'lishi mumkin. Soliq yuki og'irlashgan paytda tadbirkorlik faoliyati susayadi va hatto, umuman to'xtab qolishi ham mumkin. Aksincha, soliq yukining nisbatan yengillashuvi tadbirkorlik faoliyatining faollashuviga olib keladi. Lekin soliq yukini yengillashtirishni tadbirkorlikni rivojlantirishning yakka-yu yagona sababi sifatida talqin etish maqsadga muvofiq emas.

Bundan tashqari, soliq yukini yengillashtirish ham o'zining mantiqiy chegarasiga ega bo'lib, bu chegara ko'p jihatdan davlat budjetidan qilinishi lozim bo'lgan xarajatlarning hajmi bilan bog'liqdir. Shu munosabat bilan hozircha bizning nazarimizda O'zbekiston sharoitida tadbirkorlik faoliyatini yanada faollashtirish uchun soliq yukini yanada yengillashtirish emas, balki mavjud tarkib topgan soliq yukini iqtisodiyotning tarmoqlari o'rtasida qayta taqsimlashni dolzarb masala sifatida qaramoq lozim.

¹⁰² Niyazmetov I.M. Soliq yukining tadbirkorlik sub'ektlari moliyaviy faoliyati va byudjet daromadlariga ta'siri tahlili: i.f.n. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dis. – Toshkent, BMA, 2008. – 139 b.

¹⁰³ Niyazmetov I.M. Soliq yukini mikrodarajada baholashning ob'ektiv zarurati. //Bozor, pul va kredit. – Toshkent, 2007. - №5. – B. 51-53.

Soliq yuki ham ishlab chiqaruvchilar, ham iste'molchilar zimmasiga tushadi. Biroq yo'qotish hajmi odatda bir xil bo'lmaydi (yuqorida keltirib o'tilgan hisob-kitoblar faqat bizning shartli misolimizga xos). Soliq yukining xususiyati bozor talabi va bozor taklifining egiluvchanligiga bog'liq bo'ladi.

Ortiqcha soliq yuki jamiyatning soliqqa tortiladigan tovarni ishlab chiqarish va iste'mol qilishni ularning maqbul darajasidan qisqartirish oqibatida ko'rgan zarari hajmidir. Bu qoidadan kelib chiqadigan xulosa shuki, davlat iqtisodiyotni haddan tashqari katga soliqlar bilan qiynab qo'ymaslik uchun o'zining qayta taqsimlash siyosatini haqiqiy «zarur minimum» bilan cheklashi lozim. Nega deganda, daromadlarni qayta taqsimlash, biz aniqlaganimizdek, jamiyat uchun muayyan yo'qotishlarga sabab bo'ladi.

Soliq yukini kamaytirish iqtisodiyotimizda yuridik shaxslarning o'z ixtiyorida qoladigan daromadlarini ko'paytirish va shu orqali ishlab chiqarishni kengaytirish, kreditorlik qarzlarni kamaytirish va nihoyat, boqimandalar bo'lmasligiga olib keladi. Bu esa soliqlarning iqtisodiyotga ta'sirini yanada kuchaytiradi, tadbirkorlikning erkin rivojlanishiga sharoit yaratadi.

10.2. A.Laffer egri chizig'i va uning elastikligi

Soliqlarning xususiy nazariyalari ichida soliqlarning me'yoriy miqdori bo'yicha nazariya alohida ahamiyatga ega, chunki ushbu nazariya nafaqat nazariy balki amaliy statistik ma'lumotlar asosida ham o'z isbotini topgan. Soliqqa tortish me'yoriy miqdori xususidagi nazariya amerikalik davlat arbobi Artur Laffer tomonidan ishlab chiqilgan.

Jahon iqtisodiy taraqqiyotida o'zining muayyan o'rniga ega bo'lgan taklif iqtisodiyoti nazariyasi bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q. Taklif iqtisodiyoti nazariyasi soliqlarni kamaytirish va korporatsiyalarga soliq imtiyozlarini berishni nazarda tutadi. Ushbu nazariyaga ko'ra yuqori soliq stavkalari tadbirkorlik qiziqishini kamaytiradi va investitsiya siyosati ishlab chiqarishni yangilash va kengaytirishni cheklab qo'yadi. Bu nazariyaning asosiy g'oyalardan biri davlat xarajatlarini kamaytirishdir. Ularning shiorlaridan biri

tartiblovchi kuch - bu bozorning o'zidir, davlat boshqaruvi va yuqori soliqlar faqatgina uni normal amal qilishiga xalaqit beradi.

Soliq stavkalari shkalalarini shakllanish darajasi bo'yicha umumiy qonun bor. Keng soliqqa tortiladigan bazaga nisbatan kamroq soliqqa tortish stavkasini qo'llash, yetarli darajada kam bo'lgan soliq bazasiga nisbatan esa, buning teskarisi, alohida soliq turlarini yuqori stavkada qo'llash kerak. Ko'rinib turibdiki, yuqori va past soliq stavkalari xo'jalik faoliyatiga va tadbirkorlarni ish faolligiga har hil ta'sir ko'rsatadi.

A.Smitning fikricha, soliq yukini kamaytirilishi natijasida davlat ko'proq yutadi, ya'ni soliqdan ozod bo'lgan summadan ortiqcha daromad olish mumkin va natijada olingan daromad soliqqa tortish uchun qo'shimcha soliqqa tortish obyekti bo'ladi. Shu bilan birga soliq to'lovchilar soliq summasini o'z xohishlari va yengillik bilan budjetga o'tkazib berishadi. Bu esa davlatni ortiqcha xarajatlardan, ya'ni soliqlarni undirish, soliq bo'yicha jinoyatlarni topish va unga nisbatan jazolarni qo'llash xarajatlarini kamaytiradi. A.Smitning bu g'oyalari uning davomchilariga emas, balki keyingi iqtisodchi olimlar uchun aksioma bo'lib qoldi.

1980 yillarda AQShda iqtisodiy taklif nazariyasini rivojlanishiga salmoqli hissa qo'shgan olimlar M.Bernson, G.Stayn va A.Lafferlardir. Bu olimlar soliq stavkalarini pasaytirish orqali soliqni progressivligini kamaytirishga erishish, bu esa korxonalarini kelajakda investitsiya qilishlari uchun jamg'arma manbalarini ko'payishiga olib keladi deb hisoblashgan.

Neoklassik nazariyaning zamonaviy vakillaridan biri ingliz iqtisodchisi A.Laffer o'zining ilmiy izlanishlarida soliq stavkalarini pasaytirish va soliqqa tortishning progressivligini kamaytirish orqali Keynes nazariyasidan farqli o'laroq davlat tomonidan investitsiyalarni ko'paytirishni emas, balki korxonalariga investitsiya uchun o'z jamg'armalarini ko'paytirish imkonini berish lozim, degan fikrni ilgari suradi. Uning ilmiy tahlillari tasdiqlaydiki, soliqqa tortishning shunday optimal chegarasi mavjud bo'lib, soliq stavkasi undan yuqoriga qancha ko'tarilmasin, soliq tushumlarini ko'paytirishga erishib bo'lmaydi.

Soliq yukining ortib borishi soliq bazasining kamayishiga olib keladi. Uning natijasida esa, tadbirkorlar korxonalarini yopib qo'yadilar, yoki soliq bazasini yashirishga urinadi va shu tariqa yashirin iqtisodiyotni rivojlanishiga olib keladi. Bu holatni Laffer tomonidan ilmiy jihatdan asoslangan egri chiziq asosida ko'rib chiqish mumkin.

A.Laffer progressiv soliq stavkasi va budget daromadlarini parabola ko'rinishidagi egri chiziq bilan ifodaladi va u quyidagi fikrga keldi: soliq stavkasini pastligi xususiy sektorning investitsiya faoliyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ko'plab iqtisodchilar soliq to'lovchilarning daromadini budgetga olishning chegarasi borligi va soliq og'irligini ko'paytirib yubormaslik haqida yozib o'tganlar. Davlat milliy ishlab chiqarishni o'sishi yoki pasayishiga soliq stavkalarini o'zgartirish va budget xarajatlari orqali ta'sir ko'rsatadi.

A.Lafferning hisobiga ko'ra soliqlarni kamaytirish natijasida iqtisodiyotning o'sishi va davlat daromadlarining o'sishini isbotlab bergan. Bu tarixda Laffer egri chizig'i deb ataladi. Soliq stavkasi ma'lum darajaga yetishi soliq tushumlarini ko'paytiradi, uning yanada oshirilishi aksincha soliq tushumlarini kamaytiradi.

Laffer egri chizig'ida yotuvchi fundamental g'oya shundaki, soliq stavkasining chegarasi qancha yuqori bo'lsa, individlarni soliqni to'lashdan chetlashlari shuncha ko'p bo'ladi. Chunki odamlar soliq to'lash uchun ishlamaydilar. Sof foyda, ya'ni daromadlardan soliqlarni ayirib tashlagan summa individlarni ishlamayaptimi e'ki yo'qligini ko'rsatadi. Agar tadbirkor o'zining ishlab chiqarish faoliyatidan daromad olish kelajagiga ishonmasa, ya'ni uni daromadlari yuqori progressiv stavkali soliqlar bilan olib qo'yiladigan bo'lsa, tadbirkor bozorda normal faoliyat ko'rsatmay qo'yadi.


Daromadning ko'p qismi soliqlar orqali tortib olib qo'yiladigan bo'lsa, tadbirkorni ishlab chiqarishni kengaytirishga, yangilashga va yangi ishlab chiqarishga investitsiya qilishga qiziqishi yo'qoladi.

Soliq stavkasining o'sishi faqatgina ma'lum darajaga yetgunicha budgetga tushadigan daromadlarni o'sishiga olib keladi, keyin bu o'sish sekinlashadi va yana oshgan sari budget daromadlari uning oshishiga nisbatan tezroq kamayadi. Shunday

qilib, soliq stavkasi ma’lum darajaga yetganidan tadbirkorlik tashabbusi o’ladi, ishlab chiqarishni kengaytirishga bo’lgan rag’bat kamayadi, soliqqa tortiladigan daromadlar kamayadi, natijada soliq to’lovchilarning bir qismi iqtisodiyotni “qonuniy” sektordan “yashirin” sektoriga o’tadi. Laffer nazariyasiga ko’ra iqtisodiyotning rivojlanishi soliq yukini oshishiga to’g’ri proporsionaldir, ya’ni soliqlar oshishi bilan yashirin iqtisodiyot ko’payadi, natijada olingan daromadlarning ko’p qismi deklaratsiyada ko’rsatilmaydi.

Bunga aksincha, soliqlarni kamaytirilishi iqtisodiyotni rivojlantirishga rag’bat beradi. Bu esa davlat daromadlarini soliq stavkasi va yukini ko’payishi hisobiga emas, balki soliqqa tortiladigan bazani ko’payishi hisobiga oshadi.

Lafferning fikricha soliq stavkalarining ma’lum miqdorgacha oshib borishi budjet daromadlarining ko’payishiga xizmat qiladi, lekin soliq stavkalari me’yoridan oshib ketsa budjet daromadlari aksincha kamayib boshlaydi. Xuddi shuningdek soliq stavkalarining oshirilishi soliq solinadigan bazaning miqdoriga teskari mutanosibda bo’lib, xufyona iqtisodiyot ko’lamini kengayishiga to’g’ri mutanosibdir. Bu qonuniyat Lafferning egri chizig’i bilan ifoda etilgan:



10.1-rasm. Laffer egri chizig’i

Ushbu egri chiziq bo'yicha soliq stavkasining eng optimal darajasini, ya'ni soliq stavkasining maksimal darajada soliq tushumiga ega bo'lish mumkin bo'lgan chegarasini aniqlash masalasi har bir mamlakatning rivojlanish darajasi, iqtisodiy shart-sharoitlari va hatto milliy xususiyatlaridan kelib chiqib turli xil bo'lishi mumkin. Buni aniqlash uchun, birinchi galda, amalda bo'lgan soliqning haqiqiy yuki (r_{haq}) qaysi zonada joylashganini aniqlab olish zarur, agar haqiqiy soliq yuki optimal soliq yukidan past bo'lsa ($r_{\text{haq}}^1 < r_{\text{max}}$), soliq stavkalarini oshirish orqali soliq tushumlarini ko'paytirish mumkin bo'ladi, agar haqiqiy soliq yuki optimal soliq yukidan yuqori bo'lsa ($r_{\text{max}} < r_{\text{haq}}^2$), soliq stavkalarini pasaytirish talab etiladi. Bu haqda «egri chiziq asosida yotuvchi fundamental g'oya..., -deydi Laffer, - shuni bildiradiki, soliq stavkalari qanchalik yuqori bo'lsa, shaxslarda bosh tortish uchun shunchalik kuchli undaydigan sabablar bo'ladi. Odamlar soliq to'lash uchun ishlamaydilar»¹⁰⁴.

Shu o'rinda ta'kidlash kerakki, soliqlar - bu pul tushumlari, ya'ni soliq - bu pul, shuning uchun uni doim yashirishga moyillik mavjud bo'lgan va bo'ladi. Chunki hech kim o'zining pulini boshqaga bekordan-bekorga berib qo'yishni istamagani uchun, imkoni boricha soliqdan qochishga, uni to'lamaslikka harakat qiladi. Demak, soliqqa tortish tizimi shunday tashkil etilishi kerakki, undan noqonuniy qochish imkoniyatlari minimallashtirilsin¹⁰⁵.

10.3. Soliqlarning yalpi talab va yalpi taklifga ta'siri

Iqtisodiyot – jamiyatda cheklangan resurslardan cheksiz (cheklanmagan) ehtiyojlarni maksimal darajada samarali qondirishni o'rganadi. Resurslarning cheklanganligi – o'sib borayotgan ehtiyojlarga nisbatan resurslarning cheklanganligini anglatadi. Mahsulot ishlab chiqarishdagi tanlov muammosi – resursni ishlatishdagi tanlov zaruratini ifoda etadi. Bunda, yalpi taklif - nima ishlab chiqarish va qanday ishlab chiqarish savollarini, yalpi talab esa – qancha ishlab

¹⁰⁴ Kravchenko I.A. Nalogovie reformi 80-x gg. v SShA: sosial'no-ekonomicheskii aspekt. – M.: NIFI, 1989. – S. 9.

¹⁰⁵ Toshmatov Sh.A. Korxonalarini rivojlantirishda soliqlar roli. Monografiya. – Toshkent, Fan va texnologiya.– 2008.– 47 b.

chiqarish, qaerda ishlab chiqarish va kimlar iste'mol qiladi degan savollarni keltirib chiqaradi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, soliqqa tortishning klassik nazariyasi namoyondalaridan biri hisoblangan J.B. Sey qonuni bo'yicha (ingl.: Jean-Baptiste Say) iqtisodiyotda yalpi talab har doim yalpi taklifga teng bo'ladi.

Iqtisodiy resurslar – tovarlar ishlab chiqarish, xizmatlar ko'rsatishda ishlatiladigan barcha turdagi resurslarni (ishlab chiqarish omillar, ishlab chiqarish resurslari, ishlab chiqarish vositalari), xususan: tabiiy resurslar, mehnat resurslari, pul mablag'lari, real kapitallar va tadbirkorlik qobiliyatini o'z ichiga oladi.

Bozor - bu tovar va xizmatlarni xarid qiluvchi va sotuvchilarni uchrashtiradigan joy hisoblanadi. Xaridor o'z oldiga arzonroq sotib olishni maqsadi qiladi. Bunda, xaridorning xolati, ya'ni talab – ma'lum bir tovarlar miqdorini muayyan narxlarda va muayyan davrda sotib olish ehtiyoji va imkoniyati tushuniladi. Sotuvchi esa o'z oldiga qimmatroq sotishni maqsad qiladi. Bunda sotuvchining holati, ya'ni taklif ma'lum bir tovarlar miqdorini muayyan narxlarda va muayyan davrda sotish ehtiyoji va imkoniyati tushuniladi.

Taklif qonuni bo'yicha sotuvchi yuqoriroq narxlarda ko'proq tovarlar ishlab chiqarishga tayyorligini anglatadi. Taklifga ta'sir etuvchi asosiy omillar quyidagilar hisoblanadi:

- resurs narxlarining o'zgarishi (masalan: soliq stavkalarining oshishi hisobiga);

- soliqlar va dotatsiyalar;

- texnologiyalar o'zgarishi;

- boshqa tovarlar narxining o'zgarishi;

- ishlab chiqaruvchining kutishi;

- sotuvchilar soni.

Talab qonuni bo'yicha xaridorlar arzonroq narxlarda ko'proq tovarlar sotib olishga tayyorligini anglatadi. Talabga ta'sir etuvchi asosiy omillar quyidagilar hisoblanadi:

- xaridor didining o'zgarishi (reklama, moda o'zgarishi);

- xaridorlar sonini o'zgarishi;
- xaridor daromadlarning o'zgarishi (masalan: daromad solig'i stavklari oshishi hisobiga);
- mos (o'xshash) tovarlar (o'rnini bosuvchi, o'zaro to'ldiruvchi) narxining o'zgarishi (masalan: egri soliqlar stavkasini oshishi hisobiga);
- mavsumiylik xarakteri;
- iste'molchining kutishi.

Tovarlarning ortiqcha yoki yetishmovchiligini yo'l qo'ymaydigan bozor kuchlarining (tabiiy qonunlarining) sotish va xarid qilishdagi qarorlarni muvofiqlashtirish qobiliyati bahoning «muvozanatlashtirish funksiyasi» deb ataladi.

Elastiklik deganda - bozordagi ma'lum bir shart sharoitlarni o'zgarishi natijasida uni iste'molchi yoki sotuvchining bozorni tark etishi tushuniladi.

Talab elastikligi - ta'sir etuvchi omillarning o'zgarishiga talabning munosabatini (his etish darajasi) ifoda etadi. Narx bo'yicha elastiklik esa Talabni narxning o'zgarishiga munosabatini ifodalaydi:

- narxdagi kichkina o'zgarishlar talab hajmini yuqori darajada o'zgarishiga sabab bo'lsa, – talab elastik hisoblanadi;
- narxdagi yirik o'zgarishlar talab hajmida katta bo'lmagan o'zgarishlarga sabab bo'lsa, – talab noelastik hisoblanadi.

Ya'ni talabning noelastikligi deganda - xaridorlarning bu tovardan boshqa alternativ (muqobil) variantdagi boshqa tovarga bo'lgan talabning yo'qligini (ya'ni shuni, shu narxda (sharoitda) olishga majburligi) anglatadi.

Taklifning noelastikligi deganda esa - sotuvchilar tomonidan ushbu tovarni sotish yoki ishlab chiqarish bo'yicha boshqa alternativ (muqobil) variantining yo'qligini (ya'ni shuni, shu narxda sotishga majburligi) anglatadi.

Mutlaq noelastik talab – narxlarning o'zgarishi sotiladigan tovarlarning miqdorining hech qanday o'zgarishiga olib kelmaydi. Mutlaq elastik talab – narxning juda kam darajada o'zgarishi xaridorlarning tovarni sotib olishini noldan o'z imkoniyatlari darajasiga oshishiga olib keladi.

Demak, soliqlarning joriy qilinishi va mavjud soliq tizimiga o'zgarishlar kiritilishi bevosita yoki bilvosita yalpi talab va yalpi taklifga ta'sir etadi. Tovar narxi qancha yuqori bo'lsa, uni sotib olishga tayyor xaridorlar shuncha kam va uni ishlab chiqaruvchidar esa ko'proq taklif qiladilar. Bozor muvozanati talab va taklif kesishgan nuqtada to'xtaydi.

Talabning egiluvchanligi xaridorning taklif qilinayotgan tovarni sotish shartlariga bog'liq ravishda (eng avvalo narxiga qarab) sotib olishga tayyorligi darajasini ko'rsatadi. Xaridorlar kelishuvga qanchalik ko'p intilsalar, talab shunchalik kam egiluvchan bo'ladi. Talab egiluvchan bo'lmasa, sotuvchilar soliq yukini xaridorlar zimmasiga osongina o'tkazib yuboradilar.

Talabning narx egiluvchanligi asosiy omillariga quyidagilar kiradi:

1. O'rnini bosuvchi tovarlarning mavjud bo'lishi. Agar bozorda birbirining o'rnini bosuvchi tovarlar qancha ko'p bo'lsa, talab ham shuncha egiluvchan bo'ladi: xaridorda qimmat tovarlarning o'rniga arzonrog'ini sotib olish imkoniyati tug'iladi. Lekin bozorda bir-birining o'rnini bosadigan ne'matlar mavjud bo'lmasa, xaridor belgilab qo'yilgan narxga ko'nishga majbur bo'lib, bunday holatda talab egiluvchan bo'lmaydi.

2. Tovarga ketgan xarajatlarning xaridor budjetidagi ulushi. Ne'matlar qiymati xaridor budjetida qanchalik katta o'rin tusa, unga talabning egiluvchanligi shunchalik yuqori bo'ladi. Agar qalamning narxi 10 foiz ko'tarilsa, unga talab sezilarli darajada pasaymasligi mumkin: qalamning narxi shu qadar kichikki, xaridor bu tovar narxi oshganini payqamasligi ham mumkin. Lekin avtomobilning narxi 10 foiz oshsa (boshqa teng shartlar qatorida), talab ancha-muncha kamayib ketishi aniq: narxning mutlaq o'sishi xaridorning «hamyoni» uchun haddan ziyod katta bo'ladi.

3. Tovarining foydalilik darajasi. Kundalik ehtiyoj tovarlariga talab odatda egiluvchan bo'lmaydi; ziynat buyumlariga talab esa egiluvchandir. Masalan, non, gugurt, tuzga talab an'anaviy egiluvchan sanalmaydi. Aksincha, qimmatbaho, ko'ngilochar va shu kabi boshqa buyumlarga talab bir muncha egiluvchan bo'ladi.

4. Vaqt omili. Xarid qilish xususidagi qarorga kelish uchun muddat qancha ko'p bo'lsa, talab ham shu qadar egiluvchan tus oladi. Xaridorlar yangi narxga moslashishlari uchun vaqt kerak: ularning didi va iste'mol texnologiyasi asta-sekin o'zgarib boradi. Masalan, qimmatlashgan mol go'shti o'rniga ma'lum muddat mobaynida yemish sifatida baliq va parrandalardan foydalaniladi. Misol uchun: 1970 yillarda g'arb davlatlarida neft narxi ko'tarilishi sababli eski texnologiyalarni energiyani tejaydigan yangi texnologiyalarga almashtirish jarayoni bir necha yil davom etdi, oqibat-natijada neft mahsulotlariga bo'lgan talab keskin kamayib ketdi.

Tovarga talab qanchalik kam egiluvchan bo'lsa soliqning katta qismi iste'molchilar zimmasiga tushadi, chunki bozordagi narx keskin ko'tariladi. Bunga aksincha, xaridorlar qimmatlashgan tovarlarni olishdan osongina voz kechsalar narx deyarli ko'tarilmaydi va zararni sotuvchilarning o'zlari qoplashga majburdirlar.

Taklifning egiluvchanligi sotish sharoiti o'zgarganda taklif etilayotgan tovarlarning miqdorini sotuvchilarning ko'paytirish yoki kamaytirish imkoniyatlarini belgilab beradi. Sotuvchilar kelishuvga qanchalik ko'p intilsalar, bozor taklifi shunchalik kam egiluvchan bo'ladi.

Taklif egiluvchan bo'lmaganida soliq yukini ma'lum darajada ishlab chiqaruvchilar o'z zimmalariga olishga «rozi» bo'ladilar. Taklif egiluvchanligining asosiy omili tovar sotish sharoiti o'zgarishiga munosabat bildirish uchun ishlab chiqaruvchi ixtiyorida mavjud bo'lgan vaqt miqdoridir. Iqtisodiyotning tarmoqlari o'rtasida resurslarni (ishchi kuchi, uskunalari, xom ashyo) qayta taqsimlash ma'lum muddatni talab etadi.

Binobarin, tadbirkorlar ixtiyoridagi vaqt qancha ko'p bo'lsa, ular ishlab chiqarishning tuzilishini o'zgartirgan bozor sharoitiga moslashtirish uchun shunchalik katta imkoniyatga ega bo'ladilar hamda taklifning egiluvchanligi ham ortadi.

Egiluvchan taklifli vaziyatda bilvosita soliq joriy etilganda ishlab chiqaruvchilar mahsulot tayyorlash hajmini osongina qisqartirib, shu hisobdan

bozorda narxni ko'tarishlari ko'rsatilgan. Bunday holatda soliq yukining katta qismi xaridor zimmasiga o'tkaziladi. Aksincha, taklif egiluvchan bo'lmaganida ishlab chiqaruvchilar mahsulot tayyorlash hajmini keskin darajada qisqartira olmaydilar va bozorda narx deyarli o'zgarmaydi. Bunday holatda soliq to'lovlarining asosiy qismini tadbirkorlarning o'zlari qoplaydilar.

Shunday qilib, soliq narxning o'sishi orqali iste'molchi zimmasiga o'tishi mumkin. Soliqning iste'molchi zimmasiga o'tkazilishi bozorning o'ziga xos xususiyatlariga, bozor talabi va taklifiga bog'liqdir. Agar tovarga talab barqaror bo'lsa, ya'ni kam yegiluvchan vaziyatlarda soliqlarni iste'molchilar zimmasiga mahsulot bahosini ko'tarish yo'li bilan o'tkazishi mumkin. Agarda talab egiluvchan bo'lsa, bahoni ko'tarishga bo'lgan intilish tovar hajmining, shunga tegishli ravishda ishlab chiqarish, foyda va soliq hajmlarining kamayib ketishiga olib keladi. Talabning egiluvchanligi soliqqa tortishni tartibga solib turuvchi va cheklaydigan omildir.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, mavzuni quyidagi amaliy misol bilan mustahkamlaymiz¹⁰⁶. Tasavvur qilaylik hukumat har yilgi bayram tadbirini o'tkazish uchun budjetga mablag' to'plamoqchi bo'ldi. Hukumat vakillari o'ylab ko'rib, muzqaymoqlar (tovar) uchun 500¹⁰⁷ so'mdan soliq joriy etishni taklif etdi.

Milliy muzqaymoq ishlab chiqaruvchi tashkilotlar tomonidan bu holat ko'rib chiqildi va ular ushbu soliqni iste'molchilar to'lashi lozimligi ta'kidlashdi. Sababi muzqaymoq ishlab chiqaruvchilarni ko'pligi va ular orasida raqobatning kuchliligi hamda soliq ishlab chiqaruvchilarning zarariga tushishi keltirib o'tildi.

Shu o'rinda iste'molchilar huquqlarini himoya qilish uyushmasi tomonidan ham bu holatga e'tirozlar keltirildi. Jumladan: Ular, iste'molchilarning turmush tarzi shundoq ham yaxshi emasligi va soliqni iste'molchilar emas, ishlab chiqaruvchilar to'lashi lozimligi ko'rsatib o'tildi. Shunda, hukumat tomonidan ushbu soliqning yarmini ishlab chiqaruvchilar va yarmini iste'molchilar to'lashi lozimligi belgilab qo'yildi.

¹⁰⁶ Menk'yu H. G. Prinsipi Ekonomiks. - SPb: Piter Kom, 1999. — 784 s, il.

¹⁰⁷ Pul birligi mualliflar tomonidan o'zgartirildi.

Yuqorida keltirilgan misolni talab va taklifga hamda yangi kiritilgan soliqni bozorga ta'sirini tahlil qilsak. Agar hukumat soliqni iste'molchilardan olishni ko'zda tutsa, iste'molchilar tomonidan muzqaymoq sotib olish kamayadi. Chunki talab kamayadi, ya'ni erkin raqobat sharoitida avval 3000 so'mdan sotilayotgan muzqaymoq narxi 2800 so'mga tushadi.

Demak, iste'molchilarga nisbatan yangi soliqning kiritilishi bozorda talabning qisqarishiga olib keladi. Lekin soliqning yuki bozor qonuniyatlariga ko'ra, faqat iste'molchiga emas, balki bir qismi ishlab chiqaruvchi zimmasiga ham tushar ekan. Bizning misolimizda 500 so'm kiritilgan soliqning 200 so'mi ishlab chiqaruvchi zimmasiga, 300 so'mi esa iste'molchi zimmasiga soliq yuki bo'lib tushdi.

Agar soliq ishlab chiqaruvchilardan olingan taqdirda quyidagi holatni kuzatish mumkin. Aytaylik ishlab chiqaruvchi ishlab chiqargan har bir muzqaymoq uchun 500 so'mdan soliq to'lasin. Mahsulot ishlab chiqarish birligi ham 100 dan 90 birlikka kamayadi. Talab miqdori o'zgarmaydi. Avval 3000 so'mdan sotilgan muzqaymoq 3300 so'mdan sotila boshlaydi. Bu holatda ham 500 so'm kiritilgan soliq yuki ishlab chiqaruvchi va iste'molchi o'rtasida bozor qonuniyatlariga mos ravishda taqsimlanadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, bozor iqtisodiyoti sharoitida yangi soliqning joriy etilishi, bozordagi talab va taklifning muvozanat holatiga ta'sir etadi hamda xar gal yangi muvozanat nuqtaga erishilganda soliq yuki ishlab chiqaruvchi va iste'molchi o'rtasida taqsimlanadi. O'z navbatida tovarga soliq kiritilganda, qaysi tomonidan kuchsiz bo'lsa, ya'ni noelastik bo'lsa, soliq yuki shunga ko'proq tushadi.

10.4. Soliqlar va investitsiyalarning o'zaro bog'liqligi

Yuqorida soliq tushunchasi ta'rifiga va soliqlarning iqtisodiy mohiyatiga hamda ularning belgilari, funksiyalari va elementlariga to'xtalib o'tildi. O'z navbatida soliqlar va investitsiyalarning o'zaro bog'liqligini yoritishdan avval investitsiyalar mohiyatiga ham qisqacha to'xtalib o'tsak. «Investitsiya» atamaci lotin tilidagi "invest" so'zidan kelib chiqqan bo'lib «qo'yish», «mablag'ni cafarbar

etish» ma'nodini beradi. Keng ma'noda investitsiyalar ko'paytirib qaytarib olish maqadida kapital carflashni bildiradi. Ko'pgina hollarda «investitsiya» tushunchasi iqtisodiy va boshqa faoliyat obyektlariga kiritiladigan moddiy va nomoddiy ne'matlar hamda ularga doir huquqlar tarzida ta'riflanadi.

Hozirga qadar «investitsiya» tushunchasi mohiyatini iqtisodchi olimlar turlicha talqin qilib keladilar. Ayrim iqtisodchilar uni «tadbirkorlik faoliyatiga daromad olish maqadida cafarbar etilgan barcha turdagi boylik» deb tushuncalar, ayrimlari lotincha «invest» so'zining aynan tarjimasi «colish» degan ma'noni bildirishidan kelib chiqqan holda «kapital colish» bilan bir xil ta'riflaydilar.

XVIII asrda fiziokratlarning lideri sifatida gavdalangan - fransuz iqtisodchi olimi va vrach Fransua Kene iqtisodiyotda harajatlarni ikki toifaga ajratishni o'rgatdi. Bular yagona davrdagi va joriydir. Investitsiyalar (dastlabki bo'naklar) va ishlab chiqarish harajatlari (har yilgi bo'naklar) birinchilardan bo'lib ta'rif bergan va mohiyatini tushuntirib bergan. Uning fikricha «dastlabki bo'naklar» – yerda xo'jalikni yuritish uchun oldindan uzoq davr uchun birdagina sarf qilishdir (qishloq xo'jalik urug'lar) mahsulotlari va chorva hayvonlarini sotib olish, molxonalar, imoratlar qurish va x.k.). Har yilgi bo'naklar esa – mahsulot tannarxiga ko'shiladigan, ushbu xo'jalikni yuritish uchun talab qilinadigan doimiy harajatlardir (ish haqi, chorva ta'minoti, texnika va imoratlarni ta'minlash va h.k.)¹⁰⁸

Investitsiyalarning mazmun va mohiyatini ochib berishda D.G'ozibekovning «Investitsiyalarni moliyalashtirish macalalari»¹⁰⁹ nomli ilmiy asaridagi investitsiyalarning makrodarajali va ishlab chiqarish nazariyasi, moliya nazariyasi va umuman, iqtisodiyotdagi fikrlari alohida ahamiyatga ega. Olimning fikriga ko'ra, investitsiyalarning mohiyatini ta'riflab o'tganda ularning turli xil xatarlar va kutilayotgan daromadlar bilan bog'liqligini hamisha yodda tutmoq zarur. Investitsiya ana shu belgilari bilan boshqa mablag' colishlardan farqlanib turadi.

¹⁰⁸ Mayburd Ye.M. «Vvedenie v istoriyu ekonomicheskoy misli» 1996 yil. M. «DELO», «VITA-PRESS» nashrlari.

¹⁰⁹ G'ozibekov D.G'. Investitsiyalarni moliyalashtirish macalalari. T.: –Moliya, 2003. -18 b.

Investitsiya tushunchacining mazmuni, O'zbekiston Respublikacining «Investitsiya faoliyati to'g'ricida»gi Qonunida «Iqtisodiy va boshqa faoliyat obyektlariga kiritiladigan moddiy va nomoddiy ne'matlar hamda ularga doir huquqlar»¹¹⁰ sifatida ham ta'riflanadi.

O'zbekistonlik iqtisodchi olimlardan D.G'ozibekov va T.Qoralievlarni - investitsiya daromad (foyda) yoki ijtimoiy camara keltiradigan va tadbirkorlik, ishbilarmonlikning davlat tomonidan ta'qiqlanmagan faoliyatlariga jalb qilinadigan (carflanadigan) barcha turdagi mulkiy va intellektual boyliklar deb ta'rif berishgan.

Investitsiyalarning zarurati milliy iqtisodiyotni rivojlantirishda ishlab chiqarish quvvatlarini modernizasiya qilish, boshqaruv tajribalarini o'zlashtirish, ishcizlik muammoci hal etishga ko'maklashish, mamlakatimiz iqtisodiyotining o'ziga xoc xucuciyatlaridan kelib chiqib, ko'plab qayta ishlovchi korxonalarni qurish bilan izohlanadi.

Hozirgi kunda iqtisodiy o'sishning asosi hisoblangan tadbirkorlik, investitsion va innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlashda soliqlarning roli ortib bormoqda. Soliqlar vositasida iqtisodiyotni tartibga solishda, xususan investitsion faoliyatga rag'batlantirishda soliq imtiyozlari davlat qo'lidagi eng samarali ta'sir ko'rsatish vositalaridan biri hisoblanadi. Zero, amalga oshirilayotgan soliq islohotlari sharoitida korxonalarining investitsion faoliyatini soliqlar vositasida tartibga solishda soliq imtiyozlari markaziy va asosiy bo'g'inni egallaydi.

Soliq tizimining investitsion faoliyatni qo'llab-quvvatlashda iqtisodiyotga investitsiyalarni faol jalb qilishda namoyon bo'ladi. Soliq tizimi - iqtisodiyotni rivojlantirish uchun investitsiya faoliyatini qo'llab quvvatlashning samarali mexanizmini o'zida mujassam etishi lozim. Mamlakatda sog'lom investitsion muhitni shakllantirish murakkab makroiqtisodiy jarayonlardan biridir.

¹¹⁰ O'zbekiston Respublikacining «Investitsiya faoliyati to'g'ricida»gi Qonuni, 1998 y. 24 dekabr', //Soliq va bojxona xabarlari. 1999. -№ 4.

Soliq mexanizmidagi o'zgarishlar yalpi talab va yalpi taklifning o'zgarishiga ta'sir qilishi bilan birgalikda, investitsiyalar o'zgarishiga ham ta'sir etadi. Umuman olganda soliqlar va investitsiyalar o'rtasida uzviy aloqadorlik mavjud. Soliqlar vositasida yangidan yaratilgan qiymatning davlat va soliq to'lovchilar o'rtasida taqsimlanishi soliqlar va investitsiyalar o'rtasidagi aloqadorlikni ta'minlaydi.

Ma'lumki, nazariy nuqtai nazaridan soliqlarning tan olingan asosan to'rtta fuksiyalari mavjud: fiskal, tartibga solish, qayta taqsimlash va nazorat funksiyalaridir. Soliqlarning tartibga soluvchi funksiyaning ikki funksiyaosti funksiyalar mavjud: rag'batlantiruvchi va cheklab turuvchi. Soliqlarning rag'batlantiruvchi funksiyasi asosan va aksariyat hollarda soliq imtiyozlari va preferensiyalar vositasida amalga oshiriladi.

Soliqlar bo'yicha yengilliklar berilishi ko'p jihatdan soliq to'lovchilarni ishlab chiqarishga rag'batini kuchaytiradi, ularda ishlab chiqarishni kengaytirish, yangi texnika va texnologiyalarni joriy qilish moyilligini kuchaytiradi. O'z navbatida soliqlar vositasida investitsiyalarning rag'batlantirilishi kelajakda davlat budjetiga undiriladigan soliq bazasini kengayishiga xizmat qiladi.

Masalan, bu holatni quyidagi misollar bilan izohlashimiz mumkin. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 11 apreldagi "To'g'ridan-to'g'ri xususiy xorijiy investitsiyalarni jalb etishni rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"**gi PF-3594-sonli Farmonida** to'g'ridan-to'g'ri xususiy xorijiy investitsiyalarni jalb etadigan va tegishli ro'yxat bo'yicha iqtisodiyot tarmoqlarida mahsulotlarni ishlab chiqarishga ixtisoslashtirilgan korxonalar bir qator soliqlarni to'lashdan ozod qilingan. Bunda, Soliq imtiyozlari to'g'ridan-to'g'ri xususiy xorijiy investitsiyalar hajmi 300 ming AQSh dollaridan 3 mln. AQSh dollarigacha - 3 yil muddatga; 3 mln.dan ortiq AQSh dollaridan 10 mln. AQSh dollarigacha - 5 yil muddatga; 10 mln. AQSh dollaridan ortiq bo'lganda - 7 yil muddatga berilishi nazarda tutilgan. Mazkur imtiyozlarni qo'llanish muddati davomida imtiyozlardan olingan daromadning kamida 50 foizini korxonani yanada

rivojlantirish maqsadida qayta investitsiyalashga yoʻnaltirilishi ham belgilab qoʻyilgan.

Shuningdek, Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Bozorni isteʼmol tovarlari bilan toʻldirishni ragʻbatlantirish hamda ishlab chiqaruvchilar va savdo tashkilotlarining oʻzaro munosabatlarini takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida»gi 2002 yil 13 noyabrdagi 390-son qaroriga muvofiq yuqori sifatli, raqobatbardoshli isteʼmol tovarlari ishlab chiqarishni koʻpaytirishni va ularning assortimentini kengaytirishni ragʻbatlantirish, ichki isteʼmol bozorini ular bilan yuqori darajada toʻldirish maqsadida bir qator soliq imtiyozlar belgilanganki, ushbu imtiyozlar vositasida korxonalarining investitsiya mablagʻlari kengaytirilishiga erishishi asosiy maqsad qilib qoʻyilgan.

Ushbu qayd etilgan imtiyozlarning eng xususiyatli tomoni shundan iboratki, imtiyozlar berilishi munosabati bilan boʻshaydigan mablagʻlar korxonalar tomonidan faqat ishlab chiqarish hajmlarini koʻpaytirish, ishlab chiqarilayotgan isteʼmol tovarlarining assortimentini kengaytirish va raqobatbardoshligini oshirish bilan bogʻliq tadbirlargagina sarflanishi mumkin yoki boshqacha qilib aytganda boʻshaydigan mablagʻlar yuqoridagi tadbirlargagina investitsiya qilinishi mumkin. Aks holda, yaʼni boʻshaydigan mablagʻlardan boshqa maqsadlarda foydalanilgan hollarda ushbu mablagʻlar, amaldagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan jarimalarni hisobga olgan holda toʻliq hajmda budjetga undiriladi.

Soliqlar bilan investitsiyalar oʻrtasidagi bogʻliqlikni yoritir ekanmiz, shuni alohida qayd etishimiz lozimki, investitsiyalarning oʻsishi ham oʻz navbatida soliqqa tortiladigan bazaning oshishiga olib keladi.

Yuqoridagi misolimizga qaytadigan boʻlsak, malakatimiz soliq tizimida amal qilayotgan ushbu imtiyozlar investitsiyalarni oʻsishiga olib kelishi bilan birgalikda kelajakda soliq bazasini ham kengayishiga xizmat qiladi.

Soliqlar vositasida yangidan yaratilgan qiymat koʻproq miqdorda davlat tomonidan oʻzlashtirilsa, korxonalarining ishlab chiqarishni kengaytirish imkoniyatlarini cheklaydi. Lekin bunda shuni ham taʼkidlash oʻrinliki, buning ham ayrim ijobiy jihatlari mavjud.

Ma'lumki, davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri norentabel sohalarga investitsiya kiritishdan iborat. Ishlab chiqaruvchilarga qanchalik imtiyozlar berilgan bilan ularda norentabel sohalarni investitsiya qilishga moyillikni kuchaytirmaydi. Chunki, ularning bunday faoliyati ularga kelajakda foyda bermaydi. Ana shuning uchun davlat soliqlar hisobiga shakllantirilgan mablag'lar hisobidan ana shunday sohalarga investitsiya kiritishini ham qaysidir ma'noda soliqlar va investitsiyalar o'rtasidagi aloqadorlikning bir ko'rinishi sifatida izohlash mumkin.

Investitsiyalarni faol jalb qilishda soliqlardan foydalanishning iqtisodiy ahamiyati shundaki, soliq yuki darajasining iqtisodiy faolikka teskari mutanosibliigi soliq mexanizmi orqali rag'batlantirishda turli xil samarali manyovrlardan foydalanish imkonini beradi. Eng asosiysi soliqlarning majburiyligi, ekvivalentsizligi va soliq nazoratini samarali tashkil etilganligi soliq vositasida investitsiyalarni jalb qilinishini rag'batlantirishda bir tomondan ustunlik bersa, ikkinchi tomondan bu borada yetarli darajada natija beradi.

Nazorat savollari

1. Soliq yuki deganda nimani tushunasiz?
2. Soliq yukiga ta'sir etuvchi qanday omillarni bilasiz?
3. Soliq yukini ifodalovchi ko'rsatkichlarga qanday ko'rsatkichlar kiradi?
4. Soliq yukini qanday ko'rinishlarda ifodalash mumkin?
5. Laffer egri chizig'i mohiyatini tushuntirib bering?
6. Soliqlarning yalpi talab va yalpi taklifga ta'siri deganda nimalarni tushunasiz?
7. Soliqlar va investitsiyalarning bog'liqligini izohlab bering?

11-BOB. DAVLAT SOLIQ SIYOSATI

11.1. Soliq siyosati tushunchasining mohiyati, maqsadi va vazifalari

Demak, soliqlar davlat faoliyatining iqtisodiy asosi bo'lib, ularning davlat boshqaruvi tizimidagi roli va o'rni bir vaqtning o'zida harakat qiluvchi omillarning ikki guruhi bilan belgilanadi.

Birinchidan, soliq siyosati doimo ma'lum bir iqtisodiy siyosat doirasida bo'lib, u ongli ravishda bir daraja yoki boshqa davlatlararo munosabatlarning barcha eng muhim sohalariga, shu jumladan soliq'larga bo'ysunadi.

Ikkinchidan, soliqlar jamiyat amaliyotining nisbatan mustaqil sohasini ifodalaydi va o'ziga xos mantiqqa ega bo'lib, faqat shakllanish, faoliyat ko'rsatish va rivojlanishning obyektiv mavjud o'z tamoyillari (qoidalari, qonunlari) doirasida samarali harakat qiladi. Bu yerda asosiy muammo shundaki, soliq'lardan siyosat vositasi sifatida foydalanish soliqning tabiati va mantig'iga zid emas.

Soliq tushunchasining mohiyati yuqorida yetarlicha yoritilganligi bois siyosat atamasiga ham qisqacha to'xtalib o'tishni lozim topdik. Siyosat - qadimgi-yunonchadan olingan: πολιτική so'z bo'lib, "davlat faoliyati" ma'nosini anglatadi. Siyosat – davlat vakili bo'lgan davlat hokimiyati organlari va ularning mansabdor shaxslari, shuningdek, jamoat institutlari o'z maqsad va manfaatlarini ro'yobga chiqaradigan inson faoliyati sohalaridan biri hisoblanadi¹¹¹.

Soliq siyosati terminiga olimlarning ta'riflari turlicha bo'lib, ulardan ayrimlarini keltirib o'tamiz. Jumladan, ba'zi iqtisodchi olimlarning mazkur tushunchaga iqtisodiy siyosatning ajralmas bir bo'lagi bo'lib, davlatning muayyan davrda aniq maqsadlarga qaratilgan soliq sohasidagi faoliyatidir, deb ta'rif berishgan bo'lsa, ayrim iqtisodchi olimlar mamlakatdagi ijtimoiy-iqtisodiy holatni hisobga olgan holda iqtisodiy o'sishni ta'minlaydigan, davlat va soliq to'lovchilar iqtisodiy manfaatlarining uyg'unlashuviga yordam beradigan soliq tizimini shakllantirishga qaratilgan davlat iqtisodiy siyosatining tarkibiy qismi, deb ta'rif berishgan.

¹¹¹ Saxarov N. A. // Peru - Poluprisep [Elektronniy resurs]. - 2014. - S. 688. - (Bol'shaya rossiyskaya ensiklopediya : [v 35 t.] / gl. red. Yu. S. Osipov ; 2004-2017, t. 26). - ISBN 978-5-85270-363-7.

Yana ayrim iqtisodiy adabiyotlarda soliq siyosati tushunchasiga milliy daromadni qayta taqsimlash orqali, davlat va jamiyatning moliyaviy ehtiyojlarini qondirish, shuningdek mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishga xizmat qiladigan soliq tizimini shakllantirish bo'yicha davlatning iqtisodiy, moliyaviy va huquqiy choralari yig'indisi sifatida keltirilgan.

Ayrim mualliflar soliq siyosati deganda "soliq boshqaruvi san'ati"ni tushunishadi. Soliq boshqaruvini amalga oshirishda davlat o'z soliq siyosatini ishlab chiqadi. Bunda boshqariladigan obyekt sifatida soliq tizimi nazarda tutiladi.

Mamlakat soliq tizimining xususiyatlari, yo'nalishlari, qanday soliqlarning joriy etilishi, ular o'rtasidagi nisbatni muvofiqlashtirish kabi masalalarni soliq siyosati belgilab beradi.

Soliq siyosatini shakllantirish negizida ikkita o'zaro bog'liq yondashuv yotadi: birinchisi, soliqqa tortishdan budjetning daromad qismini shakllantirish, ya'ni davlatning fiskal vazifalarini hal qilishda foydalanish va ikkinchisi, soliq instrumentidan iqtisodiyotni tartibga solishning bevosita va bilvosita usuli sifatida foydalanish.

Hukumatning soliq siyosatining asosiy maqsadi fiskal manfaatlarga rioya qilish bilan birga, iqtisodiy va siyosiy tizimning saqlanib qolishi, uning progressiv rivojlanishi, iqtisodiy munosabatlar va nisbatlarni oqilona soliq bilan tartibga solishda erishish imkoniyatini ta'minlashdir. Aniq qonunlar va boshqa qonun hujjatlari soliq siyosatini amalga oshirish va uni amalda tatbiq etish vositasiga aylanadi.

Davlat soliq siyosatining asosiy maqsadlari quyidagilardan iborat:

- davlatni moliyaviy resurslar bilan ta'minlash;
- iqtisodiyotni tartibga solish uchun shart-sharoitlar yaratish;
- soliqqa tortishda ijtimoiy adolatni ta'minlash.

Shu bilan birga, soliq siyosatini amalga oshirishda davlat quyidagi maqsadlarni ko'zlaydi: fiskal, iqtisodiy, ijtimoiy, ekologik, nazorat va xalqaro maqsad. Soliq siyosatining fiskal maqsadida davlat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning umumdavlat, hududiy va mahalliy dasturlarini moliyalashtirish

maqsadida milliy daromadning bir qismini budjet tizimiga jalb etishni (qayta taqsimlash) ko'zlaydi.

Soliq siyosatining iqtisodiy maqsadida tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, YaIMni qayta taqsimlash, talab va taklifni boshqarish, tadbirkorlik va investitsion faoliyatni rag'batlantirish maqsadida iqtisodiyotga soliq mexanizmi orqali ta'sir ko'rsatadi.

Davlat soliq siyosatining ijtimoiy maqsadida aholining kam ta'minlangan qatlamiga soliqdan imtiyozlar berish, shuningdek soliqqa tortishning progressiv mexanizmi va aksizlar tizimi orqali aholi daromadlaridagi tengsizlikni ma'lum darajada qisqartirishni (tekislash) nazarda tutadi.

Soliq siyosatining ekologik maqsadi ekologik to'lovlar va soliqqa tortishning ekologik elementlari rolini kuchaytirish orqali atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiatdan oqilona va tabiiy resurslardan samarali foydalanishni ta'minlashni ifoda etadi.

Hukumat soliq siyosatining nazorat maqsadida albatta soliq qonunchiligiga rioya qilinishini ta'minlashni ko'zlaydi. Shuningdek, ma'lumotlar soliqlarni rejalashtirishda, shuningdek mamlakat va hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish borasidagi qarorlarni qabul qilishda foydalanadi.

Soliq siyosatining so'nggi maqsadi bu xalqaro maqsadidir. Bunda davlat ikkiyoqlama soliqqa tortishni oldini olish, soliq tizimlarining o'zaro uyg'unligini ta'minlash hamda soliqdan qochishga qarshi xalqaro hamkorlik bo'yicha bitimlarni tuzish orqali xalqaro soliq munosabatlarida ishtirok etishni ko'zlaydi.

Iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarning zamonaviy soliq siyosati asosan hokimiyatga kelgan hukumat ortidan konseptual yondashuv bilan belgilanadi.

Hozirda soliq siyosatining ikkita asosiy modelini ajratib ko'rsatish mumkin: liberal-cheklangan soliq siyosati va sotsial-bosimli soliq siyosati.

Liberal-cheklangan soliq siyosati modeli - bozor iqtisodiyotini ichki barqaror, o'z-o'zini tartibga soluvchi tizim sifatida tushunishdan kelib chiqadi, bunda davlat aralashuvi faqatgina raqobat samaradorligini pasaytiradi, shuning uchun uni

(aralashuvni) minimallashtirish kerak. Bu A. Smitning "ko'rinmas qo'llar" sof modelidir.

Liberal-cheklangan soliq siyosati modeli o'zining sodda g'oyalari bilan ajralib turadi: faoliyatda katta erkinlik, xususiy manfaatlarining ustuvorligi, bozorning maksimumi, kichik davlat sektori, iqtisodiyotga ahamiyatsiz aralashuv, muntazam tashabbus va boshqalar. Iqtisodiyotning ochiqligi va raqobat muvozanat narxlar hamda ishlab chiqarishning barqaror rivojlanishiga olib keladi. Samarali bozor iqtisodiyotiga katta soliqlar hisobidan mavjud bo'ladigan "katta" davlat kerak emas.

Sotsial-bosimli soliq siyosati modeli liberal-cheklangan soliq siyosati modelidan farqli o'laroq, davlatning o'zini o'nglash qobiliyatiga ega bo'lmagan va davlat tomonidan tartibga solinishga muhtoj bo'lgan bozor iqtisodiyotida faol ishtirokini nazarda tutadi. Bu siyosat iqtisodiy faoliyatni davlat tomonidan keng tartibga solish, shu jumladan, tarmoqlar va korxonalar darajasida keng ko'lamli ijtimoiy dasturlarni va yirik davlat xarajatlarini, katta budjet va soliqlarni talab qiladigan boshqa yirik loyihalarni qo'llab-quvvatlash bilan ajralib turadi.

Davlat iqtisodiy siyosatining bu modellari soliq siyosatining tabiatini ham belgilab beradi, uni belgilovchi iqtisodiy modelga ko'ra ham liberal va ijtimoiy yo'naltirilgan bo'linishi mumkin. Shunisi aniqki, ular o'rtasida qat'iy chegara bo'lishi mumkin emas, chunki har bir davlat deyarli yagona soliq tizimiga ega va jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy maqsadini turlicha ko'radi.

Soliq siyosatining quyidagi uch shakli mavjud: maksimal (yuqori) soliqlar siyosati, minimal soliqlar (iqtisodiy rivojlantirish) siyosati va optimal (oqilona) soliqlar siyosati.

Maksimal soliqlar siyosatida - davlat imkon qadar ko'p moliyaviy mablag' to'plash maqsadida, ko'p sonli soliqlarni joriy etadi, yuqori soliq stavkalarini o'rnatadi va soliq imtiyozlarini qisqartiradi. Tabiiyki, bunday soliq siyosati iqtisodiyot rivoji uchun to'sqinlik qiladi. Shuning uchun ham bunday siyosat odatda iqtisodiy tanazzul, urush va boshqa favqulodda g'ayrioddiy holatlardagina o'tkaziladi.

Minimal soliqlar siyosati - iqtisodiy o‘shishga qaratilgan bo‘lib, bunda nafaqat davlatning fiskal manfaatlari, balki soliq to‘lovchilarning iqtisodiy manfaatlari ham hisobga olinadi. Mazkur holatda davlat tadbirkorlarga soliq bosimini yumshatishi barobarida o‘z xarajatlarini, birinchi navbatda, ijtimoiy dasturlarga sarflarini qisqartiradi. Bunday siyosatning maqsadi qulay soliq muhitini yaratish orqali kapitalning kengayishiga ustivorlik berish, tadbirkorlik va investitsion faollikni rag‘batlantirishdan iborat.

Optimal soliqlar siyosati - fuqarolarning tom ma‘nodagi ijtimoiy himoyasi ta‘minlangan, soliqdan sezilarli miqdordagi ijtimoiy chegirmalar mavjud bo‘lgani holda, soliq to‘lovchilarni ma‘lum darajada yuqori soliqqa tortishni ko‘zda tutadi.

Soliq siyosati mexanizm sifatida o‘z elementlariga ega bo‘lib, ular: soliq siyosatining sub‘ektlari, soliq siyosatini shakllantirish tamoyillari, soliq siyosatining maqsadlari, soliq siyosatining vazifalari, soliq siyosatining usullari va soliq siyosatining instrumentlaridir.

O‘z navbatida soliq siyosati sub‘ektlari tarkibiga markaziy hokimiyat, hududlar, munitsipal birliklar va mutasaddi vazirliklar kiradi. Shuningdek, quyidagilar soliq siyosatini shakllantirish prinsiplari hisoblanadi: soliqqa tortishning uzluksizligi; soliqqa tortishning birxilligi; to‘g‘ri va egri soliqlar mutanosibligi; soliqqa tortishda imtiyozlar, chegirmalar; soliqqa tortishdagi progressivlik.

Hozirgi kunda soliq siyosatini amalga oshirishda quyidagi instrumentlardan keng foydalaniladi: soliq solish bazasi, soliq stavkasi, soliq preferensiyalar va imtiyozlari hamda soliq mexanizmining boshqa elementlaridan faol foydalanib kelinadi.

Shu bilan birga soliq siyosati quyidagi usullarda amalga oshirilishini ham keltirib o‘tishimiz lozim. Jumladan: markaziy, hududiy va mahalliy soliqlar nisbatini belgilash; soliq yukini boshqarish, bevosita va bilvosita soliqqa tortish nisbatini boshqarish; soliqqa tortish shakli yoki usulini o‘zgartirish; soliq imtiyozlari va yengilliklarini kiritish yoki bekor qilish; soliq stavkalarini boshqarish usullarida soliq siyosati amalga oshiriladi.

11.2. Soliq siyosatini amalga oshirishda fiskal, hokimiyat va boshqa organlarining roli

Soliq siyosatini amalga oshirishda bevosita davlat soliq xizmati organlaridan tashqari davlatning boshqa boshqaruv organlari, davlat hokimiyati mahalliy organlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, huquqni muhofaza qiluvchi, statistika va moliya organlari, banklar va boshqa tashkilotlarning o'zaro hamkorlikligi muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki, mazkur organlar va tashkilotlar soliq haqidagi qonunchilikka rioya etilishi ustidan davlat nazoratini amalga oshirishda va soliqlar bo'yicha huquqbuzarliklarga qarshi kurashda davlat soliq xizmati organlariga ko'maklashadi.

Shuningdek, soliq siyosati doirasida davlat soliq xizmati organlari, huquqni muhofaza qiluvchi organlar, moliya organlari, banklar soliqlar bo'yicha huquqbuzarliklarga oid mavjud materiallar va huquqbuzarliklarning oldini olish yuzasidan ko'rilgan chora-tadbirlar, o'tkazilayotgan tekshiruvlar to'g'risida o'zaro kelishuv bo'yicha aniqlanadigan tartibda bir-birini xabardor qiladi, shu jumladan idoralararo elektron hamkorlik qilishdan foydalangan holda xabardor qiladi, shuningdek o'z zimmalariga yuklatilgan vazifalarni bajarish maqsadida boshqa axborotni almashish amalga oshiriladi.

Soliq siyosatini amalga oshirishda davlat soliq boshqaruvi tizimida vazifalar taqsimotiga to'xtalib o'tamiz. Soliq siyosati doirasida qonun chiqaruvchi hokimiyat soliqlar va yig'implarni joriy qilish, soliq qonunchiligini ishlab chiqish, soliq imtiyozlarini belgilash va soliqqa doir qonun hujjatlar ijrosi monitoringini olib borishda bevosita ishtirok etadi.

Ijro etuvchi hokimiyat soliqqa tortish mexanizmini ishlab chiqish, soliqqa oid qonunlar loyihasini taqdim etish, soliq tushumlarining tahlili va prognozini amalga oshirish, soliqlarning to'lanishi nazorat qilish va undirilishini ta'minlash, soliq nazoratini amalga oshirish, soliqqa doir qonunlar ijrosini nazorat qilish hamda soliq siyosatining rivojlanish tendensiyalarini belgilash kabi vazifa va tadbirlarni amalga oshirish orqali soliq siyosatida bevosita ishtirok etadi.

Sud hokimiyati soliqlar bo'yicha da'volarni ko'rib chiqish, soliqqa oid nizolarni hal qilish, soliqqa doir qonunlar va xalqaro shartnomalarning konstitutsiyaga qay darajada mosligini tahlil qilish orqali soliq siyosati ishtirokchisi hisoblanadi.

Soliq siyosatini amalga oshirishda vakolatli organlarining o'zaro hamkorligi, shu jumladan, soliqqa oid qonun hujjatlarini ishlab chiqish, soliqlar va yig'implarni joriy qilish, soliq to'lovchilar uchun qulay soliq muhiti yaratish, soliq siyosati instrumentlari vositasida iqtisodiyotni tartibga solish, soliq stavkalari va soliq imtiyozlarini belgilash, soliq to'lovchilar, soliq obyektlari, soliq solish bilan boshliq obyektlarni hisobga olish, soliq nazoratini amalga oshirish, soliqlar va yig'implar bo'yicha reja ko'rsatkilarini belgilash va bajarilishini ta'minlash, soliqqa oid huquqbuzarliklarni oldini olish, soliqlar va yig'implar bo'yicha to'lovlarni o'z vaqtida va to'liq davlat budjetiga tushishini ta'minlash hamda soliq siyosatini amalga oshirishning boshqa masalalari bo'yicha tizimli ma'lumot va axborotlar almashivuni samarali tashkil etishda vakolatli organlarning roli muhim ahamiyat kasb etadi.

11.3. Soliq siyosati konsepsiyasi, strategiyasi va ustuvor yo'nalishlari

Moliya fanining dolzarb masalasi ijtimoiy-ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarga soliq ta'sirining chegaralari, soliq siyosati vositalaridan samarali foydalanish asoslari masalasi bo'lib qolmoqda.

Davlat ijtimoiy-iqtisodiy siyosatining amaldagi strategik ustuvor yo'nalishlariga uchta yo'nalish: taqsimot, qayta taqsimlanish va barqarorlashtirish kiradi. Ularning barchasi o'zaro chambarchas bog'liq. Davlat tomonidan tovarlarning erkin berilishi ishlab chiqarish va iste'molning umumiy tuzilishiga ta'sir qiladi va bozorlarga qarama-qarshi siklik barqarorlashtirish ta'siri daromad taqsimotini o'zgartiradi va h.k.. Ammo davlat oldida turgan maqsadlar va ushbu sohalarda amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar iqtisodiy siyosatga aloqador.

Soliq siyosati umumiy ijtimoiy-iqtisodiy siyosatning ajralmas qismi bo'lib, strategik maqsadlarga yerishishga qaratilgan aniq chora-tadbirlarni amalga

oshirishning moddiy asosini ta'minlaydi. Soliq siyosatining o'ziga xos xususiyatlari maqsadlarda (maqsadlar iqtisodiyot tomonidan belgilanadi) emas, balki ularga erishish vositalaridadir. Uning vositalari har doim ham aniq bashorat qilib bo'lmaydigan daromad bo'lib, ular xarajatlar bilan o'z vaqtida ajralib turadi. Soliq tizimi parametrlarini sozlovchi davlat soliq turlari, ularning elementlari, imtiyozlari, javobgarlik shakllari va boshqalarni belgilaydi.

Ko'rinib turibdiki, parametrlarni tanlash va umumiy soliq ta'sirining natijasi ko'pgina omillarga bog'liq: xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning reaksiyasi, muqobil yechimlarning mavjudligi, ta'sir (ijobiy va salbiy) ehtimoli va boshqalar.

Bularning barchasi quyida ko'rib chiqilgan uchta strategik sohada samarali soliq qarorlarini qabul qilishning ahamiyati va murakkabligini yana bir bor ta'kidlaydi.

1. Taqsimlash. Bu yerda gap taqdim etilgan jamiyat tovarlarining zarur miqdorini aniqlash haqida bormoqda, ya'ni davlat nima qilishi kerakligi, qanday foyda va qancha ishlab chiqarish kerakligi va shunga muvofiq budjetda qancha mablag' jamlanishi kerakligi haqidagi savol hal qilinmoqda?

2. Qayta taqsimlash. Davlatning faoliyat sohalari va zarur resurslarning tegishli miqdori aniqlangandan so'ng, zarur mablag'larni to'plash zarur bo'lib qoladi. Davlatning bu asosiy vazifasi soliqqa tortishda adolatlilik masalalarini hal qilish bilan bog'liq bo'lib, ehtimol, shuning o'zi jamiyatning eng muhim foydasidir.

Ko'rib turganimizdek, davlat siyosatining strategik maqsadlarini amalga oshirishda soliqlarning roli juda katta. Lekin ular nafaqat makroiqtisodiy muvozanatga yerishish uchun barqarorlashtirish vositasi va resurslarni shakllantirish manbai bo'libgina xizmat qiladi. Ayrim hollarda soliqlar alohida tarmoqlar va korxonalar darajasida aniq ijtimoiy va sanoat muammolarini hal qilishda faol qo'llaniladi. Soliqni tartibga solishning bu muammosi muhim ahamiyat kasb etadi.

Soliq siyosati konsepsiyasi deganda, soliq siyosatini aniq ilmiy asoslangan holda amalga oshirish g'oyalari majmuasi, soliq tizimi orqali yechiladigan vazifalarni amalga oshirish yo'nalishlari tushuniladi.

Soliq siyosati amalga oshirilishi lozim bo'lgan tadbirlar xususiyati va muddatidan kelib chiqib, soliq siyosati strategiyasi va soliq siyosati taktikasiga ajratiladi. Soliq siyosati strategiyasi - soliq siyosatining uzoq muddatga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlarini ifodalaydi. Soliq siyosati taktikasi esa - soliq siyosati strategiyasi ijrosini ta'minlovchi, qisqa muddatga mo'ljallangan chora-tadbirlarni bildiradi.

11.4. Soliq siyosatining ustuvor yo'nalishlari

Hozirgi kunda soliq siyosatini ustuvor yo'nalishlari quyidagilar hisoblanadi:

iqtisodiyotga soliq yukining darajasini kamaytirish, shuningdek, soliq solishning soddalashtirilgan va umumbelgilangan tizimi bo'yicha soliqlarni to'laydigan xo'jalik yurituvchi sub'ektlar o'rtasidagi soliq yuki darajasi mutanosibligini ta'minlash;

soliqlarni unifikatsiya qilish orqali ularning sonini optimallashtirish, shuningdek, o'xshash soliq solish bazasiga ega bo'lgan soliqlarni birlashtirish, soliq hisobotlarini qisqartirish va soddalashtirish, operatsion xarajatlarni minimallashtirish;

makroiqtisodiy vaziyatning barqarorligini, davlat budjeti va uning daromadlarini shakllantirishning mustahkamligini ta'minlash;

soliq qonunchiligini soddalashtirish, soliq munosabatlari sohasida normativ-huquqiy hujjatlardagi qarama-qarshiliklar va ziddiyatlarni bartaraf etish, insofli soliq to'lovchilarning huquqlari va qonuniy manfaatlari himoyasini kuchaytirish;

soliq solish masalalarini tartibga soladigan havolaki normalar va qonun osti hujjatlarini maksimal darajada cheklagan holda, soliq qonunchiligining barqarorligini hamda soliq sohasidagi asosiy qonun hujjatlari normalarining to'g'ridan-to'g'ri amal qilishini ta'minlash;

xorijiy investorlar va investitsiyalar uchun qulay rejimni saqlab qolish, ularni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash va ishonchli huquqiy himoyalash;

soliq nazoratining shakl va mexanizmlarini, shu jumladan soliq solish obyektlari hamda soliq to‘lovchilarni yanada to‘liq qamrab olish va hisobini ta‘minlaydigan zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish hisobiga takomillashtirish,

transfer narxlarni shakllantirish bilan bog‘liq operatsiyalarga soliq solish tartibini ilg‘or xalqaro amaliyot asosida takomillashtirish.

Nazorat savollari:

1. Soliq siyosati mohiyati va maqsadlarini gapirib bering?
2. Soliq siyosatining elementlari va usullari haqida nimalarni bilasiz?
3. Soliq siyosati shakllarini tushuntirib bering?
4. Soliq siyosati konsepsiyasi, strategiyasi va taktikasi deganda nimani tushunasiz?
5. Soliq siyosatini amalga oshirishda vakolatli organlarning rolini izohlang?
6. Soliq siyosatining ustuvor yo‘nalishlarini izohlang?

12-BOB. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA SOLIQ ISHINI TASHKIL ETISH VA BOSHQARISH ASOSLARI

12.1. Soliq organlari faoliyatining tashkiliy-huquqiy asoslari

Mustaqillik yillarida butun mamlakatimiz kabi uning soliq tizimi ham katta rivojlanish yo‘lini bosib o‘tdi. Bu borada O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti muhtaram I.A.Karimov tomonidan har tomonlama chuqur o‘ylangan, dunyoda taraqqiyotning «o‘zbek modeli» deb tan olingan strategik yo‘lining ajralmas tarkibiy qismi bo‘lgan davlat soliq siyosatining puxta ishlab chiqilgani hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘ldi. Yurtboshimizning uzoqni ko‘zlab olib borgan siyosati tufayli O‘zbekiston soliq tizimi butun davlat hokimiyati boshqaruv tarmoqlari singari bosqichma-bosqich shakllanib, rivojlanib, tarixan qisqa muddat ichida mustahkam huquqiy-me‘yoriy, moddiy-texnik bazaga, yuqori malakali kadrlar salohiyatiga ega bo‘lgan, samarali faoliyat ko‘rsatayotgan tizimga aylandi. Bu haqiqatni O‘zbekiston soliq tizimida ish olib borayotgan katta-kichik har bir xodim chuqur minnatdorlik bilan e‘tirof etadi.

Ma‘lumki, sobiq mustabid tuzumdan og‘ir ijtimoiy – iqtisodiy muammolar meros bo‘lib qolgan edi. Shu bois istiqlolning dastlabki yillarida ishlab chiqarish hajmi pasayib, inflyatsiya misli ko‘rilmagan darajada avj oldi. Shunday murakkab bir sharoitda Davlat budjetiga mablag‘lar tushishini ta‘minlash soliq tizimining asosiy vazifasiga aylandi. Shundan kelib chiqqan holda soliqlarning fiskal funksiyasiga ustuvor ahamiyat qaratildi. O‘sha davrdagi og‘ir vaziyatni tasavvur etish uchun 1991 yilning boshida respublika Davlat budjeti taqchilligi qariyb 7,5 foizni tashkil etganini eslash kifoya. Bu o‘z navbatida Davlat budjeti taqchilligini qisqartirish va uning daromad qismini mustahkamlashga qaratilgan soliq mexanizmining huquqiy asoslarini yaratish zaruriyatini yuzaga keltirdi.

Mustaqil O‘zbekistonning milliy soliq siyosatini shakllantirishda O‘zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasi Prezidenti huzuridagi Vazirlar Mahkamasining 1991 yilning 12 avgustida Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat bosh moliya-soliq boshqarmasi negizida tashkil etilgan Vazirlar Mahkamasi huzurida Bosh

davlat soliq boshqarmasining (keyingi o‘rinlarda DBSB) tashkil qilinishi¹¹² muhim rol o‘ynadi.

Bosh davlat soliq boshqarmasining yangi funksiyalari va vazifalarini hisobga olgan holda soliq idoralari va inspeksiyalarining tarkibini qayta ko‘rib chiqish, ularni malakali, yuqori malakali mutaxassislar bilan to‘ldirish, shu jumladan tajribali moliyachilar, iqtisodchilar, O‘zbekiston SSR Xalq nazorati qo‘mitasi va O‘zbekiston SSR Ichki ishlar vazirligi xodimlari jalb etish vazifasi yuklatilgan.

Respublika davlat soliq organlari tizimida ishlaydigan xodimlarning cheklangan soni 8000 mutaxassis, shu jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat soliq bosh boshqarmasi apparati xodimlarining soni 200 kishi etib belgilanib (xizmat ko‘rsatuvchi va yordamchi xodimlardan tashqari), soliq organlari tashkiliy-kadrlar tarkibini mustahkamlash ishida Davlat bosh soliq boshqarmasi Markaziy devoni tarkibida Maxsus nazorat boshqarmasi va Toshkent shahar, viloyatlar davlat soliq boshqarmalari huzurida maxsus nazorat bo‘limlarining tashkil etildi¹¹³.

Respublika valyuta jamg‘armasini barqaror shakllantirish, xorijiy valyutada undiriladigan soliqlar, yig‘imlar va bojxona to‘lovlarini hisoblab chiqarilishi va to‘lanishi ustidan nazoratni ta‘minlash maqsadida 1993 yilda DBSB, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar DSB tarkibida Valyuta tushumlarini nazorat qilish bo‘yicha Maxsus boshqarmalar tashkil qilindi.

O‘sha 1993 yilning o‘zida respublika soliq organlarida hujjat almashuvni avtomatlashtirish, yagona kompyuter tizimini joriy qilish asoslari ham yaratildi. Bugungi kunga kelib, soliq organlarida hujjat almashinish va ijro intizomi jarayonlari to‘liq avtomatlashtirilgan, ijroga qabul qilib olingan hujjat u qabul qilib olingandan boshlab, to muallifiga javob jo‘natilgunga qadar bo‘lgan barcha jarayonlar ustidan to‘liq avtomatik nazorat o‘rnatilgan.

¹¹² O‘zbekiston Sovet Socialistik Jumhuriyati (SSJ) Prezidenti huzuridagi Vazirlar Mahkamasining 1991 yil 12 avgustdagi “O‘zbekiston SSJ Davlat soliq organlari haqida”gi 217-sonli qarori.

¹¹³ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Vazirlar Mahkamasining 1992 yil 20 oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi davlat soliq organlarini yanada mustahkamlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 483-sonli qarori.

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga muvofiq va nazorat organlari faoliyatini tartibga solish, yagona davlat soliq va bojxona siyosatini o‘tkazish, O‘zbekiston Respublikasining iqtisodiy manfaatlari himoya qilinishini ta’minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat soliq bosh boshqarmasi negizida O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi tashkil etildi. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining Davlat bojxona qo‘mitasi Bosh bojxona boshqarmasiga aylantirilib, O‘zbekiston Respublikasining Davlat soliq qo‘mitasiga bo‘ysundirildi va Davlat soliq qo‘mitasi raisining o‘rinbosari — Bosh bojxona boshqarmasining boshlig‘i lavozimi ta’ sis etildi¹¹⁴.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 114-sonli qaroriga muvofiq¹¹⁵, Davlat soliq qo‘mitasi soliq va bojxona siyosatini amalga oshirish, shuningdek, davlatning iqtisodiy manfaatlari va mulk huquqlarini ta’minlash sohasidagi davlat nazorati organi hisoblandi.

Soliq organlari tuzilmasini yanada takomillashtirish va ularning soliq buzilishlarini aniqlash, bartaraf qilish va oldini olish bo‘yicha faoliyatini kuchaytirish maqsadida 1995 yilda Davlat soliq qo‘mitasining Maxsus nazorat-taftish boshqarmasi Davlat soliq qo‘mitasining Nazorat taftish ishlari bosh boshqarmasiga aylantirildi va uning tuzilmasi tasdiqlandi. 1996 yilning martida O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi tarkibida Valyuta va eksport-import operatsiyalarini nazorat qilish Bosh boshqarmasi tashkil qilindi. O‘sha yilning avgustidan boshlab xo‘jalik sub’ektlarini tekshirishni tartibga solish va ular faoliyatiga asossiz aralashishga yo‘l qo‘ymaslik maqsadida yuridik va jismoniy shaxslarning xo‘jalik faoliyatini tekshirish va taftish qilishni muvofiqlashtirish tartibi yo‘lga qo‘yildi.

Tekshirishlarni muvofiqlashtirish bo‘yicha maxsus vakolatli organ tashkil etildi va Davlat soliq qo‘mitasi mazkur tuzilmaning ishchi organi etib tayinlandi. Vazirlik va muassasalarning nazorat-taftish xizmatlari tugatildi. 1996 yilning

¹¹⁴ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1994 yil 18 maydagi “O‘zbekiston Respublikasining Davlat soliq bosh boshqarmasini O‘zbekiston Respublikasining Davlat soliq qo‘mitasiga aylantirish to‘g‘risida”gi PF-744-sonli Farmoni.

¹¹⁵ O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1994 yil 4 martdagi “O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasini tashkil etish va uning faoliyati masalalari to‘g‘risida”gi 114-sonli qarori.

dekabrda Davlat soliq qo‘mitasining barcha hududiy organlarida mavjud xodimlar kuchiga tayangan holda muddati o‘tkazib yuborilgan soliq va to‘lovlarni undirish, shu jumladan, qarzdor korxonaning mulki hisobiga undirish bo‘yicha mustaqil bo‘linmalar tashkil qilingan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1997 yil 8 iyuldagi PF-1815-son Farmoniga muvofiq Davlat bojxona qo‘mitasi tashkil etilgandan keyin, soliq va bojxona faoliyatining funksiyalari bir-biridan ajratildi. 1997 yil 29 avgustda —Davlat soliq xizmati to‘g‘risidagi 474-I-sonli O‘zbekiston Respublikasining Qonuni bilan soliq organlari faoliyatining huquqiy asoslari mustahkamlandi.

Soliq ishi mutaxassislarini ixtisosli tayyorlash tizimini takomillashtirish hamda O‘zbekiston Respublikasi davlat soliq xizmatini malakali kadrlar bilan ta‘minlash maqsadida 1998 yilning iyul oyida Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasining Soliq kollejini tashkil qilish to‘g‘risida”gi qarori¹¹⁶ qabul qilindi. Kollej o‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limi ta‘lim muassasasi hisoblanib, quyidagilar asosiy vazifalari etib belgilangan:

O‘zbekiston Respublikasi davlat soliq xizmatining malakali o‘rta bo‘g‘in kadrlariga bo‘lgan ehtiyojini qondirish;

ta‘lim oluvchilarning kasb-hunar malaka va ko‘nikmalarini chuqur rivojlantirish, ular tomonidan iqtisodiy va huquqiy bilimlar, soliq haqidagi qonunlar, soliq xizmati organlarining nazorat funksiyalarini amalga oshirish uslubiyati chuqur o‘zlashtirilishini ta‘minlash;

davlat ta‘lim standartlari doirasida ta‘lim oluvchilarning intellektual rivojlanishini, amaliy faoliyat ko‘nikmalari va ijodiy qobiliyatlari shakllanishini ta‘minlovchi umumta‘lim va kasb-hunar dasturlarini amalga oshirish;

O‘zbekiston soliq xizmatining an‘analarini mustahkamlash va rivojlantirish, kadrlar tayyorlash va tarbiyalashda xorijiy ijobiy tajribani o‘rganish va o‘zlashtirish;

¹¹⁶O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 14 iyuldagi “O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasining Soliq kollejini tashkil etish to‘g‘risida”gi 298-sonli qarori.

abiturientlarning sifatli kontingentini shakllantirish maqsadida umumiy o'rtta ta'lim muassasalari bilan doimiy aloqani ta'minlash;

respublika soliq xizmati xodimlarini o'qitish va malakasini oshirish tizimini rivojlantirish, davlat soliq xizmati organlari uchun kadrlar tayyorlash sohasida xalqaro hamkorlikni amalga oshirish.

2000 yilning martida Davlat soliq qo'mitasi markaziy apparatining yangi tuzilmasi tasdiqlandi¹¹⁷. Soliq qo'mitasi tuzilmasida Soliq sohasida huquqbuzilishlarga qarshi tezkor kurashish bosh boshqarmasi hamda uning Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridagi hududiy bo'linmalari tashkil etildi. Davlat soliq qo'mitasi markaziy apparatining yangi tuzilmasida Nazorat-taftish bosh boshqarmasi (Nazorat-taftish ishlari bosh boshqarmasi o'rniga) tashkil qilingan, unga belgilangan tartibda nazorat ishlarini amalga oshirish va hujjatlarni tekshirish hamda xo'jalik yurituvchi sub'ekt larning moliya-xo'jalik faoliyatini taftish qilish funksiyasi yuklatildi. Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri, shuningdek, tumanlar, shaharlar va undan ham kichik ma'muriy-hududiy birliklarning davlat soliq inspeksiyalarining namunaviy tuzilmalari tasdiqlandi. 2000 yilning mayida Davlat soliq qo'mitasi, Soliq sohasida huquqbuzilishlarga qarshi tezkor kurashish bosh boshqarmasi, Davlat soliq qo'mitasi Rejim va kadrlar bosh boshqarmasi, Nazorat-taftish bosh boshqarmasi, O'zbekiston Respublikasi davlat soliq organlarida xizmatni o'tash to'g'risida Nizomlar tasdiqlandi.

To'plangan milliy va xorijiy tajriba asosida soliq organlari institutsional tarkibini yanada takomillashtirish va uning samaradorligini oshirish maqsadida 2010 yilda soliq organlari tizimini modernizatsiya qilish boshlandi. Mamlakat rivojlanishining joriy bosqichidagi yangi vazifalardan kelib chiqqan holda, Davlat soliq qo'mitasining asosiy maqsad va vazifalari ham qayta ko'rib chiqildi, DSQ organlarining yangilangan namunaviy tuzilmalari tasdiqlandi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi markaziy apparati, uning

¹¹⁷ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000 yil 13 martdagi "Davlat soliq xizmati organlari faoliyatini tashkil etishni takomillashtirish to'g'risida"gi 87-sonli qarori.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridagi hududiy bo‘linmalari tuzilmasida quyidagilar tashkil etildi:

- Bozorlar va savdo komplekslari faoliyatini nazorat qilish bosh boshqarmasi;
- Soliq to‘lovchilarning soliq hisobotlarini kameral nazorat qilish bo‘yicha tuzilmalar;
- Soliq bo‘yicha qarzlarni majburiy undirish bosh boshqarmasi.

Bozorlar va savdo komplekslari faoliyatini nazorat qilish bosh boshqarmasi va uning hududiy bo‘linmalari bozorlar, savdo komplekslari hududlarida va ularga tutash avtomobil to‘xtash joylarida moliyaviy-iqtisodiy va soliq sohasidagi jinoyatlar va boshqa huquqbuzilishlarini aniqlash, ularning oldini olish va barham berish uchun bozorlar, savdo komplekslari, ular tutash avtomobil to‘xtash joylari, shuningdek, ular hududida faoliyatini amalga oshirayotgan tadbirkorlik sub’ektlari faoliyatini nazorat qilishni ta’minlaydi va bu obyektlarda moliyaviy-iqtisodiy va soliq huquqbuzarliklarini aniqlash, oldini olish va bartaraf qilish uchun javob beradi. Soliq to‘lovchilarning soliq hisobotlarini kameral nazorat qilish bo‘yicha tuzilmalar soliq to‘lovchi tomonidan belgilangan tartibda taqdim qilingan moliya va soliq hisobotlari, shuningdek, soliq to‘lovchi faoliyati haqida DSQ organida mavjud bo‘lgan boshqa hujjatlar asosida kameral nazoratni amalga oshiradi. Soliq bo‘yicha qarzlarni majburiy undirish Bosh boshqarmasi soliq majburiyatlari bo‘yicha qarzlarni ma’ murlashtirish va soliq qarzlarini undirish ishlarini takomillashtirish uchun javob beradi. Shunday qilib, mustaqillik yillarida O‘zbekistonda mamlakatdagi iqtisodiy-ijtimoiy islohotlarni samarali amalga oshirishga ko‘maklashuvchi to‘laqonli soliq tizimini yaratishga erishildi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Davlat soliq xizmati organlari faoliyatini tashkil etishni takomillashtirish to‘g‘risida” 2000 yil 13 martdagi 87-son qarorining bajarish yuzasidan hamda Davlat soliq xizmatini malakali kadrlar bilan ta’minlash maqsadida Buxoro va Farg‘ona shaharlarida O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasining Soliq kollejlari tashkil etildi.

Mustaqillik yillarida mamlakatda bozor tamoyillariga javob beradigan soliq tizimi shakllandi, O‘zbekiston Respublikasining yangi Soliq kodeksi qabul qilindi

(1998 yil 1 yanvardan kuchga kirgan), soliqlarni boshqarishning zamonaviy metodlari va mexanizmlari joriy etildi, soliq organlarining yaxlit tizimi yaratilganligi hamda to‘plangan va chet el tajribasining tanqidiy tahlili respublika soliq organlari tizimini yanada modernizatsiya qilishning zarurligidan dalolat berar edi¹¹⁸.

Soliq organlarining funksiyalari, vakolatlari va tuzilmasi zamonaviy talablarga javob bermaydi, ular fiskal-moliya organlari tuzilmasida, eng avvalo, soliq qonunchiligiga rioya etilishini nazorat qilish, Davlat budjetining daromad qismini barqaror shakllantirishning belgilangan topshiriqlarini bajarish masalalarida hali yetakchi o‘rinni egallanmaganligi, ilg‘or axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo‘llagan holda ishlarni tashkil etishning zamonaviy shakl va metodlaridan zarur darajada foydalanilmay, soliq qonunchiligi buzilishlarining oldini olish, ularni aniqlash va bartaraf etish bo‘yicha axborot-tahliliy ishlar sust olib borilganligi ta’kidlangan.

Dehqon bozorlari va savdo komplekslari faoliyatini nazorat qilish ishlari aniq-puxta muvofiqlashtirilmay, bozorlar hududlaridagi xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning moliya-xo‘jalik faoliyatiga turli tekshiruvchi va nazorat qiluvchi organlar tomonidan noqonuniy aralashish holatlari mavjud bo‘lib, bozorlarda soliq qonunchiligini buzish, turli yig‘imlarni undirish, aksiz solig‘iga tortiladigan tovarlar va kontrafakt mahsulotlarning noqonuniy muomalada bo‘lishi, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini oshirilgan narxlarda qayta sotish, olingan naqd tushumni to‘liq inkassatsiya qilmaslik hollari davom etgan.

Mamlakatimizda to‘plangan va chet el tajribasini hisobga olgan holda soliq organlari tizimini yanada modernizatsiya qilish, nazorat qiluvchi organlar funksiyalaridagi bir-birini takrorlashlarni bartaraf etish, respublika fiskal-moliya organlari tuzilmasida soliq organlarining, eng avvalo, qabul qilingan soliq qonunchiligini va Davlat budjetining daromad qismini shakllantirish bo‘yicha belgilangan topshiriqlarni bajarish masalalaridagi vakolatlarini kengaytirish va

¹¹⁸ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 8 yanvardagi “Respublika soliq organlari tizimini yanada modernizatsiya qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-1257-sonli qarori.

rolini oshirish maqsadida bozorlar, savdo komplekslari, ularga tutash avtomobil to'xtash joylari, shuningdek, ular hududida faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik sub'ektlari faoliyatini tekshirish huquqi faqat davlat soliq xizmati organlariga berildi.

2001 yilda kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni tartibga solish va takomillashtirish, Kadrlar tayyorlash milliy dasturiga muvofiq respublika soliq organlari uchun mutaxassislarni maqsadli tayyorlashning uzluksiz tizimini yaratish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasining o'quv markazi negizida soliq kadrlarini tayyorlash va qayta tayyorlash bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasining Soliq akademiyasi (keyingi o'rinlarda Akademiya deb ataladi) tashkil etildi.

Akademiyaga soliq kollejarini tamomlaganlar 4 yil muddat bilan bakalavrlar tayyorlash dasturi bo'yicha o'qitish uchun, oliy o'quv yurtlarini tamomlaganlar qisqartirilgan bir yillik dastur bo'yicha qayta tayyorlash va 2 yil o'qitish muddati bilan magistrlar tayyorlash uchun qabul qilinib, soliq organlari xodimlari uchun o'qitish muddati 3 oygacha bo'lgan malaka oshirish kurslari tashkil etildi¹¹⁹.

2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasidagi¹²⁰ soliq solish tizimini izchillik bilan soddalashtirish, soliq solinadigan bazani kengaytirish orqali soliq yukini pasaytirish kabi vazifalar ijrosi yuzasidan, shuningdek soliq ma'muriyatchiligining zamonaviy uslublarini joriy etish, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning yig'iluvchanligini oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi davlat soliq xizmati organlari tizimini isloh etishning muhim yo'nalishlari belgilandi¹²¹.

¹¹⁹ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001 yil 10 yanvardagi "O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasining Soliq akademiyasini tashkil etish to'g'risida"gi 16-sonli qarori.

¹²⁰ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-sonli Farmoni.

¹²¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 18 iyuldagi "Soliq ma'muriyatchiligini tubdan takomillashtirish, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning yig'iluvchanligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5116-sonli Farmoni.

Shuningdek, mamlakat iqtisodiyotini uzoq muddatli rivojlantirish borasida keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilayotgan sharoitda samarali soliqqa tortish tizimi va davlat soliq xizmati organlarining uyg‘unlashgan faoliyati alohida ahamiyat kasb etadi. Soliq nazoratining eskirgan uslub va prinsiplariga asoslangan davlat soliq xizmati organlari faoliyatini tashkil etish mazkur organlar oldiga qo‘yilgan yangi vazifalarni hal qilish, jumladan soliq solinadigan bazani kengaytirish va soliqlar yig‘iluvchanligining oshirilishini ta‘minlash imkonini bermasligi tanqid qilinib, soliq ma‘muriyatchiligi tizimini takomillashtirishning eng muhim quyidagi yo‘nalishlari¹²²:

davlat soliq xizmati organlarini soliq to‘lovchilarning biznes-hamkori va maslahatchisi sifatidagi yangi imidjini yaratish orqali xizmat ko‘rsatishga yo‘naltirilgan idoraga aylantirish, har bir xodim tomonidan “Soliq xizmati insofli soliq to‘lovchilarning ishonchli hamkori” degan maqsadli vazifani so‘zsiz bajarish;

eksterritoriallik prinsipi asosida soliq to‘lovchilar o‘z soliq majburiyatlarini ixtiyoriy bajarishi, biznesni qonuniy, shaffof va qulay yuritish uchun maqbul shart-sharoitlar yaratish, soliq to‘lovchilarning qoniqish darajasining oshishini ta‘minlash;

soliq ma‘muriyatchiligi va nazoratining mutlaqo yangi tizimini yaratish, shuningdek, korrupsiyaviy omillarga yo‘l qo‘ymaslik bo‘yicha preventiv va oldini olish choralarini qo‘llash;

soliq to‘lovlarining o‘z vaqtida va bir xildagi tushumini ta‘minlash, ma‘muriy tartib-taomillarni maksimal darajada kamaytirish va soddalashtirish, soliq solinadigan bazani kengaytirish va iqtisodiyotda xufiyona aylanmalarni qisqartirish hisobiga budjetlarning daromad qismini barqaror shakllantirish;

tekshiruvdan oldingi tahlil va masofaviy nazorat-tahlil ishlarini amalga oshirish uchun ma‘lumotlarni to‘liq yig‘ish va qayta ishlashni ta‘minlaydigan zamonaviy, ilg‘or axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish choralarini yanada kuchaytirish;

¹²² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 26 iyundagi “Davlat soliq xizmati organlari faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3802-sonli qarori.

davlat soliq xizmati organlari xodimlariga korporativ etikani singdirish, davlat soliq xizmati organlarining strategik maqsad va vazifalariga erishish uchun o'z xizmat faoliyati samaradorligini oshirish motivatsiyasi tizimini joriy etish kabi muhim vazifalar belgilandi.

Mamlakatimizda yashirin iqtisodiyot darajasini pasaytirish, tadbirkorlik faoliyatini yuritish uchun, shu jumladan tartibga solish va ma'muriy yukni kamaytirish hisobiga teng raqobat sharoitlarini yaratish, soliq qonunchiligi talablariga rioya qilish tartib-taomillarini avtomatlashtirish va uning tartibini soddalashtirish maqsadida¹²³:

Tegishli vazirlik va idoralarning umumiy shtat birligi doirasida:

Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi tarkibida — Yashirin iqtisodiyotni tahlil qilish boshqarmasi tashkil etilsin, tahlillar o'tkazish va yashirin faoliyat darajasi yuqori bo'lgan iqtisodiyot sohaslarini aniqlash uning asosiy vazifalari etib belgilandi;

Davlat soliq qo'mitasi tarkibida:

Soliq nazorati departamenti tashkil etilsin, yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan soliq qonunchiligiga rioya etilishini nazorat qilish, qo'shilgan qiymat solig'i bilan bog'liq firibgarlik sxemalarini aniqlash va agressiv soliq rejalashtirishga qarshi kurashish uning asosiy vazifalari etib belgilandi;

2021 yil 1 iyuldan boshlab maxsus tarkibiy bo'linma tashkil etilsin, soliq huquqbuzarliklarining oldini olish va aniqlash, shuningdek, qo'shilgan qiymat solig'i zanjirini shakllantirishda kontragentlar o'rtasida hisob-kitoblarni tahlil qilish uning asosiy vazifalari etib belgilandi.

2020 yil 1 noyabrdan davlat soliq xizmati organlari boshqaruv xodimlari soni 10 foizga qisqartirilib, O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi markaziy apparatining, Yirik soliq to'lovchilar bo'yicha hududlararo davlat soliq inspeksiyasining, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar

¹²³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 30 oktyabrdagi "Yashirin iqtisodiyotni qisqartirish va soliq organlari faoliyati samaradorligini oshirish bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-6098-sonli Farmoni.

davlat soliq boshqarmalarining va tumanlar (shaharlar) davlat soliq inspeksiylarining tuzilmalari tasdiqlandi.

12.2. Davlat soliq xizmati organlarida xizmatni o‘tash tartibi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Davlat soliq xizmati organlari faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2018 yil 26 iyundagi PQ-3802-son qarorini bajarish yuzasidan, shuningdek, davlat soliq xizmati organlari faoliyatini yanada takomillashtirish maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi to‘g‘risidagi nizom, Yirik soliq to‘lovchilar bo‘yicha hududlararo davlat soliq inspeksiylasi to‘g‘risidagi nizom, O‘zbekiston Respublikasi davlat soliq xizmati organlarida xizmatni o‘tash to‘g‘risidagi nizom tasdiqlangan¹²⁴.

Davlat soliq qo‘mitasi tuzilmasiga quyidagilar kiradi:

Qo‘mita markaziy apparati;

Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar davlat soliq boshqarmalari;

tumanlar (shaharlar) davlat soliq inspeksiylari;

Yirik soliq to‘lovchilar bo‘yicha hududlararo davlat soliq inspeksiylasi;

O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Fiskal instituti;

Toshkent, Buxoro va Farg‘ona soliq texnikumlari;

yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lgan tasarrufidagi davlat unitar korxonalar:

“Soliq-servis” davlat unitar korxonasi;

“Yangi texnologiyalar” ilmiy-axborot markazi” davlat unitar korxonasi;

“Xumson sanatoriysi” davlat unitar korxonasi;

“G‘azalkent sog‘lomlashtirish markazi” davlat korxonasi;

“Aydar-Arnasoy ko‘llar tizimi direksiylasi” davlat unitar korxonasi.

O‘zbekiston Respublikasi davlat soliq xizmati organlariga (keyingi o‘rinlarda soliq organlari deb ataladi) mansabdor shaxslarni xizmatga qabul qilish va ularni

¹²⁴ O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 17 apreldagi “Davlat soliq xizmati organlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 320-sonli qarori.

bo‘shatish, ular tomonidan xizmatni o‘tash, maxsus unvonlar berish va ulardan mahrum qilish, ularni rag‘batlantirish va intizomiy javobgarlikka tortish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarori bilan tasdiqlangan Nizom asosida belgilanadi.

Rahbarlik lavozimlari – soliq organlarining boshqaruv funksiyalarini amalga oshiruvchi, xodimlarga rahbarlik qiluvchi, tegishli qarorlarni ishlab chiquvchi va qabul qiluvchi, soliq organlari faoliyati jarayonlarini rejalashtiruvchi, nazorat qiluvchi va tartibga soluvchi, qo‘yilgan maqsadga erishish hamda soliq organlariga yuklangan vazifalar va funksiyalarni bajarish uchun zarur tashkiliy-texnik shart-sharoitlar bilan ta’minlovchi xodimlari lavozimlari;

inspektorlar tarkibi lavozimlari – boshqaruv funksiyalarini amalga oshiruvchi, xodimlarga rahbarlik qiluvchi, tegishli qarorlarni ishlab chiquvchi va qabul qiluvchi, soliq organlari faoliyati jarayonlarini rejalashtiruvchi, nazorat qiluvchi va tartibga soluvchi vakolatlar berilmagan holda soliq organlariga yuklangan vazifalar va funksiyalarni bajaruvchi soliq organlari xodimlari lavozimlari.

Soliq organlari mansabdor shaxslariga (keyingi o‘rinlarda mansabdor shaxslar deb ataladi) soliq organlarida boshqaruv xodimlarining shtatidagi lavozimlarni egallab turgan shaxslar kiradi va ularga egallab turgan lavozimlariga hamda uzoq muddat ishlaganligiga muvofiq ravishda quyidagi maxsus unvonlar beriladi:

- soliq xizmatining bosh davlat maslahatchisi;
- soliq xizmatining I darajali davlat maslahatchisi;
- soliq xizmatining II darajali davlat maslahatchisi;
- soliq xizmatining III darajali davlat maslahatchisi;
- soliq xizmatining I darajali maslahatchisi;
- soliq xizmatining II darajali maslahatchisi;
- soliq xizmatining III darajali maslahatchisi;
- soliq xizmatining I darajali inspektori;
- soliq xizmatining II darajali inspektori;
- soliq xizmatining III darajali inspektori;

soliq xizmatining inspektori.

Ishlab chiqarish xodimlariga texnik va xizmat ko'rsatuvchi xodimlar toifasiga mansub bo'lmagan soliq organlarida shtat lavozimlarini egallab turgan mutaxassislar kiradi.

Soliq organlarida xizmatga o'zlarining kasb malakasi, ishchanlik, shaxsiy va ma'naviy-axloqiy sifatlariga, ma'lumoti darajasiga va salomatligiga ko'ra soliq organlariga yuklangan vazifalarning bajarilishini ta'minlashga qodir bo'lgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari qabul qilinadilar.

Qo'mita raisi O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining taqdimnomasiga binoan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan lavozimga tayinlanadi va egallab turgan lavozimidan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan ozod qilinadi. Qo'mita raisining birinchi o'rinbosari, rais o'rinbosarlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar davlat soliq boshqarmalari boshliqlari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan lavozimga tayinlanadilar va lavozimdan ozod qilinadilar.

Qo'mita markaziy apparatining (*Qo'mita raisi, raisning birinchi o'rinbosari, rais o'rinbosarlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar davlat soliq boshqarmalari boshliqlaridan tashqari*) mansabdor shaxslari, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar davlat soliq boshqarmalari boshliqlari o'rinbosarlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar davlat soliq boshqarmalari bo'limlari (shu'balari) boshliqlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar davlat soliq boshqarmalari Ichki audit boshqarmasi va O'z xavfsizligi va komplaens-nazorat boshqarmasi bo'limlari mansabdor shaxslari, Yirik soliq to'lovchilar bo'yicha hududlararo davlat soliq inspeksiyasi boshlig'i va boshliq o'rinbosarlari, Yirik soliq to'lovchilar bo'yicha hududlararo davlat soliq inspeksiyasi bo'limlari (shu'balari) boshliqlari, Yirik soliq to'lovchilar bo'yicha hududlararo davlat soliq inspeksiyasi O'z xavfsizligi va komplaens-nazorat boshqarmasi bo'limlari mansabdor shaxslari, tumanlar (shaharlar) davlat soliq inspeksiyalari boshliqlari belgilangan tartibda Qo'mita raisining buyrug'i bilan tayinlanadilar.

Qo'mita raisining birinchi o'rinbosari, rais o'rinbosarlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar davlat soliq boshqarmalari boshliqlari va ularning o'rinbosarlari, Yirik soliq to'lovchilar bo'yicha hududlararo davlat soliq inspeksiyasi boshlig'i va boshliq o'rinbosarlari, Ichki audit boshqarmasi va O'z xavfsizligi va kompliens-nazorat boshqarmasi bo'limlari mansabdor shaxslaridan tashqari barcha mansabdor shaxslar tegishli soliq organi rahbari tomonidan tayinlanadilar.

Soliq organlarining inspektorlar va ishlab chiqarish xodimlari tarkibi lavozimlari o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi darajasidan kam bo'lmagan iqtisodiyot, huquq, kompyuter texnologiyalari va informatika ta'limi sohasidagi yo'nalishlar va mutaxassisliklar bo'yicha ma'lumotga ega bo'lgan shaxslar tomonidan tanlov asosida egallanadi. Ayrim hollarda soliq organlariga xizmatga boshqa sohalarda oliy ma'lumotga ega bo'lgan, korxonalar va alohida tarmoqlarga soliq solish va ularning moliyaviy faoliyatini tahlil qilish sohasida zarur bilimlarga ega bo'lgan xodimlar qabul qilinishi mumkin.

Soliq organlarining, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tayinlanadiganlardan tashqari, rahbarlik lavozimlari tanlov asosida iqtisodiyot, huquq, kompyuter texnologiyalari va informatika ta'limi sohasidagi yo'nalishlar va mutaxassisliklar yo'nalishlar va mutaxassisliklar bo'yicha oliy ma'lumotga ega bo'lgan shaxslar tomonidan egallanadi. Tanlovlar o'tkazish, xizmatga qabul qilish va boshqa doimiy ishga o'tkazish tartibi mehnatga oid qonun hujjatlariga muvofiq Qo'mita tomonidan belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lmagan, jinoyat sodir etganligi uchun ilgari sudlangan fuqarolar ularga nisbatan jazo qo'llanilganligidan, sudlanganlik holati tugallanganligidan yoki olib tashlanganligidan va amnistiya akti qo'llanilganligidan qat'i nazar (ehtiyotsizlik orqasida, shu jumladan, mansab mavqeini suiiste'mol qilish bilan bog'liq bo'lmagan jinoyat sodir etganligi uchun sudlangan fuqarolar bundan mustasno), belgilangan tartibda huquqiy layoqatsiz yoki huquqiy layoqati cheklangan deb e'tirof etilgan, mehnat haqidagi qonunlarga muvofiq ilgari ish beruvchining tashabbusi bilan davlat soliq xizmati organlaridan

bo'shatilgan (*O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 100-moddasi ikkinchi qismining 1, 2 va 5-bandlari bo'yicha bo'shatilgan holatlar bundan mustasno*), shuningdek, boshqa organ va tashkilotlardan obro'sini to'kadigan xatti-harakat sodir etganlik uchun bo'shatilgan shaxslar **davlat soliq xizmati organlariga xizmatga qabul qilinmaydilar**.

Xizmatga qabul qilinayotgan shaxs bilan tegishli soliq organi mehnat shartnomasi tuzadi. Soliq organlarida xizmat qilish to'g'risidagi namunaviy mehnat shartnomasi shakli Qo'mita raisi tomonidan belgilanadi. Soliq organlariga xizmatga qabul qilinayotgan shaxslar shtatdagi lavozimga mehnat shartnomasiga asosan, O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 84-moddasi talablariga muvofiq uch oygacha sinov muddati bilan tayinlanadilar, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan lavozimga tayinlanadiganlar bundan mustasno. Sinov muddati mobaynida xodimga murabbiy tayinlanadi.

Soliq organiga xizmatga qabul qilingan shaxsga butun xizmat davri uchun shaxsiy tabel tartib raqami beriladi. Soliq organlarida shtatdagi lavozimga tayinlashda quyidagi talablarga rioya qilinadi:

mansabdor shaxs vazifasini asosiy yoki turdosh ixtisos bo'yicha mansab yo'riqnomasiga muvofiq yoxud mavjud ish tajribasiga muvofiq bajarishi kerak. Boshqa ixtisos bo'yicha vazifalarni bajarish zarurati bo'lganda ular qayta tayyorlash va tajriba orttirishdan o'tadilar;

mansabdor shaxslar yanada yuqori rahbarlik lavozimiga tasdiqlanguncha ushbu lavozimni bajarib turuvchi etib tayinlanishlari mumkin, bunda ularning vazifalarni bajarib turishi uzluksiz muddati uch oydan oshmasligi kerak;

yaqin qarindosh bo'lgan yoki yaqin qarindoshligi bo'lgan (ota-onalar, aka-ukalar, opa-singillar, o'g'illar, qizlar, er-xotinlar, shuningdek, er-xotinlarning ota-onalari, aka-ukalari, opa-singillari va farzandlari) mansabdor shaxslarning, agar ularning xizmati bir-biriga bevosita bo'ysunish yoki nazoratda bo'lish bilan bog'liq bo'lsa, aynan bir soliq organida xizmatni o'tashiga ruxsat etilmaydi.

Mansabdor shaxslarni xizmat bo'yicha ko'tarish ularning amaliy ishda namoyon qilgan kasbiy, ma'naviy va ishchanlik sifatlariga qarab amalga oshiriladi.

Ishchanlik va ma'naviy sifatlarini, kasb bo'yicha xizmatga layoqatini baholash hamda shaxsiy qobiliyati va ish tajribasiga muvofiq oqilona joylashtirish uchun mansabdor shaxslar har uch yilda kamida bir marta attestatsiyadan o'tkaziladi. Navbatdan tashqari attestatsiyalar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qaroriga binoan o'tkaziladi. Mansabdor shaxslarni attestatsiyadan o'tkazish tartibi Qo'mita raisi tomonidan tasdiqlanadigan Davlat soliq xizmati organlarining mansabdor shaxslarini attestatsiyadan o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizamga muvofiq belgilanadi.

Mansabdor shaxslarga nisbatan rag'batlantirish va intizomiy jazo choralari qo'llanishi mumkin. Rag'batlantirish choralari quyidagilar hisoblanadi:

tashakkurnoma; pul mukofoti; faxriy yorliq; qimmatbaho sovg'a; muddatidan oldin yoxud egallab turgan lavozimidan qat'i nazar, navbatdan tashqari yoki navbatdagi maxsus unvon berish; idoraviy mukofotlar (ko'krak nishonlari) bilan taqdirlash.

Xizmat vazifasini bajarishda ko'rsatilgan mardlik va jasorati, xizmat vazifasini namunali bajarganligi uchun mansabdor shaxslar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda davlat mukofotlariga, taqdirlashga taqdim etilishi mumkin.

Intizomiy jazo choralari mehnatga oid qonun hujjatlarida belgilangan tartibda qo'llaniladi. Rag'batlantirish va intizomiy jazolash choralari qo'llash tartibi Qo'mita tomonidan kasaba uyushmasi qo'mitasi bilan kelishgan holda tasdiqlanadigan Davlat soliq xizmati organlarining ichki mehnat tartibi qoidalari bilan belgilanadi.

Korrupsiya va boshqa suiiste'molchiliklarning paydo bo'lishiga yo'l qo'ymaslik va oldini olish, xodimning shaxsiy va ishchanlik fazilatlarini, uning faoliyati samaradorligini tizimli o'rganish, shuningdek, soliq organlari faoliyatining turli yo'nalishlarida bilim va tajribaga ega kadrlar zaxirasini shakllantirish maqsadida xodimlar rotatsiya qilinadi.

Soliq organlari xodimlarini rotatsiya qilish tartibi Qo'mita tomonidan belgilanadi. Mansabdor shaxslarni boshqa lavozimlarga o'tkazish mehnatga oid qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

Mansabdor shaxslar O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Fiskal institutida, «Soliq-servis» DUK da yoki boshqa ta‘lim muassasalarida, kurslarda, seminarlarda, Qo‘mita raisi tomonidan belgilanadigan tartibda tayyorgarlik, qayta tayyorgarlik hamda malaka oshirishdan o‘tadilar. Mansabdor shaxslarni jismoniy tarbiya-sport bo‘yicha tayyorlash ularning xizmat joylarida, O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Fiskal institutida va Qo‘mitaning ta‘lim muassasalarida Qo‘mita tomonidan belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Mansabdor shaxslar O‘zbekiston Respublikasi respublika budjeti mablag‘lari hisobidan davlat tomonidan majburiy sug‘urta qilinadilar.

Mansabdor shaxslarga mehnat ta‘illari berish tartibi mehnatga oid qonun hujjatlari bilan belgilanadi. Mukofotlar, kompensatsiyalar, moddiy yordam berish tartibi va ularning manbalari Qo‘mita tomonidan belgilanadi. Mansabdor shaxslar xizmat faoliyatini amalga oshirish munosabati bilan tan jarohatlari olganda yoki halok bo‘lganda biryo‘la beriladigan nafaqalar to‘lash tartibi va miqdorlari qonun hujjatlariga muvofiq aniqlanadi.

Mansabdor shaxslarning soliq organlarida xizmatni o‘tash bilan bog‘liq huquqlari, majburiyatlari va javobgarligi O‘zbekiston Respublikasining “Davlat soliq xizmati to‘g‘risida”gi Qonuni va boshqa qonun hujjatlari bilan tartibga solinadi.

Mansabdor shaxslar boshliqlarining qasddan berilgan noqonuniy tusdagi buyruqlarini bajarmaslik huquqiga egadirlar, bunda ular yuqori turuvchi boshliqlar buyrug‘ini bajarmaganlik sabablari haqida yuqori turuvchi organlarni xabardor qilishga majburdirlar.

Mansabdor shaxslar ularga nisbatan intizomiy jazo chorasini qo‘llash, shu jumladan lavozimidan chetlatish yoki bo‘shatish to‘g‘risida qabul qilgan qarorlar yuzasidan yuqori tashkilotlarga va sudlarga shikoyat berishga haqlidirlar.

Mansabdor shaxslar Soliq organlarining ichki mehnat tartibi qoidalariga, shuningdek, Qo‘mita tomonidan tasdiqlangan kiyim-bosh kiyib yurish qoidalariga rioya etishga majburdirlar.

Mansabdor shaxslarga:

biron-bir tadbirkorlik faoliyati bilan shugʻullanish;

oʻrindoshlik boʻyicha ishlash (ilmiy, oʻqituvchilik va ijodiy faoliyat bilan shugʻullanish bundan mustasno);

oʻz xizmat vazifalarini bajarganlik yoki bajarmaganlik uchun mukofotlar yoki xizmatlarni qabul qilish;

qarindoshlar, tanishlar va boshqa begona shaxslarning iltimosiga koʻra qonun hujjatlariga rioya etmaslik;

ish tashlashlar, siyosiy manifestatsiyalar va yurishlarni tashkil etish va ularda qatnashish;

xizmat vazifalarini bajarish chogʻida spirtli ichimliklar isteʼmol qilish;

soliq organlari shaʼniga dogʻ tushiruvchi shaxslar bilan munosabat oʻrnatish;

soliq organlarida uchinchi shaxslar ishi boʻyicha ishonchli vakillar yoki vakillar boʻlish;

moddiy-texnika va axborot bilan taʼminlash, moliya vositalaridan, davlatning boshqa mol-mulkidan, shuningdek, xizmat axborotlaridan lavozim vazifalari bilan bogʻliq boʻlmagan maqsadlarda **foydalanish taqiqlanadi**.

Mansabdor shaxslar tomonidan xalqaro va davlatlararo simpoziumlarda, konferensiyalarda hamda ish (xizmat) tusidagi boshqa uchrashuvlarda olingan 200 AQSh dollariga teng miqdordan ortiq qimmatbaho sovgʻalar belgilangan tartibda budjet daromadiga oʻtkaziladi, ularning sport musobaqalarida, ijodiy va kasb boʻyicha tanlovlarda olgan shaxsiy sovrinlari bundan mustasno.

Mansabdor shaxslarning va ular oila aʼzolarining hayoti, salomatligi, shaʼni va qadr-qimmatini ushbu shaxslar tomonidan xizmat burchi bajarilishi munosabati bilan jinoiy tajovuzlardan muhofaza qilish qonun hujjatlari bilan kafolatlanadi.

Xizmat vazifalarini yoki xizmat burchini bajarish munosabati bilan mansabdor shaxs mol-mulkiga yetkazilgan zarar Oʻzbekiston Respublikasi respublika budjeti mablagʻlaridan toʻlanadi, ushbu summa keyinchalik aybdor shaxslardan undiriladi.

Mansabdor shaxslar qonun hujjatlari, shuningdek, Qo‘mitaning xizmatni o‘tash va kadrlar bilan ishlash masalalari bo‘yicha hujjatlari talablariga aniq rioya etilishi yuzasidan shaxsan javob beradilar.

Soliq organlari rahbarlari o‘zlariga bo‘ysunuvchi xodimlarni xizmati uchun xavfsiz, maqbul shart-sharoitlar bilan ta‘minlashga, ularning qonun hujjatlarida, shuningdek, Qo‘mita hujjatlarida nazarda tutilgan huquqlarini muhofaza qilishga, ularga xizmat bo‘yicha ko‘tarilish va madaniy hordiq uchun imkoniyatlar yaratishga majburdirlar.

Malaka tavsifnomalari talablariga javob beradigan mansabdor shaxslarga, attestatsiyadan ijobiy o‘tgan taqdirda, shtatlar ro‘yxati bo‘yicha egallab turgan lavozimini hisobga olgan holda hamda oldingi unvonida xizmat qilish muddati tugagach, izchil tartibda quyidagi navbatdagi maxsus unvonlar beriladi:

Qo‘mita markaziy apparati, Yirik soliq to‘lovchilar bo‘yicha hududlararo davlat soliq inspeksiyasi va Qo‘mitaga idoraviy mansub ta‘lim muassasalarida:

Shtatdagi lavozim*	Maxsus unvon
O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi raisi	Soliq xizmatining bosh davlat maslahatchisi
O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi raisining birinchi o‘rinbosari	Soliq xizmatining I darajali davlat maslahatchisi
O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi raisining o‘rinbosari, rais maslahatchisi	Soliq xizmatining II darajali davlat maslahatchisi
Departament direktori va uning birinchi o‘rinbosari, Yirik soliq to‘lovchilar bo‘yicha hududlararo davlat soliq inspeksiyasi boshlig‘i va O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Fiskal instituti rektori	Soliq xizmatining III darajali davlat maslahatchisi
Departament direktori o‘rinbosari, boshqarma boshlig‘i va uning o‘rinbosari, mustaqil bo‘lim boshlig‘i, rais kotibiyati mudiri, Yirik soliq to‘lovchilar bo‘yicha hududlararo davlat soliq inspeksiyasi boshlig‘ining birinchi o‘rinbosari va uning o‘rinbosarlari, O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Fiskal instituti prorektorlari, soliq texnikumlari direktorlari	Soliq xizmatining I darajali maslahatchisi
Departament va boshqarma bo‘limi boshlig‘i, navbatchi qism va idoraviy qo‘riqlash boshlig‘i, boshqarma bo‘limi boshlig‘i o‘rinbosari, rais yordamchisi va raisning birinchi o‘rinbosari yordamchisi,	Soliq xizmatining II darajali maslahatchisi

O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi huzuridagi Fiskal instituti kafedra mudirlari, professorlari va dotsentlari, bo'lim boshliqlari, soliq texnikumlari direktorlari o'rinbosarlari, davlat soliq bosh inspektori, shu'ba boshliqlari, bosh yuriskonsult, bosh iqtisodchi, bosh mutaxassis	
Yetakchi mutaxassis, davlat soliq katta inspektori, O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi huzuridagi Fiskal instituti, shuningdek, soliq texnikumlari bosh buxgalteri, bosh iqtisodchisi, bosh muhandisi, bosh mutaxassisi, metodisti, o'qituvchilari	Soliq xizmatining III darajali maslahatchisi
Davlat soliq inspektori, I toifali mutaxassis, I toifali buxgalter	Soliq xizmatining I darajali inspektori

** Soliq organlarida ishlaydigan, lavozimi ushbu jadvalda ko'rsatilmagan shaxslarga maxsus unvonlar Qo'mita tomonidan belgilanadigan egallab turgan lavozimi bo'yicha tenglashtirilgan maqomiga muvofiq beriladi.*

Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar davlat soliq boshqarmalari, shuningdek tumanlar (shaharlar) davlat soliq inspeksiyalarida:

Shtatdagi lavozim*	Maxsus unvon
Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar davlat soliq boshqarmalari boshliqlari	Soliq xizmatining III darajali davlat maslahatchisi
Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar davlat soliq boshqarmalari boshliqlarining birinchi o'rinbosarlari, o'rinbosarlari, viloyatlar markazlari shaharlari davlat soliq inspeksiyalari boshliqlari, 200 ming kishidan ortiq aholisi bo'lgan shaharlar davlat soliq inspeksiyalari boshliqlari, Toshkent shahridagi tumanlar davlat soliq inspeksiyalari boshliqlari	Soliq xizmatining I darajali maslahatchisi
Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar davlat soliq boshqarmalari mustaqil bo'limlari va shu'balari boshliqlari, Toshkent shahridagi tumanlar davlat soliq inspeksiyalari boshliqlarining o'rinbosarlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlardagi tumanlar (shaharlar) davlat soliq inspeksiyalari boshliqlari, viloyatlar markazlaridagi shaharlar davlat soliq inspeksiyalari boshliqlari o'rinbosarlari, 200 ming kishidan ortiq aholisi bo'lgan shaharlar davlat soliq inspeksiyalari boshliqlari o'rinbosarlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar davlat soliq boshqarmalarining bosh buxgalterlari, navbatchi qismlari boshliqlari	Soliq xizmatining II darajali maslahatchisi
Toshkent shahar davlat soliq boshqarmasi boshqarmalarining bo'lim boshliqlari o'rinbosarlari, bo'limdagi shu'ba boshliqlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar davlat soliq boshqarmalarining davlat soliq bosh inspektorlari, bosh mutaxassislari, bosh yuriskonsultlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi	Soliq xizmatining III darajali maslahatchisi

va viloyatlar davlat soliq inspeksiyalari boshliqlari o‘rinbosarlari, davlat soliq inspeksiyalari bo‘limlari boshliqlari	
Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar davlat soliq boshqarmalarining davlat soliq katta inspektorlari, yetakchi mutaxassislari, navbatchi qism navbatchilari, davlat soliq inspeksiyalarining davlat soliq bosh inspektorlari, bosh mutaxassislari, bosh yuriskonsultlari	Soliq xizmatining I darajali inspektori
Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar davlat soliq boshqarmalarining davlat soliq inspektorlari, mutaxassislari, davlat soliq inspeksiyalarining davlat soliq katta inspektorlari	Soliq xizmatining II darajali inspektori
Davlat soliq inspeksiyalarining yetakchi mutaxassislari	Soliq xizmatining III darajali inspektori
Davlat soliq inspeksiyalarining davlat soliq inspektorlari, I darajali mutaxassislari	Soliq xizmatining inspektori

** Soliq organlarida ishlaydigan, lavozimi ushbu jadvalda ko‘rsatilmagan shaxslarga maxsus unvonlar Qo‘mita tomonidan belgilanadigan egallab turgan lavozimi bo‘yicha tenglashtirilgan maqomiga muvofiq beriladi.*

Maxsus unvonga tayinlash uchun mansabdor shaxslarning malaka talablariga muvofiqligini baholash uchun Qo‘mita va davlat soliq boshqarmalarida maxsus komissiya tashkil etiladi.

Mansabdor shaxslarga:

soliq xizmatining bosh davlat maslahatchisi, soliq xizmatining I, II, III darajali davlat maslahatchisi maxsus unvonlari - O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan;

soliq xizmatining I, II, III darajali maslahatchisi maxsus unvonlari, shu jumladan, Qo‘mita markaziy apparati xodimlariga maxsus unvonlar Qo‘mita raisi tomonidan;

soliq xizmatining I, II va III darajali inspektori, soliq xizmatining inspektori maxsus unvonlari - Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar davlat soliq boshqarmalari boshliqlari tomonidan beriladi.

Yirik soliq to‘lovchilar bo‘yicha hududlararo davlat soliq inspeksiyasi, idoraviy mansub ta’lim muassasalari va tashkilotlari xodimlariga maxsus unvonlar Qo‘mita raisi tomonidan beriladi.

Mansabdor shaxslar maxsus unvonda xizmat qilishining quyidagi muddatlari belgilanadi:

solliq xizmatining inspektori - 1 yil;
solliq xizmatining III darajali inspektori - 2 yil;
solliq xizmatining II darajali inspektori - 2 yil;
solliq xizmatining I darajali inspektori - 3 yil;
solliq xizmatining III darajali maslahatchisi - 3 yil;
solliq xizmatining II darajali maslahatchisi - 4 yil;
solliq xizmatining I darajali maslahatchisi - 4 yil.

Solliq xizmatining bosh davlat maslahatchisi, solliq xizmatining I, II, III darajali davlat maslahatchisi uchun maxsus unvonlarda xizmat qilish muddatlari belgilanmaydi.

Maxsus unvonda xizmat qilish muddati maxsus unvon berish to'g'risidagi buyruq chiqqan kundan boshlab hisoblanadi. Mansabdor shaxslarning pasaytirilgan maxsus unvonda bo'lgan vaqti tiklangan unvondagi xizmat muddatiga qo'shilmaydi.

Rahbarlik lavozimiga yangi qabul qilingan mansabdor shaxslarga maxsus unvon egallab turilgan shtatdagi lavozimi bo'yicha sinov muddati tugagandan keyin beriladi, solliq xizmatining inspektori maxsus unvoni bundan mustasno.

Mansabdor shaxslarga, yanada yuqoriroq unvon beriladigan lavozimga o'tkazilganda va tayinlanganda, unga navbatdagi maxsus unvonni, yangi lavozimda bo'lish muddatidan qat'i nazar, va navbatda va muddatlarga rioya qilmasdan olish huquqi beriladi, biroq mazkur unvon uning maxsus unvonidan ikki darajadan yuqori bo'lmasligi kerak.

Intizomiy jazo olgan yoxud unga nisbatan jinoiy ish qo'zg'atilgan yoki qonunchilikni yoki xizmat intizomini buzganlik fakti bo'yicha xizmat tekshiruvi o'tkazilayotgan mansabdor shaxslarni navbatdagi maxsus unvonlarni berishga yoki rag'batlantirishga tavsiya etish intizomiy jazo olib tashlangungacha yoxud jinoiy ish ozod qiluvchi asoslar bo'yicha to'xtatilgungacha yoki xizmat tekshiruvi tugagungacha amalga oshirilmaydi.

Istisno tartibida, vakolatli mansabdor shaxslar navbatdagi maxsus unvonlarni muddatidan oldin yoki egallab turilgan shtatdagi lavozim bo'yicha belgilangandan bir daraja yuqori unvonni quyidagi mezonlar bo'yicha olishlari mumkin:

xizmat burchini bajarish vaqtida ko'rsatgan qahramonligi, jasorati va mardligi uchun – egallab turilgan maxsus unvondagi xizmat muddatidan qat'i nazar;

xizmat vazifalarini vijdonan bajargani va ishdagi yuksak yutuqlari uchun - maxsus unvon bo'yicha belgilangan xizmat muddatining kamida yarmi o'tgandan keyin.

Mansabdor shaxslarga maxsus unvon egallab turilgan shtatdagi lavozim bo'yicha belgilangandan bir daraja yuqori unvon soliq organlaridagi xizmatning butun davri mobaynida faqat bir marta berilishi mumkin.

Qo'mita markaziy apparati tarkibiy tuzilmasi, Yirik soliq to'lovchilar bo'yicha hududlararo davlat soliq inspeksiyasi, hududiy soliq organi hamda idoraviy mansub tashkilotlar rahbarlari o'z xodimlarining maxsus unvondagi xizmat muddati tugagach bir oy muddatda navbatdagi unvon berish bo'yicha taqdimnomani taqdim etishga majburdir.

Mansabdor shaxslarni navbatdagi maxsus unvon berishga taqdim etish asossiz ravishda kechiktirilgan taqdirda yuqorida keltirilgan shaxslar mehnatga oid qonun hujjatlariga muvofiq intizomiy javobgarlikka tortiladi.

Nazorat, huquqni muhofaza qiluvchi yoki maxsus unvon va martaba darajasi bo'lishi nazarda tutilgan boshqa organlardan xizmatga qabul qilingan yoki o'tkazilgan shaxslarga maxsus unvonlar, egallab turgan lavozimidan qat'i nazar, Qo'mita raisi tomonidan beriladi.

Mansabdor shaxslarga berilgan maxsus unvonlar ularda umrbod saqlanib qoladi. Soliq organlariga xizmatga qaytadan qabul qilingan shaxslarda ilgari berilgan maxsus unvonlar saqlanadi.

Bunda, agar egallab turilgan lavozim yanada yuqoriroq unvonni taqozo etsa, u holda ushbu unvon sinov muddati tugagach beriladi va u ilgorigi maxsus unvondan ko'pi bilan ikki daraja yuqori bo'lishi kerak. Agar egallab turilgan lavozim pastroq

maxsus unvonni taqozo etsa, u holda xizmatga qaytadan qabul qilingan shaxslarda ularning ilgari berilgan maxsus unvoni saqlanib qoladi.

Mansabdor shaxslarga navbatdagi maxsus unvon berishga tavsiya etishni kechiktirish, maxsus unvonni bir darajaga pasaytirish Qo‘mita raisi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar davlat soliq boshqarmalari boshliqlari tomonidan o‘z vakolatlari doirasida, tegishli darajalardagi boshqarma rahbarlari taqdimnomasiga binoan xizmat burchini buzganlik, xizmat vazifalarini zarur tarzda bajarmaganlik uchun amalga oshiriladi.

Maxsus unvoni pasaytirilgan mansabdor shaxslar ilgarigi maxsus unvoniga Qo‘mita raisi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar davlat soliq boshqarmalari boshliqlari tomonidan tegishli darajalardagi boshqarmalar rahbarlarining taqdimnomasiga binoan tiklanadilar. Mansabdor shaxslar ilgarigi maxsus unvonga tiklangunlarigacha ularga navbatdagi unvon berilishiga yoki ularning maxsus unvoni takroran pasaytirilishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

Mansabdor shaxslar maxsus unvondan:

o‘z nomiga isnod keltiruvchi qilmishlari uchun soliq organlaridan bo‘shatilganda;

jinoyat sodir etganlik uchun – sudning qonuniy kuchga kirgan hukmiga binoan mahrum etilishi mumkin.

Maxsus unvonlarga ega bo‘lgan mansabdor shaxslarga har oyda maxsus unvon va ko‘p yil xizmat qilganligi uchun Davlat budjeti mablag‘lari hisobidan ustama haq to‘lanadi. Maxsus unvon uchun (maxsus unvon berilgan vaqtdan boshlab to‘lanadigan) va ko‘p yil xizmat qilganligi uchun (ish stajiga ko‘ra) ustama haq miqdorlari lavozim maoshiga nisbatan koeffitsientlar bilan belgilanadi. Ko‘p yil xizmat qilganlik uchun ustama haq olish huquqini beruvchi ish staji Qo‘mita raisi tomonidan kasaba uyushmasi organi bilan kelishilgan holda tasdiqlanadigan tartibga muvofiq hisoblab chiqiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Fiskal institutiga va soliq texnikumlariga ishga qabul qilingan va o‘tkazilgan mansabdor shaxslarda ularning ilgarigi maxsus unvoni, shuningdek, maxsus unvon va uzoq muddat

uzluksiz xizmati uchun ustamalar to‘lash tartibi saqlanib qoladi. O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Fiskal institutida va soliq texnikumlarida ishlangan vaqt davlat soliq xizmati organlariga xizmatga qaytib kelinganda maxsus unvondagi xizmat muddatiga qo‘shiladi.

Mansabdor shaxslarni xizmatdan bo‘shatish O‘zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksiga muvofiq amalga oshiriladi. Jinoyat sodir etganlik uchun jazolangan mansabdor shaxslar hukm qonuniy kuchga kirgandan keyin soliq organlaridan bo‘shatiladilar.

Vafot etgan, halok bo‘lgan yoki belgilangan tartibda bedarak yo‘qolgan deb e’tirof etilgan mansabdor shaxslar soliq organlarining xodimlar tarkibidan chiqariladilar.

Davlat soliq xizmati organlari maxsus unvonlarining boshqa davlat organlarining unvon va martaba darajalariga nisbatan

TAQQOSLANMASI

T/r	Davlat soliq xizmati organlarining maxsus unvonlari	Ichki ishlar organlarining maxsus unvonlari	Milliy gvardiya organlarining maxsus unvonlari	Harbiy unvonlar	Bojxona organlarining maxsus unvonlari	Prokuratura (shu jumladan harbiy prokuratura) organlarining martaba darajalari	Adliya organlarining martaba darajalari	Sud organlarining martaba darajalari
1.	Soliq xizmatining III darajali inspektori	Leytenant	Leytenant	Leytenant	Bojxona xizmati leytenanti	3-darajali yurist, adliya leytenanti	3-darajali yurist	3-darajali yurist
2.	Soliq xizmatining II darajali inspektori	Katta leytenant	Katta leytenant	Katta leytenant	Bojxona xizmati katta leytenanti	2-darajali yurist, adliya katta leytenanti	2-darajali yurist	Beshinchi malaka darajasi, 2-darajali yurist
3.	Soliq xizmatining I darajali inspektori	Kapitan	Kapitan	Kapitan	Bojxona xizmati kapitani	1-darajali yurist, adliya kapitani	1-darajali yurist	To‘rtinchi malaka darajasi, 1-darajali yurist
4.	Soliq xizmatining III darajali maslahatchisi	Mayor	Mayor	Mayor	Bojxona xizmati mayori	Adliya kichik maslahatchisi, adliya mayori	3-darajali adliya maslahatchisi	Uchinchi malaka darajasi, 3-darajali adliya maslahatchisi
5.	Soliq xizmatining II darajali maslahatchisi	Podpolkovnik	Podpolkovnik	Podpolkovnik	Bojxona xizmati podpolkovnigi	Adliya maslahatchisi, adliya podpolkovnigi	2-darajali adliya maslahatchisi	Ikkinchi malaka darajasi, 2-darajali adliya maslahatchisi
6.	Soliq xizmatining I darajali maslahatchisi	Polkovnik	Polkovnik	Polkovnik	Bojxona xizmati polkovnigi	Adliya katta maslahatchisi, adliya polkovnigi	1-darajali adliya maslahatchisi	Birinchi malaka darajasi, 1-darajali adliya maslahatchisi
7.	Soliq xizmatining III darajali davlat maslahatchisi	General-mayor		General-mayor	Bojxona xizmati general-mayori	3-darajali davlat adliya maslahatchisi, adliya general-mayori	3-darajali davlat adliya maslahatchisi	Oliy malaka darajasi

8.	Soliq xizmatining II darajali davlat maslahatchisi	General-leytenant		General-leytenant	Bojxona xizmati general-leytenanti	2-darajali davlat adliya maslahatchisi, adliya general-leytenanti	2-darajali davlat adliya maslahatchisi	
9.	Soliq xizmatining I darajali davlat maslahatchisi	General-polkovnik		General-polkovnik	Bojxona xizmati general-polkovnigi	1-darajali davlat adliya maslahatchisi	1-darajali davlat adliya maslahatchisi	
10.	Soliq xizmatining bosh davlat maslahatchisi							

Izohlar:

1. Boshqa davlat organlarining unvon va martaba darajalarini davlat soliq xizmati organlarining soliq xizmatining davlat maslahatchilari maxsus unvonlariga tenglashtirish O'zbekiston Respublikasi Prezidenti bilan kelishgan holda amalga oshiriladi.

2. Soliq xizmatining bosh davlat maslahatchisi maxsus unvonining boshqa davlat organlarining unvonlari bilan taqqoslamasi nazarda tutilmagan.

Davlat soliq xizmati organlari mansabdor shaxslarining lavozim maoshlariga maxsus unvon uchun har oylik ustama haq

MIQDORLARI

Maxsus unvon nomi	Lavozim maoshiga qo'shimcha haq miqdori (koeffitsient hisobida)
soliq xizmatining bosh davlat maslahatchisi	0,65
soliq xizmatining I darajali davlat maslahatchisi	0,60
soliq xizmatining II darajali davlat maslahatchisi	0,55
soliq xizmatining III darajali davlat maslahatchisi	0,50
soliq xizmatining I darajali maslahatchisi	0,45
soliq xizmatining II darajali maslahatchisi	0,40
soliq xizmatining III darajali maslahatchisi	0,35
soliq xizmatining I darajali inspektori	0,30
soliq xizmatining II darajali inspektori	0,25
soliq xizmatining III darajali inspektori	0,20
soliq xizmatining inspektori	0,15

Davlat soliq xizmati organlari mansabdor shaxslarining lavozim maoshlariga ko'p yil xizmat qilganlik uchun har oylik ustama haq

MIQDORLARI

Ish staji	Lavozim maoshiga ustama haq miqdori (koeffitsient hisobida)
3 yildan 5 yilgacha	0,05
5 yildan 7 yilgacha	0,15
7 yildan 10 yilgacha	0,20
10 yildan 12 yilgacha	0,25
12 yildan 15 yilgacha	0,30
15 yildan 20 yilgacha	0,35
20 yildan ortiq	0,40

Davlat soliq qo‘mitasi markaziy apparati mansabdor shaxslarining lavozim maoshlariga ko‘p yil xizmatlari uchun har oylik ustama haq

MIQDORLARI

Ish staji	Rag‘batlantirish koeffitsientini hisobga olgan holda lavozim maoshiga ustama haq miqdori (koeffitsient hisobida)
2 yildan 5 yilgacha	0,1
5 yildan 10 yilgacha	0,2
10 yildan 15 yilgacha	0,3
15 yildan 20 yilgacha	0,4
20 yildan 25 yilgacha	0,5
25 yildan ortiq	0,6

12.3.Soliq xizmati idoralarining boshqa muassasalar

bilan munosabatlari

Davlat soliq qo‘mitasi o‘z vazifalari va funksiyalarini amalga oshirishda boshqa davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, huquqni muhofaza qiluvchi organlar, banklar va boshqa tashkilotlar bilan o‘zaro hamkorlik qiladi.

Hududlararo inspeksiya o‘z vazifalari va funksiyalarini amalga oshirishda boshqa davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, huquqni muhofaza qiluvchi organlar, banklar va boshqa tashkilotlar bilan o‘zaro hamkorlik qiladi.

Davlat soliq xizmatining hududiy organlari o‘z vakolatlari doirasida boshqa hududiy davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, huquqni muhofaza qiluvchi organlar, banklar va boshqa tashkilotlar bilan o‘zaro hamkorlik qiladi.

Davlat soliq xizmatining hududiy organlari tegishli hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo‘yicha «yo‘l xaritalari» ishlab chiqilishida va amalga oshirilishida kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo‘yicha sektorlar bilan yaqindan hamkorlik qiladi.

Qo‘mitaning faoliyatiga O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Makroiqtisodiy tahlil va prognozlashtirish, moliya va bank tizimlarini isloh qilish, xususiy tadbirkorlik va kichik biznesni rivojlantirish masalalari bo‘yicha

Kompleks rahbari va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Makroiqtisodiy tahlil va prognozlashtirish, moliya va bank tizimlarini isloh qilish, xususiy tadbirkorlik va kichik biznesni rivojlantirish masalalari yig‘ma axborot-tahlil departamenti va O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti bo‘linmalari mutasaddilik qiladi.

Belgilangan tartibda quyidagilarni:

banklardan va boshqa kredit-moliya tashkilotlaridan soliq to‘lovchilarning hisob-kitob hisobvaraqlarida yoki boshqa hisobvaraqlarida amalga oshirilgan operatsiyalar haqidagi, shuningdek, ushbu hisobvaraqlardagi mavjud pul mablag‘lari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni;

bojxona organlaridan va boshqa vakolatli organlardan import-eksport operatsiyalari amalga oshirilganligi va soliq to‘lovchilar to‘g‘risidagi boshqa zarur ma’lumotlarni;

vazirliklar, idoralar va boshqa tashkilotlardan davlat soliq xizmati organlari mansabdor shaxslarining xizmat vazifalari masalalari bo‘yicha ma’lumotlarni olish;

belgilangan tartibda:

qurilish, montaj, ta’mirlash va boshqa ishlarni nazorat o‘lchovidan o‘tkazish uchun malakali mutaxassislarini jalb etish;

iqtisodiy jinoyatlar bilan kurashishda ilmiy-texnik vositalardan va usullardan foydalanish;

o‘tkaziladigan tekshirishlarda boshqa nazorat qiluvchi organlar, vazirliklar va idoralar bilan hamkorlik qilish;

mansabdor shaxslarni, fuqarolarni aniqlangan huquqbuzarlik faktlari bo‘yicha tushuntirishlar berish uchun davlat soliq xizmati organlariga taklif etish orqali hamkorlikni amalga oshirishlari mumkin.

Soliq kodeksiga va boshqa qonun hujjatlari muvofiq organlar, muassasalar va tashkilotlarning soliq organlariga ma’lumotlar taqdim etish majburiyatlari belgilangan.

Tadbirkorlik sub'ekti bo'lgan yuridik va jismoniy shaxslarni davlat ro'yxatidan o'tkazishni amalga oshiruvchi organlar ro'yxatdan o'tkazilgan joydagi soliq organiga ushbu shaxslar davlat ro'yxatidan o'tkazilgan kundan e'tiboran o'n kundan kechirtirmay tegishli yuridik shaxslarning davlat reestridan ko'chirmani, rahbar (rahbar vazifalarini bajaruvchi shaxs) to'g'risidagi ma'lumotlarni, jismoniy shaxsning shaxsiy identifikatsiya raqamini va uning pasport ma'lumotlarini topshirishi shart. Shuningdek mazkur organlar soliq organiga davlat reestriga kiritilgan va tegishli shaxslarga taalluqli bo'lgan har qanday o'zgartirishlar to'g'risida bunday o'zgartirishlar kiritilgan kundan e'tiboran uch kundan kechiktirmay ma'lum qilishi shart.

Ichki ishlar organlari pasportlar berilganligi, shu jumladan yo'qotilgan yoki amal qilish muddati o'tgan pasportlar o'rniga pasportlar berilganligi faktlari haqida, shuningdek bekor qilingan pasportlar to'g'risida o'zlari joylashgan yerdagi soliq organlariga har oyda ma'lum qilib borishi, shuningdek turar joyni ijaraga olish (ijaraga berish) shartnomasi, tekin foydalanishga berishga shartnomasi mavjud emasligi yoki soliq organlarida ijaraga olish (ijaraga berish) shartnomasining majburiy hisobga qo'yilishiga rioya etilmaganligi bo'yicha aniqlangan faktlar to'g'risida o'zlari joylashgan yerdagi soliq organlariga uch kun ichida ma'lum qilishi shart.

Ko'chmas mulkka bo'lgan huquqni davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organlar har yili 1 fevralgacha o'zlari joylashgan yerdagi soliq organlariga tegishli hududda joylashgan yer uchastkasi va boshqa ko'chmas mulk, uning mulkdorlari (egalari) to'g'risida 1 yanvar holatiga ko'ra ma'lumot berishi, shuningdek yer uchastkasi va boshqa ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlar yil davomida yuzaga kelganda — mazkur ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlar davlat ro'yxatidan o'tkazilgan kundan e'tiboran o'n kun ichida ma'lum qilishi shart.

Tabiiy resurslardan foydalanuvchilarni hisobga olishni va (yoki) ularni ro'yxatdan o'tkazishni, shuningdek tabiiy resurslardan foydalanish bilan bog'liq faoliyatni litsenziyalashni amalga oshiruvchi organlar tabiatdan foydalanish joyidagi soliq organlariga tegishli tarzda ro'yxatdan o'tkazilgan (litsenziya,

ruxsatnoma berilgan) kundan e'tiboran o'n kun ichida soliq solish obyekti bo'lgan bunday resurslardan foydalanishga doir huquqlar berish to'g'risida ma'lum qilishi shart.

Suv resurslarini hisobga olishni amalga oshiruvchi organlar suvdan foydalanish yoki suvni iste'mol qilish joyidagi soliq organlariga o'tgan yil yakunlari bo'yicha o'lchov asboblarsiz foydalanilgan suv hajmlari to'g'risida 15 yanvardan kechiktirmay xabar qilishi shart.

Litsenziyalar va (yoki) boshqa ruxsat etuvchi hujjatlarni beradigan organlar mazkur hujjatlar berilgan shaxslar joylashgan yerdagi soliq organiga shunday hujjatlar berilganligi, bekor qilinganligi, to'xtatib turilganligi yoki ularning amal qilishi tugatilganligi to'g'risida tegishli hodisa ro'y bergan kundan e'tiboran o'n kun ichida ma'lum qilishi shart.

Chet el yuridik shaxslarining vakolatxonalarini akkreditatsiyadan o'tkazishni amalga oshiruvchi organlar hamda tashkilotlar chet el yuridik shaxslarining vakolatxonalari akkreditatsiyadan o'tkazilganligi (akkreditatsiyadan mahrum etilganligi) to'g'risidagi ma'lumotlarni vakolatxona joylashgan yerdagi soliq organiga tegishli hodisa ro'y bergan kundan e'tiboran o'n kun ichida ma'lum qilishi shart.

Xalqaro tashkilotlarning hamda chet el notijorat nohukumat tashkilotlarining vakolatxonalari reestrini yuritish vakolatiga ega bo'lgan organ mazkur reestrda tegishli tarzda kiritilganlik (reestrda o'zgartirishlar) to'g'risidagi ma'lumotlarni akkreditatsiyadan o'tkazilgan (akkreditatsiyadan mahrum etilgan) yoki mazkur reestrda ma'lumotlar (o'zgartirishlar) kiritilgan kundan e'tiboran o'n kun ichida vakolatxona joylashgan yerdagi soliq organiga xabar qilishi shart.

Vasiylik va homiylik organlari mol-mulk mulkdorlari (egalari) bo'lgan jismoniy shaxslarga nisbatan vasiylik, homiylik hamda mol-mulk boshqaruvi belgilanganligi to'g'risida, shu jumladan mol-mulk mulkdori (egasi) bo'lgan bolaning vasiy oilaga topshirilganligi haqida, shu jumladan mazkur vasiylik, homiylik va mol-mulk boshqaruvi bilan bog'liq keyingi o'zgartirishlar to'g'risida

tegishli qaror qabul qilingan kundan e'tiboran o'n kun ichida o'zlari joylashgan yerdagi soliq organlariga ma'lum qilishi shart.

Notarial harakatlarni amalga oshirishga vakolatli bo'lgan organlar (muassasalar) ko'chmas mulk oldi-sotdi shartnomalari, mol-mulk ijarasi shartnomalari tasdiqlanganligi va ijara haqi miqdori, merosga egalik qilish huquqi to'g'risidagi guvohnomalar berilganligi hamda hadya etish shartnomalari notarial tarzda tasdiqlanganligi haqidagi ma'lumotlarni tegishli tarzda notarial tasdiqlangan kundan e'tiboran besh kundan kechiktirmay o'zlari joylashgan yerdagi soliq organlariga ma'lum qilishi shart. Bunda hadya etish shartnomalari tasdiqlanganligi to'g'risida taqdim etilayotgan axborot hadya qiluvchi va hadya oluvchi shaxs o'rtasidagi qarindoshlik darajasi to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olishi kerak.

Chet ellik fuqarolarga yoki fuqaroligi bo'lmagan shaxslarga ishlash uchun ruxsatnomalar yoki patentlar berishni amalga oshiruvchi organlar chet ellik fuqarolar yoxud fuqaroligi bo'lmagan shaxslar turgan joyi bo'yicha migratsiya hisobiga qo'yilganligi to'g'risidagi ma'lumotlarni xabar qilishi shart. Bunday ma'lumotlar soliq organlarida hisobda turmagan va o'ziga nisbatan ishlash uchun ruxsatnomani yoki patentni rasmiylashtirish uchun hujjatlar ko'rib chiqishga qabul qilingan chet ellik fuqarolar hamda fuqaroligi bo'lmagan shaxslarga nisbatan taqdim etiladi. Mazkur organlar belgilangan hujjatlar qabul qilingan kundan keyin keladigan kundan kechiktirmay ushbu ma'lumotlarni o'zlari joylashgan yerdagi soliq organlariga xabar qiladi.

Qimmatli qog'ozlarning markaziy depozitariysi har oyda, hisobot oyidan keyingi oyning o'ninchi kunidan kechiktirmay O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasiga o'zi va investitsiya vositachilari tomonidan ro'yxatga olingan aksiyalarga doir bitimlar to'g'risidagi axborotni taqdim etishi shart.

Bojxona organlari har oyda soliq organlariga:

eksport-import operatsiyalari to'g'risidagi, shuningdek tovarlarni olib o'tish, shu jumladan O'zbekiston Respublikasining bojxona chegarasi orqali elektron tijorat shaklida amalga oshirilgan tovarlarni olib o'tish haqidagi;

O‘zbekiston Respublikasi norezidentlari tomonidan O‘zbekiston Respublikasining bojxona omborlarida tovarlar saqlanayotganligi faktlari to‘g‘risidagi axborotni taqdim etishi shart.

Internet jahon axborot tarmog‘i milliy segmentining domen nomlari tizimini belgilovchi organ soliq organlariga tegishli ma’lumotlar bazasiga ulanish uchun dasturiy mahsulotlarni taqdim etish orqali domen nomlarining ma’murlari to‘g‘risidagi axborotlarga kirish huquqini beradi.

Soliq organlariga ushbu moddada nazarda tutilgan, qog‘ozda yoki elektron shaklda taqdim etiladigan ma’lumotlarning shakllari, shuningdek shakllarni to‘ldirish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi tomonidan tasdiqlanadi.

Ma’lumotlarni soliq organlariga elektron shaklda taqdim etish tartibi o‘zaro hamkorlik qiluvchi taraflarning kelishuvi bilan belgilanadi.

Ushbu ko‘rsatilgan ma’lumotlar soliq organlariga bepul taqdim etiladi. Ushbu nazarda tutilgan ma’lumotlar ushbu belgilangan organlar, muassasalar, tashkilotlar yoki notarial harakatlarni amalga oshirish vakolatiga ega bo‘lgan mansabdor shaxslar tomonidan soliq organlarining so‘rovlariga binoan so‘rov olingan kundan e’tiboran besh kun ichida taqdim etiladi.

Banklarning soliq nazoratini amalga oshirish bilan bog‘liq bo‘lgan majburiyatlari quyidagilardan iborat:

bank har qanday yuridik yoki jismoniy shaxsning (bundan buyon ushbu moddada mijoz deb yuritiladi) hisobvarag‘i yoki omonati (depoziti) ochilganligi (yopilganligi), hisobvarag‘i yoki omonati (depoziti) rekvizitlarining o‘zgartirilganligi to‘g‘risidagi axborotni tegishli hodisa ro‘y bergan kundan e’tiboran uch kun ichida elektron shaklda, o‘zi joylashgan yerdagi soliq organiga ma’lum qilishi shart *(axborotni ma’lum qilish tartibi va shakllari O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi bilan kelishilgan holda O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilanadi);*

Soliq organining bank mijoziga nisbatan axborot taqdim etish to‘g‘risidagi so‘roviga binoan bank yozma so‘rov olingan kundan e‘tiboran uch kun ichida soliq organlariga quyidagilarni berishi shart:

1) mijozning bankda hisobvaraqlari va omonatlari (depozitlari) mavjudligi to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni;

2) mijozning hisobvaraqlari va omonatlaridagi (depozitlaridagi) pul mablag‘larining qoldiqlari haqidagi ma‘lumotlarni;

3) mijozning hisobvaraqlaridagi operatsiyalarga hamda omonatlariga (depozitlariga) doir ko‘chirmalarni;

4) soliq to‘lovchining soliq majburiyatlarini bajarishi bilan bog‘liq boshqa ma‘lumotlarni.

Ushbu moddaning uchinchi qismida nazarda tutilgan axborot, O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarida nazarda tutilgan hollarda chet davlat vakolatli organining so‘rovi asosida ham soliq organlari tomonidan bankdan so‘rab olinishi mumkin.

Soliq organi tomonidan bankka so‘rov yuborish va banklar tomonidan soliq organlarining so‘rovlariga binoan axborot taqdim etish shakli hamda tartibi O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi va O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilanadi.

Iqtisodiyotda xufiyona aylanma darajasini kamaytirish bo‘yicha “yashirin iqtisodiyot” ko‘lamini baholashning asosiy ko‘rsatkichlarini belgilash, idoralararo hamkorlik tizimini, ko‘riladigan choralar samaradorligini baholash tizimini joriy qilishni, shuningdek, iqtisodiy faoliyatni legallashtirishni nazarda tutuvchi chora-tadbirlarni amalga oshirish¹²⁵ tadbirlarini amalga oshirish belgilangan.

Bundan tashqari, soliq organlari soliq sohasida qonun xujjatlarida belgilangan tartib, shakl, muddat va hajmda soliqlarni hisoblash, undirish va (yoki) qaytarish bo‘yicha aloqador boshqa muassasalar bilan munosabatlarini olib boradi.

¹²⁵ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 10 июлдаги “Солиқ маъмуриятчилигини такомиллаштириш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПҚ-4389-сонли қарори.

12.4. “Soliqchi-tadbirkorga ko‘makchi” tizimi

2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasidagi¹²⁶ soliq ma‘muriyatchiligi sifati va samaradorligini yaxshilash, tadbirkorlikni rivojlantirishga ko‘maklashish maqsadida soliqqa tortishni takomillashtirish tadbirlarini amalga oshirish belgilangan.

Davlat soliq qo‘mitasi raisi Sh.Kudbiev “*Ekonomicheskoe obozovanie*” jurnaliga bergan intervyusida “Davlat soliq xizmati organlari noprofessionalizm, korrupsiya, qoloq qarashlarga va eskirib qolgan yechimlarga toqat qilmaydigan tashkilotdan, servis, mijozga yo‘naltirilgan xizmatga o‘zgarimoqda.”¹²⁷ degan fikrni bildirgan.

Soliq organlarining asosiy vazifalaridan biri soliq to‘lovchilar o‘z soliq majburiyatlarini ixtiyoriy bajarishi uchun maqbul shart-sharoitlar yaratish, har bir xodim tomonidan «Soliq xizmati – insofli soliq to‘lovchilarning ishonchli hamkori» degan maqsadli vazifani so‘zsiz bajarish hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish Konsepsiyasini¹²⁸ ishlab chiqishda ishbilarmonlik va investitsiyaviy faollikni oshirishga, sog‘lom raqobat muhitini shakllantirishga, shuningdek, soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar yig‘iluvchanligining zarur darajasini ta‘minlashga to‘sqinlik qilayotgan bir qator tizimli muammolarni ko‘rsatdi, xususan o‘tkaziladigan nazorat tadbirlarining sifatiga salbiy ta‘sir ko‘rsatuvchi va insofli tadbirkorlik sub’ektlarining faoliyatiga aralashishlarni kamaytirishga to‘sqinlik qiluvchi nazorat faoliyatini amalga oshirishda xavf-xatarlarni tahlil qilish va boshqarishning aniq tizimi yo‘qligi tanqid qilib, soliq siyosatining va soliq qonunchiligini soddalashtirish, soliq munosabatlari sohasida normativ-huquqiy hujjatlardagi qarama-qarshiliklar va ziddiyatlarni bartaraf etish, insofli soliq

¹²⁶ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги ПФ-4947-сонли Фармони.

¹²⁷ O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi raisi Sh.Kudbievning “*Ekonomicheskoe obozovanie*” jurnaliga bergan interv'yusi. №4 (256) 2021 “Yangi zamon soliq organlari, pandemiya orqali soliq ma'murchiligini raqamlashtirish”.

¹²⁸ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 29 iyundagi “O‘zbekiston respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi to‘g‘risida”gi PF-5468-sonli Farmoni.

to'lovchilarning huquqlari va qonuniy manfaatlari himoyasini kuchaytirish ilgari surildi.

Davlat soliq xizmati organlarini soliq to'lovchilarning biznes-hamkori va maslahatchisi sifatidagi yangi imidjini yaratish orqali xizmat ko'rsatishga yo'naltirilgan idoraga aylantirish, har bir xodim tomonidan «Soliq xizmati — insofli soliq to'lovchilarning ishonchli hamkori» degan maqsadli vazifani so'zsiz bajarish belgilab qo'yildi.

Shuningdek, soliq organlari shtat birligida Tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash bo'limlari (shu'basi) quyidagi tartibda tashkil etildi:

100 ming nafar aholiga hisoblab chiqqanda 1 shtat birligi – tuman (shahar) davlat soliq inspeksiyalarida;

2 shtat birligi – Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar davlat soliq boshqarmalarida;

2 shtat birligi – O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasining markaziy apparatida.

Soliq to'lovchilar qulay bo'lgan, soliqlarni to'g'ri va to'liq hisoblash hamda to'lovini amalga oshirib borishda “Soliq monitoring” instituti joriy qilindi. **Soliq monitoringi**¹²⁹ – bu tadbirkor va soliq organlari o'rtasidagi ochiqlikka asoslangan o'zaro manfaatli hamkorlik evaziga soliq tekshiruvlari o'tkazilishidan xalos bo'lish.

Bu – faqat soliq to'lovchining tashabbusi bilan amalga oshirilishi mumkin bo'lgan soliq nazoratining yagona turi. Ammo hamma tashkilotlar emas, balki oldingi yil uchun daromadlari yillik moliyaviy hisobot ma'lumotlariga ko'ra kamida 10 mlrd so'mni tashkil etgan yirik korxonalar uning ishtirokchilari bo'la olishadi.

Bir xususiyat bor: soliq monitoringi ishtirokchisiga aylanish istagini bildirgan korxonalar, boshqalar qatorida, bevosita va (yoki) bilvosita ishtirok etadigan hamda

¹²⁹ O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi 2019 y. Lex.uz O'zbekiston qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.

bunday ishtirok ulushi 25 foizni tashkil etadigan jismoniy va yuridik shaxslar to'g'risidagi ma'lumot taqdim etishi shart

Soliq monitoringini boshlagan korxonaning afzalliklari nimada:

soliq monitoringida o'z xohishiga ko'ra ishtirok etish;

soliq organlari bilan avtomatlashtirilgan hamkorlik;

soliq organlari bilan ochiq muloqot va asoslantirilgan fikrni olish;

amalga oshirilgan va rejalashtirilgan bitimlar bo'yicha asoslantirilgan fikrini so'rab olish imkoniyati;

nazorat tadbirlari hajmi va tasdiqlangan dastlabki hujjatlar sonining qisqarishi;

soliq organlari faoliyati shaffofligi;

soliq organlari bilan onlayn rejimda muammolarni tartibga solish imkoniyati mavjudligi sababli, tavakkalchiliklarning oldini olish;

soliqqa tortishning murakkab masalalari bo'yicha noaniqliklar va nomuvofiqliklarni bartaraf etish;

shtraf va penyalarni yo'qligi;

soliq tekshiruvlari o'tkazilishidan xalos bo'lish (kameral va sayyor tekshiruv, soliq auditi);

soliq tekshiruvlari o'tkazilishi bilan;

soliq to'lovchi uchun bu ularning qonunga bo'ysunishini va halolligini isbotlash uchun imkoniyatdir;

QQSning o'rnini qoplashning tezlashtirilgan tartibi.

Soliq monitoringida ishtirok etuvchi yuridik shaxs va soliq organi o'rtasidagi axborotga doir hamkorlik reglament asosida amalga oshiriladi.

Axborotga doir hamkorlik reglamentida soliqlar hamda yig'implarni hisoblab chiqarish va to'lash (ushlab qolish va o'tkazib berish) uchun asos bo'lib xizmat qiluvchi hujjatlarni (axborotni) soliq organiga elektron shaklda taqdim etish tartibi va (yoki) ko'rsatilgan hujjatlar (axborot) mavjud bo'lgan yuridik shaxsning axborot tizimlariga kirish tartibi aks ettiriladi.

Soliq to'lovchilarga keyinchalik soddalashtirilgan "yashil yo'lak" tartibida xizmat ko'rsatish maqsadida soliq tavakkalchiliklarini baholash va insofilik mezonlari asosida segmentlash tizimini joriy qilindi¹³⁰.

Soliq to'lovchi ixtiyoriy ravishda soliq majburiyatlarini kamaytirib ko'rsatish (yashirish) faktlarini ko'rsatib, soliq qarzining bir qismini to'laganda, uni javobgarlikdan ozod qilishni nazarda tutuvchi "soliq kelishuvi" mexanizmini joriy etish belgilangan¹³¹.

O'z-o'zini nazorat qilish uchun savollar

1. Soliq organlari faoliyatining tashkiliy-huquqiy asoslari qanday tarzda shakllantirilgan?

2. Soliq organlari faoliyatining tashkiliy-huquqiy asoslari o'zgaruvchanligiga qanday omillar sabab bo'lgan?

3. Soliq organlarida rahbarlik va inspektorlik lavozimlari qanday farqlanadi?

4. Qanday shaxslar davlat soliq xizmati organlariga xizmatga qabul qilinmaydilar?

5. Soliq organlari mansabdor shaxslarga qanday faoliyati bilan shug'ullanish taqiqlanadi?

6. Soliq organlari soliq sohasida qaysi idora, tashkilot muassalalar bilan hamkorlik qiladi?

7. Soliq organlari hamkorlik qiluvchi tashkilotlar qanday ma'lumotlar almashinuvini amalga oshiradi ?

GLOSSARIY

¹³⁰ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 10 iyuldagi "Soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4389-sonli qarori.

¹³¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 10 iyuldagi "Soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4389-sonli qarori.

Jismoniy shaxslar-O‘zbekiston Respublikasining fuqarolari, chet davlatlarning fuqarolari, shuningdek fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar jismoniy shaxslardir;

yakka tartibdagi tadbirkorlar- belgilangan tartibda ro‘yxatdan o‘tgan va yuridik shaxs tashkil etmagan holda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiradigan jismoniy shaxs.

yuridik shaxslar-quyidagilar yuridik shaxslardir:

1) O‘zbekiston Respublikasining qonunchiligiga muvofiq tashkil etilgan yuridik shaxslar (O‘zbekiston Respublikasining yuridik shaxslari);

2) chet davlatlarning qonunchiligiga muvofiq tashkil etilgan, fuqarolik huquqiy layoqatiga ega bo‘lgan chet el yuridik shaxslari (shu jumladan kompaniyalar va boshqa korporativ tuzilmalar);

3) xalqaro tashkilotlar.

O‘zbekiston Respublikasi yuridik shaxsining alohida bo‘linmasi- yuridik shaxsning hududiy jihatdan alohida bo‘lgan, turgan yeri bo‘yicha doimiy ish joylari jihozlangan har qanday bo‘linmasi.

yuridik shaxsni tashkil etmagan chet el tuzilmalari- chet davlatning qonunchilikka muvofiq yuridik shaxs tashkil etmagan holda tashkil etilgan va o‘z ishtirokchilarining (paychilarning, ishonch bildiruvchilarning yoki boshqa shaxslarning) yoxud boshqa benefitsiarlarning manfaatlarini ko‘zlab daromad (foyda) olishga qaratilgan faoliyatni amalga oshirish huquqiga ega bo‘lgan tashkiliy tuzilma;

doimiy muassasa- Soliq kodeksining maqsadlarida chet el yuridik shaxsi O‘zbekiston Respublikasidagi tadbirkorlik faoliyatini to‘liq yoki qisman qaysi doimiy faoliyat joyida amalga oshirayotgan bo‘lsa, o‘sha joy chet el yuridik shaxsining O‘zbekiston Respublikasidagi doimiy muassasasi deb e‘tirof etiladi;

o‘zaro bog‘liq bo‘lgan shaxslar- agar shaxslar o‘rtasidagi munosabatlarning o‘ziga xos xususiyatlari ushbu shaxslar tuzadigan bitimlarning shartlariga va (yoki) natijalariga va (yoki) ushbu shaxslar faoliyatining iqtisodiy natijalariga yoki o‘zlarini vakil qilgan shaxslarning faoliyatiga ta‘sir ko‘rsatsa, ushbu qismda

ko'rsatilgan shaxslar soliq solish maqsadlarida o'zaro bog'liq bo'lgan shaxslar deb e'tirof etiladi;

tovar- tabiatning yoki inson faoliyatining (shu jumladan intellektual faoliyatning) qiymat bahosiga ega bo'lgan va realizatsiya qilish uchun mo'ljallangan har qanday predmeti;

xizmatlar- boshqa shaxslarning ehtiyojlarini qanoatlantirishga qaratilgan mahsulotlarni (moddiy yoki nomoddiy) ishlab chiqarishga doir tadbirkorlik faoliyatining turlari, shuningdek boshqa shaxslar uchun bajariladigan ishlar soliq solish maqsadida xizmatlar deb e'tirof etiladi;

tovarlar va xizmatlarni realizatsiya qilish -tovarlarga bo'lgan mulk huquqini haq olish asosida o'tkazish yoki haq evaziga xizmatlar ko'rsatish, shu jumladan qarzdor garov bilan ta'minlangan majburiyatlarini bajarmaganda garovga qo'yilgan tovarlarni ayirboshlash va o'tkazish tovarlarni yoki xizmatlarni realizatsiya qilish deb e'tirof etiladi;

maqsadli mablag'lar- soliq solish maqsadida soliq to'lovchi tomonidan maqsadli mablag'larning manbai bo'lgan shaxs tomonidan belgilangan yoki qonunchilikda belgilangan maqsadga ko'ra foydalanish uchun olingan mol-mulk maqsadli mablag'larga kiradi;

qimmatli qog'ozlar- qimmatli qog'ozlarga aksiyalar, obligatsiyalar, veksellar, depozit sertifikatlari, depozitar tilxatlar, opsiyonlar, fyuchers va forvard kontraktlari kiradi, shuningdek qonunchilikka yoki chet davlatning qo'llanilishi mumkin bo'lgan qonunchiligiga muvofiq qimmatli qog'ozlar deb e'tirof etiladigan boshqa qimmatli qog'ozlar kiradi;

soliq qarzi- Soliq kodeksi maqsadida hisoblab chiqarilgan (hisoblangan) va belgilangan muddatlarda to'lanmagan soliqlarning, shu jumladan ular bo'yicha bo'nak va joriy to'lovlarning summalari, shuningdek Soliq kodeksida belgilangan muddatda to'lanmagan moliyaviy sanksiyalar va penyalar soliq qarzi deb e'tirof etiladi;

soliq to'lovchining shaxsiy kabineti- O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasining rasmiy veb-saytiga joylashtirilgan axborot resursi soliq to'lovchining shaxsiy kabineti hisoblanadi;

jismoniy shaxsning yaqin qarindoshlari - uning ota-onasi, tug'ishgan va o'gay aka-ukalari va opa-singillari, eri (xotini), farzandlari, shu jumladan farzandlikka olinganlar, bobolari, buvilari, nevaralari, shuningdek erining (xotinining) ota-onasi;

ijara (lizing) to'lovi - ijaraga beruvchiga (lizing beruvchiga) tuzilgan ijara (lizing) shartnomasi asosida ijarachi (lizing oluvchi) tomonidan to'lanadigan summa;

ijaraga beruvchining (lizing beruvchining) foizdan olinadigan daromadi - moliyaviy ijara (lizing) obyektining ijara (lizing) to'lovi summasi va qiymati o'rtasidagi farq;

nazorat-kassa texnikasi - fiskal xotira bilan jihozlangan nazorat-kassa mashinalari, fiskal to'plagichlardagi fiskal ma'lumotlar yozib olinishi va saqlanishini ta'minlovchi, fiskal hujjatlarni shakllantiruvchi hamda ularning soliq organlariga fiskal ma'lumotlar operatori orqali topshirilishini, shuningdek fiskal hujjatlar nazorat-kassa texnikasini qo'llash to'g'risidagi qonunchilikda belgilangan talablarga muvofiq qog'ozda chop etilishini ta'minlovchi boshqa qurilmalar hamda dasturiy-texnik majmualar;

ortiqcha to'langan soliq summasi (penya, jarima) - soliqning (penyaning, jarimaning) to'langan summasi bilan haqiqatda to'lanishi lozim bo'lgan summasi o'rtasidagi ijobiy farq. Soliqning (penyaning, jarimaning) ortiqcha to'langan summasi u ilgari hisobga olingan va (yoki) soliq to'lovchiga qaytarilgan summalarni, shuningdek soliq bo'yicha kelgusi to'lovlar hisobiga o'tkaziladigan summalarni hisobga olgan holda uni hisob-kitob qilish sanasida aniqlanadi;

ortiqcha undirilgan soliq summasi - soliq organlarining g'ayriqonuniy hatti-harakatlari natijasida ortiqcha to'langan soliq summasi;

tan olingan soliq qarzi - soliq qarzini uzish to'g'risidagi talabnoma berilgan sanadan boshlab o'n kalendar kun ichida soliq to'lovchi tomonidan e'tiroz bildirilmagan qarz yoki sud qarori bilan tasdiqlangan qarz;

xatolik bilan to'langan soliq (penya, jarima) summasi - soliq (penya, jarima) summasini to'lagan shaxsni va (yoki) ushbu to'lovning maqsadini qat'iy aniqlash imkoniyatini bermaydigan to'lov chog'ida xatolikka yo'l qo'yilgan soliq (penya, jarima) summasi. Qaysi soliqqa (penyaga, jarimaga) nisbatan uni to'lagan shaxs soliq to'lovchi deb hisoblanmaydigan shaxsdan yoki to'lanishi lozim bo'lgan budjetdan boshqa budjetga kelib tushgan soliq (penya, jarima) summasi ham xatolik bilan to'langan deb e'tirof etiladi;

umidsiz qarz - sud qarori bilan majburiyatning bekor qilinishi tufayli yoxud bankrotlik, tugatish, qarzdorning vafoti yoki da'vo muddati tugashi sababli to'lanishi mumkin bo'lmagan qarz.

MAVZULARNI O‘ZLASHTIRISH UCHUN TEST SAVOLLARI

1. “Soliq nazariyasi va tarixi” fanining predmeti nimani o‘rgatadi?

A. Soliq to‘lovchilarning davlat budjeti bilan iqtisodiy munosabatlarga kirishish jarayonining o‘ziga xos xususiyatlari va qonuniyatlarini nazariy jihatlarini o‘rgatadi.

B. Soliq to‘lovchilar bilan davlat budjeti o‘rtasidagi ijtimoiy munosabatlarni o‘rgatadi.

C. Soliq to‘lovchilari bilan davlat budjeti o‘rtasidagi iqtisodiy va ijtimoiy munosabatlarni o‘rgatadi.

D. Soliq to‘lovchilar bilan davlat budjeti o‘rtasidagi munosabatlarni o‘rgatadi.

2. Soliq to‘lovchi bilan davlat o‘rtasidagi munosabatni chuqur o‘rganish ularning iqtisodiy manfaatini e‘tiborga olish, muvozanatni saqlash kabi munosabatlarni tashkil qilish.....anglatadi.

A. Fanning mohiyatini

B. Fanning predmetini

C. Fanning vazifasini

D. Fanning zarurligini

3. Soliq nazariyasi fanini o‘rganishning umumiy usullariga qaysi usullar kiradi?

A. Induksiya va deduksiya, ilmiy abstraksiya.

B. Dialektik, grafik, jadval.

C. Ilmiy izlanish, statistika.

D. Dialektik, taqqoslash.

4. “Soliq nazariyasi va tarixi” fanining vazifasi nimadan iborat?

A. Mutaxassis kadrlarni nazariy bilimlar bilan qurollantirish.

B. Muvozanatni saqlash kabi munosabatlarni tashkil qilishni anglatadi.

C. Fuqarolar bilan davlat o‘rtasidagi munosabatni o‘rganish.

D. Soliq to‘lovchi bilan davlat o‘rtasidagi iqtisodiy manfaatni e‘tiborga olish.

5. “Tahlil va sintez” tushunchasi bu.....

A. O'rganilayotgan obyektning qismlarga bo'lib o'rganish va umumiy xulosaga kelish.

B. O'rganilayotgan obyektning saralash.

C. O'rganilayotgan mavzuni rejalar asosida o'rganish.

D. "Jamlash" degan ma'noni anglatadi.

6. Soliqlarning dastlabki ko'rinishi qanday shaklda bo'lgan?

A. Natura

B. Natura, mol-mulk, pul.

C. Mol-mulk, hosil, pul.

D. Mol-mulk, pul.

7. Soliqlarning rivojlanish bosqichlari qaysi qatorda to'g'ri keltirilgan?

A. 3 bosqich: 1. qadimgi davr soliqlari; 2. 17-18 asr soliqlari; 3. 19-asr va hozirgi davr soliqlari.

B. 2 bosqich: 1. Eski davr soliqlari; 2. hozirgi davr soliqlari.

C. 5 bosqich: 1. qadimgi davr soliqlari; 2. Arab istilosi davridagi soliqlar; 3. A. Temur davridagi soliqlar; 4. Chor Rossiyasi davridagi soliqlar; 5. hozirgi davr soliqlari.

D. 3 bosqich: 1. 1991-1994 yillar; 2. 1995-1997 yillar; 3. 1997 yildan hozirgacha bo'lgan davr.

8. Arab istilosi davrida juzya(jon) solig'ini kimlar to'lagan?

A. Musulmon bo'lmagan fuqarolar.

B. Xotin-qizlar, keksalar.

C. Qullar, keksalar va kambag'allar.

D. Musulmonlar, savdogorlar hamda hunarmandlar.

9. Qaysi davrda "iqta" soliq yig'ishning asosiy manbaiga aylandi?

A. Qoraxoniylar davrida.

B. Somoniylar davrida.

C. Arablar istilosi davrida.

D. Mo'g'ullar istilosi davrida.

10. Amir Temur davrida dehqonchilikdan olinadigan asosiy soliq turlarini ko'rsating.

A. Xiroj va ushr.

B. Mol o'tloq va sarshumar.

C. Mol sardaraxt va mirobono.

D. Tang'a va qo'nalg'a.

11. "Soliq" tushunchasiga ta'rif bering.

A. Soliqlar - davlat va jamiyatning pul mablag'lariga bo'lgan ehtiyojini qondirish maqsadida qonun tomonidan belgilab qo'yilgan hajmda va o'rnatilgan muddatda jismoniy va huquqiy shaxslardan davlat ixtiyoriga majburiy ravishda undirib olinadigan to'lovlardir.

B. Soliq deganda davlat budjetiga undiriluvchi majburiy to'lov tushuniladi.

C. Yuridik shaxslar tomonidan budjetga undiriladigan majburiy to'lovlar tushuniladi.

D. Jismoniy shaxslar tomonidan budjetga to'lanadigan majburiy to'lovlar tushuniladi.

12. Soliqlarning iqtisodiy mohiyati nimada?

A. Soliqlar majburiy to'lovlarni ifoda etuvchi pul munosabatlari ekanligida.

B. Davlatning pul mablag'lariga bo'lgan ehtiyojini qondirishda.

C. Sohalar o'rtasida mutanosiblikni ta'minlashda.

D. Davlat moliyaviy resurslarini tashkil etishda.

13. Soliqlarning o'ziga xos belgilarini ko'rsating.

A. Majburiylik, davlat budjetiga tushishlilik, qat'iy va doimiylik, ekvivalensizlik

B. Foizlilik, qat'iy va doimiylik.

C. Ekvivalensizlik, muddatlilik.

D. Qat'iy va doimiylik, foizlilik.

14. Soliqlarning ekvivalensizlik belgisi deganda nimani tushunasiz?

A. Davlatga to'langan soliq summasi to'lovchining o'ziga to'liq qaytmaydi.

B. Soliqlar qat'iy belgilangan va doimiy harakatda bo'ladi.

C. Soliq to'lovchining bir qism daromadlari majburiy tarzda olinadi.

D. Soliqlar xazinaga davlat budjetiga tushadi.

15. Soliqlarning tartibga solish funksiyasi nimani anglatadi?

A. Davlat soliqlar orqali tovarlar, xizmatlarni ishlab chiqarish va sotishning iqtisodiy shart-sharoitini tartibga solishini.

B. Soliqlar yordamida davlatning moliya resurslarini tashkil qilishni.

C. Ishlab chiqarishni rivojlantirishga, moddiy xom ashyodan samarali foydalanishga ta'sir ko'rsatishini.

D. Soliqlar vositasida shakllangan daromadlar haqida axborot berishni.

16. Soliq bazasini hisoblashning qanday usullari mavjud?

A. Kassa usuli va hisobga olish usuli

B. Kadastrli usul.

C. Manbadan olish usuli.

D. Kassa usuli.

17. "Fiskal" so'zining ma'nosi nima?

A. Xazina.

B. Budjet.

C. Soliq.

D. Daromad.

18. Soliqqa tortishning qanday tamoyillari mavjud?

A. Adolatlilik, oddiylik va xolislik, soliq yig'ish jarayonini arzonlashtirish, etarlilik, boshqarishga qulaylilik, maqbullilik, tadbirkorlik va investitsiyani rag'batlantirish, stavkalarini qiyoslash.

B. Yetarlilik, tadbirkorlik va investitsiyalarni rag'batlantirish, soliq yig'ish jarayonini arzonlashtirish, me'yorlilik.

C. Oddiylik va xolislik, boshqarishga qulaylik, soliq stavkalarini qiyoslash, rag'batlantirish.

D. Tadbirkorlik va investitsiyalarni rag'batlantirish, boshqarishga qulaylik.

19. A. Smit tomonidan keltirilgan soliq tamoyillari qaysi qatorda keltirilgan?

A. Qulaylik, oddiylik.

B. Arzonlik.

C. Tadbirkorlik va investitsiyani rag'batlantirish.

D. Tenglik.

20. A.Smit soliqqa tortish tamoyillari qaysi kitobida asoslab bergan?

A. "Xalqlar boyligining sabablari va tabiatlari".

B. "Xalqlar boyligi omillari va shakllari".

C. "Xalqlar boyligini orttirish uslublari".

D. "Xalqlar boyligining kelib chiqish sabablari".

21. "Soliq to'lovchining haqligi prizumpsiyasi" tamoyili qaysi tamoyillar guruhiga mansub?

A. Soliq qonunchiligi tamoyillari.

B. A.Smit tamoyillari.

C. A.Temur tamoyillari.

D. Soliqlarning xarajatlardan oshib ketmasligi.

22. A.Smit, Amir Temur tamoyillarida keltirilgan aynan o'xshash tamoyilni aniqlang:

A. Yetarlilik.

B. Oshkoralik.

C. Aniqlilik.

D. Qonun hujjatlaring oshkoraligi.

23. Qaysi satrda soliq elementlari keltirilgan?

A. Soliq solish obykti, soliq solinadigan baza, stavka, hisoblab chiqarish tartibi, soliq davri, soliq hisobotini taqdim etish tartibi, to'lash tartibi.

B. To'langan soliq summasi.

C. Soliq turlari.

D. Soliq agenti.

24. Soliq sub'eki bu –

A. Soliq to'lash majburiyati yuklatilgan yuridik va jismoniy shaxslar.

B. Soliq obyektining soliq stavkasi qo'llaniladigan miqdori.

C. Soliq to'lovchining daromadi, oborot va mol-mulk.

D.Obyektning o'lchov birligi.

25. Soliq obykti qaysi javobda to'g'ri keltirilgan?

A.Soliq to'lovchining soliq hisoblanadigan daromadi, oboroti va mol-mulki.

B.Yuridik va jismoniy shaxslar.

C.Soliq to'lovchilarga soliqlar bo'yicha beriladigan imtiyozlar.

D.Soliq to'lovchining daromadi.

26. Soliq agenti qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

A.Yuridik va jismoniy shaxslardan soliqning ushlab va davlat budjetiga o'tkazib beruvchi shaxslar.

B.Soliq solinadigan daromad.

C.Soliq to'lovchining to'laydigan soliqlar manbai.

D.Yuridik va jismoniy shaxslar.

27. Soliq manbai bu –

A.Soliq to'lovchining daromadi.

B.Soliq to'lovchiga berilgan imtiyoz.

C.Soliq to'lovchining soliqqa tortish uchun asos bo'ladigan mol-mulki.

D.Soliq obyektining soliq stavkasi qo'llanadigan miqdori.

28. Soliq bazasi deganda –

A.Soliq obyektining soliq stavkasi qo'llaniladigan miqdori tushuniladi.

B.Obyektning o'lchov birligi tushuniladi.

C.Obyektning har bir birligi uchun davlat tomonidan belgilab qo'yilgan me'yor tushuniladi.

D.Soliq to'lovchining to'laydigan soliqlar manbai tushuniladi.

29. Soliq tortish birligi bu –

A.Obyektning o'lchov birligi.

B.Soliq obyektining soliq stavkasi qo'llaniladigan miqdori.

C.Obyektning har bir birligi uchun davlat tomonidan belgilab qo'yilgan me'yordir.

D.Soliq solinadigan oborot.

30. Soliq stavkasi nima?

A. Obyektning har bir birligi uchun davlat tomonidan belgilangan me'yor.
B. Sub'ektlar uchun davlat tomonidan belgilangan soliq undirish me'yor tushuniladi.

C. Soliq obyektining soliq stavkasi qo'llaniladigan miqdori tushuniladi.

D. Soliq solinadigan daromad.

31. Soliq yuki tushinchasiga izoh qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

A. Soliq to'lovchining muayyan vaqt oralig'ida to'lagan soliqlari yig'indisini jami daromadga nisbati.

B. Barcha fuqarolardan undirilgan soliqlar yig'indisi.

C. Soliq qonunchiligiga ko'ra xar bir soliq turi bo'yicha budjetga kelib tushgan daromad.

D. Yuridik shaxslarning to'lagan barcha soliqlari yig'indisi.

32. Soliq imtiyozlarining turlarini ko'rsating?

A. To'liq ozod etish, vaqtincha ozod etish, qisman ozod etish.

B. Butunlay va qisman ozod etish.

C. Yuridik shaxslarni soliqdan ozod etish.

D. Jismoniy shaxslarni soliqdan ozod etish.

33. Soliqni undirish usullari qaysi javobda to'g'ri berilgan?

A. Kadastrli, daromad manbaidan, daromad olgandan so'ng.

B. Deklaratsiya usuli.

C. Kadastrli va daromad manbaidan.

D. Deklaratsiya hamda kadastrli usuli.

34. Soliq stavkalari turlari qaysi javobda to'liq berilgan?

A. Proporsional, regressiv, progressiv va qat'iy.

B. Regressiv, progressiv va oshirilgan stavka.

C. Proporsional va regressiv.

D. Oraliq stavka va proporsional.

35. Soliq stavkasining ko'rinishiga ko'ra turlarini aniqlang?

A. Qat'iy, nisbiy.

B. Progressiv, regressiv, proporsional, nollik.

C. To'g'ri, proporsional.

D. Proporsional, nollik.

36. Soliq kodeksining qaysi moddasida Soliq to'lovchilarning huquqlari keltirilgan?

A. Amaldagi soliq kodeksining 21-moddasida.

B. Amaldagi soliq kodeksining 14-moddasida.

C. Amaldagi soliq kodeksining 32-moddasida.

D. Amaldagi soliq kodeksining 43-moddasida.

37. Amaldagi soliq kodeksining qaysi moddasida Soliq to'lovchilarning majburiyatlari keltirilgan?

A. Amaldagi soliq kodeksining 22-moddasida.

B. Amaldagi soliq kodeksining 34-moddasida.

C. Amaldagi soliq kodeksining 45-moddasida.

D. Amaldagi soliq kodeksining 56-moddasida.

38. Soliq majburiyatiga ta'rif bering?

A. Soliq to'lovchining soliq to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq yuzaga keladigan majburiyati soliq majburiyati deb e'tirof etiladi.

B. Soliq to'lovchining soliq to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq yuzaga keladigan huquqlari soliq majburiyati deb e'tirof etiladi.

C. Moliyaviy va soliq hisobotini tuzishi hamda uni davlat soliq xizmati organlariga taqdim etishi.

D. Vakolatli organlarning huquq va majburiyatlari soliq majburiyati deb e'tirof etiladi.

39. Soliq majburiyatini bajarish tartibi Soliq kodeksining qaysi moddasida keltirilgan?

A. Amaldagi soliq kodeksining 86-moddasida.

B. Amaldagi soliq kodeksining 47-moddasida.

C. Amaldagi soliq kodeksining 68-moddasida.

D. Amaldagi soliq kodeksining 59-moddasida.

40. Soliq majburiyatini bajarish muddatlari soliq kodeksining qaysi moddasida keltirilgan?

A. Amaldagi soliq kodeksining 86-moddasida.

B. Amaldagi soliq kodeksining 45-moddasida.

C. Amaldagi soliq kodeksining 19-moddasida.

D. Amaldagi soliq kodeksining 52-moddasida.

41. Soliq hisobotini taqdim etish tartibi soliq kodeksining qaysi moddasida keltirilgan?

A. Amaldagi soliq kodeksining 82-moddasida.

B. Amaldagi soliq kodeksining 31-moddasida.

C. Amaldagi soliq kodeksining 43-moddasida.

D. Amaldagi soliq kodeksining 65-moddasida.

42. Resurs soliqlariga.....lari kiradi.

A. yer solig'i, suv resurslardan foydalanganlik uchun soliq, yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq.

B. Mol-mulk solig'i, daromad solig'i, suv resurslardan foydalanganlik uchun soliq.

C. Mol-mulk solig'i, daromad solig'i.

D. Mol-mulk solig'i, suv resurslardan foydalanganlik uchun soliq.

43. O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Soliq kodeksi qachondan joriy qilingan?

A. 2020 yil 1 yanvardan.

B. 1998 yil 1 yanvardan.

C. 2008 yil 1 yanvardan.

D. 2010 yil 1 yanvardan.

44. Soliq to'lashning majburiyligi qaysi me'yoriy hujjatlarda belgilangan?

A. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Soliq Kodeksi.

B. Soliq Kodeksi, Prezident qarorlari

C. Hukumat qarorlari

D. Davlat soliq qo'mitasi buyruqlari

45. Mahalliy hokimiyat organlarining soliq qonunchiligiga muvofiq vakolatlari qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

A. Mahalliy soliqlar va yig'imlar bo'yicha soliq imtiyozlarini belgilash, soliq stavkalarining miqdorini Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilab qo'yilgan eng yuqori stavkalar doirasida belgilash.

B. Soliqlar va yig'imlar bo'yicha soliq stavkalarini o'zgartirish.

C. Hududida o'ndiriladigan soliqlar bo'yicha stavkalarni mustaqil o'zgartirish.

D. Soliqlar va yig'imlar bo'yicha soliq stavkalarini belgilash.

46. "Laffer egri chizig'i"ni amaliyotga qo'llagan iqtisodchi kim?

A. R. Reygan.

B. A. Laffer.

C. Fisher.

D. J. M. Keyns.

47. "Soliq stavkalarini o'zgartirish bevosita "ga ta'sir etadi.

A. Talab va taklifga.

B. Harajatga

C. Ta'limga

D. Faqat taklifga.

48. Soliq stavkasining qaysi turi, soliq yukini kamaytirish imkonini beradi?

A. Regressiv stavka.

B. Qat'iy stavka.

C. Progressiv stavka.

D. Proporsional stavka.

49. Davlat soliq xizmati organlarining huquqiy faoliyati qaysi me'yoriy hujjat bilan tartibga solinadi?

A. "Davlat soliq xizmati to'g'risida"gi qonuni bilan.

B. Soliq Kodeksi bilan.

C. "Davlat soliq inspeksiyalari huquqlari, vazifalari va ma'suliyati" to'g'risidagi qonun bilan.

D. Prezident qarori bilan.

50. Davlat soliq xizmati organlarining qarorlari, ular mansabdor shahslarining harakatlari ustidan shikoyat berish haqida qaysi me'yoriy hujjatlar keltirilgan?

- A. O'zbekiston Respublikasi soliq kodeksi.
- B. O'zbekiston Respublikasi mehnat kodeksi.
- C. O'zbekiston Respublikasi jinoyat kodeksi.
- D. O'zbekiston Respublikasi fuqarolik kodeksi.

51. Jismoniy shaxslarning soliqqa oid huquqbuzarliklar sodir etganlik uchun javobgarligi necha yoshdan boshlab vujudga keladi?

- A. o'n olti yoshdan.
- B. o'n besh yoshdan.
- C. o'n etti yoshdan.
- D. o'n sakkiz yoshdan

52. Soliq hisobotidagi ma'lumotlarning to'g'riligiga javobgar kim?

- A. soliq to'lovchi.
- B. jismoniy shaxslar.
- C. soliq to'lovchi yuridik shaxsning rahbari.
- D. soliq to'lovchi yuridik shaxs.

53. Soliq maslahatchisi bu.....

- A. malaka sertifikatiga ega bo'lgan jismoniy shaxs.
- B. malaka sertifikatini olgan etakchi soliq inspektori.
- C. korxonalar.
- D. malaka sertifikatini olgan yuridik shaxslar.

54. Nechanchi yilda "Davlat soliq xizmati to'g'risida"gi Qonun qabul qilingan.

- A. 1997 yil
- B. 1991 yil
- C. 1992 yil
- D. 1993 yil

55. "O'zbekiston Respublikasi hududida yagona soliq tizimi amal qiladi" bu misralar qaysi hujjatda qayd etilgan?

A. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida

B. Budget kodeksida.

C. Davlat soliq xizmati to'g'risida qonunida.

D. Mehnat kodeksida.

56. Ikki tomonlama soliq olmaslik to'g'risidagi bitimlar nima maqsadda tuziladi?

A. Ikki tomonlama soliqqa tortishni oldini olish maqsadida.

B. Soliqdan qochishni oldini olish maqsadida.

C. Qulay soliq muhitini yaratish maqsadida.

D. Soliq to'lovchilarga qulaylik yaratish maqsadida.

57. Ikki tomonlama soliqqa tortish deganda nimani tushunasiz?

A. Bir soliq to'lovchi daromadlari va mol-mulkini ikki davlat qonunchiligi bo'yicha soliqqa tortish.

B. Faqat daromad olingan davlatda soliqqa tortish.

C. Qaysi davlatda soliq stavkasi past bo'lsa, o'sha davlatda soliqqa tortish.

D. Fuqoroligi mavjud bo'lgan davlatga.

58. Da'vo qilishning umumiy muddatini aniqlang.

5 yil.

10 yil.

6 yil.

3 yil.

59. Agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida O'zbekiston Respublikasining soliq to'g'risidagi qonun hujjatlarida nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo'lsa ...

A. Xalqaro shartnoma qoidalari qo'llaniladi.

B. O'zbekiston Respublikasi qoidalari qo'llaniladi.

C. Qonunchilikda ko'rsatilgan qoidalar qo'llaniladi.

D. O'zbekiston Respublikasi qoidalari va xalqaro shartnoma qoidalari qo'llaniladi.

60. Soliq to'g'risidagi qonun hujjatlaridagi bartaraf etib bo'lmaydigan barcha qarama-qarshiliklar va noaniqliklar qaysi tomon foydasiga talqin qilinadi?

A. Soliq to'lovchining.

B. Davlatning.

C. Jismoniy shaxslarning.

D. Yuridik shaxslarning.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

O'zbekiston Respublikasining Normativ-huquqiy xujjatlari

Kodekslar va qonunlar

1. O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. Lex.uz. elektron varianti. 2021 yil.
2. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi. Lex.uz. elektron varianti. 2021 yil.
3. O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi. Lex.uz. elektron varianti. 2021 yil.
4. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi. Lex.uz. elektron varianti. 2021 yil.
5. O'zbekiston Respublikasining Qonuni. 2021 yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to'g'risida. O'RQ-657-son, 2020 yil 25 dekabr.
6. O'zbekiston Respublikasining Qonuni. «2021 yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonuni qabul qilinganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida. O'RQ-699-son, 2019 yil 30 dekabr.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmon va qarorlari

7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. Yashirin iqtisodiyotni qisqartirish va soliq organlari faoliyati samaradorligini oshirish bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida. PF-6098-son, 2020 yil 30 oktabr.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. O'zbekiston Respublikasining «2021 yil uchun O'zbekiston Respublikasining davlat budjeti to'g'risida»gi qonuni ijrosini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida. PQ-4938-son, 2019 yil 30 dekabr.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. Resurs soliqlari va mol-mulk solig'ini yanada takomillashtirish to'g'risida. PF-6121-son, 2020 yil 3 dekabr.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari

10. Vazirlar Mahkamasining Qarori. Yuridik shaxs tashkil etmasdan oilaviy tadbirkorlikni hamda hunarmandchilik faoliyatini rivojlantirish va kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida. 216-son, 2009 yil 29 iyul.
11. Vazirlar Mahkamasining Qarori. Xususiy tadbirkorlar yuridik shaxs tashkil etmasdan shug'ullanishi mumkin bo'lgan faoliyat turlari ro'yxatini tasdiqlash to'g'risida. 6-son, 2011 yil 7 yanvar.
12. Vazirlar Mahkamasining Qarori. Xususiy tadbirkorlar tomonidan xodimlarni yollagan holda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida. 219-son, 2015 yil 31 iyul.
13. Vazirlar Mahkamasining Qarori. Tadbirkorlik sub'ektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish tartibi to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining

«Tadbirkorlik sub'ektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish tizimini takomillashtirish to'g'risida» 2016 yil 28 oktabrdagi PQ-2646-son Qarorini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida. 66-son, 2017 yil 9 fevral.

14. Vazirlar Mahkamasining Qarori. Mahalliy budjetlarning daromadlar bazasini kengaytirish zaxiralarini aniqlash ishlarini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida. 445-son, 2017 yil 29 iyun.

15. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori. Soliq solish maqsadida jismoniy shaxslarga tegishli bo'lgan ko'chmas mulk obyektlarining, turar joy fondining kadastr qiymatini hisoblash tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida. 1043-son. 2017 yil 30 dekabr.

Boshqa normativ-huquqiy xujjatlar

16. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Davlat soliq qo'mitasining 2010 yil 24 martdagi 24, 2010-15-son qarori bilan tasdiqlangan «O'zbekiston Respublikasi oliy o'quv yurtlarida ta'lim olish uchun yo'naltiriladigan mablag'larga jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i bo'yicha imtiyozni qo'llash tartibi to'g'risidagi NIZOM». O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2010 yil 27 mayda 2107-son bilan ro'yxatga olingan.

17. O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasining 2018 yil 15 avgustdagi 2018-65-son qarori bilan tasdiqlangan «Ko'chmas mulk ijara shartnomalarini davlat soliq xizmati organlarida majburiy hisobga qo'yish tartibi to'g'risidagi Nizom». O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2018 yil 11 oktabrda ro'yxatdan o'tkazildi, ro'yxat raqami 3077.

18. O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasining Qarori. Soliq hisobotining shakllarini tasdiqlash to'g'risida. 2020-03-son, 2020 yil 28 yanvar. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2020 yil 24 fevralda ro'yxatdan o'tkazilgan, ro'yxat raqami 3221.

19. O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasining Qarori. «Soliq hisobotining shakllarini tasdiqlash to'g'risida»gi qarorga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida. 2021-20-son, 2021 yil 15 aprel. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2021 yil 6 mayda ro'yxatdan o'tkazilgan, ro'yxat raqami 3221-2.

Darslik va o'quv qo'llanmalar

20. Pasquale Pistone et al. Fundamentals of Taxation. An Introduction to Tax Policy, Tax Law and Tax Administration July 2019. Print book.

21. Coleman et al, New Zealand Taxation 2020: Principles, Cases and Questions, Thomson Reuters, Wellington NZ.

22. New Zealand Taxation 2020: Casebook, Thomson Reuters, Wellington, NZ.

23. Teoriya i istoriya nalogooblojeniya : uchebnik dlya akademicheskogo bakalavriata / D. G. Chernik, Yu. D. Shmelev ; pod red. D. G. Chernika. - M. : Izda-telstvo Yurayt, 2014. - 364 s. - Seriya : Bakalavr. Akademicheskij kurs.

24. Istoriya i teoriya nalogooblojeniya : ucheb. posobie / N G Leonova -

Xabarovsk : Izd-vo Tixookean gos un-ta, 2016 - 83 s.

25. William D. Popkin, Introduction to Taxation 6th Edition, Kindle Edition

26. Introduction to European Tax Law: Direct Taxation, Edited by Michael Lang.

27. Istoriya i teoriya nalogooblojeniya : ucheb. posobie / N G Leonova – Xabarovsk : Izd-vo Tixookean gos un-ta, 2016 – 83 s.

28. A. Jo‘rayev, G. Safarov, O. Meyliyev. Soliq nazariyasi. O‘quv qo‘llanma. T.: IQTISOD-MOLIYA. 2019.-370 b.

29. Internet saytlari: soliq.uz, mf.uz, stat.uz, lex.uz.

Sh.TOSHMATOV, A. G'YOSOV, S.GIYASOV

SOLIQ NAZARIYASI VA TARIXI

O'quv qo'llanma

Muharrir Sh. Bazarova

Badiiy muharrir K. Boyxo'jaev

Kompyuterda sahifalovchi Z. Ulug'bekova

Nashr list. AI¹ 305. Bosishga ruxsat etildi 10.08.2021.

Qog'oz bichimi 60x84 1/16. Shartli bosma tabog'i 18,4.

Hisob-nashr tabog'i 19,2. Adadi 200.

25-buyurtma.

«IQTISOD-MOLIYA» nashriyotida tayyorlandi.

100000, Toshkent, Amir Temur ko'chasi, 60a.

«HUMOYUNBEK-ISTIQLOL MO'JIZASI» MChJ

bosmaxonasida chop etildi.

100000, Toshkent, Amir Temur ko'chasi, 60a.